

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI
“SOTSIOLOGIYA”
fanidan
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi:	100000	-Gumanitar soha;
	200000	-Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	230000	-Iqtisod
	110 000	-Pedagogika
Mutaxassislik:	5230600	-Moliya
	5230700	-Bank ishi
	5230800	-Soliqlar va soliqqa tortish
	5230900	-Buxgalteriya hisobi va audit (real sektor bo'yicha)
	5231200	-Sug'urta ishi
	5230200	-Menejment (xizmatlar sohasi)
	5231500	-Baholash ishi
	5231300	-Pensiya ishi
	5111000	-Kasb ta'limi(5230600-Moliya)
	5111000	- Kasb ta'limi (5230700-Bank ishi)
	5111000	-Kasb ta'limi (5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)

Toshkent-2017

Ushbu O'quv Uslubiy Majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201_ yil "___" ___dagi "___"-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: M.Primov. – TMI, “Falsafa va O‘DJQNA” kafedrası mudiri
f.f.n.dots.

T.Safarova.– TMI, “Falsafa va O‘DJQNA” kafedrası
o‘qıtuvchısı

Taqrıızchılar: F.Parmanov – O‘zMU. “Sotsiologiya” kafedrası dotsenti
I.Qo‘ng‘ırov – TMI. “Falsafa va O‘DJQNA” kafedrası t.f.n.
dotsent

Fanning O'quv Uslubiy Majmuası kafedraning 201_ yil "___" ___dagi "___"-sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

M.Primov

Fanning O'quv Uslubiy Majmuası Moliya-iqtisod fakultetining Kengashi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan. (201_ yil "___" ___dagi "___"-sonli qaror)

Fakultet dekani

D.Rustamov

Kelishildi:

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i

U.Yakubov

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

I. Qo'ziyev

Fanning O'quv Uslubiy Majmuası institut o'quv-uslubiy Kengashining 201_ yil "___" ___dagi "___"-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

Fanning O'quv Uslubiy Majmuası institut Kengashining 201_ yil "___" ___dagi "___"-sonli majlisi bayoni bilan ma'qullangan.

MUNDARIJA

№	Kirish	4
1.0	O'quv materiallari	5
1.1	Sotsiologiya jamiyat haqidagi fan va o'quv fani sifatida	5
1.2	Sotsiologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi	19
1.3	Jamiyat dinamik tizim sifatida. Ijtimoiy stratifikatsiya	46
1.4	Shaxs sotsiologiyasi	74
1.5	Sohalar sotsiologiyasi. Iqtisodiy jarayonlar sotsiologiyasi	88
1.6	Ma'naviy hayot sotsiologiyasi	100
1.7	Deviant va delenkvent xulq atvor	127
1.8	Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi	143
1.9	Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari	149
1.10	Amaliy mashg'ulotlar materiallari	162
2.0	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	192
3.0	Glossariy	196
4.0	Ilovalar	
4.1	Fan dasturi;	
4.2	Ishchi fan dasturi;	
4.3	Tarqatma materiallar;	
4.4	Testlar;	
4.5	O'UMning elektron varianti.	

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida chuqur islohotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Bu islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri, bu ta'limning tub maqsadi va mohiyatining o'zgarib borishi, uning aholi talab-ehtiyojlarini qondirishga qaratilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlarning eng muhim tomonlaridan biri shundaki, ta'limning ijtimoiylashuvi va ta'lim tizimining insoniylashuvi (gumanizatsiyalashuvi)dan iborat bo'lib borayotganligidir. Bugungi kunda davlatimiz ta'lim tizimidagi professor-o'qituvchilar va talabalarni dunyoviy sotsial-gumanitar bilimlarni egallashga yo'naltirmoqda.

Sotsial-gumanitar bilimlarni egallash jarayonlarida muhim o'rinni sotsiologik ta'limotlar egallaydi. Sotsiologik ta'limning muhim funksiyalaridan biri – bu sotsial tafakkurni shakllantirish, sotsiologik muammolarni tushunish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash va bartaraf etish yo'llari va imkoniyatlarini qidirib topishdan ham iboratdir.

Sotsiologiya fanini umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan o'rganish, pirovard amaliy maqsadga erishish, ya'ni totalitar tartibotlar tizimini inkor etish va xalqchillik, adolat hamda keng jamoatchilik fikri, intilishi, maqsadlari asosida ijtimoiy faoliyat yuritish imkonini beradi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining rivojlanish imkoniyatlarini sotsiologiya fani doirasida tahlil qilish, o'rganish va olingan ilmiy-nazariy xulosalardan amaliyotda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

Sotsiologiya fani jamiyatda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilan cheklanmaydi, balki uning asl mohiyatini va mazmunini atroflicha ochib beradi. Shu jihatdan sotsiologiya fani ijtimoiy fanlar orasida o'zining aniq va konkretligi, zimmasidagi masalalarga beradigan ilmiy javoblari atroflicha asoslangan, qayta-qayta tekshirilganligi bilan ham qimmatlidir.

O'zbekistonning kelgusidagi ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini o'rganish ko'p jihatdan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va uning nazariy xulosalarini umumlashtirgan holda mamlakat ichki siyosatining yo'nalishini belgilashda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Shu tufayli respublikamizda sotsiologiya fanini yanada rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, barcha oliy o'quv yurtlarining turli mutaxassisliklari uchun o'rganilishi shart bo'lgan fan darajasiga qo'tarildi.

O'quv uslubiy majmua 230000- Moliya, 110 000 - Pedagogika ta'lim sohasidagi 5230600-Moliya, 5230700-Bank ishi, 5230800-Soliqlar va soliqqa tortish, 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (real sektor bo'yicha)), 5231200-Sug'urta ishi, 5230200-Menejment (xizmatlar sohasi), 5231500-Baholash ishi, 5231300-Pensiya ishi, 5111000-Kasb ta'limi (5230600-Moliya), **5111000-** Kasb ta'limi (5230700-Bank ishi), 5111000-Kasb ta'limi (5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)) yo'nalishi bazasida tayyorlanadigan mutaxassisligi talabalariga mo'ljallangan.

1. “Sotsiologiya” fani predmeti, ob’ekti, vazifalari va ijtimoiy fanlar tizimidagi o’rni

Reja:

1. Sotsiologiyaning mazmuni uning ob’ekti, predmeti, kategoriyalari.
2. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya.
3. Sotsiologik bilimning tarkibiy tuzilishi va funksiyalari.
4. Mamlakatda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni shrganishda sotsiologiya faning o’rni.

Mavzu bo’yicha tayanch so’z va iboralar: Fanning o’rganish ob’ekti, o’ziga xos predmeti, murakkab tarkibi, maqsad-vazifalari, jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etishdagi usullari, ularning va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi ob’ektiv o’rni va ahamiyati.

1. Sotsiologiyaning mazmuni uning ob’ekti, predmeti, kategoriyalari

Sotsiologiya – yaxlit tizim sifatidagi jamiyat va alohida ijtimoiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, jamiyat tuzilmalari va ularda yuz beradigan ijtimoiy jarayonlarni o’rganuvchi fandır. Ikki yarim ming yil mobaynida mutafakkirlar jamiyatni tahlil qilar va tavsiflar ekanlar, olingan bilimlarni sotsiologik bilimlar deb atamaganlar. Asrlar mobaynida to’plangan axborotni alohida fan tarmog’i sifatida ajratishga ehtiyoj bundan 150 yil muqaddam paydo bo’ldi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan bo’lgan uchrashuvda shunday degan edi: “Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o’zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi.”¹

Yuz yillik yil mobaynida sotsiologiya tushunchasining mazmuniga ta’rif berishga nisbatan ikki xil yondashuv kuzatiladi. **Birinchi yondashuv** tarafdorlari sotsiologiyaning maqsad va vazifalarini yaxlit ijtimoiy organizmni, ijtimoiy va ijtimoiy-madaniy tizimlarni o’rganish doirasida ta’riflaydilar. **Ikkinchi yondashuv** sotsiologiyani ommaviy ijtimoiy jarayonlar va ommaviy xulq-atvor haqidagi fan sifatida tushunishga asoslanadi. Boshqa ko’pgina fanlardan keyin paydo bo’lgan sotsiologiya ularning tushunchalari va aniq natijalari, statistikasi, jadvalga solingan ma’lumotlari, grafiklari va tushunchalarga oid sxemalari, nazariy kategoriyalarini o’z ichiga oladi.

Sotsiologiya fanining hozirgi holati uning mazmuniga ta’rif berishga nisbatan yangicha qarashlarni taqozo etadi. Bu yerda ham ikki xil yondashuv kuzatiladi:

1) sotsiologiya – bu **ijtimoiy birliklarning** shakllanishi, rivojlanishi va o’zgarishi hamda ularning o’z-o’zidan uyushish shakllari – ijtimoiy tizimlar, strukturalar va institutlar haqidagi fan;

2) sotsiologiya – bu yirik ijtimoiy guruhlarining vakillari sifatidagi **odamlar xulq-atvori**, shuningdek ijtimoiy munosabatlar, o’zaro aloqa mexanizmlari, ijtimoiy harakatlarning qonuniyatlari haqidagi fan.

Sotsiologiya o’z oldiga quyidagi vazifalarni qo’yadi:

- jamiyatni bir butun tizim sifatida o’rganish;
- jamiyatni ilmiy vositalar yordamida o’rganish;

¹ Ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili. (O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi) //”Ma’rifat” gazetasi. 2016 yil 31 dekabr. №104-son.

- ijtimoiy munosabatlarni o'rganish.

Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida kechroq paydo bo'lishi, boshqa fanlarga nisbatan yosh bo'lganligidan uning ob'yekti va sub'yekti muammosi hozirgi kunda ham eng dolzarb muammodir. Chunki bu masala sotsiologiyaning vazifasini aniqlab beradi. Hozirgi kunda, fandagi bo'linish (differensiya) jarayoni tugunlanmagan bir sharoitda shuningdek sotsiologiyaning faoliyat ko'lami aniq belgilanmagan bir vaqtda, uning ob'yekti va predmetini aniqlash qiyin masaladir. Mana shuning uchun hozirgi vaqtda ba'zi tadqiqotchilar sotsiologiyaning predmetini 100 dan ortiq ta'rifi borligini aytadilar. Bu masalani hal qilishning qiyin tomoni uning strukturasi (tuzilishi) murakkabligi va u inson bilimining turli darajasini o'z ichiga olishi, hamda turli nazariy metodologik prinsiplarga ega bo'lishidadir. Sotsiologiyaning tadqiqot ob'yektini eng umumiy jihatga bo'linishi — jamiyatning makro va mikro jarayonini tahlil qilishdan iboratdir. Demak sotsiologiyaning ob'yekti va predmeti muammosini hal qilishlik ana shu yuqoridagi jarayonlarni hisobga olib sotsiologiyaning o'ziga xos tomoni ko'rsatib berishdan iboratdir.

Sotsiologiyaning ob'yekti va predmetini tushunish uchun sotsiologiya klassiklari asarlariga suyangan holda hozirgi zamon fanining holatini va rivojlanish tendensiyalarini hisobga olish kerak. Biroq bu masalani hal qilishdan oldin ob'yekt va predmet tushunchasini ilmiy tahlil qilish kerak. Chunki ko'pincha bu tushunchalar aralashtirib ishlatiladi, har qanday fanning ob'yekti bu o'ziga xos reallik, alohida aloqalar, munosabatlar va hodisalar bo'lib, tadqiqot qilishlik jarayoni ana shularga qaratilgan bo'ladi.

Masalan, fizikaning ob'yekti tabiatdagi fizik jarayonidir.

Ximiyaning ob'yekti - tabiatning ximik elementlarini o'zaro munosabatidir.

Agarda tabiatshunoslik fanlarining tadqiqot ob'yektini aniqlash masalasi unchalik qiyinchilik tug'dirmasa, biroq sotsial fanlarning tadqiqot ob'yektini aniqlash ancha murakkabdir. Chunki ular jamiyatdagi turli munosabatlarni tekshiradilar. Ayniqsa jamiyatdagi ma'naviy faktorni tekshirish juda murakkabdir. Shunga qaramay sotsiologiya hamma sotsial voqelikni emas, balki boshqa fanlar tekshirmaydigan sotsial voqelikni aniqlab olishimiz kerak. SHu bilan birgalikda sotsiologiyada integral yo'nalishlar: huquq sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi va boshqa sohalar rivojlanyapti. Bu masalani hal qilish uchun yuqoridagi ushbu bilimlar orasida qanday umumiy munosabat bor degan savolga javob berish kerak.

Mamlakatimiz tadqiqotchilari orasida turli sotsial fanlarning ob'yektiga sotsiologiyaning ob'yektini qismi sifatida qarashlar mavjuddir. SHuning uchun mehnat sotsiologiyasi, turmush, oila sotsiologiyasi va boshqalarning ob'yektiga uning ob'yektini bir bo'lagi sifatida qaraladi.

Agar ob'yektga voqelikning qismi sifatida qaralsa, predmet esa o'sha fanning asosiy masalasi bo'lib namoyon bo'ladi va u fanning nazariy va amaliy masalalarni hal qiladi, ob'yektning ma'nosini, mazmunini ochib beradi. Predmet ob'yektga aynan emas.

Har qanday fanning predmeti faqat ob'yektiv hodisa va jarayonlarning o'zigina bo'lmasdan, balki uning nazariy jihatdan abstraktlashgan ifodasi bo'lib u o'rganilayotgan ob'yektni rivojlanish va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini ochib beradi va bular aynan shu fan uchungina xususiyatli hisoblanadilar.

Shuning uchun fanning alohida xususiyati uning predmetiga muvofiq belgilanadi, ob'yektni esa umumiy deb qabul qilish mumkin degan fikrlar bilan kelishib bo'lmaydi.

Voqelikning alohida bir qismi bo'lgan: mehnat, turmush, oila, tub ma'nodagi iqtisodning, psixologiyaning va sotsiologiyaning ob'yektlari emasdir. Fanning ob'yekti bo'lib faqat xususiy

qonuniyatlarga ega bo'lgan maxsus sohalargina mavjud bo'ladilar. Fanlarning ob'yektlari bir xil bo'lmaydi. Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan sohalar turli xil sotsial (fanlarning ob'yektlaridir. Psixologiyaning ob'yekti bevosita mehnat, turmush yoki oila emas, balki xissiy emotsional olam yoki huddi shu sohalarda kechayotgan psixik jarayonlardir. Iqtisodiy ob'yekti bu moddiy farovonlik, oilaning turmush darajasi, ya'ni turmush, oila munosabatlarining iqtisodiy aspektidir.

Demak fanlar o'rtasidagi farq nafaqat predmet sohasi bo'yicha, balki ob'yekt bo'yicha hamdir.

Sotsiologiya fanini rivojlanish jarayonida uning ob'yekti va predmeti ham o'zgarib takomillashib borayapti. Ob'yekt va predmet hamma vaqt bir-birlari bilan uzviy bog'liq. Chunki ob'yekt mohiyatini tushunish fandagi asosiy masalalarni belgilaydi. Mana shuning uchun sotsiologiya predmetini aniqlash masalasi uning ob'yektni aniqlash bilan bog'liqdir. Sotsiologiya yangi fan sifatida o'zining programmasini e'lon qilingan davridan boshlab hozirgi zamon darajasiga qadar shunday katta yo'lni bosib o'tdi. Hozirgi kunda sotsiologiya turli sohalarni sistemalashtirilgan bilim sifatida turli xil nazariy konsepsiyalar, metodologik prinsiplar ishlab chiqish shu bilan birga muhim ahamiyatga ega bo'lgan konkret sotsiologik tadqiqot o'tkazish imkoniyatiga ham ega bo'lgan fandır.

Sotsiologiya taraqqiyotining har bir bosqichida o'zining ilmiy darajasini hisobga olib, jamiyat taraqqiyotida o'z o'rnini va ahamiyatini chuqurroq o'ylab, o'z ob'yekt va predmeti mohiyatini tushunishni takomillashtirib bermoqda.

Demak sotsiologiyada ob'yektni masalasini tushunish quyidagilardan iborat:

Fanning differensiallashuv jarayoni, shu jumladan sotsiologiyaning alohida bir bilimlar sistemasi ekanligi tugallanmagan. Shuning uchun sotsiologiyaning ob'yekti va predmetiga berilgan ta'rif to'liq va qat'iy bo'lmaydi. Sotsiologiya strukturasi murakkabligi bu muammoni hozirgi zamon bilimlari darajasining turli ko'lami, turli xil ziddiyatli konsepsiyalar, empirik tadqiqotlarni o'ziga xosligini nazarga tutishlik talab qiladi. Sotsiologiyaning ob'yektni va predmetini aniqlash hozirgi zamon fanining murakkab tuzilishini aks ettirish kerak. Sotsiologiyaning ob'yekti va predmeti birdir, biroq turlicha yondoshish, turli aspektida analiz qilish bilan farq qilinadi.

Yuqorida aytganimiz kabi sotsiologiyada eng umumiy tadqiqot makro va mikro sotsiologiya nuqtai nazaridandir. Sotsiologiyaning ob'yekti va predmetini hal qilish ilmiy-nazariy ahamiyatgagina ega bo'lmasdan, balki bilish ahamiyatga ham egadir. Bu masalani hal qilish sotsiologiyani fan sifatidagi vazifasi maqsadi, bilimlar sistemasidagi tutgan o'rnini, jamiyatdagi ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek sotsiologiyani o'rganadigan ko'lami (doirasi) qaysi masalalarni hal qilishi, uning funksiyalarini qanday ochib berish kerakligi, hamda sotsial masalalarni hal qilishi nimadan iborat ekanligi ham uning ob'yekt va predmetini aniqlashlik BILAN BOG'liq. Demak, ob'yekt va predmet masalasi sotsiologiyada asosiy nazariy masaladir.

Hozirgi zamon sotsiologiyasining predmeti – uzoq tarixiy rivojlanish jarayonining natijasi, olimlar ko'p sonli avlodlarining sa'y-harakatlari mahsulidir. Ularning har biri umumiy bilimlar majmuiga o'z hissasini qo'shgan, mavjud tasavvurlarni qayta ko'rgan, tanqid qilgan, bahs-munozaraga kirishgan, bugungi kunda sotsiologiya fanining predmetini tashkil qiluvchi barcha narsalar va hodisalarni kashf etgan, tekshirgan va sinchiklab tahlil qilgan. Sotsiologiya predmetining negizini ikki tushuncha – **maqom va rol** tashkil etadi. Birinchi tushuncha predmetni statik jihatdan, ikkinchi tushuncha esa – dinamik jihatdan tavsiflaydi. Insonning guruh yoki jamiyatdagi o'rnini, mavqei maqom deb ataladi. Kichik guruhda, masalan, do'stlar davrasida lider yoki autsayder bo'lish norasmiy yoki shaxsiy maqomga ega bo'lishni anglatadi. Muhandis, erkak, er, o'zbek, musulmon, biznesmen bo'lish rasmiy (ijtimoiy) maqomga ega bo'lish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, bu ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida muayyan o'ringa ega bo'lishni anglatadi. Maqom rol' orqali amalga oshiriladi. Masalan, er bo'lish "er" maqomiga ega bo'lish va er rolini amalda bajarishni anglatadi. Har qanday maqom odatda jamiyat mazkur

pozitsiyaga biriktiradigan huquqlar va burchlar majmuidan tarkib topadi. O'qituvchi o'quvchilarga bilim berishga, ularning davomatini baholashga, intizomni kuzatib borishga, ya'ni muayyan rolni bajarishga majbur.

Mazkur maqomga biriktirilgan rasmiy huquqlar va burchlarga muvofiq keladigan xulq-atvor modeli rol' deb ataladi. Ayni bir burchlar yoki vazifalar turlicha bajarilishi mumkin, binobarin, ayni bir maqomning ko'p sonli rollari mavjud bo'lishi mumkin. Ayni bir inson bir qancha maqomga va shuncha rolga ega bo'lishi mumkin. Rol' – maqomning dinamik ko'rsatkichi. Maqom bo'sh bo'lishi mumkin, biroq rol' bo'sh bo'lishi mumkin emas.

Bo'sh, ya'ni kishilar bilan to'ldirilmagan maqomlar majmui jamiyatning ijtimoiy strukturasini hosil qiladi. Jamiyatning ijtimoiy strukturasiga "ijtimoiy guruhlar" va "ijtimoiy institutlar" kabi kategoriyalar bilan ataladigan tuzilmalar ham kiradi. Hozirgi jamiyatda kasbiy maqomlar va guruhlarining o'zi 40000 taga yaqin, oila-nikoh-qarindoshlik maqomlari va guruhlari esa 200 dan ortiq, siyosiy, diniy, iqtisodiy maqomlar va guruhlar ham bir necha yuztani tashkil qiladi. Sayyoramizda yashaydigan odamlar 3000 tilda gaplashadilar, har bir til ortida etnik guruh – millat, xalq, elat, qabila turadi. Ular yosh va jins belgilari bilan bir qatorda demografik tizimga kiradi.

Xulosalar: sotsiologiya predmetining negizlari – maqomlar va rollar jamiyatning statik va dinamik manzarasini yaratishga xizmat qiladi. Maqomlar majmui jamiyatning ijtimoiy strukturasini haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Mazkur jamiyatda individlarning ijtimoiy o'zaro aloqasi va ijtimoiylashuvi (jamiyat madaniyatini o'zlashtirishi) yuz beradi.

Ijtimoiy maqomlar ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lsa, shaxsiy maqomlar shaxslararo munosabatlar bilan bog'liqdir. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning ulkan tarmog'i amal qiladi, uning ostida, pastki qavatda esa shaxslararo munosabatlar tarmog'i joylashgan.

Sotsiologiya uchun odamlar qanday shaxsiy munosabatlarga kirishayotganlari emas, balki ularning zamiridagi fundamental hodisa – ijtimoiy munosabatlar muhimdir. SHifoxonada bo'lim mudiri shifokorga katta simpatiya bilan qarashi mumkin. Ularning o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar a'lo darajada. Biroq shifokor o'z kasbiy vazifasini lozim darajada bajarmasa, o'z maqomi bilan muvofiq kelmasa, uni ishdan bo'shatadilar. Boshliq va bo'ysinuvchi – ijtimoiy rollar. Funksiyalar va munosabatlar, xuddi sement va qum yanglig', ijtimoiy strukturani mustahkamlovchi qorishmani tayyorlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy rollarni bajaruvchi individlar bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar. Bu muntazam, takrorlanuvchi jarayondir. Faqat muntazam takrorlanadigan ijtimoiy o'zaro aloqalargina ijtimoiy munosabatlarga aylanadi. Biz umr bo'yi ijtimoiy rollarni bajarishni, belgilangan me'yorlar va majburiyatlarga rioya qilishni o'rganamiz. Umr bo'yi davom etadigan bu ta'lim jarayoni **ijtimoiylashuv** deb ataladi. Madaniyatning vorisiyligiga ijtimoiylashuv orqali erishiladi. Uning natijasi o'laroq ijtimoiy yetuk shaxs paydo bo'ladi. **Madaniyat** – hozirda yashayotgan kishilar xulq-atvorini tartibga soladigan va ertangi kun odamlariga qoldiriladigan an'analar, odatlar, ijtimoiy me'yorlar va qoidalar majmui. Ijtimoiylashuv jarayoni alohida mexanizm – ijtimoiy nazorat ostida yuz beradi. Nazorat bilan butun jamiyat qamrab olinadi, u amalda ko'p sonli shakl-shamoyil kasb etadi (jamoatchilik fikri, senzura, siyosiy nazorat va sh.k.), biroq atigi ikki element – ijtimoiy normalar (nima qilish kerakligi haqida amrlar) va sanksiyalar (amrlarga rioya etilishini rag'batlantiruvchi mukofotlar va jazolar)dan tarkib topadi. Ijtimoiy nazorat – individlar va guruhlar xulq-atvorini tartibga solish vositasi. U normalar va sanksiyalarni o'z ichiga oladi. Jamiyatda qonunlar va normalar bo'lmasa, tartibsizlik yoki

anomiya qaror topadi. Ayrim shaxs normalardan chetga chiqsa yoki ularni buzsa, bu deviant xulq-atvor deb ataladi.

Bo'sh bo'g'inlar – maqomlarni odamlar bilan to'ldirsak, har bir bo'g'inda bitta yirik ijtimoiy guruh hosil bo'ladi: barcha pensionerlar, barcha o'zbeklar, barcha ruslar, barcha o'qituvchilar, barcha shifokorlar, barcha muhandislar va h.k. Shunday qilib, maqomlar ortida ijtimoiy guruhlar turadi. Yirik ijtimoiy guruhlar (ularni ba'zan statistik yoki ijtimoiy kategoriyalar deb ham ataydilar) majmui aholi ijtimoiy tarkibi deb ataladi.

Har bir insonning muayyan ehtiyojlari bo'ladi. Eng muhim yoki asosiy ehtiyojlar hammada bir xil, ikkinchi darajali ehtiyojlar esa turlichadir. Asosiy ehtiyojlar universal, ya'ni butun aholiga xos, binobarin, butun jamiyatni tavsiflaydi. Jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan muassasalar ijtimoiy institutlar deb ataladi. Oila, ishlab chiqarish, din, maorif, davlat kishilik jamiyatining qadim zamonlarda vujudga kelgan va hanuzgacha mavjud bo'lgan asosiy institutlaridir.

Davrning har bir muddatida muayyan bir institut kishilar va ijtimoiy tashkilotlar majmuini o'zida ifodalaydi. Maktablar, kollejlari, oliy o'quv yurtlari, turli kurslar, shuningdek ta'lim vazirligi va uning devoni, ilmiy-tekshirish institutlari, jurnallar va gazetalarning tahririyatlari, bosmaxonalar hamda pedagogika bilan bog'liq bo'lgan boshqa muassasalar ta'lim ijtimoiy institutini tashkil qiladi. Asosiy yoki umumiy institutlar esa ikkinchi darajali yoki ayrim institutlar to'plamidan tarkib topadi. Ularni ijtimoiy amaliyotlar deb ataydilar. Masalan, davlat institutiga prezidentlik instituti, parlamentarizm instituti, armiya, sud, advokatura, politsiya, prokuratura va hokazolar kiradi. Din, ishlab chiqarish, oila, ta'lim institutlarida ham shunga o'xshash holatni kuzatish mumkin.

Ijtimoiy institutlar majmui jamiyat ijtimoiy tizimi deb ataladi. U ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy o'zaro aloqalar, ijtimoiy rollar bilan, bir so'z bilan aytganda, harakat qiladigan, ishlaydigan barcha sub'yektlar bilan bog'liq.

Sotsiologiya haqida xulosa: maqomlar, rollar, ijtimoiy guruhlar o'z-o'zicha mavjud bo'lmaydi, balki jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida shakllanadi. Mazkur ehtiyojlarni qondirish vositalari sifatida ijtimoiy institutlar amal qiladi. Ular ham asosiy (oilalar, ishlab chiqarish, davlat, ta'lim, din) va ikkinchi darajali (ular ko'p sonli bo'lib, ijtimoiy amaliyotlar deb ham ataladi) bo'ladi.

Biz yuqorida sotsiologik tushunchalar yordamida tavsiflangan jamiyat haqida yaxlit tasavvur hosil qildik. Bu manzara amalda statik va dinamik jihatlar bilan tavsiflanadi. Maqom va rol' mazkur ijtimoiy tizimning negizlaridir. Ular ham ikki yoqlama xususiyatga ega. Manzara mukammal bo'lishi uchun unga ikki muhim tushunchalar – ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy mobillikni kiritish zarur.

Ijtimoiy stratifikatsiya – ijtimoiy tengsizlik mezoniga ko'ra darajalashtirilgan va stratalar deb ataladigan yirik ijtimoiy guruhlar majmui. Bir stratadan boshqa, teng darajali strataga (masalan, haydovchilardan traktorчилarga) yoki teng bo'lmagan strataga (aytaylik, kambag'allardan boylarga) o'tish ijtimoiy mobillik tushunchasi bilan tavsiflanadi.

Sotsiologiya ob'yekti – ijtimoiy voqelik bo'lib, u jamiyatning barqarorlik darajasini oshirish uchun ijtimoiy metodlar yordamida o'rganiladi. **Predmet** – ijtimoiy voqelikni o'rganish rakursi (u, masalan, amaldagi rollar va maqomlar, guruhlar va institutlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniyat tiplari nuqtai nazaridan o'rganilishi mumkin).

2. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya

Har qanday fan kabi, sotsiologiya ham o'z predmeti va tadqiqot metodlariga ega. U ilmiy bilimlar umumiy tizimiga kiritilgan va unda muayyan o'rinni egallaydi. Sotsiologiya jamiyat bilan bir qatorda, uning ayrim qismlari, sohalari va elementlarini o'rganuvchi fanlar qatoriga kiradi. Dunyodagi eng murakkab tuzilma – kishilik jamiyatini to'laqonli o'rganish, uni ziddiyatlarsiz tavsiflash boshqa fanlarning resurslarini jalb qilishni, ularning kuch-g'ayratini birlashtirishni taqozo etadi. Ayni bir ob'yektni, ayniqsa yirik ob'yekt – jamiyatni o'rganuvchi fanlar mantiqiy aloqalar, umumiy tushunchalar va metodlar bilan o'zaro bog'lanadi va fanlararo matritsa deb nomlash mumkin bo'lgan muayyan tizimni tashkil qiladi.

Sotsiologik bilimning fanlararo matritsasi deganda sotsiologiya bilan turdosh bo'lgan fanlar majmui, ularning o'zaro aloqasi, bir-biriga ta'siri va integratsiyasi tushuniladi.

Sotsiologiya yirik bloklar bilan fikrlaydi, u ulkan odamlar ommasi xulq-atvorini tavsiflashga qodir, shu tufayli ham u ko'proq statistikaga tayanadi. Biroq insonning ichki dunyosiga yo'l sotsiologiya uchun berk. Uni psixologiya o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya insonni uni qurshagan muhitga bog'lab o'rganadi, kichik guruhdagi kishilarning o'zaro aloqalarini tadqiq etadi.

Kishilarning tor sohadagi (masalan, siyosiy yoki iqtisodiy sohadagi) xulq-atvorini emas, balki umumiy xulq-atvorini o'rganuvchi uch fan – bu psixologiya, ijtimoiy psixologiya va sotsiologiyadir. Predmetlarini talabalar ko'pincha adashtiradigan bu uch o'xshash fan o'rtasidagi farqni quyidagicha ifodalash mumkin. Psixologiya individni va uning ichki dunyosini o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya kichik guruhlar (oilalar, do'stlar davrasi, sport jamoasi)ni, sotsiologiya esa – yirik guruhlarini, ya'ni millionlab kishilar – pensionerlar, bolalar, kam ta'minlanganlar, shifokorlar, muhandislar va hokazolarni ularning ijtimoiy mansubligi, kasb-kori, millati, jinsi va yoshidan qat'i nazar tadqiq etadi.

Sotsiologiya ulkan odamlar ommasi bilan ish ko'radi, ularning fikrini so'rovnomalar yordamida o'rganadi. Sotsiologiya olgan ma'lumotlar statistik ma'lumotlar deb ataladi va faqat o'rtacha ko'rsatkichlarni chiqarish uchun yaraydi. SHu tufayli ham, psixologdan farqli ravishda, sotsiolog konkret inson bilan emas, balki o'rtacha inson, aniqroq aytganda, uning umumiy portreti bilan ish ko'radi. Tijoratchi ham, siyosatchi ham o'z ishi yoki saylov kompaniyasini boshlar ekan, eng avvalo ommaning ehtiyojlarini, uning o'y-xayollari va kayfiyatini o'rganadi. Sotsiologiya odamlar fikrini, ularning tuyg'ulari va kayfiyatini o'rganishga psixologiyaga qaraganda dag'alroq yondashadi. Sotsiologiya bizdan qat'i nazar mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya bizga bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik munosabatlarni, aniqroq aytganda – bizning ular haqidagi tasavvurimiz va ularga bo'lgan munosabatimizni tadqiq etadi. Umuman olganda psixologiya munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri o'rganmaydi, balki ulardan insonning ichki dunyosini yaxshiroq tahlil qilish uchun foydalanadi. Ijtimoiy psixologiya tadqiq etuvchi muammolar majmuida urg'u so'nggi yillarda individdan guruhga, individual-psixologik xulq-atvordan ijtimoiy-psixologik xulq-atvorga ko'chayotir. XX asrning 30–40-yillarida ayrim insonga guruh ta'siri fenomeni tajriba yo'li bilan aniqlandi. Ijtimoiy psixologiya eksperimental fan sifatida 30-yillardan boshlab faol rivojlanayotgan bo'lsa-da, uning nazariy qoidalari XIX asrda ta'riflangan. Sotsiologiya asoschilari E.Dyurkgeym, G.Zimmel, G.Tard va M.Veber guruhga kishilarning o'zaro aloqalari jarayoni sifatida qaraganlar².

² Ijtimoiy psixologiya AQSHda ayniqsa keng rivojlangan. Bu yerda mazkur fandan birinchi darslik – Mak-Dougallning "Ijtimoiy psixologiyaga qirish" kitobi 1908 yilda nashr etilgan.

SHunday qilib, sotsiologiyaning mustaqil fan sifatidagi xususiyati va o'ziga xos jihatlari quyidagi *prinsipial masalalar* bilan belgilanadi:

- jamiyat (uning strukturasi va institutlari) odamlar xulq-atvoriga qay yo'nalishda va qay tarzda ta'sir ko'rsatadi va ularni belgilaydi;
- odamlar o'rtasida so'rov o'tkazish yo'li bilan muayyan guruhning tipik vakili ijtimoiy portretini olish uchun nima qilish kerak.

Psixolog o'z ob'yektini o'rtacha holatga keltirmaydi va uning tipik ko'rinishini aniqlamaydi. Aksincha, u insonning individual strukturasi aniqlaydi, uning o'ziga xos jihatlari izlaydi va ayrim individ bilan ishlar ekan, unga shaxs sifatida yondashadi.

Ikkinchi jihat sotsiologiyada qo'llaniladigan metodlarga va ularning xususiyatlariga ishora qiladi. Sotsiolog uchun inson kerakli axborot manbai – respondentga aylanadi. Sotsiolog 100 yoki 1000 respondentdan jins, yosh, ma'lumot, elektoral xulq-atvor, qadriyatlar va mo'ljallar haqida to'liq axborot olgach, ularni unutadi. Ular statistik qatorlar, jadvallar va grafiklarga singib ketadi. Sotsiolog qarshisida konkret odamlar o'rnida umumiy obraz – “o'rtacha odam” gavdalanadi. Bu tipik talaba, konservativ qarashlar tarafdori, dindor yoki biznesmen bo'lishi mumkin.

Sotsiologiya o'z tadqiqotlarida jamiyatning barcha jihatlari umumlashtiradi. U siyosiy jarayonlarning teran qatlamlariga nazar tashlamaydi yoki rental munosabatlarining tafsilotlarini aniqlamaydi. Sotsiologiya psixologik muammolar, bozor munosabatlari, davlat, madaniyatni o'z-o'zicha, mazkur fanlar mutaxassisi ularni qanday tavsiflagan bo'lsa, shunday emas, balki boshqacha nuqtai nazardan o'rganadi. Voqelikning har bir parchasi, har bir hodisa yoki element faqat uning jamiyat bilan o'zaro aloqasi, jamiyat rivojiga u qo'shgan hissa, uning ijtimoiy funksiyalari nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Sotsiologiya uchun din e'tiqodlar va urf-odatlar tizimi sifatida emas, balki odamlar ommasiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy institut sifatida muhimdir. Madaniyatga ham sotsiologiya alohida nuqtai nazardan – odamlar ommasining turmush tarzi sifatida yondashadi. SHu tariqa asosiy ibora – odamlar ommasi paydo bo'ladi. Ayni shu omma jamiyatning kundalik hayotini belgilaydi. Demak, sotsiologiyani jamiyat strukturasi va dinamikasiga emas, balki odamlar ommasining kundalik xulq-atvori, ularning e'tiqodlari, mentaliteti, qadriyatlari, nuqtai nazarlari, o'zaro munosabatlari ham qiziqtiradi.

Sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, iqtisod, siyosatshunoslik, shuningdek antropologiya va etnografiya **ijtimoiy fanlarga** kiradi. Ularning o'xshash jihatlari ko'p, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq va o'ziga xos ilmiy ittifoqni tashkil qiladi.

Gumanitar fanlarga tarix, falsafa, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va madaniyatshunoslikni kiritadilar. Bu fanlar noizchil modellar, nisbiy xulosalar va sifatli metodlar bilan, ijtimoiy fanlar esa – formallashtirilgan modellar, matematik apparat bilan ish ko'radi va miqdoriy yoki kvantifikatsiyalangan bilimga tayanadi. Odamlarning jamiyatdagi xulq-atvorini empirik metodlar va matematik apparat yordamida o'rganuvchi fan ijtimoiy fan deb ataladi.

Sotsiologiyaning **iqtisodiyot fanlari** kabi aloqadorligi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol jarayonlarini o'rganishda ko'rinadi. Iqtisodiyot sotsiologiyasi iqtisodiy ta'sirni ijtimoiy ta'sir shakli sifatida o'rganadi. Iqtisodiyot sotsiologiyasi iqtisodiyot fanlari bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida bo'ladigan munosabatlarni o'rganadi. Iqtisodiy nazariyaning ilmiy g'oyalari iqtisodiy sotsiologiya uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiologiya fanining **falsafa** fani bilan uzviyligi. Falsafaning qonun va kategoriyalari bevosita umumsotsiologik nazariya va konsepsiyalarni o'z ichiga oladi, hamda sotsiologik nazariyalar uchun nazariy va metodologik asos bo'ladi. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi o'z navbatida muayyan davrdagi ijtimoiy fikrlarni shakllantiradi, unga nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Sotsiologik tadqiqotlar empirik ma'lumotlar yordamida ijtimoiy taraqqiyotni chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Psixologiya ham sotsiologiya kabi inson faoliyatini o'rganadi, faqat psixologiya ayrim individ faoliyatiga e'tibor beradi. Sotsial psixologiya esa ham sotsiologiya, ham psixologiyaning bir qismi sifatida individning guruhdagi faoliyatini o'rganadi. Uning markaziy tushunchasi bo'lgan "Men" inson guruhining ijtimoiylashgan shaxsini anglatadi.

Sotsiologiya va **tarix** fanlari jamiyat hayotini tadqiq etishga izchil yondoshadi. Tarixchi faqat ishonarli ma'lumotlarni tanlar ekan, u o'tmish xulq-atvor va nog'ib voqealar bilan ish ko'radi. Tarixiy faktlarni to'plashda tarixchi sotsiologiya usullaridan ham keng foydalanadi.

Gumanitar bilimlar (falsafa, fanshunoslik, tilshunoslik, san'at) faktlarga bu darajada tayanmaydi, empirik metodlarni kamroq qo'llaydi. Ularda matematik apparat va statistika yo'q. Umumiy empirik ma'lumotlar o'rniga ular sub'yektiv baholar va nisbiy mulohazalardan foydalanadi. Ijtimoiy fanlar esa, aksincha, ob'yektiv, ya'ni haqiqiylikni faktlar bilan tasdiqlash mumkin bo'lgan mulohazalar bilan ish ko'radi. Ijtimoiy va gumanitar fanlarni ajratishning boshqa bir mezon gumanitar fanlar uchun ma'naviyat, madaniyat va qadriyatlar dunyosini bilish birinchi darajali ahamiyat kasb etishidan kelib chiqadi. Sotsiologiyaning falsafa, tarix va madaniyatshunoslik bilan o'xshash jihatlari ko'p. Sotsiologiya qo'sh maqomli fanlar qatoriga kiritilishi lozim: u ijtimoiy va gumanitar fanlarga mansubdir. Qo'sh maqom sotsiologiyaning mohiyati va predmeti haqidagi tasavvurda aks etadi. U yirik ijtimoiy guruhlarning vakillari sifatidagi odamlar xulq-atvori, jamiyat ijtimoiy strukturasi va unga kiruvchi ijtimoiy institutlar faoliyatining ob'yektiv qonunlari haqidagi fandir. Bundan tashqari sotsiologiya insonning ijtimoiy-madaniy mohiyatini o'rganadi. Bu sotsiolog uchun inson xulq-atvori biologiya yoki psixologiyadagi kabi tabiiy genetika va fiziologiya bilan emas, balki madaniy kontekst, ya'ni an'analar, odatlar, madaniy me'yorlar va simvollar, qadriyatlar va ideallar bilan belgilanishini anglatadi.

Shunday qilib, sotsiologiya – bu gumanitar bilimlar va ijtimoiy fanlar chorrahasidir. U ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida markaziy o'rinni egallaydi va mazkur fanlarning barchasiga nisbatan integrativ (birlashtiruvchi) funksiyani bajaradi.

Boshqacha qilib aytganda, sotsiologiya mazkur fanlar uchun falsafa funksiyasini bajaradi, zero ularga jamiyat strukturasi va uning rivojlanish qonunlari haqida bilim beradi.

3. Sotsiologik bilimning tarkibiy tuzilishi va funksiyalari

Sotsiologiya ko'p sonli tadqiqot sohalariga – sotsiologlarning qiziqishlari sohalariga bo'linadi (masalan, o'smirlar jinoyatchiligini o'rganish va h.k.).

XX asrda sotsiologiya doirasida mehnat sotsiologiyasi va shahar sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi va din sotsiologiyasi kabi tarmoqlar ajratildi. Yangi sohalarining tashkil topish jarayoni umumiy nazariya bilan boshqarilsa, ayni muddao bo'lur edi, biroq bunday umum e'tirof etilgan nazariya sotsiologiyada mavjud emas.

Sotsiologiya sohalarining birinchi tasnifini O.Kont taklif qilgan. U sotsiologiyani "ijtimoiy statika" va "ijtimoiy dinamika"ga ajratgan. Bu tasnif uzoq yillar mobaynida amal qilgan. Undan E.Spenser va Lester F. Uord (1883) foydalanganlar.

Navbatdagi bosqich sotsiologiyaning AQSHda akademik fan sifatida paydo bo'lishi bilan bog'liq. Tasniflashning yangicha prinsipi sotsiologiyani o'quv jarayonini tashkil etish vositasi sifatida ko'p sonli sohalarga ajratishni nazarda tutar edi. Sotsiologiyada sohalarni ajratish va tadqiq etish g'oyasini E.Dyurkgeym ilgari suradi. Umumiy sotsiologiya quyidagi sohalarga ajratiladi: din sotsiologiyasi, yuridik va axloqiy sotsiologiya, kriminal sotsiologiya va axloqiy statistika, iqtisodiy sotsiologiya, ijtimoiy morfologiya, estetik sotsiologiya, texnologiya, til va urush.

1902 yilga kelib sotsiologlar ajratgan sotsiologiyaning ko'p sonli sohaları keyingi 50 yil mobaynida amal qiladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng siyosiy sotsiologiya, qonun sotsiologiyasi va din sotsiologiyasi jadal sur'atlarda rivojlanadi.

Yangi muammolar va yangi tadqiqot sohalari paydo bo'lishi nazariya va metodning o'sishi mahsulidir. AQSHda immigratsiya muammolari, keyinchalik qora tanli ozchiliklar muammosi ikki yangi soha – irqalar va axloqiy munosabatlarni o'rganishning shakllanishiga madaniyat va guruhlararo munosabatlar nazariyasining rivojlanishiga qaraganda kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Sotsiologiyada alohida tadqiqot sohalari soni jadal sur'atlarda o'sib boradi. Ixtisoslashuv jarayoni fanning ichki strukturasi murakkablashuviga olib keladi. Har bir ixtisoslik o'z navbatida bir qancha kichik ixtisosliklarga bo'linadi.

Masalan, ijtimoiy struktura (jamiyat morfologiyasi) doirasida ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy mobillik ixtisosliklari vujudga keladi. Ijtimoiy institutlarga ixtisoslashgan yangi institutlar: iqtisod va jamiyat, siyosiy sotsiologiya, industrial sotsiologiya, ta'lim, din, tibbiyot va sog'liqni saqlash, qonun, yoshlar, dam olish va sport, fan, madaniyat, ommaviy kommunikatsiyalar va jamoatchilik fikri sotsiologiyasi paydo bo'ladi. Bugungi kunda madaniyat sotsiologiyasi doirasida kino sotsiologiyasi, teatr sotsiologiyasi, ommaviy madaniyat sotsiologiyasi, mutolaa sotsiologiyasi va boshqa tarmoqlar mavjud. Iqtisodiy sotsiologiya doirasida mehnat sotsiologiyasi, bandlik va ishsizlik sotsiologiyasi, bozor sotsiologiyasi, banklar sotsiologiyasi, menejment sotsiologiyasi, tashkilotlar sotsiologiyasi farqlanadi.

Tarmoqlar o'xshash belgilar, chunonchi: tematik yaqinlik, dunyoqarashga doir umumiy mo'ljallar, metodologiya yoki metodik vositalarning o'xshashligi, shaxsiy tanishlik va simpatiyaga ko'ra guruhlanadi. Qidiruv dasturlari, tadqiqot guruhlari, ilmiy maktablar, yangi yo'nalishlar va fanlar, nihoyat, kognitiv paradigmalari asta-sekin shakllanadi. Ular bilimning ichki elementlari deb ataladi. Ularga g'oyalar, nazariyalar va konsepsiyalar kiradi. Bularning barchasi ilmiy bilimning invariant strukturasi tashkil etadi.

Sotsiologiyaning strukturasi har xil tahlil qilish mumkin. Ayniqsa bu strukturani aniqlash nazariy sotsiologiya, empirik tadqiqotni ajratib olishlik bilan ko'pincha yuzaga keladi.

Lekin bu sotsiologiyaning komponentlarini ajratib olish umumiyroq ma'noga ega, natijada esa fanning murakkab va har xil ko'rinishga ega bo'lgan strukturasi mazmuni kashf etilmaydi. SHuning uchun to'laroq va har tomonlama xususiyatga ega bo'lish bilangina sotsiologiyaning strukturasi ko'rsatib berish lozim. Sotsiologiya strukturasi fundamental va amaliy yo'nalishlarni, nazariy va empirik tadqiqotlarni, maxsus va tarmoq sohalarni ajratib ko'rsatish darkor. Ular bir-birlari bilan juda murakkab o'zaro dialektik aloqadordirlar. Ayrim xollarda bir-birlariga qo'shib ketadilar, boshqa holatlarda esa bir-birlarini inkor qiladilar. Tadqiqotimiz ilmiy, teran bo'lishligi uchun sotsiologiya strukturasi bu elementlarini alohida tahlil qilib chiqishga harakat qilamiz. Lekin, hozircha sotsiologiya quyidagi elementlardan iborat bo'lgan o'z strukturasi ega:

1. Fundamental sotsiologiya
2. Amaliy sotsiologiya
3. Nazariy sotsiologiya
4. Empirik sotsiologiya
5. Sotsiologiyadagi maxsus va tarmoq yo'nalishlari

Fundamental sotsiologiya boshqa elementlardan hal qilayotgan muammolarning ko'lami, ahamiyati va mazmuni bilan ajralib turadi. U shunday muammolarni tahlil qiladiki, ular kecha bor, bugun mavjud va ertaga albatta bo'lishi muqarrardir.

Amaliy sotsiologik tadqiqotlar faqatgina sotsial buyurtma mavjud bo'lganidagina o'tkaziladi. Agarda nazariy sotsiologiyani rivojlanish markazi hali ham g'arbiy yevropa hisoblansa, amaliy tadqiqotlar AQSHda keng rivojlangan. Malakali o'tkazilgan amaliy tadqiqot unga sarflangan mablag'ni bir necha bor oqlashi mumkin, biroq past saviyada olib borilgani esa jiddiy ma'naviy va moddiy zarar keltirishi aniqdir.

Nazariy sotsiologiyaning asosiy maqsad va vazifasi- bu o'rganilayotgan ob'yekt yoki muammoning nazariy tahlili bilan shug'ullanishdir. Bunda u o'z xulosalarini tekshirib chiqish uchun amaliyotga murojat qiladi. SHuning uchun bu ikki jarayonni birini biridan ajratish va o'zaro qarama-qarshi qo'yishga intilish noto'g'ri yondoshuvdir. Chunki, bu ikki hodisa bir-birini o'zaro to'ldiradi.

Sotsiologiya fanining qisqa muddatli rivojlanish tarixida bir necha nazariy yo'nalishlar ishlab chiqildi. Shulardan taniqlilari quyidagilardir:

1. Pozitivizm
2. Psixologizm
3. Neopozitivizm
4. Fenomenologiya
5. Struktur-funksionalizm

Ularning har biri o'z davrida umumqamrovli universal sotsiologik nazariya bo'lishga intildi. Lekin ilm-fanni rivoji bir nazariyani boshqasi bilan almashib borishini taqazo etdi.

Empirik sotsiologiya jamiyatdagi mikro jarayonlarni o'z tadqiqot ob'yekti deb hisoblaydi va quyidagi empirik metodlardan faol foydalanadi:

1. So'rov metodi
2. Hujjatlarni tahlil qilish
3. Kuzatuv
4. Sotsial eksperiment

Zamonaviy sotsiologiya tizimida bir necha maxsus va tarmoq yo'nalishlari shakllandi va rivojlandi. Maxsus yo'nalish –bu alohida bir ob'yekt yohud mavzuga qaratilgan tadqiqotdir. Masalan, rivojlanish sotsiologiyasi, sotsial institut sotsiologiyasi, sotsial munosabatlar, tafakkur tarzi sotsiologiyasi va h.z. lar. Tarmoq yo'nalishlaridan bugungi kunda eng rivojlanganlari esa quyidagilardir:

1. Iqtisodiy sotsiologiya
2. Mehnat sotsiologiyasi
3. Siyosiy sotsiologiya
4. Madaniyat sotsiologiyasi
5. Sanoat sotsiologiyasi
6. Din sotsiologiyasi va h.z. lar

Sotsiologik tadqiqot ham nazariy, ham empirik bo'lishi mumkin. Ularning chegaralanishi shartli ravishdadir, chunki har qanday fundamental sotsiologiya nazariydir, empirik tadqiqotlar esa

nazariya bilan jipslashgan o'zaro aloqalik bilan o'tkaziladi. Lekin xususiyatni ajratish va aniqlash zaruriyatidir. Agarda har qanday fundamental sotsiologiya nazariy hisoblansa, har qanday nazariya fundamental sotsiologiya hisoblanmaydi. Fundamental sotsiologiya dissiplinar muammolarga fanning poydevorining asosini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, o'z navbatida nazariy sotsiologiyani o'rganish ob'yekti sifatida ham umumiy, ham xususiy jarayonlar, jamiyat hayotining ayrim sohalari va faoliyatining biror bir tomoni bo'lishi mumkin. Nazariy va empirik sotsiologik bilimlarni qabul qilish va jamiyatni tahlil qilish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. «Nazariylashtirishni – deb yozadi tanikdi amerikalik sotsiolog Dj. Terner, – shunday vositalarga taalluqli deb hisoblash mumkinki, u orqali fan deb ataladigan tafakkur faoliyati o'zining uchta asosiy maqsadini amalga oshiradi: olamda bo'layotgan voqealarni shunday klassifikatsiyalash (tasniflash) va tashkil qilishlikni buning natijasida ularni istiqbolda ko'ra bilishlik o'tgan voqealarni sabablarini tushuntirish va kelajakda bo'ladigan voqealarni oldindan ko'ra bilish; voqealarni nima uchun va qanday bo'lib o'tishini to'g'ri «tushunish»ni intuitiv ravishda taklif qilish».

Nazariya – bu kategoriya, tushunchalar, xolatlar va prinsplarniig konseptual birligi bo'lib, u hodisalarni xossalari, munosabatlari va qonuniyatli aloqalarini ochib beradi. Nazariyalarda markaziy o'rinni tushunchalar egallaydi. Ularda fanning tajriba va yutuqlari to'planadi va ular nazariyaning mazmunini belgilaydi. Nazariyani yaratish vositasi bu – mavhumlashtirishlikdir. Chunki u konkret holatlar va hodisalarni tashkil qilishda chegaralardan sakrab o'tishga yo'l beradi.

Sotsiologiyada nazariyani turli darajasini ajratib ko'rsatish mumkin: umumsotsiologik nazariyalar jamiyatni yaxlit qamrab oladigan muammolarni hal qiladi. Masalan, jamiyatni rivojlanish davrlari va strukturasi, uning faoliyat qonunlari va boshqalar.

Maxsus nazariyalar sotsiologiya ob'yektining muhim tomonlarini o'rganadi. Sotsial struktura nazariyasi, o'zaro ta'sir nazariyasi, institutlar nazariyasi va hokozolar maxsus sohalari sifatida shakllandilar. Maxsus nazariya yoki o'rta daraja nazariyasi tushunchasini fanga P. Merton joriy etgan.

O'rta daraja nazariyasi sotsial tizimlarning umumiy nazariyasini sotsial xatti-harakatning tashkil etilishining umumiylikiga maxsus kuzatilayotgan turlari bilan bog'lashi kerak. Bu nazariyalar mavhum tushunchalardan foydalanadilar, lekin ular ko'pincha faktlar bilan bog'liqdirlar va bitirish tadqiqotlar asosida shakllanadilar. SHuningdek, xususiy nazariyalarni ham ajratib ko'rsatish mumkin va ular sotsial jarayonlar haqidagi empirik ma'lumotlar bilan ko'proq bog'langanlar. Bunday nazariyalar deb quyidagilarni aytamiz: karamli fe'l-atvor, referent guruhlar nazariyasi, kichik guruhlar nazariyasi va boshqalar.

Bu nazariyalar inson fe'l-atvorining mustahkam mexanizmlarini har xil sharoit va holatlarda ko'rinishni aniqlashga harakat qiladilar. Nafaqat axloqli nazariyalar balki, faoliyatning turli xil turlari nazariyalari: mehnat munosabatlari, qadriyatli moslashni shakllantirish, tashkil qilish va boshqarish.

Ko'rib turganimizdek, sotsiologiyani ichki matritsasi mazkur fan doirasida o'rganiladigan barcha mavzularni to'liq qoplaydigan tarmoqlar majmuini o'zida ifodalaydi. Sotsiologiyani ichki matritsasi quyidagi asosiy elementlardan tarkib topadi.

Dunyoning ilmiy manzarasi – mazkur fan doirasida o'rganiladigan voqelikni tavsiflovchi umumnazariy va falsafiy kategoriyalar majmui.

Umumiy nazariya – mazkur fan doirasida o'rganiladigan voqelikning yirik parchasini tushuntiruvchi, bir-biri bilan mantiqan bog'langan nazariy tushunchalar va mulohazalar majmui.

Ayrim nazariya – fundamental tadqiqot asosida empirik darajada o'z tasdig'ini topgan ayrim hodisa (hodisalar guruhi) yoki jarayon (jarayonlar to'plami)ni tavsiflovchi, bir-biri bilan mantiqan bog'langan konkret-ilmiy tushunchalar va mulohazalar tizimi.

Empirik tadqiqot – ilmiy metod talablariga muvofiq o'tkazilgan va ayrim nazariyani tasdiqlashga qaratilgan fundamental tadqiqot. Uning bosh maqsadi – ilmiy bilimlarni

ko'paytirish, yangi qonuniyatlarni kashf etish va noma'lum ijtimoiy tendensiyalarni aniqlash. Empirik tadqiqotni tayyorlashga 3 yildan 10 yilgacha vaqt sarflanadi. Uni tashkil etish ustida ko'p sonli jamoa ter to'kadi. U faqat akademik sotsiologlar tomonidan o'tkaziladi. Bunga mamlakatlararo, umummilliy, mintaqaviy tadqiqotlar misol bo'lishi mumkin. Empirik tadqiqot asosini reprezentativ (ishonchli va taqdim etsa bo'ladigan) axborot tashkil etadi.

Amaliy tadqiqot – vaziyatni ijtimoiy diagnostika qilish, muayyan hodisa (jarayon)ni tushuntirish va amaliy tavsiyalar berish maqsadida bir ob'yekt (korxona, bank, qishloq)da qisqa muddat ichida o'tkazilgan operativ tadqiqot.

Amaliy tadqiqot yangi bilimni boyitish, yangi nazariyalarni kashf etish maqsadini ko'zlamaydi, unda namunaviy metodikalar shakliga solingan ma'lum bilimlar, ya'ni ijtimoiy texnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, xodimlarning shaxsiy va amaliy fazilatlarini baholash uchun mo'ljallangan ShGB (Shaxsni Gruppaviy Baholash) metodikasi o'nlab va yuzlab o'xshash ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladigan ijtimoiy texnologiyalarga misol bo'ladi va muayyan narxga ega tijorat tovarini o'zida ifodalaydi.

Metodologiya – metod haqidagi ta'limot, ya'ni ilmiy bilimning tabiati, ilmiy nazariyaning tuzilishi va uning rivojlanish yo'llari, gipotezalar tuzish va ularni empirik yo'l bilan tasdiqlash, tushunchalarni konseptuallashtirish va operatsionallashtirish, ma'lumotlarni mantiqiy tahlil qilish va hokazolarni amalga oshirish usullari haqidagi nazariy qoidalar majmui. Metodika va texnika – o'rganiladigan ma'lumotlarni tanlab olish, so'rovnomalar va blankalarni ishlab chiqish, kuzatish yoki interv'yu olish, ma'lumotlar yig'ish va ularni tahlil qilish usullari va tartib-taomillari.

Hozirgi zamon sotsiologiyasining yetakchi mavzulari:

- a) tadbirkorlar sinfining shakllanishi (iqtisodiy sotsiologiya);
- b) sinfiy tengsizlik, qashshoqlik va boylik muammolari (ijtimoiy stratifikatsiya, qashshoqlik sotsiologiyasi);
- v) aholining siyosiy ishtiroki shakllari (siyosiy sotsiologiya).

Bu masalalar dastlabki boylik orttirish davrini, yevropa va AQSH XIX asr oxirida bosib o'tgan, biz esa XX asr oxiridagina qadam qo'ygan bosqichni aks ettiradi. Dastlabki boylik orttirish davri quyidagilar bilan tavsiflanadi: a) ijtimoiy qutblashuv jarayonlari – jamiyatda o'ta boy va o'ta qashshoq qatlamlar paydo bo'lishi, aholi asosiy qismi ahvolining yomonlashuvi bilan; b) boyishning g'ayriqonuniy yo'llari – korrupsiya, firibgarlik va hokazolarning kuchayishi bilan.

Shunday qilib, milliy sotsiologiya tarmoqlari soni va ro'yxati, ularning rivojlanish darajasi va paydo bo'lish davri mazkur mamlakatning texnik va ijtimoiy taraqqiyot yo'lidan harakatlanish jarayonini aks ettiradi. Sotsiologiya fani turli yo'nalishlarda rivojlanish, jamiyat uchun dolzarb muammolarni o'rganish orqali muhim funksiyalarni amalga oshiradi. Bu funksiyalar nazariy va amaliy bo'ladi. Birinchi guruhga ijtimoiy voqelikni o'rganish nazariyasi va metodologiyasini yaratish vazifalarini hal qiluvchi ma'rifiy, instrumental va tashkiliy-texnologik funksiyalar, ikkinchi guruhga esa – yangi qarorlar qabul qilishga va jamiyatni rivojlantirish imkoniyatlarini asoslashga ko'maklashuvchi prognostik, boshqaruv va ijtimoiy loyihalash funksiyalari kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:, “O'zbekiston”, 2014 yil .
2. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida“ gi Qonuni 2016 yil 15 sentabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida“ gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T 2011.
5. Ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi) //”Ma'rifat” gazetasi. 2016 yil 31 dekabr. №104-son
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
7. Aliqoriev N.S. va b.Umumiy sotsiologiya. – Toshkent.: 1999.
8. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994
9. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Toshkent.: 2000
10. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002
11. Ubaydullaeva B., O.Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. «Ijtimoiy fikr» Markazi. – Toshkent.: 2001
12. Umarova R. «Sotsiologiya.» O'quv qo'llanma. - T. TMI, 2010.
13. Sotsiologiya //Uchebnoe posobie. Pod redak. prof. Lavrenenko V.N. –Moskva.: «YuNITI». 2012
14. Frolov S.S. Obshaya sotsiologiya. //Uchebnik.Moskva.: «Prospekt».2012
15. Toshchenko J.T. Sotsiologiya. //Uchebnik.Moskva.: «YuNITI». 2012
16. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot. 1993

Internet saytlar:

- 1.<http://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasining hukumat portali
- 2.<http://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
- 3.<http://www.google.uz> Veb-qidiruv saytining uz domeni
- 4.<http://www.ziynet.uz> ta'lim portali

2. Sotsiologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Reja:

1. Sotsiologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi: dastlabki va pozitivistik bosqichlar.
2. Sotsiologiya rivojlanish jarayonining klassik bosqichi.
3. Sotsiologiya rivojlanish jarayonining hozirgi bosqichi.
4. Sotsiologiyadagi asosiy maktablar va yo'nalishlar.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar:

Ijtimoiylik, uyg'onish davri, moturidiya, jabariylar, mitraizm, makrosotsiologiya, mikrosotsiologiya, sotsiometriya, interaksiya, «birlamchi guruh», «ikkilamchi guruh» elita, omma, pozitivizm, ijtimoiy dinamika, ijtimoiy statika, klassik bosqich, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy institutlar, anomiya, empirik sotsiologiya, ijtimoiy fikr markazi, Harakatlar strategiyasi.

1. Sotsiologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi: dastlabki va pozitivistik bosqichlar

Sotsiologiya – jamiyat haqidagi fan. Sotsiologiya tarixi – jamiyat haqidagi *ilmiy* tasavvurlarning shakllanish jarayoni tarixi. Mazkur mavzu sotsiologiyaning hozirgi holati tahliliga o'ziga xos debochadir. Hozirgi davrni uning tarixiga nazar tashlamasdan tushunish, fan tarixini bilmay turib uning hozirgi holati haqida tasavvur hosil qilish mumkin emas. Boz ustiga, har qanday hodisaning tarixi har doim nazariyadan to'liqroq bilim beradi. Sotsiologiya tarixini o'rganish “ijtimoiylik” (sotsiologiya predmeti) xususiyatini chuqur va har tomonlama yoritish, mazkur ilmiy fan kategoriyalarining rivojlanish jarayonini kuzatish imkonini beradi.

Sotsiologiya tarixida mazkur fan rivojlanish jarayonining quyidagi asosiy **bosqichlari** ajratiladi.

Dastlabki bosqich. Inson va jamiyat haqidagi bilimlarning kurtaklari qadim zamonlardayoq paydo bo'lgan. Sotsiologiya fani rivojlanish jarayonining ilk ilmiy bosqichi vaqt oraliq'i jihatidan eng uzun bosqich (miloddan avvalgi III ming yillik – milodiy XVIII asr) hisoblanadi. Bu davrda jamiyat negizlarini anglab yetish va davlatni barqaror boshqarish yuzasidan tavsiyalar berish yo'lida ilk qadamlar tashlanadi.

Platon (427–347). Sotsiologiya tarixidagi birinchi asar sifatida Platonning “Davlat” asari e'tirof etiladi. Unda buyuk mutafakkir jamiyat rivojida mehnat takqsimotining rolining ta'kidlaydi va birinchi ma'lum stratifikatsiya nazariyasini ta'riflaydi. Ideal davlatda jamiyat uch tabaqadan tarkib topadi: 1) davlatni boshqaruvchi donishmandlardan iborat oliy tabaqa; 2) davlatni himoya qiluvchi askar-posbonlardan iborat o'rta tabaqa; 3) jamiyatni moddiy ne'matlar bilan ta'minlovchi dehqonlar va hunarmandlardan iborat quyi tabaqa.

Aristotel (384–322) jamiyat tahlilini davom ettiradi. U yaratgan ijtimoiy strukturada bosh element sifatida barqaror va normal faoliyat ko'rsatayotgan davlatning asosi hisoblanuvchi o'rta sinf amal qiladi. Aristotel' davlat shakllarini boshqaruvning uch to'g'ri va uch noto'g'ri shakllariga ajratib, davlat qurilishining ilk tasniflaridan birini taklif qiladi.

Ma'lumki, sotsiologiya fani rasman g'arbiy Ovrupada yuzaga kelgan bo'lsa-da, uning ildizlari sharqqa borib taqaladi. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi mazmunini xalqimizning tarixiy, ma'naviy qadriyatlari sanalmish Qur'oni Karim, Hadisi Muborak, sharqning ulug' allomalari Farobiy, Ibn Sino, Xazrati Bahouddin Naqshbandiy, At-Termiziy, Imom Al-Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy va boshqa ulug' mutafakkirlar asarlarida ilgari surilgan fikrlar tashkil etadi.

O'rta asr SHarq allomalarining merosini hozirgi davr uchun nechog'lik ahamiyat kasb etishini O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday ochib beradi: "Barchamiz yaxshi tushunamizki, erishilgan bilimlarni, o'tmishda jumladan, o'rta asrlar SHarqida amalga oshirilgan olamshumul kashfiyotlarni chuqur o'zlashtirmasdan turib, na ilm fanda, na boshqa sohalarida yangi, yanada yuksak marralarni zabt etib bo'lmaydi. Biz kelgusi faoliyatimizda ham ayni shu tamoyilga qat'iy amal qilamiz"³

Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini o'rganishda **Abu Mansur al-Moturidiyning** o'rni beqiyosdir. Uning asarlariga nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan, shaxs haqidagi ta'limot sifatida yondoshish, ularni Movarounnahr xalqlari hayoti tarzi mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik konsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining YUksak ma'naviyat-engilmas kuch asarida shunday deydi "Imom Moturudiy bobomizning sharta asrlardagi g'oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat ko'rsatib, islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharafiga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsning ulkan aql zakovati va matonatidan darak beradi"⁴

Al-Moturidiy qarashlari oqilona me'yor, inson sha'ni, mavqeiga mos keluvchi nazariyadir. Inson shaxsi va mavqei masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi Al-Moturidiyning murosaviy muvozanat konsepsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisiga emas, balki Movarounnahrdagi real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy tarixiy tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondoshuvlar sintezi, deb baholash maqsadga muvofiqdir. Al-Moturidiy jamoa va jamiyatning voqelik mohiyatini ramzlarda talqin etishga diqqatini qaratadi.

Al-Moturidiy jabariylarning, insonning hamma amallari oldindan uning taqdiriga g'zib qo'yilgan, shu bois u o'zi qilayotgan ishlarga ma'sul emas, degan nuqtai nazarini ham,

³ Karimov I.A. O'rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq. 2014 yil, 15-may.
Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat" 2008 y.

qadariylarning, Olloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachisi emas, degan nuqtai nazarini ham tanqid qilib, inson yaxshi va g'mon amallarni o'z erkiga ko'ra tanlashi va bu yo'lda Ollohning madadini olishi nazariyasini ilgari suradi. Al-Moturidiy insondagi ixtig'r, tanlash imkoniyati jamoaga qarshi yo'naltirilmasligini, shaxs oldida davlat ma'sul bo'lgani kabi, shaxs ham davlat oldida ma'sul bo'lishini nazariy asoslaydi. SHuningdek Al-Moturidiy shaxsning tanlash va iroda erkinligi jamoaviy iroda oldida ustuvor kuch emasligi, jamoaviy iroda shaxsdan yuqori turishini uqtiradi.

Movarounnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o'rganish ulug' mutafakkir **Abu Nasr Forobiy** tomonidan kengaytirildi. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insoniylik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va xodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish xaqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga ma'sul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko'mak berishini asoslab berdi.

Forobiy baxt inson faoliyatining asosiy zanjiridir, degan tasavvurdan kelib chiqadi. Fan va tarbiyani u baxtga eltuvchi yo'l deb hisoblaydi. Uning fikricha, baxtga va fazilatli xulqlarga ayni bir shahar doirasida erishish mumkin. «Fozil shahar aholisining fikrlari» risolasida Forobiy mazkur shaharni johil, axloqsiz shaharga qarshi qo'yadi, barkamollikning oliy darajasiga erishgan jamiyatlarda haqiqiy erkinlik va teng huquqlilik hukm surishi lozimligini ta'kidlaydi. Fozil shahar aholisi saylagan podsho o'z faoliyatida adolat, teng huquqlilik va umum ravnaqi tamoyillaridan kelib chiqadi. «Fozil shahar barcha a'zolari tirik mavjudot hayotini saqlab qolish va unga to'laqonli tus berish uchun bir-biriga ko'maklashuvchi sog'lom vujudga o'xshaydi», deb yozadi Forobiy.

Forobiy olamni anglashda vorisiylik omilining juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikricha inson barcha haqiqatlarni anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru-asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. SHu boisdan u o'zidan oldingi ajdodlari tomonidan bildirilgan fikrlarni shubhalanmay o'zlashtirishi zarurligi ilm-ma'rifat bobida yetuk donishmandlar fikriga ergashishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Forobiy jamiyatning boobro' shaxslari, olimlari, oqil kishilari ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi. Forobiy o'sha paytdag'q ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko'p qo'llanuvchi ekspertlar, ya'ni o'z davrining yetuk donishmandlari fikriga tayanib ish tutish zarurligiga urg'u beradi.

Ulug' bobokalonimiz **Abu Rayhon Beruniy** ham sotsiologiya nazariyasini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo'shdi. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan qomusiy kitobini to'la ma'noda insoniyat tarixining o'tgan 5 ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag'ishlangan mumtoz etnosotsiologik asar, deb baholash mumkin. Ushbu

kitobda ulug' mutafakkir asar g'zilishi jarayonida olib borgan sotsiologik tadqiqotlari qo'llagan usullari xususida so'z yuritib, shunday yozgan: «Mazkur asarni yozish asnosida o'zimga ishonch hosil qildimki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo'li bilan haqiqiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin emas. Bunga faqat «kitob ahlari» va turli din arboblari, shu (e'tiqodlarga amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini asos tutish bilan belgilanadi. So'ngra ularning isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi.»^{5[1]}

Abu Rayhon Beruniy dunyoning sotsiologik manzarasi evolyutsion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi.

Ayni chog'da Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyatlar va qarama - qarshiliklar emas, balki turli ijtimoiy darajadagi murosa va konsensus ekanligini uqtiradi. «qarama-qarshiligi ravshan ayon bo'lgan narsaga qanday ishonib bo'ladi»,^{6[2]} deb qarama-qarshiliklardan xoli bo'lgan jarayonlarda o'zgarish ehtiyojini kuchayishiga ishora qiladi.

Beruniy sotsiologiyadagi ijtimoiy tabaqalanish haqida ham fikr yuritib, shunday deydi: «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar ko'payib, g'dda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan»

Beruniy fikriga ko'ra, insonning eng oliy baxti bilimdir, zero u aqli jonot hisoblanadi; uning eng oliy fazilati esa boshqalar, ayniqsa kambag'al odamlar haqida g'amxo'rlik qilishdir

Ulug' mutafakkir **Abu Ali Ibn Sinoning** ijtimoiy qarashlari o'zining ilmiy teranligi, voqelikka xushg'r baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb hisoblaydi. Xamma narsaning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutloqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, Ibn Sino dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi.

Alisher Navoiyning «Mahbub ul - qulub» asarida bevosita o'z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beriladi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi bayon etiladi.

Alisher Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo'linganligi umuman olganda ijobiy xodisa ekanligi, bu tasniflanish doirasining qanchalik kengligi mamlakat farovonlik darajasining ifodasi ekanligi xususida e'tiborga sazovor sotsiologik qarashni asoslab

^{5[1]} Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar 1968, 406 b

^{6[2]} Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar 1968, 406, 44-ââð
Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar 1968, 406, 231-ââð.

beradi. Ulug' mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiqroq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi o'rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur sotsiologik tasniflashdan maqsad, ularni ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti buyuk Alisher Navoiy bobomizning «Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalkgamidin g'ami» degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor. Ya'ni, bu dunyoda insonlarning dar-du tashvishlarini o'ylab yashash odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb ta'kidlamokda ulug' bobomiz⁷.

Yusuf Xos Xojibning XI asrda yaratilgan «Qutadg'u bilig» asari ham ijtimoiy qarashlarga boy. Bu kitob axloq-odob ta'lim va tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirib, o'zida jam qilgan buyuk qomusiy asardir.

Yusuf Xos Xojib jamiyat va tabiat borasidagi barcha bahslarni ta'lim atrofida olib borar ekan, o'z davri, mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, ma'naviy-moddiy hayot jarayonlari xususida mufassal ma'lumotlar beradi. U o'sha davrning turli ijtimoiy tabaqalari, toifalari va guruhlari, ularning turmush tarzi, rasm-rusumlari, qonun - qoidalari, hunar va kasbu-korlari, jamiyatda tutgan mavqelari, davlat tuzumining qanday asoslarda qurilganligi, har bir tabaqaning dunyoqarashi xususida atroflicha sotsiologik asoslangan ma'lumotlarni o'rta tashlaydi.

Yusuf Xos Xojib jamiyatning tom ma'nodagi kamoloti faqat ta'lim vositasida amalga oshadi, deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha boyliklar muvaqqatdir, o'tkinchidir, bilim boyligi qancha sarf etilsa, shuncha ko'payaveradi, deydi ulug' mutafakkir.

Sotsiologiyaning donishmandlik talabi yuqori bo'lgan fan ekanligi uchun ham ulug' ajdodlarimizning jamiyatni bevosita o'rganishga doir vazmin umumlashmalarga, xulosaviy mushohadalarga boy asarlari ularning ma'naviy-aqliy kamolotga erishgan yillarida, sermazmun umrlarining so'ngi davrlarida yaratilgandir. Masalan, Amir Temurning «Temur tuzuklari», Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Alisher Navoiyning «Majolis un nafois», «Mahbub ul-qulub» asarlari shular jumlasidandir.

Abdurahmon Ibn Xaldun (1332–1406) hozirgi zamon sotsiologiyasining ilk salafalaridan biri, sivilizatsiyalar tarixi nazariyachisi va ilk sotsiologik konsepsiyalar muallifi sifatida e'tirof etiladi. Tarixchi va faylasuf Arnol'd Toynbi fikriga ko'ra, Ibn Xaldun tarix falsafasi nazariyasini kashf etgan va ta'riflagan alloma hisoblanadi. Bu nazariya inson tafakkurining barcha zamonlar va xalqlar uchun ulkan ahamiyat kasb etuvchi buyuk mahsulidir.

⁷ Шавкат Мирзиёев. “Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз”. Тошкент “Ўзбекистон”. 2016 й. 18 б.

Fan sifatidagi sotsiologiyaning shakllanishidagi xizmatlariga ko'ra uni Makiavelli, Viko, Montes'ye kabi mutafakkirlar bilan bir qatarga qo'yish mumkin.

Ibn Xaldun aslzodalar urug'idan edi. U 1332 yilda Tunisdan Andalusiya (Ispaniya)ga ko'chib kelgan arab oilasida tug'iladi. 16 yoshida yetim qolgan Abdurahmon Tunis sultoni saroyida mirzalik qiladi, so'ngra Fes sultoni kotibi, Granada amirining Kastiliya qiroli saroyidagi elchisi, nihoyat, Buji sultonining hojibi (maslahatchisi) lavozimlarini egallaydi. Umrining so'nggi yillari u Qohirada oliy qozi lavozimida xizmat qiladi va ayni paytda Al-Azhar madrasasida islom huquqidan dars beradi. SHu davrda u Amir Temur xizmatiga o'tadi va uning topshirig'iga binoan o'z vatani – Mag'rib (islom dunyosining g'arbi – hozirgi Tunis, Jazoir va Marokash) tavsifini yaratadi. O'z davrining siyosiy hayotida bevosita ishtirok etish (Mag'rib podsholari xizmatida bo'lish) Ibn Xaldunning tarixiy-sotsiologik tadqiqotlari va mulohazalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Materialga xronologik tartib berish odati Ibn Xaldunga tarixiy voqealarning o'zaro aloqasini anglab yetish va ayrim ijtimoiy birliklar (arablar, berberlar, forslar, vizantiyaliklar)ning vujudga kelishi, rivojlanishi va tanazzulga yuz tutishi jarayonlarini kuzatish imkonini beradi. Uning eng mashhur asari “Katta tarix” yoki “Arablar, ajamlar, berberlar va ularning ulkan hokimiyatga ega bo'lgan zamondoshlari hayotidan ibratli misollar kitobi”dir. “Katta tarix”ga yozilgan mashhur “Al-Muqaddima” asarida Ibn Xaldun har qanday jamiyatning holatini Alloh ato etgan “ma'rifatlilik” (“umron”) sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, har qanday jamiyat ko'chmanchilik va shahar turmush tarzi oraliq'ida amal qiladi. “Al-Muqaddima” – Ibn Xaldun yashagan davr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotining o'ziga xos qomusi. Muallif madaniyatning rivojlanishi iqtisodiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida yuz berishini, shu tariqa ular o'zgarishlarning ichki manbai bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. “Al-Muqaddima” asarida Ibn Xaldun insonning ijtimoiy tabiati va bilish qobiliyati, davlatning tadrijiy rivojlanish qonuniyatlari (besh bosqich) va davlatni samarali boshqarish uchun zarur omillar haqida o'z qarashlarini bayon etgan. Mazkur asarda sulolalar almashuvining ilmiy ijtimoiy-dinamik tavsifi ham keltirilgan bo'lib, uning zahirida siyosiy, harbiy, ma'naviy-ruhiy, iqtisodiy, geografik, iqlimiy va boshqa omillar murakkab o'zaro aloqasining tahlili yotadi.

Sivilizatsiyalar ravnaqi va tanazzuli sabablarining tahlili Ibn Xaldun ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Alloma davlatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga, millat ravnaqini ta'minlashga, davlat va sivilizatsiyani barvaqt iqtisodiy tanazzul va siyosiy halokatdan saqlashga qaratilgan bir qancha tavsiyalar beradi.

O'rta asrlarda “ikki yoqlama haqiqat” nazariyasiga muvofiq jamiyat va inson ular orqali “oliy” bilimga erishish mumkin bo'lgani uchungina o'rganiladi. O'rta asrlar teologlari fikriga ko'ra, bilish faqat bitta maqsadni ko'zlaydi (Xudo, haqiqat), biroq unga erishishning ikki yo'li bor: 1) *to'g'ridan-to'g'ri* yo'l – o'zi yashayotgan dunyoning ilohiy mohiyati e'tiqod yordamida

anglab yetiladi; 2) *bilvosita* yo'l – ilohiy maqsad u yaratgan dunyo va uning bandasi (inson)ni o'rganish orqali aql bilan anglab yetiladi. O'rta asrlar ilmiy arboblari mazkur nazariya yordamida o'zlarining ilm bilan shug'ullanish huquqlarini himoya qilganlar.

Uyg'onish (Ma'rifat) davrida jamiyat haqidagi bilimlar boshqa fanlar, asosan falsafa doirasida rivojlantirilgan va boyitilgan.

Shunday qilib, ijtimoiy o'zlikni anglash uzoq yillar mobaynida noilmiy shaklda (mif, din, utopiya) yoki noadekvat shaklda (boshqa fanlar doirasida) amalga oshirilgan. Ammo tarqoq "sotsiologik" bilimlar asta-sekin birlashtiriladi va "sotsiologiya" degan fanga aylantiriladi. Uyg'onish davridan boshlab, ayniqsa YAngi davrda ilmiy sotsiologiyani o'tmishdoshi – "ijtimoiy fizika" shakllanadi.

Pozitivistik bosqich. Fan sifatidagi sotsiologiya XIX asrning birinchi yarmida ijtimoiy taraqqiyotda paydo bo'lgan ba'zi bir yangi jarayonlarga javob tarzida vujudga keladi.

1. Jamiyat hayotida birinchi o'ringa "*ijtimoiy muammolar*" (amaliy, milliy masalalar, xotin-qizlar masalalari va sh.k.) chiqadi. Ijtimoiy rivojlanishda ularning o'rnini anglab yetishga kuchli ehtiyoj tug'iladi, ijtimoiy bilimni yanada rivojlantirishga ijtimoiy buyurtma paydo bo'ladi.

2. Mazkur vazifa kontekstida ijtimoiy fanlarning bundan oldingi abstrakt darajasi va real hayotdan uzoq xususiyati ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Natijada sotsiologiyani tabiiy fanlarga o'xshash fanga aylantirish talabini ilgari suruvchi *pozitivizm* vujudga keladi. U sotsiologiyani faktlar va tajribaga tayanadigan empirik fanga va ayni paytda amalda foyda keltiradigan, ijobiy (pozitiv) amaliy fanga aylantirishni nazarda tutadi.

Fransuz mutafakkirlari A.Sen-Simon va O.Kont alohida va yaxlit "jamiyat haqidagi fan" (aynan – sotsiologiya)ni yaratish to'g'risidagi masalani birinchi bo'lib kun tartibiga qo'yadilar. O.Kont, G.Spenser mazkur bosqichning *asosiy* namoyandalari sifatida ilmiy sotsiologiyani rivojlantirish uchun zamin yaratadilar. Sotsiologiyani o'zi bu davrda yaratilmaydi, biroq uni yaratish loyihasi taklif qilinadi.

O.Kont (1798–1857) – Sen-Simonning kotibi, keyinchalik Parijdagi Politehnika maktabining imtihon oluvchisi va repetitori. Hozirgi zamon sotsiologiya fanining asoschisi. "Sotsiologiya" atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. Sotsiologiyaga oid ko'p sonli asarlar muallifi. Eng mashhur asari – olti jildli "Pozitiv falsafa kursi" (1830–1842). O.Kont fikriga ko'ra, biron-bir fan jamiyat haqida aniq bilim bera olmaydi, chunki ayrim fanlar doirasida ijtimoiy hodisalar muayyan nuqtai nazardan o'rganiladi. Jamiyat statikasi va dinamikasini to'plangan ijobiy faktlar asosida o'rganuvchi sotsiologiyagina ijtimoiy hodisalarni bir-biriga bog'lab o'rganishga qodir. Sotsiologiya turli fanlarning "pozitiv sintezi"ni o'zida ifodalaydi.

Kont jamiyatni individlarning oddiy majmui deb hisoblashga qarshi chiqadi, jamiyatning individdan ustunligi g'oyasini ilgari suradi. Faqat jamiyat realdir, individual inson esa oddiy

abstraksiyadan boshqa narsa emas (jamiyat haqidagi qarashlarda “*sotsiologizm*”). Kont “jamiyat o’z-o’zini va insonni yaratadi”, deb hisoblaydi. Uning fikricha, odamlarning fazilatlari ta’lim va tarbiya kabi ijtimoiy institutlar ta’sirida shakllanadi. Ularning yordamida odamlar ajdodlar bilimi va tajribasini o’zlashtirishlari, o’zlarida tegishli ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishlari mumkin.

O.Kont pozitivizmi. Kont fanlar tarixidan falsafa va sotsiologiya sohasidagi eng nufuzli yo’nalishlardan biri – pozitivizm asoschisi sifatida o’rin olgan. U sotsiologik tadqiqotlarda jamiyatning rivojlanish qonunlarini aniqlash imkonini beruvchi, kuzatish, taqqoslash, eksperiment va tarixiy metodga asoslangan *pozitiv metodni* birinchi o’ringa qo’yan. Teologiya va metafizikaga qarshi kurashar ekan, O.Kont fan mohiyatlarni emas, balki fenomenlarni anglab yetadi (“nima uchun?” degan savolga emas, balki “qanday qilib?” degan savolga javob beradi), deb ta’kidlaydi. Turli fanlar bunday “pozitiv holat”ga tarixning turli bosqichlarida erishadilar. Hozir sotsiologiyaning davri keldi. Bu ancha kech yuz berdi, chunki sotsiologiya – “murakkab” fan, u nisbatan “sodda” fanlar (fizika, kimyo, biologiya va h.k.)ni rivojlantirish va o’zlashtirishni talab qiladi.

O.Kontning ijtimoiy statika va ijtimoiy dinamika haqidagi ta’limoti. Kont sotsiologiyani ikki qismga – ijtimoiy statika va ijtimoiy dinamikaga ajratadi. Ijtimoiy statika va ijtimoiy dinamika – bu ijtimoiy organizm anatomiyasi va fiziologiyasidir: ijtimoiy statika jamiyatning tuzilishini o’rganadi, ijtimoiy dinamika esa jamiyat hayotini, uning rivojlanish jarayonini tadqiq etadi.

Ijtimoiy statika – ijtimoiy tartib va jamiyatni eng oqilona yo’l bilan tashkil etish nazariyasi, ijtimoiy uyg’unlikka erishish haqidagi ta’limot. O.Kont fikriga ko’ra, statik sotsiologiyaning vazifasi ijtimoiy tizimning turli qismlari o’rtasida muttasil ravishda yuz beruvchi o’zaro aloqalarni o’rganishdan iborat. Ayrim ijtimoiy elementlar shak-shubhasiz va mustaqil tarzda mavjud bo’la olmaydi, balki bir-biri bilan aloqaga kirishadi.

O.Kont jamiyatning oila, davlat va din kabi elementlarini ajratadi. Oilani u jamiyat strukturasining asosiy elementi deb hisoblaydi. Oila ijtimoiylashgan insonning tabiiy holatini aks ettiradi, oilaviy munosabatlar esa jamiyatdagi barcha munosabatlarning tabiiy asosi hisoblanadi. Eng sodda yaxlitlikni individuum emas, balki oila tashkil etadi. Bunday yaxlitliklar yig’indisi jamiyatni tashkil qiladi. Ijtimoiy aloqaning tabiati to’g’risidagi masala “ijtimoiy statika”ning bosh masalasi hisoblanadi. Ijtimoiy aloqa yuzaki xususiyat kasb etadi, chunki uni hosil qilishda bosh rolni moddiy zarurat (sanoat, savdo va sh.k.) o’ynaydi. Jamiyat strukturasida O.Kont 4 sinfni ajratadi: oliy sinf – ilmiy va estetik faoliyat turlarining namoyandalari, ikkinchi sinf – ishlab chiqarish va savdo-moliya sohasi vakillari (bankirlar, savdogarlar, tadbirkorlar), uchinchi sinf – yer egalari, to’rtinchi sinf – ishchilar. Sinflar o’rtasidagi munosabatlar mehnat taqsimotiga va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga asoslanadi.

O.Kont *ijtimoiy dinamikasi* ko'proq tarixiy-falsafiy xususiyatga ega. Ijtimoiy dinamika nazariyasining asosiy g'oyasi – insoniyat evolyutsiyasi. Bunda ijtimoiy o'zgarishlar doimiy va o'zgarmas tabiiy qonunga muvofiq yuz beradi. Ijtimoiy o'zgarishlar ko'p sonli omillar bilan belgilanadi, biroq ularning eng muhimi aqliy rivojlanish, ya'ni evolyutsiyadir. Ayni shu sababli inson bilimini o'rganish jamiyatning rivojlanish jarayonini tadqiq etish asosi hisoblanadi. Ijtimoiy dinamika doirasida O.Kont ikki *qonun* – “uch bosqich” qonuni va “ikki tomonlama evolyutsiya” qonunini asoslab beradi.

“Uch bosqich” qonuniga muvofiq, kishilarning ma'rifiy faollik jarayoni uch bosqichdan o'tgan. Mazkur bosqichlarga mos ravishda O.Kont jamiyatning rivojlanish jarayonida uch bosqichni ajratadi:

1. *Teologik bosqich* (1300 yilgacha) – dinning hukmronligi bilan tavsiflanadi, bu yerda hamma narsa diniy tasavvurlar asosida tushuntiriladi. Tabiat va jamiyat haqida haqiqat to'raligicha muqaddas kitoblar (Injil, Qur'on va h.k.)da bayon etilgan. Ijtimoiy ong rivojlanish jarayonining mazkur bosqichida diniy mifologiya yetakchilik qiladi. Inson o'z aqlini lol qoldirayotgan hodisalarni mutlaq anglab yetishga harakat qiladi va ularni mutlaq g'ayritabiiy kuchlar ta'siri bilan tushuntiradi. Ayni shu sababli axloq va siyosat masalalari diniy ong, diniy qadriyatlar asosida hal qilinadi.

2. *Metafizik bosqich* (1800 yilgacha). Ushbu bosqichda metafizika (falsafa) hukmronlik qiladi. Bu yerda g'ayrioddiy mohiyatlarni emas, balki real tabiat va insonni tavsiflashga intilish kuzatiladi. Biroq bu yerda dunyo aprior “birinchi mohiyatlar”, “pirovard sabablar” va shu kabilar yordamida tushuntiriladi. Mazkur bosqichda birinchi bosqichga tanqidiy munosabat ustunlik qiladi. O.Kont fikriga ko'ra, bu bosqichda inson ongi tasavvurga emas, balki tashqi dunyoning real jarayonlarini aks ettiruvchi tushunchalarga tayanadi. Ammo fan hali yaxshi rivojlanmagani bois bu tushunchalar abstraktdir. Real hodisalarni bilishga qarab mo'ljal oluvchi metafizik metod tabiiy va ijtimoiy hodisalar haqida to'liq tasavvur hosil qilish, miflardan uzil-kesil xalos bo'lish imkonini bermaydi.

3. *Pozitiv bosqich* (1800 yildan boshlab). Bu davrda dunyoni real sabablar bilan tushuntiruvchi bilim paydo bo'ladi. Dunyoni tushuntirishga nisbatan eskicha yondashuvlar o'rnini uning qonunlarini tadqiq etish egallaydi. Mazkur qonunlarning amal qilishini inobatga olish va bashorat qilish uchun ularni bilish talab etiladi. Haqiqiy fan kuzatish va bashorat qilishni o'zida birlashtiradi. Oqilona bashorat qilishni mutafakkir sotsiologiyani amaliy vazifasi deb hisoblaydi. O.Kont fikriga ko'ra, XIX asrga kelib tabiiy fanlar teologik va metafizik bosqichlardan o'tganlar va pozitiv bosqichga yetganlar, sotsiologiya esa hali bunga erishganicha yo'q. Mazkur marraga yetish uchun sotsiologiyani metafizikadan xalos qilish zarur.

Ikkinchi qonun – “ikki tomonlama evolyutsiya” qonuni jamiyat evolyutsiyasi sabablarini tushuntirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy rivojlanish omillarining barchasini O.Kont ikki guruhga – birlamchi (ma’naviy, intellektual) va ikkilamchi (iqlim, irq) omillarga ajratadi. Bunda u birinchi guruh omillari ikkinchi guruhga nisbatan shak-shubhasiz ustunlikka ega bo’ladi, deb hisoblaydi.

G.Spenser (1820–1903) – ingliz faylasufi va sotsiologi, sotsiologiya fanining ikkinchi asoschisi. Uning eng muhim asarlari: “Sotsiologiya asoslari” (1876–1896), “Sotsiologiya o’rganish predmeti sifatida” (1903) va boshq. G.Spenser sotsiologiya tarixida birinchi bo’lib mazkur fan predmeti, vazifalari va muammolarini tizimlashtirishga harakat qiladi. U ijtimoiy tizim, ijtimoiy institut, ijtimoiy nazorat, struktura, funksiya kabi keng ishlatiladigan sotsiologik atamalarni ilmiy muomalaga kiritadi.

G.Spenser qarashlari odatda “*evolyutsion-organizmik nazariya*” sifatida tavsiflanadi, chunki u ikki g’oya: 1) organizm sifatidagi jamiyat va 2) jamiyat evolyutsiyasi g’oyalarini ayniqsa samarali rivojlantiradi va birlashtiradi.

G.Spenser konsepsiyasining bosh tushunchasi – *evolyutsionizm*. G.Spenser o’zi haqida shunday deydi: O.Kont *g’oyalarning* kelib chiqishini o’rgansa, men ijtimoiy institutlarning evolyutsion o’zgarishlarini o’rganishga harakat qilaman. Sotsiologiyani predmeti, G.Spenser bo’yicha, ijtimoiy agregatning o’sishi, rivojlanishi, tuzilishi va harakatini o’rganishdir. Evolyutsiya – har qanday tabiiy va ijtimoiy hodisa manbaidir.

Olim *mehnat taqsimotini* ijtimoiy rivojlanishning bosh omili deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu omil jamiyat qurilishining oliy tipi – “industrial jamiyat”ga olib keladi. G.Spenser ijtimoiy strukturalarni ikki guruhga ajratadi: ayrim ijtimoiy strukturalarda odamlar hamkorligi majburiy, ba’zi strukturalarda esa – ixtiyoriy hisoblanadi. SHu tufayli ham u jamiyatlarni ikki tipga ajratadi: 1) “*harbiy*” jamiyatlar; 2) “*sanoatlashgan*” (industrial) jamiyatlar. “Harbiy” jamiyat o’ta kuchli markazlashtirilgan nazorat va hokimiyat iyerarxiyaviy tartibi bilan tavsiflanadi. Butun hayot intizomga bo’ysundiriladi (hatto cherkov ham bu yerda harbiy tashkilotni eslatadi). Indivud bunday jamiyatda ijtimoiy yaxlitlikka majburiy tartibda bo’ysundiriladi. “Sanoatlashgan” jamiyatda sanoat va savdo birinchi darajali ahamiyat kasb etadi, unda siyosiy erkinlik paydo bo’ladi, ijtimoiy tashkilot esa moslashuvchan tus oladi. Bunday jamiyatda hokimiyat individlar xohish-irodasining ifodasi sifatida amal qiladi, ularni birlashtirish esa ixtiyoriy bo’ladi.

Sotsiologiya tarixida G.Spenserning majburiy (“mexanik”) kooperatsiyaga asoslangan harbiy jamiyatdan ixtiyoriy (“organik”) kooperatsiyaga asoslangan industrial jamiyatga tabiiy evolyutsiya haqidagi nazariyasi alohida o’rin egallaydi. U natural xo’jalik yetakchilik qiladigan va qat’iy iyerarxiyaviy tizim hukm suradigan jamiyatdan tovar ishlab chiqarish va mehnat

taqsimotiga asoslangan jamiyatga o'tishni aks ettiruvchi tarixiy jarayonning real manzarasini yaratadi.

Hozirgi zamon sotsiologiya fanida “an’anaviy” va “industrial” jamiyatlarni ajratish g’oyasi ijtimoiy tizimlarni rivojlantirish nazariyasining tayanch nuqtasi hisoblanadi.

G.Spenser jamiyatni tirik biologik organizmga o’xshatadi. Davlatda hukumat inson miyasiga o’xshaydi: miya organizmning hayot faoliyatini “boshqarsa”, hukumat jamiyat hayot faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, o’zaro aloqalarga kirishuvchi tabaqalar va boshqa ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini muvozanatga soladi. Savdo qon aylanish sistemasiga, qon tanachalari – pulga o’xshatiladi. Axborot uzatishga xizmat qiladigan va jamiyat hayotini ta’minlashga ko’maklashadigan telegraf simlari tirik organizmning nerv sistemasi bilan qiyoslanadi. Bunda har qanday rivojlangan jamiyat organlarning uch tizimi: ishlab chiqarish, taqsimlash va tartibga solish tizimlariga ega bo’ladi.

Tartibga solish tizimi davlat siyosida tarkibiy qismlarning butunga bo’ysunishini ta’minlaydi. G.Spenser jamiyatning alohida qismlari sifatida muassasalar (ijtimoiy institutlar)ni: uy, odat, siyosiy, cherkov, kasbiy va sanoat muassasalarini ajratadi. Ularning barchasi asta-sekin yuz bergan evolyutsiya mahsuli hisoblanadi. Har qanday muassasa “ijtimoiy harakatlar”ning barqaror strukturasi sifatida vujudga keladi.

2. Sotsiologiya rivojlanish jarayonining klassik bosqichi

XIX asr mobaynida sotsiologiya jadal sur’atlarda rivojlanadi va XIX–XX asrlar chegarasidayoq u umum e’tirof etilgan fanga aylanadi. K.Marks, E.Dyurkgeym, F.Tennis, M.Veber, G.Zimmel’ va boshqa mutafakkirlar bu davrda sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko’rsatadilar. Sotsiologiya o’zining alohida tadqiqot predmeti va bilish metodlariga ega bo’ladi. Sotsiologiya doirasida ko’p sonli nazariyalar, metodikalar, yo’nalishlar va oqimlar vujudga keladi.

XIX asr oxiridan boshlab sotsiologiya universitet faniga aylanadi. 1892 yilda A.Smoll Chikago universitetida birinchi sotsiologiya kafedrasini ochadi. 1894 yil Parijda Xalqaro sotsiologiya institutining birinchi kongressi bo’lib o’tadi. Sotsiologik jurnallar chop etila boshlaydi, ilk sotsiologik tadqiqot markazlari – London sotsiologik jamiyati (1903), Amerika sotsiologik jamiyati (1905), Nemis sotsiologik jamiyati (1909) paydo bo’ladi.

E.Dyurkgeym (1858–1917) – fransuz faylasufi va sotsiologi, XIX asr oxiri – XX boshi sotsiologik pozitivizm namoyandasi. U yagona ijtimoiy organizm sifatidagi jamiyat nazariyasini rivojlantiradi. Dyurkgeym ishlab chiqqan sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari sotsiologik nazariyalarning empirik bazasini yaratish imkonini beradi. E.Dyurkgeym “amaliy sotsiologiya” atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. Ba’zan uni ilmiy sotsiologiyaning haqiqiy asoschisi deb ataydilar. E.Dyurkgeym fikriga ko’ra, jamiyat individlar o’zaro aloqasi mahsuli

hisoblanadi, biroq bir marta vujudga kelgach, jamiyat bundan buyon alohida voqelik sifatida amal qiladi, individlarga ta'sir ko'rsatadi va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan, individ tug'ilgach, tayyor qonunlar va odatlarga, xulq-atvor qoidalari, til va o'zidan qat'i nazar mavjud bo'lgan boshqa omillarga duch keladi.

E.Dyurkgeym sotsiologiyani *alohida* predmetini nazariy jihatdan asoslashga birinchilardan bo'lib qo'l uradi. Uning fikricha, sotsiologiyani predmetini shu paytgacha biron-bir fan doirasida o'rganilmagan alohida voqelik tashkil etadi. Uning zamirida fizik, psixologik va boshqa voqelik bilan bog'lash mumkin bo'lmagan *ijtimoiy faktlar* yotadi. Quyidagilar ijtimoiy faktlarning asosiy belgilari hisoblanadi: 1) individga bog'liq bo'lmagan tarzda ob'yektiv mavjudlik; 2) individga majburiy ta'sir ko'rsatishga qodirlik. E.Dyurkgeym fikricha, ijtimoiy voqelik ham tabiiy voqelik kabi "real"dir va shu bois muayyan qonunlarga bo'ysunadi. Ayni paytda E.Dyurkgeym "ijtimoiyni ijtimoiy bilan" tushuntirishni talab qiladi. Bu sotsiologiyani alohida metodi qo'llanishi, "ijtimoiy faktlarga narsalar sifatida qaralishi", ya'ni ular introspeksiya yo'li bilan emas, balki sirdan, tashqi belgilar orqali o'rganilishi lozimligini anglatadi. Ijtimoiy faktlar ikki xil bo'ladi:

1) "morfologik" ijtimoiy faktlar (aholi zichligi, aloqalarning takroriyliigi va qizg'inligi, aloqa yo'llari mavjudligi va sh.k.);

2) "ma'naviy" ijtimoiy faktlar – "kollektiv tasavvurlar" (din, axloq, huquq va h.k.).

Ijtimoiy faktlar mavjudligining asosiy usuli *ijtimoiy institutlar* hisoblanadi. SHundan kelib chiqib E.Dyurkgeym sotsiologiyani quyidagicha ta'riflaydi: "Sotsiologiyani... institutlar, ularning genezisi va faoliyati haqidagi fan sifatida ta'riflash mumkin". Har qanday ijtimoiy faktlar statistik usullar yordamida o'rganilishi lozim.

Ijtimoiy birdamlik g'oyasi sotsiologiyani asosiy g'oyasi bo'lib, u E.Dyurkgeym ijodining o'zagini tashkil etadi. Olim jamiyatda kishilarning ijtimoiy birdamligiga ijtimoiy mehnat taqsimotining ta'sirini kuzatadi. Bunda u ikki xil jamiyat – an'anaviy va zamonaviy jamiyatlar mavjudligi haqidagi g'oyaga tayanadi. E.Dyurkgeym jamiyat tuzilishining ikki shakliga mos ravishda ikki xil birdamlik mavjud degan g'oyani ilgari suradi va ularga tavsif beradi:

1. *Mexanik* birdamlik – bu o'xshashlik yuzasidan birdamlik: individlar bir-biriga o'xshaydi va bir-birining o'rnini bosadi. Bunday birdamlik primitiv, arxaiik jamiyatlarda mavjud bo'ladi. Mazkur jamiyatlarda repressiya huquqi hukm suradi. SHunday qilib, mexanik birdamlik kollektiv ongga individual ongning to'liq singib ketishiga asoslanadi.

2. *Organik* birdamlik – bu ijtimoiy mehnat taqsimotidan, hamjamiyat a'zolarining tabaqalanishidan kelib chiqadigan jamoaviy birdamlikdir.

E.Dyurkgeym “O’zini o’zi o’ldirish” (1897) asarida jamiyat tarixida normal mehnat taqsimoti bilan bir qatorda “mehnat taqsimotining nonormal shakllari”ni ham ajratadi. SHunday shakllardan biri “anomiya” – kishilar xulq-atvorini qat’iy tartibga soluvchi axloqiy me’yorlarning yo’qligidir. “Anomiya” atamasi sotsiologiya va ijtimoiy psixologiyadan mustahkam o’rin olgan va ularda yetakchi atamalardan biri hisoblanadi.

Anomiya (so’zma-so’z ma’nosi – me’yorsizlik, qonunsizlik) – jamiyatning shunday bir holatiki, bunda jamiyat a’zolarining bir qismi hamma uchun majburiy normalar mavjudligini bila turib ularni buzadi yoki ularni pisand qilmaydi. E.Dyurkgeym anomiya hodisasini qoidalar ishlab chiqilmaganligi yoki ularning buzilishi bilan tushuntirishga harakat qiladi. U ayrim ijtimoiy faktlarni (o’zini o’zi o’ldirishlarni) psixologik yoki biologik tushunchalardan foydalanmasdan, boshqa ijtimoiy faktlar yordamida tushuntiradi. Keng faktik materialni to’plash orqali E.Dyurkgeym o’zini o’zi o’ldirishlar soni turli ijtimoiy guruhlarda teng emasligini (katoliklarda protestantlardan kamroq; shaharda qishloqdagidan ko’proq va sh.k.) ko’rsatadi va isbotlaydi. E.Dyurkgeym o’zini o’zi o’ldirishlar darajasini jamiyatning birlashish (birdamlik, jipslashish) darajasi bilan taqqoslaydi: birlashish darajasi qancha baland bo’lsa, o’zini o’zi o’ldirishlar darajasi shuncha past bo’ladi va aksincha, jamiyatda anomiya darajasi qancha baland bo’lsa, o’zini o’zi o’ldirishlar darajasi ham shuncha yuqori bo’ladi.

M.Veber (1864–1920) – taniqli nemis sotsiologi va siyosatshunos olimi. U sotsiologiya, siyosatshunoslik va dinshunoslik sohalarida yaratilgan “Jahon dinlarining xo’jalik yuritish odobi” (1916–1919), “Siyosat kasb sifatida” (1919), “Xo’jalik va jamiyat” (1921) asarlari bilan mashhur.

M.Veber sotsiologiyasida harakat qilayotgan inson tayanch nuqtasi hisoblanadi. Unga olim “ijtimoiy fanlar atomi” sifatida qaraydi. M.Veber sotsiologiyani ijtimoiy harakatni o’rganish bilan shug’ullanadigan fan sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy harakatni “tushunadi” va shu tariqa uning sababini tushuntirishga harakat qiladi.

Tushunuvchi sotsiologiyaning asosiy kategoriyalari – xulq-atvor, harakat va ijtimoiy harakat. Veberga ko’ra, *xulq-atvor* – faoliyat umumiy kategoriyasi. Faoliyat, agar harakat qiluvchi unga sub’yektiv ma’no yuklasa, *harakatga* aylanadi. Nazarda tutilayotgan ma’no boshqa kishilarning harakatlari bilan bog’lansa va ularga qarab mo’ljal olsa, harakat *ijtimoiy harakatga* aylanadi. Bunda ijtimoiy harakatning ikki asosiy *belgisi* farqlanadi: 1. *Oqilonalik, onglilik*. Harakat, “agar harakat qiluvchi yoki harakat qiluvchilar unga muayyan sub’yektiv ma’no yuklasalar”, ijtimoiy bo’ladi. 2. *Boshqalar xulq-atvoriga qarab mo’ljal olish*. Harakat, agar u “boshqalar xulq-atvori bilan bog’lansa va ularga qarab mo’ljal olsa”, ijtimoiy bo’ladi.

Onglilik mezoniga muvofiq M.Veber ijtimoiy harakatning *to’rt turini* ajratadi.

1. **Oqilona maqsadli harakat** – inson harakati “modeli”. Bu yerda maqsadlar ham, vositalar ham aniq. Mazkur harakat sub’yekt o’z maqsadini va unga erishish yo’llarini aniq anglashi bilan tavsiflanadi. Bu harakat uning natijalarini aniq tasavvur qilishni ham nazarda tutadi. Shunday qilib, oqilona maqsadli harakat – bu to’laligicha oqilona harakatdir. Bu turdagi harakat iqtisodiy sohada ayniqsa rivojlangan.

2. **Oqilona qadriyatli harakat** uning o’zi natijalaridan qat’i nazar qadriyat hisoblanishiga bo’lgan ishonchga asoslanadi. Oqilona qadriyatli harakatda inson maqsadga erishish yo’lida o’z harakatlarini tashqi dunyo bilangina emas, balki o’zining sub’yektiv – axloqiy, estetik, diniy qadriyatlari bilan ham muvofiqlashtiradi. Kutilgan oqibatlar bilan hisoblashmasdan o’z e’tiqodlariga muvofiq ish ko’ruvchi inson sof oqilona qadriyatli harakat qiladi. Bu turdagi harakatlar Iso Masihga xosdir. Bundan oldingi turdagi harakat bilan taqqoslaganda, bu yerda shaxs maqsad va unga erishish yo’llarini to’liq anglamaydi, chunki ong qadriyat bilan belgilanadi (qadriyatni tanqidiy nuqtai nazardan anglab yetish mumkin emas).

3. **An’anaviy harakat** zamirida muayyan harakatlarga odatlanganlik yotadi. Bunday harakat aniq maqsad bilan belgilanmaydi. Bu inson ko’nikkan, muntazam takrorlanadigan va o’z-o’zidan bajariladigan harakatlardir. Sub’yekt o’zi ko’nikkan an’anaga muvofiq ish ko’radi va o’z oldiga muayyan maqsad qo’yishga, qadriyatlarni belgilashga ehtiyoj sezmaydi. Mohiyat e’tibori bilan bu madaniy an’anadan mustahkam o’rin olgan va oqilona tanqidni talab qilmaydigan muayyan xulq-atvor andozalariga taqlid asosida shakllanadigan harakatdir.

4. **Affektiv harakat.** Bu yerda sub’yektning ruhiy holati (mayl, qo’rquv, g’azab) harakatni belgilovchi omil hisoblanadi. Qilmish maqsad yoki qadriyatlar tizimi bilan emas, balki muayyan sharoitda sub’yektning ruhiy reaksiyasi bilan belgilanadi. Mazkur ijtimoiy harakatning asosiy vazifasi – ruhiy tushkunlikdan qutulish. Affektiv harakat ongli harakat bilan chegaradosh bo’lib, undan tashqarida qilmish o’z ijtimoiy xususiyatini yo’qotadi. Faqat oqilona qadriyatli va oqilona maqsadli harakatlar vebercha ma’nodagi ijtimoiy harakatlar hisoblanadi.

M.Veber fikriga ko’ra, inson xulq-atvori harakatlarning yuqorida tavsiflangan to’rt ideal tipi bilan cheklanmaydi, biroq ularni ayniqsa ko’p uchraydigan harakatlar deb hisoblash mumkin.

An’anaviy jamiyatlarda odamlar odatlarga bo’ysunganlar, zamonaviy jamiyatda esa ular o’z ehtiyojlari va manfaatlariga qarab ish ko’radilar. Bundan tashqari, oqilona maqsadli xulq-atvor asta-sekin oqilona qadriyatli xulq-atvorni chetga chiqarib qo’yadi. Lo’nda qilib aytganda, qadriyatlarga emas, balki muvaffaqiyatga bo’lgan ishonch birinchi o’ringa chiqadi. Ijtimoiy hayotning oqilonalashuvini M.Veber g’arb sivilizatsiyasining taqdiri deb hisoblaydi. Oqilona maqsadli harakat rolining kuchayishi eng avvalo iqtisodiyot, siyosat, fan va madaniyatda namoyon bo’ladi. M.Veber jamiyat hayotida oqilonalikning kuchayishini ijtimoiy hayotning turli

tomonlari misolida kuzatadi. *Siyosiy* sohada u ijtimoiy harakat haqidagi o'z tasavvuriga mos ravishda hukmronlik tiplarini (legal, an'anaviy, xarizmatik) va siyosiy liderlik turlarini (legal, an'anaviy, xarizmatik) ajratadi. *Diniy* sohada Veber jamiyat hayotining oqilonalashuv darajasi din ta'sirining kuchiga teskari proporsional degan qonunni ta'riflaydi. Bu ijtimoiy hayotda dinning ta'siri asta-sekin pasayib borishini nazarda tutadi. *Iqtisodiy* sohadagi harakatlar ijtimoiy hayotning izchil oqilonalashuvidan darak beradi.

M.Veber sotsiologiyasi tushunish konsepsiyasi bilan bir qatorda ideal tip haqidagi ta'limotni ham o'z ichiga oladi. *Ideal tip* – insonga ayniqsa foydali bo'lgan va uning manfaatlari bilan muvofiq keladigan narsaning muayyan ideal modeli, optimal ijtimoiy holatlar (hokimiyat, shaxslararo muloqot va h.k.) mohiyati.

Ideal tip g'oyasining ilgari surilishiga tadqiqotchiga rang-barang empirik materialda mo'ljall olishga yordam beruvchi tushunchalarni yaratish zaruriyati turtki beradi. Ideal tip muayyan ijtimoiy hodisaning "madaniy mazmuni"ni qayd etadi va ilmiy tadqiqotda evristik funksiyani bajaradi.

3. Sotsiologiya rivojlanish jarayonining hozirgi bosqichi

Hozirgi vaqtda ko'p sonli ijtimoiy nazariyalar, yo'nalishlar va oqimlar mavjud. Turli oqimlar va nazariyalar bir-biri bilan raqobatlashadi va ayni paytda bir-birini to'ldiradi. Masalan, funksionalizm va konfliktologiya jamiyat tahliliga qarama-qarshi nuqtai nazarlardan yondashadi, biroq ikkala konsepsiya ham sotsiologiyada "samarali" ish olib boradi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasining *eng muhim* konsepsiyalariga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Sotsial-darvinistik konsepsiyalar. Sotsiologik konsepsiyalarning bu turi jamiyatni tavsiflashga nisbatan tarixiy-evolyutsion yondashuvni strukturaviy-funksional tahlil bilan birlashtirishga urinish natijasi sifatida vujudga kelgan.

Sotsial-darvinistik konsepsiyalarning *afzalliklari* qatoriga jamiyat va jonli tabiat qonunlarining birligini aniqlashga intilishni, jamiyat hayotida konfliktlar roliga urg'u berishni kiritish mumkin. Ularning *kamchiliklariga* ijtimoiy qonuniyatlarni biologik qonuniyatlarni bilan bog'lash (naturalizm, reduksionizm), butun ijtimoiy hayotni yashash uchun kurash bilan bog'lash (yashash uchun kurash jamiyat hayotining asosiy qonuni sifatida), ijtimoiy hayotning ziddiyatlarga to'laligiga (tizim funksiyalariga emas, balki disfunktsiyalariga) urg'u berishni kiritish mumkin.

Psixologik konsepsiyalar. L.Uord (1841–1913) – amerikalik sotsiolog, Amerika sotsiologik jamiyatining birinchi prezidenti. O'zining "Dinamik sotsiologiya" (1883), "TSivilizatsiyaning ruhiy omillari" (1893), "Sotsiologiyadan ocherklar" (1898) kabi asarlarida u insoniyat tarixiga nisbatan Spenserning kosmik evolyutsiya prinsipi qadriyat sifatidagi taraqqiyot

g'oyasi bilan to'ldirilishi lozim, degan nuqtai nazarni ilgari suradi va himoya qiladi. Bunda u ijtimoiy institutlarning barchasiga ruhiy kuchlarning rivojlanish mahsuli sifatida qaraydi. L.Uord sotsiologiyani asosi biologiya emas, balki psixologiya bo'lishi lozim deb hisoblaydi.

F.Giddings (1855–1931) – amerikalik sotsiolog, AQSHda birinchi sotsiologiya kafedrasining (Kolumbiya universitetida) asoschisi, “Sotsiologiya prinsiplari” (1896), “Sotsiologiya elementlari» (1898), “Kishilik jamiyati nazariyasiga doir tadqiqotlar” (1922) asarlarining muallifi. Uning fikricha, sotsiologiya – “konkret, tavsifiy, tarixiy, tushuntiruvchi fan”. Psixologiyadan farqli o'laroq, sotsiologiya individual ongni emas, balki assotsiatsiyalarni o'rganadi. Sotsiologiya – bu “umumiylikni tushunishga va uni kosmik qonunlar va sabablar vositasida tushuntirishga harakat qiluvchi fan”.

Psixoanaliz. Z.Freyd (1856–1939) – avstriyalik vrach, psixolog. Uning asarlari: “Totem va tabu. Ibtidoiy madaniyat va din psixologiyasi” (1913), “Omma psixologiyasi va inson o'zligi tahlili” (1921) va boshq.

Individning ma'naviy rivojlanish jarayoni insoniyatning rivojlanish jarayonini muxtasar ko'rinishda takrorlaydi, shu tufayli ham har bir inson o'z ajdodlarining kechinmalarini botinan his qiladi. Inson ruhiy hayotining ibtidosi va asosi (inson organizmiga azaldan xos bo'lgan) instinktlar, mayllardir.

Psixoanaliz ruhiy va ijtimoiy hayotda ongsizlikning rolini qayd etadi, ruhiyat va ong – boshqa-boshqa narsalar ekanligini: ong dunyoga, boshqa odamlarga bo'lgan munosabat bilan bog'liq masalalarnigina emas, balki o'z ichki muammolarini ham yechishini ko'rsatib beradi. Psixoanalizning kamchiliklari: panseksualizm, ya'ni libidoga haddan tashqari ko'p e'tibor berish, shaxs strukturasida jinsiy energiya ulushini orttirib ko'rsatish; aksiltarixiylik, ya'ni shaxs va jamiyat struktura jihatidan barcha zamonlarda o'zgarmasdir; shaxs va jamiyat o'zaro to'qnashadi va bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi; shaxs faqat o'z imkoniyatlari hisobiga o'zini o'zi rivojlantiradi.

Neofreydizm – “ijtimoiy tushadagi” ko'p sonli konsepsiyalar – freydizm qoidalariga tayanuvchi “ommaviy inson”, “avtoritar shaxs” nazariyalari.

A.Adler (1870–1937) – avstriyalik psixiatr va psixolog, individual psixologiya asoschisi. A.Adler o'z o'tmishdoshlarining panseksualizmini rad etadi va psixoanalizni “sotsiologiyalashtirish”ga doir bir qancha yangi qoidalarni ilgari suradi. Masalan, u shaxsni uch instansiyaga ajratish g'oyasini rad etadi va shaxsning yagonaligi g'oyasini ilgari suradi, shaxs motivatsion strukturasida biologik omillarga emas, balki ijtimoiy omillarga urg'u beradi.

K.G.Yung (1875–1961) – shveysariyalik psixiatr, psixoanalitik, sotsiolog, teran psixologiya yo'nalishlaridan biri (“analitik psixologiya”) asoschisi. K.G.Yung ham panseksualizm va nevrozlarning seksual etiologiyasi g'oyalarini rad etadi, “analitik psixologiya”

konsepsiyasini ilgari suradi. “Kollektiv ongsizlik”, “arxetip” (hayvonlar instinktlariga o’xshash, biroq psixologik xususiyatga ega) YUng konsepsiyasining asosiy tushunchalariga aylanadi.

Arxetip (yunon.) – ilk obraz, model’. Arxetiplar – universallik xususiyatiga ega bo’lgan omillar va ularning birikmalari; ongda botiniy darajada aks etadigan va ruhiy aktlarda mazmun kasb etadigan universal ruhiy sxemalar (din, mif, simvol va h.k.). Madaniyat va insonning rivojlanish jarayoni odamlarning instinktiv tabiatini jilovlash shikastli jarayonidir. Bundan kollektiv irratsional kuchlarning kuchayishi, ruhiy inflyatsiya, shaxssizlashuv, atomizatsiya va shu kabilar kelib chiqadi. Bularning barsasi ommaviy psixozlarga, “ommaviy inson”ning shakllanishiga, totalitarizmga olib keladi.

E.Fromm (1900–1980) – nemis-amerika psixoanalitiki, faylasufi, sotsiologi. Asarlari: “Psixoanaliz va din” (1950), “Inson marksistik konsepsiyasi” (1961), “Inson destruktivligi anatomiyasi” (1973), “Ega bo’lmoq yoki bor bo’lmoq” (1976) va boshq. E.Fromm fikriga ko’ra, evolyutsiya jarayonida inson o’zining “bevosita instinktiv asosi”ni yo’qotadi va ijtimoiy muhit bilan belgilangan yangi xususiyatlarni o’zlashtiradi. Odamlar fe’l-atvoridagi farqlar biologik ehtiyojlar (ochlik, tashnalik, jinsiy mayl) bilan emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar (muhabbat, hokimiyatga intilish va sh.k.) bilan belgilanadi. Insonning ehtirolari uning o’ziga xos maxsus ekzistensial ehtiyojlariga bo’lgan javobidir.

Taqlid nazariyasi. Aristotel’ insonning shakllanishida taqlid muhim rol’ o’ynashini ta’kidlagan edi. Taqlid nazariyasi shaxslararo xulq-atvor ijtimoiy-psixologik mexanizmlari muammosini qo’yadi va uni yechishga harakat qiladi. Taqlid nazariyasining asosiy g’oyasini quyidagicha ta’riflash mumkin: taqlid g’oyasiz ijtimoiy xulq-atvorni tushuntirish mumkin emas.

G. de Tard (1843–1904) – fransuz kriminalisti va sotsiologi. Uni ijtimoiy psixologiya asoschisi deb ataydilar. U g’arb sotsiologiyasida psixologik yo’nalishning eng taniqli namoyandasi hisoblanadi. “Taqlid qonunlari” (1890), “Ijtimoiy mantiq” (1895), “Ijtimoiy psixologiyadan etyudlar” (1898), “Fikr va olomon” (1901) asarlarida u jamiyat individlar o’zaro aloqasi mahsuli hisoblanadi, degan fikrni ilgari suradi, biroq ayni paytda jamiyat evolyutsionistik modelini rad etadi. G. de Tard fikriga ko’ra, sotsiologiyaning kamchiligi shundaki, u “jamiyat qonunlari” (hodisalarni gavdalantirish qonunlari) va “tarix qonunlari” (hodisalarning rivojlanish qonunlari)ni qorishtirib yuboradi. Sotsiologiya – bu “oddiy kollektiv psixologiya”, “intersixologik” fan. Sotsiologiyaning bosh vazifalaridan biri – ijtimoiy o’zaro aloqalarni o’rganish.

Gruppaviy (kollektiv) xulq-atvor nazariyalari. Kollektiv xulq-atvor shakllari – favqulodda vaziyatlar (masalan, tabiiy ofat, urush, inqilob va h.k.)ga kishilarning ommaviy, spontan munosabatlari barcha zamonlarda ham sotsiologiyaning diqqat markazida bo’lgan.

Kollektiv xulq-atvorga oldindan aytib bo'lmashlik, favquloddalik, shubhalilik va boshqa shunga o'xshash xususiyatlar xos bo'lib, ular umum e'tirof etilgan xulq-atvor me'yorlaridan kollektiv tarzda chetda chiqilishiga olib kelishi mumkin.

G.Lebon (1841–1931) – fransuz ijtimoiy psixologi, antropologi, arxeologi. “Xalqlar evolyutsiyasi psixologik qonunlari” (1894), “Olomon psixologiyasi” (1895), “Xalqlar va ommalar psixologiyasi” (1896) asarlarida u “ommaviy jamiyat” nazariyasining ilk variantlaridan birini ilgari suradi. G.Lebon fikriga ko'ra, XIX asr oxiri – XX asr boshida yevropa jamiyati o'z rivojlanish jarayonida yangi bosqich – “*olomon davri*” (“individlar ongli faoliyati o'rnini olomonning ongsiz faoliyati egallagan davr”)ga qadam qo'yadi.

Empirik sotsiologiya. 1920–1950 yillarda AQSH sotsiologiyasidagi asosiy yo'nalish o'ta nazariylik va formalizmning ziddi sifatida, ijtimoiy boshqaruv oldida yuzaga kelgan yangi vazifalar (ijtimoiy nazorat, prognoz, jamiyat hayotini tartibga solish va h.k.)ni yechish mexanizmi sifatida vujudga keladi. XVII asrdan boshlab aholi, moddiy resurslar va shu kabilar to'g'risidagi axborotga zarurat tug'iladi (ijtimoiy boshqaruv ehtiyojlari uchun). Aholini ro'yxatga olish va hukumatning aholiga doir izlanuvlari paydo bo'ladi. Keyingi davrlarda urbanizatsiya va industrializatsiya jarayonlari bir qator ijtimoiy muammolarni keskinlashtiradi va yangi muammolarni paydo qiladi (turar joy masalasi, qashshoqlik va sh.k.). Ularning barchasi XVIII asrdan e'tiboran empirik o'rganila boshlaydi. XIX asrda A.Ketle sotsiologik statistika asoslarini, F. Le Ple esa – oilaviy byudjetlarni o'rganishning monografik metodini ishlab chiqadi. SHu tariqa empirik sotsiologiya vujudga keladi.

1915–1935 yillarda AQSH sotsiologiyasida CHikago maktabi yetakchilik qiladi. Bu maktab vakillari empirik tadqiqotlarni nazariy xulosalar bilan bog'lashga harakat qiladilar. “YOrug' kelajak” nazariy modellarini qidirish o'rniga, jamiyatda amalda yuz berayotgan jarayonlarni o'rganish zarur (“plebeycha syujetlar”), degan mo'ljal ilgari suriladi. Bu “metodik portlash”ga – asosiy e'tibor konkret-sotsiologik tadqiqotlar metodikasi, texnikasi va tartib-taomillariga qaratilishiga olib keladi.

Empirik sotsiologiya doirasida ikki oqim vujudga keladi:

1. *Akademik sotsiologiya.* Mazkur oqim vakillari o'z oldiga jamiyat hayotining ayrim sohalariga doir ilmiy bilimlar tizimini yaratish vazifasini qo'yadilar. Ushbu oqim doirasida asosiy e'tibor ijtimoiy bilishning fundamental muammolariga qaratiladi. Akademik sotsiologiya inson xulq-atvori va ijtimoiy tizimda universal qonuniyatlarni kashf etishga qarab mo'ljal oladi.

2. *Amaliy sotsiologiya.* U aniq belgilangan amaliy vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi. Amaliy sotsiologiya o'z mazmuni va ilmiy metodlari bilan emas, balki amaliy foyda keltirishga qaratilgani bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda sotsiologiya fanining rivojlanish bosqichlari

O'zbekistonda ijtimoiy fikrlar rivojida XX asr 20-30-yillaridagi jadidchilik harakati g'oyalari muhim rol' o'ynaydi. Ma'rifatparvar jadidlar shartli ravishda 3 ta guruhga bo'lingan holda (ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, diniy-ma'rifiy) diniy va mahalliy urf-odatlarini keng yoyishning ijtimoiy-ma'naviy jihatlarini bilan bir qatorda ijtimoiy jihatlarini ham atroflicha tahlil qilganlar. Ularning bu g'oyalari respublikamizda keyingi davrlarda ijtimoiy qarashlar rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimida bo'lishiga qaramasdan O'zbekistonda XX asr 60-90-yillarda sotsiologiya fanining bir qancha soha va yo'nalishlari bo'yicha ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, sotsial sinfiy struktura bo'yicha S. Tursunmuhamedov va A.Valiyev boshqarish sotsiologiyasi bo'yicha A.S.Tamkin; oila sotsiologiyasidan U. Toshtemirov, G.Hamidova, B. Umarov va M. Sangilov tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy ishlar olib borilgan. 1989 yilda Moskvada tashkil qilingan Jamoatchilik fikrini o'rganish butunittifoq markazining O'zbekiston bo'limi ish boshladi. Bo'lim sotsiologlari Respublikamiz viloyatlari va tumanlarida xilma-xil mavzular bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib, ular asosida kishilarning ruhiyati, kayfiyati va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni o'rganib chiqdilar. O'zbekistonda dastlab 1989 yilda Toshkent Davlat universiteti falsafa fakul'teti tarkibida «Sotsiologiya» bo'limi va kafedrasini tashkil qilindi. SHu yildan boshlab sotsiologlar tayyorlana boshlandi. Bugungacha bir qancha yoshlar sotsiolog mutaxassisligiga ega bo'ldilar. Respublikamizdagi 4 ta oliy o'quv yurtida: O'zMU, FarDU, SamDU, BuxDUlarida sotsiologiya mutaxassisliklari tayyorlanayotgan fakul'tet va bo'limlar mavjud.

Farg'ona Davlat universitetida dastlab 1990 yilda sotsiologiya kafedrasini tashkil etildi. 1992 yilda esa shu kafedra asosida «Umumiy sotsiologiya» va «Amaliy sotsiologiya» kafedralari tashkil topdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1994 yil 18 iyul' 87-01-242-sonli buyrug'i bilan 1995-1996 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha oliy o'quv yurtlarida sotsiologiya fani o'qitilishi joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasini rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish; mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirishda keng sur'atda tadqiqotlar o'tkazilib, unda aholi bandligi, aholining iqtisodiy islohotlarga, demokratlashtirish jarayonlariga bo'lgan munosabatlari atroflicha o'rganila boshlandi.

Hozirgi kunda respublikamizda «Ijtimoiy fikr» (1999) jamoatchilik fikrini o'rganish markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Uning barcha viloyatlarda bo'limlari mavjud bo'lib, u yerda ilmiy xodimlar, sotsiologlar jamiyat hayotini o'rganish borasida faoliyat olib bormoqdalar.

4. Sotsiologiyadagi asosiy maktablar va yo'nalishlar

XX asrning ikkinchi yarmida sotsiologik bilim sohasida strukturaviy-funksional tahlil, ijtimoiy konflikt nazariyasi, simvolik interaksionizm kabi yo'nalishlar va oqimlar yetakchilik qila boshlaydi.

Strukturaviy-funksional tahlil – sotsiologiyadagi muhim va murakkab yo'nalishlardan biri. O'z faoliyatida eng katta nufuzga 1950–60-yillarda ega bo'lgan. Strukturaviy-funksional tahlil – ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tizimli tadqiq etish usullaridan biri. Bu yerda jamiyat bazaviy strukturalar tomonidan o'rganiladigan yaxlit tizim sifatida amal qiladi. Strukturaviy-funksional tahlil ijtimoiy yaxlitlikni tarkibiy qismlarga ajratishga asoslanadi. Bunda uning har bir elementi muayyan maqsadga xizmat qiladi.

Struktura (lot. – tuzilish) – ob'yektning barqaror aloqalari majmui. Bu aloqalar o'zgarayotgan sharoitlarda ob'yektni qayta shakllantirish imkonini beradi. Struktura muayyan tizimning nisbatan barqaror tomonini ifodalaydi. Tartib ijtimoiy o'zaro aloqani quvvatlashning “normal” vositasi hisoblanishi tan olinadi. Yaxlitlik doirasida ijtimoiy institutlar evolyutsiyasi emas, balki ularning funksiyalari va disfunktsiyalari muhokama qilinadi. SHunday qilib, jamiyat ijtimoiy strukturasida ijtimoiy hayotning barqaror, muhim va hal qiluvchi omili sifatida qaraladi. Bu yerda individlar emas, balki ijtimoiy institutlar ijtimoiy voqelikning asosiy elementlari hisoblanadi. Strukturaviy-funksional tahlil faqat bir shaxs tipi – “konformist-avtomat”ni biladi.

Strukturaviy-funksional tahlilda *funksiya* tushunchasi ikki xil ma'noda keladi:

1) ijtimoiy tizim elementlaridan birining boshqa elementga yoki butun tizimga nisbatan *yordamchi* roli (masalan, davlat, huquq, ta'lim, san'at, oila funksiyalari);

2) mazkur tizim doirasida *tobelik*; bunda tizimning bir qismidagi o'zgarishlar uning boshqa qismidagi o'zgarishlar mahsuli (funksiyasi) hisoblanadi (masalan, shahar va qishloq aholisi nisbatidagi o'zgarishlar industrializatsiya mahsuli (natijasi) hisoblanadi). SHu ma'noda funksional bog'lanish determinizmning bir turi sifatida qaralishi mumkin.

Strukturaviy-funksional yondashuv doirasida har qanday jamiyatlarni tadqiq etishning ikki bosh qoidasi ishlab chiqiladi: 1) ijtimoiy hodisaning mohiyatini tushuntirish uchun u kengroq ijtimoiy kontekstda bajaruvchi funksiyani topish zarur; 2) buning uchun mazkur hodisaning bevosita va qo'shimcha oqibatlari, ijobiy va salbiy ko'rinishlari, ya'ni funksiyalari va disfunktsiyalarini izlash kerak.

Strukturaviy-funksional tahlilda tizim tushunchasi ulkan ahamiyat kasb etadi. *Tizim* – muayyan davr mobaynida ozmi-ko'pmi barqaror o'zaro aloqa qiladigan elementlar yoki

komponentlar qatori. Bunda jamiyat va inson organizmi ko'pincha bir-biriga o'xshatiladi. Biroq strukturaviy-funksional tahlilda asosiy e'tibor ijtimoiy tizimlar *abstrakt* nazariyasiga qaratiladi.

T.Parsons (1902–1979) – amerikalik sotsiolog olim, strukturaviy-funksional tahlil nazariyasi asoschisi. Eng muhim asarlari: “Ijtimoiy harakat strukturasi” (1937), “Ijtimoiy tizim” (1951), “Ijtimoiy tizim va harakat nazariyasi evolyutsiyasi” (1977) va boshq. T.Parsons jamiyatni funksional jihatdan o'zaro bog'langan o'zgaruvchilar tizimi sifatida tahlil qilishni sotsiologiyaning bosh vazifalaridan biri deb hisoblaydi. Har qanday ijtimoiy tizim (jamiyat, ishlab chiqarish birligi yoki ayrim individ)ning yashovchanligini ta'minlash uning asosiy muammolarini yechishni taqozo etadi: *adaptatsiya* – atrof muhitga moslashish; *maqsad va mo'ljallarni belgilash* – maqsadlarni ta'riflash va ularga erishish uchun resurslarni yo'naltirish; *integratsiya* – ichki yaxlitlik va tartibni saqlash, yuz berishi mumkin bo'lgan og'ishlarning oldini olish; *latentlik* – tizimning ichki barqarorligi, muvozanati, o'z-o'ziga ayniyligini ta'minlash. Bunday funksiyalar (muammolar)ning har biri uchun muayyan kichik tizimlar mas'uldir. Ular ijtimoiy institutlar, tegishli me'yorlar va norma-rollarning ijrochilarini o'z ichiga oladi. Masalan, adaptatsiya funksiyasi uchun iqtisodiy kichik tizim, zavodlar va banklar kabi ijtimoiy institutlar javob beradi. Bu yerda norma-rollarning ijrochilari sifatida tadbirkorlar va xodimlar amal qiladi. Maqsad va mo'ljallarni belgilash funksiyasi uchun siyosiy kichik tizim, partiyalar va harakatlar, funkcionerlar va oddiy a'zolar javob beradi.

Integrativ funksiyani ijtimoiy nazorat institutlari, asosan davlat apparati, rollarni esa – amaldorlar va fuqarolar bajaradilar. Andozani qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiylashuv kichik tizimi, ya'ni oila, maktab, din javob beradi. Norma-rollarni bajaruvchilar sifatida bu yerda o'qituvchi va o'quvchi amal qiladi. Ijtimoiy tizimning muvozanati buzilishiga olib keladigan har qanday ijtimoiy hodisalarni T.Parsons ijtimoiy organizm sog'lig'ini buzuvchi anomal hodisalar deb hisoblaydi. SHu tufayli ham ularga qarshi qat'iy kurashish me'yordan patologik og'ishlarga tabiiy reaksiyadir.

IJTIMOIIY TIZIM MODELII			
Funksiya	Kichik tizim	Ijtimoiy institutlar	Norma-rollar
Adaptatsiya	Iqtisodiyot	Zavodlar, banklar	Tadbirkor – xodim
Maqsad va mo'ljallarni	Siyosat	Partiyalar, harakatlar	Funkcioner – oddiy a'zo
Integratsiya	Ijtimoiy nazorat institutlari	Davlat apparati	Amaldor – fuqaro

Andozani qo'llab-quvvatlash	Ijtimoiylashuv	Oila, maktab, din	O'qituvchi o'quvchi	–
-----------------------------	----------------	-------------------	---------------------	---

2.1-jadval

R.Merton (1910-) – amerikalik sotsiolog, strukturaviy funksionalizm nazariyasini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan. Makro- va mikrosotsiologiya o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblanadigan o'rtacha daraja nazariyalari konsepsiyasini yaratgan. Anomiya, deviant xulq-atvor, ijtimoiy struktura, fan, byurokratiya, ommaviy kommunikatsiyalar nazariyalarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan. Eng muhim asarlari – “Ijtimoiy nazariya va ijtimoiy struktura” (1957), “Fan sotsiologiyasi” (1973), “Ijtimoiy strukturani o'rganish metodlari” (1975) va boshq.

R.Merton E.Dyurkgeymning “anomiya” tushunchasini rivojlantiradi. Anomiyaga u ijtimoiy strukturadagi kelishmovchiliklardan kelib chiqadigan *me'yorsizlik* (normativ nomuayyanlik) holati sifatida qaraydi. Ayni holda ijtimoiy strukturaning turli segmentlari individga bir paytning o'zida qondirish mumkin bo'lmagan normativ talablar qo'yadi. Madaniy maqbul maqsadlar va ularga erishish vositalarini tanlashni tartibga soluvchi institutsional normalar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni R.Merton maxsus tahlil predmetiga aylantiradi.

Anomiyaga individual moslashish tiplari		
Moslashish usullari	Madaniy maqsadlar	Institutsional vositalar
Konformizm	+	+
Innovatsiya	+	-
Ritualizm	-	+
Retritizm («ketish»)	-	-
Isyon	+/-	+/-

2.2-jadval.

Jadvalda anomiyaga individning ideal-tipik reaksiyalaridan beshtasi ajratilgan: 1) konformizm, bo'ysunish (maqsadlar va vositalarni qabul qilish); 2) innovatsiya (institutsional darajada taklif qilinayotgan vositalarni rad etgan holda maqsadlarni qabul qilish); 3) ritualizm (vositalarni qabul qilish va maqsadlarni rad etish); 4) retritizm (maqbul maqsadlar va vositalarni rad etish, voqelikdan uzoqlashish); 5) isyon (eski maqsadlar va vositalardan butunlay voz kechish, ularni yangilari bilan almashtirishga urinish).

SHuni qayd etib o'tish lozimki, mazkur yo'nalish (boshqa har qanday yo'nalishlar kabi) o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Strukturaviy-funksional tahlil jamiyatni tavsiflash uchun foydali vosita hisoblanadi, ijtimoiy hayot haqida keng tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Funksionalizmning kamchiliklariga shuni kiritish mumkinki, u tizimning barqarorligiga urg'u beradi, tizimdagi konflikt yoki o'zgaruvchanlikni esa e'tibordan chetda qoldiradi. Mazkur yondashuv ijtimoiy hayot haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

K.Boulding (1910-) o'zining "Konflikt va himoya: Umumiy nazariya" (1963) asarida konfliktli *xulq-atvor* modelini taklif qiladi. Bu modelni konflikt umumiy nazariyasi deb ham ataydilar. K.Boulding fikriga ko'ra, barcha konfliktlar umumiy strukturaga va bir xil rivojlanish mexanizmlariga ega. Boshqa kishilar bilan kurashishga, zo'rlik ishlatishga intilish insonning tabiatida zohirdir.

L.Kozer (1913-) – amerikalik sotsiolog, *pozitiv-funksional konflikt modelining* muallifi. U strukturaviy-funksional tahlilning konfliktga salbiy munosabatini rad etadi. L.Kozer ijtimoiy konfliktni qadriyatlar yoki maqomga oid imtiyozlar uchun, hokimiyat va taqchil resurslar uchun kurash sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, bu kurashda qarama-qarshi taraflarning maqsadlari ko'rsatilgan ne'matlarni qo'lga kiritish bilan bir qatorda, o'z raqibini neytrallashtirish yoki bartaraf etishdan ham iboratdir. Ijtimoiy konfliktning asosiy funksiyalari sifatida u quyidagilarni ajratadi: 1) ijtimoiy strukturani birlashtirish; 2) guruhlarda birdamlik saqlab qolish; 3) insonlararo munosabatlarni mustahkamlash; 4) ijtimoiy o'zgarishlarni boshqarish; 5) norma ijodkorligi (konflikt yangi shakllar va ijtimoiy institutlarni yaratishga ko'maklashadi).

R.Darendorf (1929-) – nemis sotsiologi, konfliktologik yo'nalishning yirik namoyandasi. Eng muhim asarlari – "Industrial jamiyatda ijtimoiy sinflar va sinfiy konflikt" (1957), "Jamiyat va erkinlik" (1961), "Utopiyadan chiqish" (1967) va boshq. Uning fikricha, sinflar – bu hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligi bilan ajralib turuvchi ijtimoiy guruhlardir. Ijtimoiy tengsizlik rollar o'rtasida tengsizlikka sabab bo'ladi, bu esa konfliktga olib keladi. Ijtimoiy tengsizlikni darajalashtirish turli asoslar: obro'-e'tibor, daromadlar, ma'lumot darajasi va hokazolarga ko'ra amalga oshiriladi. Konflikt bir guruh yoki bir sinf qarama-qarshi ijtimoiy kuchning hukmronligiga qarshilik ko'rsatishidan kelib chiqadi. Konfliktni yechish mazkur jamiyatda nufuz va hokimiyatni qayta taqsimlashga qaratiladi.

SHunday qilib, konfliktologik sotsiologiya ijtimoiy o'zaro aloqaning o'z variantini taklif qiladi. U ijtimoiy strukturalar va jarayonlarni o'rganish yaxshi samara berishini isbotlaydi. SHu ma'noda ijtimoiy konflikt nazariyasi jamiyat tahliliga nisbatan strukturaviy-funksional yondashuvning ziddi hisoblanadi va ayni paytda uni to'ldiradi.

Simvolik interaksionizm XX asrning 20-yillarida psixologizmni organitsizm bilan birlashtirishga urinish natijasi o'laroq vujudga keladi. Mazkur nazariy-metodologik yo'nalish asosiy e'tiborni simvolik mazmundagi ijtimoiy o'zaro aloqalar tahliliga qaratadi.

Simvolik interaksionizm namoyandalari ijtimoiy dunyoni odamlar umumiy simvollar vositasida bir-biri bilan aloqa qilishi mahsuli deb hisoblaydilar. Simvollar vositasida kundalik

shaxslararo muloqot jarayonlarining “kistallashuvi” yuz beradi va natijada ijtimoiy strukturalar paydo bo’ladi. Simvolik interaksionizmning asosiy g’oyasi (N.Smelzerga ko’ra): kishilarning bir-biriga va atrof muhit predmetlariga nisbatan xulq-atvori ular bir-biri va atrof muhit predmetlariga yuklagan ma’no bilan belgilanadi; odamlar xulq-atvori (ayirboshlash nazariyasidagi kabi) taqdirlash va jazolashga nisbatan passiv reaksiya emas; odamlar qilmishlargagina emas, balki kishilarning niyatlariga ham munosabat bildiradilar.

J.Mid (1863–1931) – amerikalik sotsiolog, simvolik interaksionizm asoschisi. Eng muhim asari – “Ong, o’zlik va jamiyat” (1938). Uning fikricha, inson xususiyati unda xulq-atvorning asosiy boshqaruvchisi sifatida instinktlar raso tizimining yo’qligi bilan belgilanadi. SHu sababli inson simvollarni ishlatishga majbur bo’ladi. Bu atrof muhitga ongli moslashish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Kishilar o’rtasida o’zaro aloqa alohida vositalar – simvollar orqali yuz beradi (imo-ishora – imo-ishora mazmuni – reaksiya). Imo-ishoralar hayvonlarda ham bor, biroq insonda ular simvollarga aylanadi, muayyan ma’no kasb etadi. Ma’noli imo-ishora boshqa individda kutilgan reaksiyani uyg’otishga qaratiladi.

J.Mid harakatlarning ikki tipini ajratadi: 1) *ma’nosiz imo-ishora* (ko’z qisish qabilidagi avtomatik refleks); 2) *ma’noli imo-ishora* (bu holda odamlar sirtidan ko’rsatilgan ta’sirga o’z-o’zidan javob bermaydilar, balki javob berishdan oldin harakatning ma’nosini aniqlashga harakat qiladilar).

J.Mid *rollarga asoslangan xulq-atvor* tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi: xulq-atvor reaksiyalar va stimullardan emas, balki individ o’z zimmasiga olgan va boshqa kishilar bilan muloqot jarayonida “o’ynaydigan” rollardan tarkib topadi. J.Midda “Men” to’laligicha ijtimoiy xususiyat kasb etadi. “Men”ning boyligi va o’ziga xosligi uning o’zini qurshagan muhit bilan o’zaro aloqalarining doirasi va rang-barangligiga bog’liq bo’ladi. J.Mid fikriga ko’ra, shaxs strukturasini quyidagi formula yordamida ifodalash mumkin: $Self = I + Me$ (Men-sintez = Men-o’zim + Men-meni). Integral Men individual, yashirin motivlar (“men-o’zim”) va individga sirtidan beriladigan mo’ljallar (“men-meni”) yig’indisidan tarkib topadi.

Ch.Kuli (1864–1929) – simvolik interaksionizm namoyandasi. U jamiyat va shaxs azaldan yagonadir, ulardan birini boshqa orqali tushuntirish mumkin, deb hisoblaydi. “Ko’zgudagi Men” nazariyasini ilgari suradi. Shaxs mezoniga tayanuvchi ilk *ijtimoiy-psixologik* konsepsiyalardan biri sanalgan bu nazariya inson “tabiati”dan emas, balki kishilarning o’zaro aloqalaridan kelib chiqadi. “Ko’zgudagi Men” uch elementdan tarkib topadi: 1) menga boshqalar qanday munosabatda; 2) menga bo’lgan munosabatga boshqalar qanday munosabatda; 3) boshqalar munosabatiga mening munosabatim qanday.

Simvolik interaksionizmning *afzalliklari va kamchiliklari*: 1) ijtimoiy o’zaro aloqani boshqa nazariya (ijtimoiy ayirboshlash nazariyasi)ga qaraganda teranroq tushunish imkonini

beradi: odamlar bir-birining xulq-atvoriga munosabat bildirish bilan bir qatorda, uni sharhlaydilar; 2) biroq o'zaro aloqaning sub'yektiv jihatlariga, simvollar roliga haddan tashqari ko'p e'tibor beradi va shu tariqa jamiyat ijtimoiy strukturasi rolini kamsitadi; jamiyat bajariladigan rollar yig'indisi bilan bog'lanadi, biroq ijtimoiy rollarning o'zi qayerdan paydo bo'lishi tahlil qilinmaydi.

Sotsiometriya (lot. societas – jamiyat va yunon. metreo – o'lchayman) – kichik guruhlarda ijtimoiy jalb qiluvchanlik darajasini “o'lchash” metodi; sotsiologiyani kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdor metodlari yordamida o'rganuvchi tarmog'i; guruh a'zolari o'rtasidagi simpatiyalar va antipatiyalarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratadi.

J.Moreno (1892–1974) – amerikalik psixiatr, ijtimoiy psixolog, sotsiometriya asoschisi. J.Moreno sotsiumning barcha darajalarini qamrab oladigan, ijtimoiy muammolarni tadqiq etish bilan bir qatorda, ularni yechishga ham ko'maklashadigan fanni yaratish zaruriyatidan kelib chiqadi. J.Moreno fikriga ko'ra, insonning ruhiy salomatligi uning kichik guruhdagi o'rniga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Simpatiyalar va noformal aloqalarning taqchilligi hayotda qiyinchiliklar tug'diradi. J.Moreno mikrosotsiologiyani empirik ko'rinishi sifatida sotsiometriyani ishlab chiqadi. Sotsiometriya metodlari insonning kichik guruhdagi o'rnini aniqlash, uning muammolarini tushunish va psixoterapevtik protsedurani olish imkonini beradi.

Quyidagi atamalar farqlanadi:

- “sotsionomiya” – asosiy ijtimoiy qonunlar haqidagi fan;
- “sotsiodinamika” – kichik guruhlarda yuz berayotgan jarayonlar haqidagi fan;
- “sotsiometriya” – kichik guruhlardagi shaxslararo o'zaro munosabatlarni aniqlash va miqdoriy o'lchash metodlari tizimi;
- “sotsiatriya” – muammolari va qiyinchiliklari kichik guruhlarda o'zini tutish ko'nikmalari yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan kishilarni davolash metodlari tizimi.

P.A.Sorokin sotsiologiyasi. P.A.Sorokin (1889–1968) – taniqli rus sotsiologi. “Sotsiologiya tizimi” (1920), “Ijtimoiy mobillik” (1927), “Zamonaviy sotsiologik nazariyalar” (1928), “Ijtimoiy va madaniy dinamika” (1937–1941), “Jamiyat, madaniyat va shaxs” (1947) asarlarida madaniyatning sotsiologik jihatlarini to'liq qamrab oluvchi “integral” sotsiologiya haqidagi ta'minotni rivojlantirgan.

“Sotsiologiya tizimi”da P.A.Sorokin *o'zaro aloqaga* har qanday ijtimoiy hodisaning eng sodda *modeli* sifatida qaraydi. O'zaro aloqaning tarkibiy elementlari sifatida quyidagilar amal qiladi: 1) individlar; 2) harakatlar; 3) muloqot vositalari (interaksiya simvollar). Mazkur elementlar o'rtasidagi sababiy-funksional bog'lanishlar har qanday ijtimoiy tizimning real

birlikini tashkil etadi. O'zaro aloqa vositalari sifatida turli xil simvollar (til, yozuv, musiqa, san'at, pul va h.k.) amal qiladi. O'zaro aloqa antagonistik yoki solidaristik, bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin.

P.A.Sorokinning ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy mobillik haqidagi nazariyalari alohida diqqatga sazovordir. Olim guruhda vertikal ijtimoiy tabaqalanishga birinchi bo'lib jiddiy e'tibor beradi. *Ijtimoiy stratifikatsiya* – jamiyatning tabiiy va ijtimoiy tabaqalanishidir. U iyerarxiyaviy xususiyat kasb etadi, institutsionallashtirish vositasida qo'llab-quvvatlanadi, muttasil rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. P.A.Sorokin sotsiologiya faniga "ijtimoiy mobillik" tushunchasini kiritadi va bu muammoni ancha mufassal o'rganadi. *Ijtimoiy mobillik* ham jamiyatning tabiiy va normal holatidir. U individlar va guruhlarining ijtimoiy o'zgarishlarini ham, ijtimoiy ob'ektlar (qadriyatlar), ya'ni inson tafakkuri mahsullarining ijtimoiy o'zgarishlarini ham nazarda tutadi.

Ijtimoiy mobillik – jamiyat hayotining muhim ko'rsatkichi. U jamiyat rivojlanish jarayonining turli bosqichlarida sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, vertikal mobillikning yuksak darajasi muayyan jamiyatning ochiqqligi va demokratikligining muhim mezonini hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:, "O'zbekiston", 2014 yil .
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi Qonuni 2016 yil 15 sentabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T 2011
5. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati. Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida nutq. 2014 yil, 15-may
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat" 2008 y
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
8. Aliqoriev N.S. va b. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent.: 1999.
9. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994
10. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Toshkent.: 2000
11. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002
12. Ubaydullaeva B., O. Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. «Ijtimoiy fikr» Markazi. – Toshkent.: 2001
13. Umarova R. «Sotsiologiya.» O'quv qo'llanma. - T. TMI, 2010.
14. Sotsiologiya //Uchebnoe posobie. Pod redak. prof. Lavrenenko V.N. –Moskva.: «YuNITI». 2012
15. Frolov S.S. Obshaya sotsiologiya. //Uchebnik. Moskva.: «Prospekt». 2012
16. Toshchenko J.T. Sotsiologiya. //Uchebnik. Moskva.: «YuNITI». 2012
17. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot. 1993

3. Jamiyat dinamik tizim sifatida. Ijtimoiy stratifikatsiya

Reja:

1. Sotsiologiyada jamiyat tushunchasi uning belgilari va jamiyatlarning turlari.
2. Ijtimoiy institutni ta'riflashga nisbatan yondashuvlar.
3. Tashkilotlar sotsiologiyasi. Tashkilotlarning turlari.
4. Ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy tengsizlik. Stratifikatsiyaning tarixiy tiplari.
5. Ijtimoiy mobillik va marginallik.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Jamiyat, mamlakat, davlat, jamoa, dinamik tizim, an'anaviy va zamonaviy jamiyatlar, fuqarolik jamiyati, postindustrial jamiyat, ijtimoiy stratifikatsiya, tabaqalar, toifalar, ijtimoiy institut, tashkilot, jamoat tashkilotlari.

1. Sotsiologiyada jamiyat tushunchasi uning belgilari va jamiyatlarning turlari

Ma'lumki, insonlar bir-biridan alohida yashay olmaydilar. Inson o'z tabiatiga ko'ra, jamiyatning bir bo'lagidir. Masalan, biron kechada birga ishtirok etayotgan do'stlar, badiiy adabiyot ixlosmandlari, kitobsevarlar jamiyatlari va boshqalar shular jumlasidan. SHu sababdan ham, tabiiyki, u jamiyat bilan birgalikda rivojlanadi. P. A. Sorokin ta'kidlaganidek, jamiyat tarkib topishi uchun kamida 2 ta odam bo'lishi va ular bilan o'zaro aloqada bo'lishi kerak.

Jamiyat o'zi nima? Umumiy qarashlar doirasida fikrlasak, jamiyat – bu odamlar jamoasi, guruh va yig'indisidir. Biroq jamiyat shunchaki bir guruh to'pori odamlar jamoasi emas. Bu shunday guruhki, unda odamlar o'zaro yaqin aloqada bo'lib, uzviy va barqaror munosabatlarga kirishadi. Bundan kelib chiqadiki, jamiyat unda yashab turgan insonlarning umumiy tomonlarini o'zida namoyon etadi.

«Jamiyat» atamasi hususida turli tushunchalar mavjud. Sotsiologiyada «jamiyat» tushunchasi keng ma'noda insonlarning tabiiy holatdagi o'zaro munosabatlarining tarixiy natijasi sifatida tahlil qilinadi.

Tor doirada esa, ma'lum millat, mamlakat, xalq va aholining ijtimoiy birikmasi sifatida o'rganiladi. Bu ta'rifdan kelib chiqadiki, jamiyat odamlar, ularning ijtimoiy munosabatlari, o'zaro aloqalaridan tashkil topgan yaxlit tizimdir. Undagi aloqalar, munosabatlar, turg'un hussusiyatga ega va tarixiy jarayonda avloddan avlodga o'tib, yanada mustahkamlanib boradi. Jamiyat bu odamlarning shunday jamoasiki, u insonlarning o'zaro munosabatlari yordamida faoliyat ko'rsatadi. Odamlar, ijtimoiy harakatlar va aloqalar, birlashmalar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, jamoalar, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar jamiyat hayotini tashkil etuvchi tarkibiy qismlaridir.

Bu talqinlardan kelib chiqib, jamiyat odamlardan, ularning o'zaro munosabatlaridan, ijtimoiy aloqalari, ijtimoiy institutlar, tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va jamoalar, ijtimoiy me'yor

va an'analardan tashkil topadi degan hulosaga kelish mumkin. Bu omillarning har biri boshqa biri bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi va jamiyat rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, so'z o'zbek, yapon, rus yoki fransuz jamiyatlari to'g'risida ketmoqda. Jamiyat deganda muayyan tarixiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa o'ziga xos qirralari mavjud bo'lgan makon tushuniladi. Jamiyatga aynan shunday ta'rif bergan amerikalik sotsiolog N.Smelzer jamiyatni ma'lum geografik chegaralari, qonunchilik tizimi, ma'lum miliy (ijtimoiy-madaniy) qadriyatlarga ega bo'lgan aholi, ya'ni odamlar birlashmasi deya qayd etadi.

Sharq uyg'onish davrining buyuk allomasi Abu Nasr Farobiy o'zining Fozil odamlar shahri asarida va ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan bir necha risolalarida jamiyatlarni juda izchil va ilmiy tahlil qilgan. U insonlar jamoasini yashash tarzi va ma'naviy axloqiy qiyofasiga ko'ra "fozil" va "johil" jamiyatlarga ajratib, inson jamoasi to'g'risida maxsus ta'limot yaratgan.

«Jamiyat», «mamlakat», «davlat» kabi o'zaro bog'liq bo'lgan, keng ma'noda ishlatiladigan tushunchalarni o'zaro farqlay bilish ham lozim.

«Mamlakat» – bu sayyoramizning ma'lum bo'lagiga xos geografik hususiyatlarni o'zida akas ettiruvchi, o'z chegaralari bo'lgan mustaqil davlat tushunchasini anglatadi. «Davlat» esa mamlakat siyosiy hayotidagi asosiy tushuncha. Jamiyat – bevosita mamlakatning ijtimoiy tuzilishini o'zida aks ettiradi va shuning uchun ham sotsiologiyada markaziy o'rin egallaydi.

Shunday qilib, sotsiologiyada ijtimoiy tizim, jamiyat sifatida ijtimoiy shakllanish tarixi, o'zaro aloqalari va munosabatlari umumiy bo'lgan odamlar guruhi tushuniladi.

Qanday sifatlariga ko'ra jamiyatlar bir-biridan farqlanadi? Jamiyatning birinchi belgisi bu – ijtimoiy aloqalar sodir bo'ladigan hudud. Hudud – bu individlar o'rtasidagi munosabatlar shakllanib rivojlanadigan kenglik asosidir. Jamiyatlarni bir-biridan farqlab turadigan yana bir muhim jihati – ichki o'zsib boruvchi ijtimoiy munosabatlardir, o'zaro muvofiqlashgan ijtimoiy faoliyat tizimidir. E.Dyurkgeym jamiyatni bir yaxlit jamoat, tasavvurlari, maqsadlari, his-tuyg'ulari, dini umumiy bo'lgan insonlar guruhi deb ta'kidlaydi. Bu uyg'unlikda jamoa ongi individ egoizmiga qarama-qarshi holatda namoyon bo'ladi.

M.Veber esa bu uyg'unlikni ijtimoiy omillar bilan bog'laydi. T.Parsons va N.Merton ta'limotlarida: «Jamiyatda odamlarni ustqurmaviy me'yorlar, qadriyatlar, hayotiy faoliyatda amal qilinadigan barcha omillar birlashtiradi, – deyiladi. E.Shilz jamiyatni markaziy hokimiyat, hududiy yaxlitlik va markaziy boshqaruvga hamohang tushunchalar bilan bog'liq tarzda o'rganadi. Jamiyatning uchta o'ziga xos belgisi bor. Bu sifatlar uning mustaqilligini belgilovchi, o'z-o'zini boshqara olish darajasini bildiradi. Jamiyatning mustaqilligi uning a'zolariga o'z ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat yaratib berishi, tor darajadagi kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishi, madaniyat, fan va boshqa sohalaridagi yutuqlar bilan tanishishi, o'z vazifalarini

ado etishi uchun shart-sharoitlar yaratishida namoyon bo'ladi. Bu imkoniyatlar insonlarga o'z maqsadlariga erishishda yangilik va qulaylik yaratib beradi.

Jamiyatning to'rtinchi farqli belgisi shuki, u muvofiqlashish xususiyatiga ega. Har bir yangi avlod jamiyatda ijtimoiy sharoitlarga muvofiq shakllanadi. Bu yo'nalishda yangicha ijtimoiy ta'lim, turli me'yorlar institutsional tarzda rivojlanib boradi. Shu bilan bir vaqtda odamlarga azaldan urf bo'lib qolgan an'analar, axloqiy me'yorlar saqlab qolinadi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, jamiyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq. Jamiyat – bu tarixiy shakllanish bosqichlari, o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida birlashgan, g'oyalari va maqsadlari uyg'un bo'lgan, ishlab chiqarish va ta'minoti mustaqil va barqaror bo'lgan odamlar jamoasidir. Bu jamoa o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z madaniy salohiyati, o'ziga xos ijtimoiy me'yorlari va qadriyatlari mavjud bo'lgan o'zaro aloqalari va munosabatlari umumiy maqsadlarga yo'nalgan insonlar guruhidir.

Hozirgi kunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati: – (Ko'proq G'arbda; Skandinaviya davlatini misol keltirish mumkin).

2. Iste'mol qilish jamiyati (AQShda XX asr 40–50-yillarda yuzaga kelganligi bilan xarakterlanadi).

3. Ochiq va yopiq jamiyat. Ochiq jamiyat - demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat. Yopiq jamiyat – dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrli (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivism tamoyillari bilan xarakterlanadi.

4. Industrial (sanoat) jamiyati. (XX asr 50-60 -yillarida yuzaga keldi. Bu konsepsiya o'z mohiyatiga ko'ra, markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya to'g'risidagi ta'limotlarga qarshi qaratilgan.

An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvchilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralangan edi. Chunki, an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimoti va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirish, jamiyat a'zolarini bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etar edi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o'rni yuksalib bordi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga ta'sir

etish darajasi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi - uning sekinlik bilan yuksak ta'lim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarning qonunlar, me'yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirishning rasmiy tizimini shakllanishi, ijtimoiy boshqaruvning takomillashgan tizimini yaratilishi, dinni davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ldi. XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklari fuqarolik jamiyati, deb atala boshlandi.

Fuqarolik jamiyati g'oyasi oliy maqsad sifatida bir necha asrlardan beri yashab kelmoqda. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda aholining biron-bir guruhi boshqa bir guruhni o'ziga bo'ysundira olmaydi, shuningdek, erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi ko'plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Bu g'oya 80-yillarda avj olgan demokratiyalashtirish jarayoni natijasida alohida mazmun kasb eta boshladi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilina boshlandi.

Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshhalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata olishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug'vorligini yuksaklikka ko'taradi.

Hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarida barpo etilgan fuqarolik jamiyatlari to'g'risidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan bo'lsak, u qolda fuqarolik jamiyati bu:

- avvalo, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir;

- ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, aqloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

- uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli davlat organlari tazyiqlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

SHu bilan bir qatorda, hozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar; kooperativ-shirkatlar; ijara jamoalari; aksiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; korporatsiyalarning mavjudligi.

Ijtimoiy sohada: oila; partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o'z-o'zini boshqarish organlari; nodavlat ommaviy axborot vositalari; jamoatchilik

fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning zamonaviy shakllari, ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligidir.

Ma'naviy sohada: so'z, vijdon va fikrlar erkinligi; o'z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jiqlatlardan ta'minlaganligi.

SHuningdek, fuqarolik jamiyatining barharorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo'lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat a'zolarining to'la mustaqillik bilan faoliyat ko'rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi ijtimoiy, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo'lishi ham taqozo qilinadi.

So'nggi shart-sharoit esa har bir fuqaroning o'z mulkiga ega bo'lishi, bu mulkni o'zi istagan tarzda tasarruf qila olishi uchun uning shaxsiy yoki jamoaviy huquqi ta'minlagan bo'lishi lozimligidir.

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga ko'rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini o'z-o'zini boshqarish va jamoat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilar ekan.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z vazifalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa alohida o'z vazifalari bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi. Davlatning ham, nodavlat tashkilotlarning ham o'z harakat doirasini o'zlari uchun belgilagan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o'zgarganda ham bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me'yordan chekinish yoxud chetga chiqib ketish ro'y berishi mumkinligini asrimizning so'nggi davrdagi rivojlanish amaliyoti ko'rsatdi.

Fuqarolik jamiyati insonlardagi o'z-o'zini anglash, ularning ob'yektiv ravishdagi mas'uliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu jamiyatda shakllangan mamlakatlar fuqarolari siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatining asosi - jamoat tashkilotlari. Va shu bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - bu nodavlat tizimidagi barcha jamoat tashkilotlariga a'zolikning ixtiyoriy shaklda bo'lishidir. Bu qoida, birinchidan, shu jamiyatdagi demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, ikkinchidan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi. Qolaversa, har bir fuqaro o'zi kirmoqchi bo'lgan tashkilot faoliyatida o'zining manfaatlarini va ehtiyojlariga mos maqsadlarga erishishiga ishonch hosil qilganidan so'nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'la oladi.

O'tgan asrning 80-yillari oxiri - 90-yillar boshida totalitar tuzumdan endigina xalos bo'lgan, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekistonda yangi jamiyat va davlatni bunyod etish islohotlarining jahon tajribasining qanday yo'lidan borishi hali aniq va ravshan emas edi. Lekin, mamlakat rivojining bosh yo'li tanlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov quyidagi maqsadni ilgari surdi: «Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil adolatli jamiyatni bunyod etish - bosh vazifadir... Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishinikafolatlashi kerak»⁸.

Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyati qurish stregiyasiyani shakllanishida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» konseptual tamoyil muhim ahamiyat kasb etdi.

Mamlakat tarixida birinchi marta Konstitutsiyaning 2-moddasida quyidagi xalq suverenitetiga xos tamoyil e'lon qilindi: «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar»⁹. Konstitutsiyaning mazkur moddasida ilk bor fuqarolik jamiyati amal qilishi mumkin huquqiy asos mujassamlashdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan **“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”**ning beshinchi yo'nalishini **“Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish”** deb nomlanishining o'zi bu sohada amalga oshiriladigan vazifalarni davlatning eng asosiy strategik ahamiyatga molik maqsad ekanligini anglatadi.

Hozirgi davrga kelib “mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili bugungi kunda jahon bozorida kon'yunktura o'zgarib, raqobat tobora kuchayib borayotganini har tomonlama hisobga olishni, shu asosda davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha strategik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etayotganligini” e'tiborga olgan holda, shuningdek “olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021yillarga mo'ljallangan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmonini qabul qilinishi

⁸Karimov I.A.O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li.//O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I.-T.: O'zbekiston, 1996.-B.44-45.

⁹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston, 2014.

mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yani bosqichini boshlanganligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Bu yo'l - erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir.¹⁰ deb ta'kidlab o'tgan.

2. Ijtimoiy institutni ta'riflashga nisbatan yondashuvlar

“Ijtimoiy institut” tushunchasi sotsiologiyada keng o'rin egallaydi. Jamiyat hayotining tizimli-strukturaviy tahlilida u kishilarning turli-tuman harakatlarini ijtimoiy tizimning asosiy maqsadlari va ehtiyojlari bilan ularni bog'lash orqali umumlashtirish imkoniyatini nazarda tutadi. SHu ma'noda ijtimoiy institutni ijtimoiy strukturaning kishilar individual harakatlarini birlashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi, jamiyat hayotining muhim jabhalarida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bosh komponenti sifatida tushunish o'rinli bo'ladi.

“Institut” atamasi ko'p ma'noli so'zlar qatoriga kiradi. yevropa tillariga u lotin tilidan institutum – tartibot, tuzilma so'zi orqali kirib kelgan. Vaqt o'tishi bilan u ikki xil ma'no – tor texnik (ixtisoslashgan ilmiy va o'quv muassasalari nomi) va keng ijtimoiy (muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarga doir me'yorlar majmui, masalan, nikoh instituti, vorislik instituti) ma'nolar kasb etgan. Tor texnik ma'noda “institut” so'zini biz muayyan muassasalar nomida ishlatamiz. Masalan, O'zR FA Falsafa va huquq instituti – bu konkret muassasa, fan esa – ijtimoiy institut, jamiyatning tarkibiy qismi, barcha konkret muassasalar majmui.

“Institut” tushunchasini huquqshunoslardan o'zlashtirgan sotsiologlar unga yangi mazmun yukladilar. Ammo ilmiy adabiyotlarda institut tushunchasini ta'riflashga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas.

Ijtimoiy institut jamiyat ijtimoiy strukturasiining yetakchi komponenti sifatida ta'riflanadi. U jamiyat hayotining ayrim sohalarida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi kishilarning individual harakatlarini birlashtiradi va muvofiqlashtiradi. Ijtimoiy institutlar ijtimoiy maqomlar va rollarning keng ko'lamli birlashmalaridir. Bundan tashqari, institut deganda simvollar, e'tiqodlar, qadriyatlar, me'yorlar, rollar va maqomlarning jamiyat hayotining muayyan sohasini boshqaruvchi, nisbatan barqaror va yaxlit majmui (oilalar, din, ta'lim, iqtisodiyot, boshqaruv va h.k.)ni ham tushunadilar.

Shunday qilib, ijtimoiy institut quyidagilarni o'zida ifodalaydi:

- rollar, normalar va maqomlarni o'z ichiga olgan tizimni;
- odatlar, an'analar va xulq-atvor qoidalari majmuini;

¹⁰ Shavkat Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent “O'zbekiston”. 2016 y. 8 b.

- formal va noformal tashkilotni;
- ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi normalar va muassasalar majmuini;
- ijtimoiy harakatlarning alohida kompleksini.

Ijtimoiy institutlarni ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi normalar va mexanizmlar majmui (oilalar, ishlab chiqarish, davlat, ta'lim, tibbiyot va sog'liqni saqlash, din) sifatida tushungan holda, sotsiologlar ijtimoiy institutlar jamiyatning bazaviy elementlaridir, degan tasavvurni chuqurlashtirdilar.

3. Tashkilotlar sotsiologiyasi. Tashkilotlarning turlari, modellari

Bugungi kunda tashkilotlar sotsiologiyasi umumiy sotsiologiyaning eng rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda u yaxlit va monolit fan emas, balki faol rivojlanayotgan ko'p modeli ta'limotidir. Uning namoyandalariga fikrlar plyuralizmi va bahs-munozaraga moyillik xos. Aynan bahs-munozara mazkur fanning qizg'in rivojlanish manbai hisoblanadi.

Tashkilot alohida ijtimoiy ob'yekt bo'lib, u ayni paytda kollektiv faoliyat ishtirokchisi sifatida ham amal qiladi. Aniq maqsadga qaratilgan, muayyan strukturaga ega bo'lgan ijtimoiy institut sifatida tashkilot turli faoliyatlarni umumiy maqsadlarga erishish yo'lida birlashtirishni ta'minlaydi.

Tashkilotning sotsiologiya doirasida o'rganiladigan alohida ijtimoiy ob'yekt sifatidagi xususiyati shundaki, u ba'zi bir ijtimoiy jarayonlarni va sotsiologiya doirasida o'rganiladigan ayrim muhim muammolarni o'zida mujassamlashtiradi. Sotsiologiya doirasida tashkilotlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ularning ijtimoiy tabiati va jamiyatdagi muhim roli bilan belgilanadi.

Tashkilotlar turli mezonlar, chunonchi: mulk shakli; faoliyat turi, maqsadi va xususiyati; xodimlarning tashkiliy maqsadlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari; ta'sir ko'lami; bajaradigan funksiyalarining soni; tashqi muhit tipi va u bilan o'zaro aloqa qilish usuliga ko'ra tasniflanadi. SHuningdek turli asoslarga ko'ra sotsiyetal va lokal, skalyar va lateral, ma'muriy va ijtimoiy, amaliy va xayriya, xususiy, aksiyadorlik, kooperativ, davlat va jamoat tashkilotlari farqlanadi. Ularning barchasi bir qator umumiy jihatlarga ega va tashkilotlar sotsiologiyasi ob'yekti sifatida o'rganilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining statistika organlarida jamoat tashkilotlarini tasniflashning o'z mezonlari mavjud. Ularning yordamida ishlab chiqilgan tasnifga ko'ra mamlakatda quyidagi jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi:

O'zbekistonda jamoat tashkilotlari	
Siyosiy birlashmalar	Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, yoshlar siyosiy tashkilotlari, yurtdoshlar uyushmalari, chet mamlakatlarning xalqlari bilan do'stlik jamiyatlari
Tijorat faoliyati sohalari bo'yicha jamoat birlashmalari	Direktorlar, tadbirkorlar, kooperatorlar birlashmalari, savdo-sanoat palatalari va boshq.
Kasaba uyushmalari	Kasaba uyushmalari, federatsiyalari, konfederatsiyalari
Ijodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy jamoat birlashmalari	Yozuvchilar, jurnalistlar, rassomlar, arxitektorlar, artistlarning ijodiy uyushmalari, ilmiy, ilmiy-texnikaviy uyushmalar, ixtirochilar va ratsionalizatorlarning uyushmalari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar (masalan, kitob havaskorlari, madaniyat yodgorliklarini muhofaza qiluvchilar jamiyatlari)
Jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari	Sport, mudofaa-sport, ovchilar, avtohavaskorlar, o't o'chiruvchilar, sog'lomlashtirish jamoat birlashmalari
Ijtimoiy himoya jamoat birlashmalari	Xotin-qizlar, talabalar, bolalar, faxriylar, birlashmalari, nogironlar uyushmalari, qizil xoch va qizil yarim oy jamiyati, ijtimoiy jamg'armalar (bolalar, tinchlik jamg'armalari va h.k.)
Diniy tashkilotlar	Diniy uyushmalar, boshqaruvlar va markazlar, monastirlar, missionerlik uyushmalari, diniy tashkilotlarning birlashmalari

3.1 jadval

Jamoat birlashmalarining mamlakatda qabul qilingan tasnifi quyidagi tashkilotlarni ajratish imkonini beradi: fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari (qishloqlarda

fuqarolarning yig'inlari); uy-joy mulkdorlari shirkatlari; tashabbus guruhlari; jamoat tashkilotlari (nodavlat notijorat tashkilotlari), chunonchi: diniy tashkilotlar; tijorat tashkilotlari; madaniy tashkilotlar (markazlar); ijtimoiy himoya birlashmalari.

Bosh Qomusimizning 56 moddasida “O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘xatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e‘tirof etiladi¹¹” deb, uning huquqiy ob‘yekti o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq *nodavlat notijorat tashkiloti* – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarga erishish, ma‘naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

2010 yilning noyabr’ oyida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining tashabbusi bilan qabul qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ko‘ptarmoqli NNTlarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash yangi bosqichining boshlanish davri bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlari rivojlantirishda ijtimoiy institutlar kuch va imkoniyatlarini faoliyatini “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgariidek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari - mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o‘rin egallaydi, deb ishonamiz.¹² deb ta’kidlab o‘tgan.


Hozirgi davrda O‘zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy partiyalar faoliyati 1991 y. 14 fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi Qonuni (1997 y. aprelda qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan), O‘zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni (1992 y. iyul’), O‘zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi Qonuni (1996 y. dekabr’), O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1998 y. may), O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari

¹¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O‘zbekiston, 2014

¹² Shavkat Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent “O‘zbekiston”. 2016 y. 8 b.

to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1999 y. aprel'), O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni (1999 yil aprel') kabi qonunlar vositasida muvofiqlashadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham o'z ifodasini topgan. birinchi ustuvor yo'nalish **Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish**: xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish; fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish; mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish; ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.¹³da ko'rsatib o'tilgan.



3.2 jadval

O'zbekistonda NNTlarning o'sish suratlari

Fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari – mahalla asosida tuzilgan tashkilot. Mahalla – O'zbekiston shaharlari va qishloqlarida mavjud jamoa bo'lib, u mamlakat qonun hujjatlariga muvofiq birlamchi hududiy-ma'muriy birlik hisoblanadi. “Mahalla” arabcha so'z bo'lib, mahalliy jamoa, ya'ni muayyan hududda yashovchi kishilar, qo'shnilar uyushmasi degan ma'noni anglatadi. Mahalla 150 tadan 1500 tagacha oilani o'z ichiga olishi mumkin. Mahalla mahalliy hokimiyat organi sifatida yaqinda tan olingan bo'lsa, mahalla yig'inlari

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi” 4947-sonli Farmoni

(hozirda mahalla qo'mitalari) mahalla instituti sifatida bir necha yuz yillardan beri mavjud¹⁴. Mahalla yig'iniga mahalla aholisi tomonidan saylanadigan oqsoqollar rahbarlik qiladilar. Ular mahallada yetakchi rol' o'ynaydilar, bu yerda jamoatchilik fikrini shakllantiradilar. Mahallada kishilarni birlashtirishning bosh mezonini sifatida hududiy belgi amal qiladi. Bugungi kunda mahalla instituti ko'p sonli ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Ularning ayrimlari mahallada azaldan mavjud bo'lsa, ayrimlari unga davlat tomonidan yuklangan. Mahalla qo'mitasi faoliyatining benefitsiariylari sifatida mahalli aholisi amal qiladi.

O'zbek oilasi azaldan mahalla bilan bog'liq. Ba'zi bir tadqiqotchilar mahallani "O'zbekistonning noan'anaviy jamoasi" deb hisoblasalar, ayrimlar uni "Sharq demokratiyasi milliy maktabi" deb ataydilar. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ning birinchi ustivor yo'nalishida ham "Mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyatining samaradorligini oshirish"ga alohida e'tibor qaratilgan.¹⁵ Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda mahalla alohida rol' o'ynaydi. Bu yerda eng yaxshi an'analar avaylab asraladi va avlodlardan avlodga o'tkaziladi. Mahalla insonning ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi hayot maktabidir. Yosh avlodni komil inson sifatida voyaga yetkazishda mahalla ayniqsa faol ishtirok etadi.

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari – sho'ro davrida mavjud bo'lgan, shahar mavzalaridagi ko'p kvartirali uylar kompleksining faoliyati uchun javobgar bo'lgan uy-joy-kommunal xo'jaliklarini takomillashtirish mahsuli sifatida vujudga kelgan nisbatan yangi birlashma. Uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risidagi qonun 1999 yilda qabul qilingan. Unga muvofiq uy-joy mulkdorlarining shirkati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uy-joy mulkdorlarining uydan foydalanishni, uning saqlanishini birgalikda boshqarish va ta'minlash, umumiy foydalanishdagi ob'ektlarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlari tartibini aniqlash, umumiy mulkdagi mol-mulkning lozim darajadagi holatini ta'minlash maqsadidagi birlashmasidir. Uy-joy mulkdorlarining shirkati notijorat tashkilot bo'lib, bitta yoki yaqin, zich joylashgan, umumiy yer uchastkasi va infratuzilma elementlari bir bo'lgan bir nechta uyda yoxud uyning boshqa qismlaridan alohida kirish joyi bo'lgan, kamida bitta blok-seksiya hajmidagi mustaqil qismida turar joy mulkdorlaridan kamida yarmining xohishiga ko'ra, ta'sis majlisining qarori bilan tashkil etiladi. Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining benefitsiariylari sifatida tegishli shirkat hududi aholisi va bu yerda joylashgan mulk egalari amal qiladilar.

¹⁴ Mahalla qo'mitasi O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarish asosiy organi hisoblanadi. Mahalliy hokimiyatlar mahalla qo'mitasida saylab qo'yiladigan ikki lavozim: rais va kotibni nazarda tutadi. Qarang: Экспертный Центр социальных исследований. Опрос малоимущих (май 1999 г.). – 7-6.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" 4947-sonli Farmoni

Diniy tashkilotlar – u yoki bu dinga mansub bo'lgan kishilarning manfaatlarini ifoda etuvchi tashkilotlar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi. Diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi. Diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin

Tijorat faoliyati sohalari bo'yicha jamoat birlashmalari – kasbiy belgiga ko'ra uyushgan va o'ziga xos jamoani tashkil etuvchi kishilarning manfaatlarini ifodalovchi jamoat birlashmalari. Bunday tashkilotlarning ko'pchiligida benefitsiariylar sifatida ularning o'z a'zolari amal qiladilar. Bunday tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining barcha mintaqalarida tuzilgan va faoliyat olib boradi.

Madaniy (milliy, etnik) markazlar – kishilarni asosan etnik belgiga ko'ra birlashtiruvchi va ularning manfaatlarini ifoda etuvchi jamoat birlashmalari. Diniy tashkilotlar kabi, madaniy markazlar ham O'zbekiston hududida uzoq yillar mobaynida yashab kelayotgan jamoalar negizida tashkil etiladi.

Ijtimoiy himoya birlashmalari – faoliyati aholining alohida guruhlarini, masalan, nogironlar, ko'rlar va hokazolarning manfaatlarini ifoda etish va himoya qilishga qaratilgan tashkilotlarning umumiy nomi. Mazkur birlashmalar O'zbekistonda nisbatan yangi, noan'anaviy tuzilmalardir. Mazkur tashkilotlar aksariyat hollarda nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida tavsiflanadi va ayni shu tashkilotlarni, tashabbus guruhlarini bilan bir qatorda, jamoat tashkilotlari qatoriga kiritish mumkin.

Tashkilotlar va ijtimoiy tartib. Kishilar guruhining birgalashib faoliyat olib borishga, muayyan umumiy maqsadlarga erishishga bo'lgan ehtiyoji tashkilot vujudga kelishi uchun asos bo'ladi. Kollektiv faoliyatni ta'minlash uchun tashkil etiladigan ijtimoiy tuzilma sifatidagi tashkilot faoliyatining zaruriy sharti turli xil faoliyatlarni yagona jarayonga birlashtirish, umumiy maqsadlarga erishish yo'lida kishilar kuch-g'ayratini uyg'unlashtirish hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, muayyan ijtimoiy tartibni o'rnatish: birinchidan, faoliyat ishtirokchilaridan har birining erkinligi, mustaqilligi va faolligini cheklash; ikkinchidan, o'zaro aloqani tartibga soluvchi va mazkur munosabatlarni standartlashtirish uchun zamin yaratuvchi muayyan qoidalarini belgilashni, bir so'z bilan aytganda, harakatlarning aniqligi va bir-biriga muvofiqligini

ta'minlashni nazarda tutadi. Aynan ijtimoiy tartibni ta'minlash va saqlash tashkilotning eng muhim funksiyasi hisoblanadi.

Bu shart har qanday yirik tashkilotning boshqaruv faoliyatini ikki qismga ajratishni nazarda tutadi: birinchi – asosiy faoliyatni amalga oshiruvchi kishilarni boshqarish funksiyalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ma'muriy faoliyat (maqsadni belgilash, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat); ikkinchi – tashkilotni boshqarish, uning faoliyat ko'rsatishi va uni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi funksional faoliyat (keyinchalik – menejerlik faoliyati). Bunday ajratish zaruriyati tashkilot asosiy faoliyatining tabaqalanishi va murakkablashishi bilan belgilanadi.

Tashkilot ichki strukturasi elementlari. Tashkilot ichki muhiti va vaziyatga doir ichki o'zgaruvchilarining muhim elementlaridan biri **tashkiliy maqsadlardir**. Tashkiliy strukturani shakllantirishda va tashkilot faoliyatida maqsadlar alohida rol' o'ynashini boshqaruvni tashkil etish bo'yicha mutaxassislarning deyarli barchasi qayd etadi.

Tashkilot maqsadlari deganda odatda kutilayotgan kelajakning ideal obrazi yoki rejalashtirilayotgan natija tushuniladi. Maqsadni belgilash muammosi tashkilotlar va boshqaruv nazariyasi doirasida faol tadqiq etiladi. Zamonaviy tashkilotni boshqarish bitta maqsad emas, balki maqsadlar tizimi mavjudligini nazarda tutadi. Bunda maqsadlar bilan ishlash boshqaruvchi faoliyatining alohida sohasi sifatida maydonga chiqadi. Ayni holda boshqaruvchi ustuvor maqsadlarni tanlash va ularni “natija – narx” atamalarida muvozanatga solish bilan shug'ullanadi. Ko'p sonli maqsadlarni amalga oshirish natijalariga baho berish bugungi kunda ko'pincha tashkilotning samaradorlik darajasini baholashning asosiy usuli sifatida qaraladi.

Ichki muhitning maqsad tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yana bir muhim elementi **strategiyadir**. Bu ichki muhitning tashkilotni rivojlantirish oqilona mantiqini birlashtiruvchi vaziyatga doir o'zgaruvchisidir. Strategiya deganda odatda tashkilotni rivojlantirish uzoq muddatli rejasining tashkilot real va potensial imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zaro munosabatlarning istiqbollari qarang mo'ljalluvchi tur xili tushuniladi. Strategiya uzoq muddatli maqsadlar, qisqa muddatli va yordamchi maqsadlar ro'yxatini, resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish usullarini, xodimlarning o'zaro munosabatlarini hamda faoliyatni amalga oshirish masalalarini tartibga soluvchi qoidalarini o'z ichiga oladi. Strategiya har doim tashqi muhit holatining o'zgarishi bilan bog'liq holda vujudga keladi, tashkilotning aktual va potensial imkoniyatlarini hisobga oladi.

Tashkilot ichki muhitining uchinchi muhim elementi va ayni paytda vaziyatga doir o'zgaruvchi **texnologiya** bo'lib, u tashkilot strukturasi holatini belgilovchi qudratli omillardan biri hisoblanadi. Tor ma'noda texnologiya – bu faoliyat vositalarining xom ashyoni belgilangan xossalarga ega bo'lgan pirovard mahsulot (xizmat)ga qayta ishlashni ta'minlash

imkonini beruvchi majmui (asbob-uskunalar, infratuzilma, xodimlarning texnik bilimlari va ko'nikmalari)dir. Texnologiya tushunchasining keng talqini unga rejalashtirilgan natijaga erishishni ta'minlovchi har qanday faoliyat algoritmi sifatida qarashni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv ushbu tushunchani axborotni qayta ishlash va boshqaruv jarayonlariga tatbiq etish imkonini beradi.

4.Ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy tengsizlik. Stratifikatsiyaning tarixiy tiplari

Stratifikatsiya (lot. stratum – qatlam, facere – qilmoq) – jamiyatni o'z ijtimoiy maqomi bilan ajralib turadigan turli ijtimoiy qatlamlarga ajratish jarayoni va natijasi. Bular hokimiyat yoki boylikning teng bo'lmagan hajmlari, turli huquqlar va burchlar bo'lishi mumkin.

“Stratifikatsiya” atamasini sotsiologiya geologiyadan o'zlashtirgan. Geologiyada stratifikatsiya yer qatlamlarining vertikal joylashuvini anglatadi. yer po'stlog'i qirqilsa, qora tuproq ostida gil qatlami, undan keyin qum qatlami va hokazolar joylashganini kuzatish mumkin. Sotsiologiya jamiyatning tuzilishini yerning tuzilishiga qiyoslaydi, ya'ni jamiyatni “stratalar” (sinflar, tabqalar, qatlamlar va sh.k.)ga ajratadi. yerning har bir qatlami bir jinsli elementlardan tarkib topganidek, strata ham daromadlari, ma'lumoti, maqomi va nufuzi o'xshash bo'lgan kishilarni o'z ichiga oladi. Yirik ijtimoiy stratalar sinflar deb ham ataladi. Sinflar doirasida kichik stratalar, qatlamlar farqlanadi. Ijtimoiy qatlamlar hokimiyat, boylik, ma'lumot va nufuz darajasi mezoniga ko'ra tasniflanadi.

Ijtimoiy stratifikatsiya – iyerarxiyaviy darajalashtirilgan ijtimoiy tengsizlik, shuningdek individlar va guruhlarini ijtimoiy belgilarga ko'ra o'zaro teng bo'lmagan guruhlariga ajratish jarayoni va natijasi. (Ijtimoiy stratifikatsiya – jamiyatning tabaqalanishi). Stratifikatsiya tizimi ijtimoiy tabaqalanish xususiyati va uni qaror toptirish usulini nazarda tutadi.

Tizim tipi	Tabaqalashtirish asosi	Farqlarni belgilash usuli
Fizik-genetik	Tabiiy belgilar: jins, yosh, jismoniy ko'rsatkichlar	Jismoniy majburlov, odat
Quldorlik	Mulkdorlik va fuqarolik huquqlari	Harbiy majburlov
Tabaqalar tizimi	Diniy va etnik mehnat taqsimoti	Diniy rasm-rusumlar
Qatlamlar tizimi	Davlat oldidagi majburiyatlar	Huquq

Etakratik (davlat hokimiyati)	Hokimiyat iyerarxiyasidagi darajalar	Harbiy-siyosiy hukmronlik
Sinfiy	Mulk (ishlab chiqarish vositalari) hajmlari	Bozorga oid ayirboshlash
Ijtimoiy-kasbiy	Kasb-kor va malaka	Ta'lim sertifikatlari
Madaniy-normativ	Yashash uslubi	Axloqiy tartibga solish va taqlid
Madaniy-simvolik	Sakral (diniy) bilimga egalik	Manipulyatsiya qilish (diniy, texnokratik, mafkuraviy)

3.3 jadval

Har bir jamiyat turli xil stratifikatsiya tizimlari va ularning bir-biriga o'tuvchi ko'rinishlarining murakkab birikmasi hisoblanadi. Jamiyatni qatlamlarga ajratish mezonlari *ob'yektiv* va *sub'yektiv* bo'ladi, shu bois ijtimoiy stratifikatsiyani *ob'yektiv* va *sub'yektiv* omillar – *ob'yektiv* ijtimoiy tabaqalashtirish va *sub'yektiv* ijtimoiy baholash yordamida tushuntirish mumkin.

Ijtimoiy tabaqalashtirish – jamiyatni elementlarga ajratish, ijtimoiy organizmning tarkibiy qismlarini belgilash va ularning ixtisoslashuvi, yangi strukturalar, maqomlar va rollarning paydo bo'lishi. Bu atamani birinchi bo'lib G.Spenser funksional-ixtisoslashgan institutlar va mehnat taqsimotining paydo bo'lish jarayonini tavsiflash uchun kiritgan. E.Dyurkgeym ijtimoiy tabaqalashtirishni aholi zichligining o'sishi, shaxslararo va guruhlararo aloqalarning kuchayishi bilan bog'lagan.

Ijtimoiy tabaqalashtirishga tarixiy misollar sifatida chorvachilikning dehqonchilikdan ajratilishini, keyinchalik esa – ulardan hunarmandchilik va savdo, so'ngra – fan, ta'lim, boshqaruvning ajralib chiqishini keltirish mumkin. Bugungi kunda tabaqalanish jamiyatni axborotlashtirish bilan uzviy bog'liq. Mazkur jarayon natijasida jamiyatda yangi ixtisosliklar paydo bo'lmoqda, eski kasb-korlar, faoliyat turlari mazmuni yangilanmoqda. Bu jarayonlar jamiyat ijtimoiy strukturasida, turli ijtimoiy guruhlarning maqomlari, manfaatlari, qadriyatlar, normalari, rollari, turmush tarzi va ko'nikmalarida ham o'zgarish yasamoqda.

Ijtimoiy tabaqalanish – individlar va guruhlarini muayyan belgilarga ko'ra bir-biridan ajratish.

Belgi	Ko'rsatkich	Ajratilayotgan guruhlar
Iqtisodiy	Xususiy mulkning borligi/yo'qligi, daromad turi va hajmi, moddiy farovonlik darajasi	Mulkdorlar va xususiy mulkka ega bo'lmagan shaxslar; ko'p va kam daromadli qatlamlar; boylar, o'rtacha ta'minlanganlar, kambag'allar
Mehnat taqsimoti	Mehnat sohasi, turi va xususiyati, malaka darajasi	Ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalarida ishlovchilar, yuqori malakali va past malakali mutaxassislar
Hokimiyat vakolatlari hajmi	Atrofdagilarga o'z mansab mavqei orqali ta'sir ko'rsatish imkoniyati	Oddiy xodimlar, turli darajadagi menejerlar, turli darajadagi davlat boshqaruvi rahbarlari

3.4 jadval

Qo'shimcha belgilar:

1. Ijtimoiy holatga ta'sir ko'rsatuvchi jins va yosh ko'rsatkichlari.
2. Etno-milliy ko'rsatkichlar.
3. Diniy mansublik.
4. Madaniy-dunyoqarashga oid ko'rsatkichlar.
5. Qarindoshlik aloqalari.

Ijtimoiy tabaqalanish – murakkab va ziddiyatlarga to'la jarayon. Bir tomondan, bu jamiyat va shaxsning samarali (ijodiy) rivojlanishini belgilovchi progressiv jarayon, boshqa tomondan esa, tabaqalanish kuchli ijtimoiy tengsizlikka olib kelishi mumkin.

Gorizontal tabaqalanish yoki geterogenlik (yunon. heteros – turli jinslilik) aholini jins, yosh, irq, diniy e'tiqod, millat, yashash joyiga va boshqa shunga o'xshash belgilarga ko'ra guruhlarni nazarda tutadi.

Vertikal tabaqalanish (ijtimoiy tabaqalanish) ko'p sonli ijtimoiy tuzilmalar mavjudligini tavsiflaydi. Bu tuzilmalarning vakillari hokimiyat va moddiy boylik, huquqlar va burchlar, imtiyozlar va nufuzning teng bo'lmagan hajmlariga egalik belgisiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Sotsiologiyada odatda stratifikatsiyaning uch asosiy turi (iqtisodiy, siyosiy, kasbiy stratifikatsiya), shuningdek uning ikkinchi darajali turlari (madaniy-nutqqa oid, yoshga oid stratifikatsiya va h.k.) farqlanadi.

Iqtisodiy tabaqalanish daromad va boylik ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Daromad – individ yoki oilaning muayyan davr (oy, yil)dagi pul tushumlari miqdori. Daromad tushunchasi bilan ish haqi, pensiya, nafaqa, gonorar va boshqa xil tushumlar qamrab olinadi. Daromad odatda hayotni quvvatlashga sarflanadi, biroq jamg'arilishi va boylikka aylantirilishi ham mumkin.

Daromad ayrim individ (individual daromad) yoki oila (oilaviy daromad) muayyan davr mobaynida oluvchi pul birliklarida o'lchanadi.

Siyosiy stratifikatsiya hokimiyat hajmi bilan tavsiflanadi. Hokimiyat – o'z xohish-irodasini amalga oshirish, boshqa kishilar faoliyatini turli vositalar (huquq, zo'rlik ishlatish, avtoritet va h.k.) yordamida belgilash va boshqarish qobiliyati. Hokimiyat hajmi eng avvalo boshqaruv qarori tatbiq etiladigan kishilar soni bilan o'lchanadi.

Kasbiy stratifikatsiya *ma'lumot* darajasi va kasbning *obro'si* bilan o'lchanadi. Ma'lumot – ta'lim olish jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar, uquv va ko'nikmalar majmui (ta'lim olish yillari soni va o'zlashtirilgan bilim, uquv va ko'nikmalar sifati bilan o'lchanadi). Daromad va hokimiyat kabi, ma'lumot ham jamiyat stratifikatsiyasining ob'yektiv o'lchov birligi hisoblanadi. Biroq ijtimoiy strukturaning sub'yektiv bahosini ham hisobga olish zarur, zero stratifikatsiya jarayoni qadriyatlar tizimining shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Mazkur tizim asosida "baholash normativ shkalasi" tarkib toptiriladi. Har bir odam o'z e'tiqodlari va mayllaridan kelib chiqib jamiyatda mavjud kasblar, maqomlar va shu kabilarni turlicha baholaydi. Bunda baholash ko'p sonli belgilar (yashash joyi, dam olish turi va h.k.)ga ko'ra amalga oshiriladi.

Kasb *obro'si* – muayyan kasb-korning muhimlik, jalb qiluvchanlik darajasini kollektiv (jamoatchilik tomonidan) baholash. Obro' – jamoatning muayyan maqomga bo'lgan hurmati darajasi. U, odatda, ballarda (1 dan 100 gacha) o'lchanadi.


Masalan, shifokor yoki yurist kasbi barcha jamiyatlarda katta nufuzga ega, farrosh kasbiga esa, odatda, past nazar bilan qaraladi. AQSHda shifokor, yurist, olim (universitet professori) eng obro'li kasblardir. Nufuzlilik darajasi o'rtacha bo'lgan kasblarga menejer, muhandis, mayda mulkdor va shu kabilar kiradi. Quyi darajadan payvandchi, haydovchi, chilangar, qishloq xo'jalik xodimi, farrosh va shu kabilar o'rin oladi.

Ijtimoiy holatni o'lchashning asosiy mezonlari – boylik, hokimiyat, ma'lumot, nufuz ko'pincha mos kelmaydi. Masalan, ma'lumot va nufuz shkalalarida professor politsiyachidan yuqorida turadi, biroq daromad va hokimiyat shkalalarida politsiyachi professordan yuqoriroq o'rin egallaydi. Ularning ijtimoiy holatini har bir shkalada nuqtalar bilan belgilab, so'ngra

nuqtalarni chiziqlar bilan birlashtirsak, politsiyachi va professorning umumiy maqomi hosil bo'ladi. Umumiy maqom siniq chiziq bilan ifodalanadi va stratifikatsion profil' (yoki maqom profili) deb ataladi.

Stratifikatsion profil'¹⁶

Daromad Ma'lumot Hokimiyat Nufuz



■ - professor

•- politsiyachi (yoki menejer)

3.5-rasm.

Jamiyatning vertikal tabaqalanishini tushuntirishda sotsiologlar turli asoslarni keltiradilar. Ijtimoiy stratifikatsiya (ijtimoiy tengsizlik)ni tushuntirishga nisbatan ikki xil yondashuv – funksionalizm va konflikt nazariyasi mavjud.

Funksionalizm nazariyasi ijtimoiy tengsizlik normal rivojlanayotgan har qanday ijtimoiy tizimning zaruriy xossasi hisoblanishidan kelib chiqadi. E.Dyurkgeym “Mehnat taqsimoti haqida” (1893) asarida har bir jamiyatda konkret faoliyat turlari ko’proq obro’ga ega bo’ladi va bu jamiyatning iyerarxiyaviy tuzilishini belgilaydi, degan fikrni asoslashga harakat qilgan edi. Uning fikricha, jamiyatning barcha funksiyalari iyerarxiyaviy tartibda joylashtiriladi. Ijtimoiy funksiyalar iyerarxiyasi asosida mazkur funksiyalarni bajaruvchi ijtimoiy qatlamlarning tegishli iyerarxiyasi tarkib topadi.

Funksionalizm nuqtai nazaridan, bironta ham jamiyat sinfiy tabaqalanishsiz mavjud bo’la olmaydi, chunki ijtimoiy ne’matlarni taqsimlashda tengsizlik ijtimoiy strukturada individlarning joylashuvi va motivatsiyasi vazifalarini yechish uchun vosita bo’lib xizmat qiladi. Binobarin, ijtimoiy tengsizlik jamiyat uchun foydalidir, chunki ijtimoiy stratifikatsiya tizimi mazkur ijtimoiy strukturani hosil qilgan barcha maqomlar to’lishiga imkoniyat yaratadi.

Funksionalizm nazariyasi ijtimoiy tengsizlikka jamiyat yashab qolishining eng muhim usuli sifatida qaraydi. Funksionalizm tanqidchilarining ko’pchiligi mazkur nazariyada sub’yektivizm kuchli ekanligini qayd etadi: yaxlit organizm sifatidagi jamiyat funksional rang-barangliksiz mavjud bo’la olmaydi (barcha funksiyalar ijtimoiy organizm uchun teng darajada muhimdir), strukturaviy-funksional tahlil esa ulardan ayrimlarini eng muhim funksiyalar sifatida ajratadi (qaysi asoslarga ko’ra – ma’lum emas).

¹⁶ Кравченко А.И. Социология. – М., 2000. – 542-б.

Konflikt nazariyasi namoyandalari yirik ijtimoiy guruhlar (sinflar)ning manfaatlaridagi farqlarga (qarama-qarshiliklarga) e'tiborni qaratadilar. Marksizm asosiy ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkning mavjudligidan, moddiy ne'matlarning notekis taqsimlanishidan ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. SHu tufayli ham marksizmda ijtimoiy stratifikatsiya deganda jamiyatning sinfiy bo'linishi tushuniladi.

Konflikt nazariyasi namoyandalari jamiyatga kurash maydoni sifatida qaraydilar. Bu maydonda individlar va ijtimoiy guruhlar turli imtiyozlar, hokimiyat, nufuz va shu kabilarni qo'lga kiritish yoki qayta taqsimlash uchun kurashadilar. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir tarixiy davrga o'z iqtisodiy munosabatlar tipi, binobarin, muayyan guruhlarining boshqa guruhlar ustidan iqtisodiy va siyosiy hukmronligini mustahkamlashning konkret mexanizmi xosdir.

Funksionalistlar diqqat markazidan jamiyat a'zolarining umumiy manfaatlarini o'rin olgan bo'lsa, konfliktologiya namoyandalari asosiy e'tiborni manfaatlar o'rtasidagi farqlarga qaratadilar. Bundan mazkur yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari kelib chiqadi. Bir tomondan, mazkur nazariya boylik va hokimiyat o'rtasidagi haqiqiy aloqani qayd etadi (iqtisodiy hukmron sinf, odatda, siyosiy hukmronlikka ham ega bo'ladi), boshqa tomondan esa, jamiyatning rivojlanishi va faoliyati manzarasini haddan tashqari qashshoqlashtiradi, unga faqat sinfiy kurash atamalarida yondashadi.

Ijtimoiy stratifikatsiyani ko'pincha ijtimoiy tengsizlik bilan ayniylashtiradilar, ya'ni aholini yuqori va quyi tabaqalar, boylar va kambag'allar, boshqaruvchilar va boshqariluvchilarga ajratadilar. Biroq ijtimoiy stratifikatsiyani ijtimoiy tengsizlik bilan ayniylashtirish mumkin emas (masalan, ibtidoiy jamoada ijtimoiy tengsizlik yo'q, biroq ijtimoiy struktura – jamiyatning yosh, jins, qarindoshlik, totemga oid va boshqa belgilarga ko'ra bo'linishi tarzida – mavjud).

Ijtimoiy tengsizlik sotsiologiyada individ yoki ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy maqomiga qarab ijtimoiy-madaniy ne'matlar va boyliklarning notekis taqsimlanishi sifatida tushuniladi. Ijtimoiy tengsizlik kishilar iqtisodiy resurslar va ijtimoiy ne'matlardan bahramand bo'lish, siyosiy hokimiyatda ishtirok etish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lmasliklarini nazarda tutadi. Mazkur jamiyatda daromadlarning eng yuqori va eng past darajalarini taqqoslash tengsizlikni o'lchashning ayniqsa keng tarqalgan usulidir. P.A.Sorokin turli tarixiy davrlarni taqqoslash yo'li bilan quyidagi ma'lumotlarni olgan: o'rta asrlar Germaniyasida mazkur nisbat 1000/1 ga, o'rta asrlar Angliyasida esa – 600/1 ga teng bo'lgan. Bundan tashqari, ijtimoiy tengsizlik irqiy, diniy, jinsiy, milliy va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tengsizlikning boshqa bir muhim ko'rsatkichi ayollar va erkaklarning insoniy huquqlarini amalga oshirish, taraqqiyotga o'z hissasini qo'shish, shuningdek jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanish natijalaridan foydalanish uchun sharoit yaratishdir. Bu ko'rsatkich **gender tengligi** tushunchasi orqali ifodalanadi.

Ayollarning haq-huquqlarini amalga oshirishda erkaklar foydasiga nomutanosiblik mavjudligini hisobga olib, O'zbekiston hukumati ularning muammolarini yechishga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur muammolar orasida teng imkoniyatlar to'g'risidagi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish, oliy ma'lumot olishda gender tengligini ta'minlash, qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlar ishtirokini faollashtirish, qishloq ayollarining salohiyatini kuchaytirish, ayollar bilan savdo qilish, xotin-qizlar orasida prostitutsiyaning, erkaklar orasida esa – poligamiya (ko'p xotinlilik)ning oldini olish alohida o'rin egallaydi.

Ayni paytda, vaziyat tahlili xotin-qizlarni kamsitish hollari amalda hanuz mavjudligini, ular asosan ish beruvchilar huquqiy bilimlari darajasining pastligi, an'anaviy oilaviy ukldni noto'g'ri tushunish va ijtimoiy ongda gender stereotiplari mavjudligi bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, gender tengligi xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi yagonalik va farqlar, shuningdek ular o'ynaydigan rollar jamiyat tomonidan teng darajada baholanishini o'zida ifodalaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda erkaklar va ayollar o'rtasida tenglikka erishish asosan boshlang'ich va o'rta ta'limda jinslar o'rtasida tengsizlikka barham berishni taqozo etadi va gender tengligining uch vazifasini o'z ichiga oladi: 1) savodlilik darajasi; 2) noqishloq xo'jalik mehnati bilan band bo'lgan xotin-qizlar ulushi; 3) milliy parlamentda ayol-deputatlar ulushi.

Ijtimoiy tengsizlikning sababi nimada? Buning sababi bitta: aholining turli toifalari ijtimoiy ahamiyatga molik ne'matlar, taqchil resurslardan bahramand bo'lishda teng imkoniyatga ega emasligi. Ammo jamiyat tarixida ijtimoiy tengsizlikning namoyon bo'lish shakllari har xil bo'lgan. Ijtimoiy struktura urug'doshlik va nikoh bilan ayniylashtirilgan ibtidoiy jamiyatlarda ijtimoiy tengsizlik mavjud bo'lmagan.

Umuman olganda, ijtimoiy strukturaning tadrijiy rivojlanish yo'lini quyidagicha tavsiflash mumkin. Jamiyat rivojlanish jarayonining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy struktura shaxslararo munosabatlar bilan bog'lanadi, shu tufayli ham davlat yo'q, sirtan majburlash, huquq va shu kabilarga zarurat mavjud emas. Aloqalarning barqarorligi jamoatchilik fikri yordamida ta'minlanadi. Keyinchalik (aholi sonining o'sishiga, mehnat taqsimoti va ijtimoiy stratifikatsiya paydo bo'lishiga qarab) ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini quvvatlash uchun shaxslararo o'zaro aloqalar tizimining o'zi kifoya qilmaydi. SHu bois turli ijtimoiy tuzilmalar va institutlar paydo bo'ladi va asosiy barqarorlashtiruvchi omillarga aylanadi. Hozirgi zamon jamiyatida kuchli ijtimoiy-sinfy bo'linish mavjud emas, jamiyat amalda bo'rtib namoyon bo'luvchi imkoniyatlar tengligi bilan tavsiflanadi.

Har qanday jamiyatning, shu jumladan uning ijtimoiy strukturasiining barqarorligi **ijtimoiy stratifikatsiya profili** bilan belgilanadi, ya'ni *o'rta qatlam* ulushi va uning mazkur jamiyatdagi roliga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy strukturada oraliq o'rinni egallaydigan o'rta sinf

ijtimoiy iyerarxiyaning ikki qutbi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajarish orqali ularning qarama-qarshiligi darajasini pasaytiradi. O'rta sinf qancha katta bo'lsa, u jamiyatning asosiy qadriyatlarini shakllantirish jarayoniga shuncha kuchli ta'sir ko'rsatadi, davlatga barqaror tus beradi. Ijtimoiy stratifikatsiya profilining yuqoriga o'rlashi ijtimoiy bo'hronlarga, inqiloblarga, qo'zg'olonlarga, zo'arvonlik va tartibsizlikka olib keladiki, bu jamiyatning parchalanishi xavfini tug'diradi va uning rivojlanish jarayonini to'xtatadi.

Ijtimoiy tengsizlik ijtimoiy norozilik va qarshi kurashga sabab bo'ladi. Jamiyat sinfiy strukturasi tarixi ijtimoiy tenglik uchun mafkuraviy va siyosiy kurash jarayonlari bilan tavsiflanadi. Umumiy tenglik uchun kurashuvchi, moddiy va ijtimoiy-madaniy boyliklarni teng taqsimlashni talab qiluvchi g'oyaviy-nazariy oqim **egalitarizm** (fr. – tenglik) deb ataladi. Egalitarizm ko'rinishlariga Qadimgi Yunoniston va Rim ijtimoiy harakatlarida, Injil matnida duch kelish mumkin. Egalitarizm g'oyalari Buyuk fransuz inqilobi davrida yakobinchilar tomonidan, XIX–XX asrlar chesharasida Rossiyada bol'sheviklar tomonidan, XX asrda uchinchi dunyo mamlakatlaridagi milliy-ozodlik harakatlarining liderlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Egalitarizmni radikal g'oyaviy-siyosiy harakatlar qatoriga kiritish mumkin.

G'arbiy yevropa ideologlari va siyosatchilari davrasida ijtimoiy tengsizlik egalitarizmdagidan boshqacha ma'noda, aniqroq aytganda – imkoniyatlar tengligi sifatida tushuniladi. Imkoniyatlar tengligi davlat dastlabki bosqichda hammaga teng imkoniyatlar berishi va fuqarolarning yuridik tengligini nazarda tutadi. Ayni paytda odamlar o'rtasida tabiiy va ijtimoiy tengsizlik zarur va hatto foydali deb e'tirof etiladi. Bunday tengsizlik odamlarni ijtimoiy hayotning turli sohalarida faollikka rag'batlantiradi deb hisoblanadi.

Sotsiologiyada ijtimoiy stratifikatsiyaning to'rt asosiy tipi – quldorlik, kastalar, tabaqalar va sinflar farqlanadi. Dastlabki uch tip yopiq jamiyatni, oxirgi tip esa – ochiq jamiyatni tavsiflaydi. Yopiq jamiyatda quyi stratalardan yuqori stratalarga ijtimoiy ko'chishlar butunlay taqiqlangan yoki cheklangan. Ochiq jamiyatda bir stratadan boshqa strataga o'tish imkoniyatlari cheklanmaydi.

Quldorlik – odamlarga jabr-zulm o'tkazishning iqtisodiy, ijtimoiy va yuridik shakli (qullarning to'la haq-huquqsizligi, qullar va quldorlar tengsizligining eng yuksak darajasi). Quldorlik Misr, Bobil, Xitoy, Yunoniston, Rimda vujudga kelgan. Ayrim mintaqalarda (masalan, AQSHda) quldorlik XIX asrga qadar mavjud bo'lgan. Zo'rlik ishlatishga asoslangan qullar mehnati tizimlari beqaror bo'lgan, chunki yuksak darajada samaradorlikka faqat doimiy nazorat va jazolash usullari hisobiga erishilgan. Qullar mehnati tizimlari ularga qarshi kurash natijasida, shuningdek quldorlik iqtisodiy jihatdan samarali bo'lmagani tufayli parchalanib ketdi.

Kasta – ijtimoiy strata, unga a'zolik avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadi. Mazkur jamiyatda avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan maqom birinchi darajali ahamiyat kasb

etadi. Kastalarga asoslangan tuzum Hindistonga xos, chunki bu yerda u induizm dinida nazarda tutilgan. Kastalarni ajratish uchun mezon bo'lib kasbiy ixtisoslashuv amal qiladi. Kastalarning a'zolariga faqat muayyan kasb-kor bilan shug'ullanish ruxsat etiladi. Har bir kasta a'zolarining xulq-atvor me'yorlari amrlar va taqiqlar to'plami (dxarma) bilan belgilanadi. Bundan tashqari, har bir kastaga muayyan turar joyda yashash, ma'lum taomlarni iste'mol qilish, muayyan libos kiyish amr etilgan. Mazkur shartlar tabaqani asrlar mobaynida o'zgarmaydigan berk ijtimoiy organizmga aylantirgan.

Tabaqa – odat yoki yuridik qonun bilan mustahkamlangan va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan huquqlar va burchlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruh. Tabaqaviy tizimga turli stratalar holati va imtiyozlarining teng emasligi bilan tavsiflanadigan iyerarxiya xosdir. Masalan, yevropada IV asrdan XIV asrgacha mavjud bo'lgan feodal jamiyatlarda aholi tabaqalarga ajratilgan. Jamiyat oliy tabaqalar (dvoryanlik, ruhoniylar) va imtiyozsiz tabaqa (hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlar)ga bo'lingan. Tabaqalar o'rtasida o'tib bo'lmaydigan ijtimoiy to'siqlar mavjud bo'lgan, shu bois ijtimoiy mobillik qatlamlar o'rtasida emas, balki qatlamlar doirasida amal qilgan. Har bir qatlam, odatda, alohida ijtimoiy funksiyalarni bajargan (masalan, davlat xizmati bilan faqat dvoryanlar shug'ullanishlari mumkin bo'lgan).

Quldorlik, kastalar va tabaqalar an'anaviy (ilk industrial) jamiyatning ijtimoiy stratalari hisoblanadi. Ularning umumiy xususiyati shundaki, insonning jamiyatdagi o'rni unga bog'liq bo'lmagan omillar – din, odat, qonun bilan belgilanadi.

Sinf – kapitalizm ijtimoiy stratifikatsiyasining bosh elementi. Keng ma'noda sinf deganda ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lgan yoki ega bo'lmagan kishilarning ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida muayyan o'rinni egallaydigan, daromad olishning alohida usuli bilan tavsiflanadigan yirik ijtimoiy guruhini tushunadilar. Tor ma'noda sinf – hozirgi zamon jamiyatidagi boshqalardan daromadi, ma'lumoti, hokimiyati va nufuzi bilan ajralib turadigan har qanday ijtimoiy strata.

Sinfy tizimlar quldorlik, kastalar va tabaqalardan sezilarli darajada farq qiladi. Boshqa turdagi stratalardan farqli ravishda, sinflar huquqiy va diniy normalar asosida tashkil etilmaydi; ularga a'zolik vorisiylik qoidasi yoki odatlarga asoslanmaydi. Sinfy tizimlar boshqa stratifikatsiya tizimlariga qaraganda faolroq, sinflar o'rtasidagi chegara esa aniq belgilanmaydi. Sinfy tizimlarda ijtimoiy mobillik ancha sodda bo'ladi. Sinflar moddiy resurslarga egalik qilish va ularni boshqarishdagi tengsizlik bilan belgilanuvchi kishilar guruhlari o'rtasidagi iqtisodiy farqlarga bog'liq bo'lmaydi (ilk sinfy jamiyatlarda noiqtisodiy omillar birinchi o'rinda turadi).

5. Ijtimoiy mobillik va marginallik.

Ijtimoiy mobillik (lot. mobiles – harakatchan) – individ (ijtimoiy guruh)ning bir ijtimoiy qatlamdan boshqa ijtimoiy qatlamga o'tishi; jamiyat ijtimoiy strukturasi individ o'rnining o'zgarishi.

Ijtimoiy mobillik jamiyat ijtimoiy strukturasi evolyutsiyasining ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. "Ijtimoiy mobillik" tushunchasini sotsiologiyaga P.A.Sorokin kiritgan. Uning ushbu mavzudagi kitobi 1927 yilda nashr etilgan. U ko'plab mamlakatlar, shu jumladan Qadimgi Rim va Xitoyi o'rgangan, ilk bor AQSHdagi mobillikni atroflicha tadqiq etgan. P.A.Sorokin fikriga ko'ra, ijtimoiy mobillik darajasi qancha baland bo'lsa, mazkur jamiyatda stratifikatsiya tizimi shuncha ochiq bo'ladi. Mutlaqo ezoterik jamiyat (ya'ni ijtimoiy maqomni o'zgartirish imkoniyati mavjud bo'lmagan yopiq jamiyat) yo'q va bo'lmagan ham, biroq ijtimoiy iyerarxiyada kishilar mutlaqo erkin harakat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mamlakat ham mavjud emas va hech qachon bo'lmagan.

Sotsiologiyada ijtimoiy mobillikning quyidagi tiplari farqlanadi:

1) **gorizontal** mobillik – inson o'z umri mobaynida bir maqomni taxminan teng darajadagi boshqa maqomga o'zgartirishi (duradgor, chilangar, santexnik). Zamonaviy jamiyatlarda qishloqlar, shaharlar yoki mintaqalar o'rtasida geografik ko'chib yurishni anglatadigan gorizontal mobillik ham farqlanadi;

2) **vertikal** mobillik – inson o'z maqomini yuqoriroq, nufuzliroq va daromadliroq ("yuksaluvchi mobillik") yoki pastroq ("pastlashuvchi mobillik") ijtimoiy maqomga o'zgartirishi. Vertikal mobillik ijtimoiy-iqtisodiy shkala bo'ylab yuqoriga yoki pastga harakatlanishni anglatadi. Vertikal va gorizontal mobillik ko'pincha birikadi. Masalan, bir shaharda muayyan kompaniyada ishlayotgan odam boshqa shaharda yoki hatto boshqa mamlakatda joylashgan firmada yuqoriroq lavozimga tayinlanishi mumkin;

3) **avlodlararo** mobillik – otalar maqomlariga nisbatan farzandlar maqomlarining o'zgarishi. Masalan, chilangarning o'g'li korporatsiya prezidenti mavqeiga erishadi yoki buning aksi yuz beradi. Avlodlararo mobillik ko'lam mazkur jamiyatda ijtimoiy tengsizlik qay darajada barqaror ekanligi va avloddan-avlodga o'tishini ko'rsatadi.

Individual va gruppaviy mobillik ham farqlanadi.

Individual vertikal ijtimoiy mobillik, odatda, barqaror jamiyatga xosdir.

Gruppaviy vertikal ijtimoiy mobillik ijtimoiy struktura qayta tashkil etilayotgan jamiyatlarga xos. Gruppaviy ijtimoiy mobillik ijtimoiy strukturaga katta o'zgarishlar kiritadi. Individual ijtimoiy mobillikda stratifikatsion struktura o'zgarishsiz qolsa (ijtimoiy maqomlar yoki rollar emas, balki ayrim shaxslargina o'zgaradi), gruppaviy mobillik ijtimoiy strukturani qayta tuzadi va mobillik uchun yangi sharoitlar yaratadi.

Ijtimoiy mobillikni uning ijtimoiy mobillik darajasi, tezligi va intensivligi kabi ko'rsatkichlari bo'yicha ham o'lchash mumkin.

Jamiyatda ijtimoiy mobillik **darajasi** ikki omil bilan belgilanadi: 1) mazkur jamiyatdagi mobillik yig'indisi bilan (bu yig'indi ijtimoiy maqomlar soni va ularning o'rtasidagi aloqalar xususiyatiga bog'liq bo'ladi); 2) odamlarga harakatlanish imkoniyatini beruvchi sharoitlar bilan.

Ijtimoiy mobillik **tezligi** individ muayyan vaqt oralig'ida o'zining yuqoriga-pastga harakatlarida nechta iqtisodiy, kasbiy, siyosiy va boshqa stratalardan o'tishini ko'rsatadi.

Ijtimoiy mobillikning **intensivligi** – o'z ijtimoiy holatini muayyan vaqt oralig'ida vertikal yoki gorizontaal yo'nalishda o'zgartirayotgan individlar soni.

Ijtimoiy mobillikda to'siqlardan o'tishning turli yo'llari mavjud. Bular: turmush tarzini o'zgartirish; maqomga xos xulq-atvor (ust-bosh, nutq, o'zini tutish)ni rivojlantirish; ijtimoiy muhit (aloqalar darajasi va xususiyati)ni o'zgartirish; yuqoriroq ijtimoiy qatlam vakili bilan nikohga kirish va h.k.

Umuman olganda, ijtimoiy mobillik darajasi ko'pincha muayyan jamiyatni "an'anaviy" yoki "takomillashgan" tipga kiritishning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

Ijtimoiy mobillik

Gorizontaal mobillik	Vertikal mobillik
Hududiy	Iqtisodiy
Konfessional	Siyosiy
Oilaviy va h.k.	Kasbiy va h.k.

Individual va gruppaviy mobillik:	
Yuksaluvchi mobillik	Pastlashuvchi mobillik

3.6-jadval.

Ijtimoiy marginallik. Marginallar (lot. marginalis – chetga chiqib qolgan) – ongi, xulq-atvori va maqomi ijtimoiy guruhlar chegarasida joylashgan kishilar majmui. Bular bir ijtimoiy (masalan, milliy, diniy) muhitdan chiqib, o'zi uchun yangi bo'lgan boshqa ijtimoiy-madaniy muhitga qo'shila olmagan kishilardir. Marginallar maqomi chegaraviy xususiyatga ega bo'ladi, shu bois marginal o'zini o'zi aniq identifikatsiya qila olmaydi.

Marginallik ijtimoiy hodisa sifatida hozirgi jamiyatda ancha keng tarqalgan. Ijtimoiy marginallik kuchli ijtimoiy bo'hronlar yuz berayotgan jamiyatlarda ayniqsa keng tarqaladi (barqaror jamiyatda marginallar jamiyat ijtimoiy strukturasi ahamiyatga molik o'rin egallamaydilar va uning rivojlanish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydilar).

Hozirgi vaqtda MDHda butun ijtimoiy strukturaning marginalashuvi muammosi dolzarb ahamiyat kasb etayotir (uysiz odamlar, qarovsiz bolalar va h.k.). Marginalashuv – bu jamiyatda marginallar sonining ko'payish jarayonidir. So'nggi yillarda qishloqdan shaharga ko'chib kelgan odamlar (qishloqda ish yo'qligi va h.k.), qochoqlar (millatlararo mojarolar va h.k.), ishsizlar, ozodlikdan mahrum qilish joylaridan chiqqan shaxslar soni sezilarli darajada ko'paydi.

Ijtimoiy o'zgarishlar jarayonlari yuzlab va minglab kishilar, oilalar, milliy va ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy holati, moddiy farovonlik darajasi va taqdiriga o'z ta'sirini ko'rsatishi muqarrardir. 1991 yil 1 sentyabrda o'z davlat mustaqilligini e'lon qilgan O'zbekiston totalitar tuzumdan demokratik jamiyatga, rejali-markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga, aholining eng muhim manfaatlari mafkuraviy aqidalarni keng yoyish yo'lida qurbon qilingan jamiyatdan iqtisodiy o'sish va inson farovonligini ta'minlash bosh vazifaga aylangan jamiyatga o'tish yo'liga kirdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonda yuzaga kelgan tahlikali voqealarni 90 yilda mustaqillik ostonasida ko'tarib chiqqan edi."Respublika asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatdagi oxirgi o'rinlardan birida turgan. O'zbekiston har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12 o'rinda turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past. Shunga muvofiq,sanoat, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy infrastruktura va boshqa ko'plab sohalar izdan chiqib ketgan edi".¹⁷ O'zbekiston tanlagan evolyutsion yo'lining "O'zbek modeli" zaminida ortiqcha ijtimoiy larzalarsiz, barqarorlik asosida, bosqichma bosqich jamiyat ijtimoiy imkoniyatlarini hisobga olish orqali demokratik jamiyatni shakllantirishga qaratilagn ta'limotni o'zida mujassam etganligi, ayni paytda xalqning turmush madaniyatiga xosligi bilan e'tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

18. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:, "O'zbekiston", 2014 yil.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademiklari faoliyatini yanada takomillashtirish va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.

¹⁷ I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T.: "O'zbekiston" 2011y

21. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T 2011.
22. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlohi va taraqqiyot yo'li. // O'zbekiston: milliy istiqlohi, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I.-T.: O'zbekiston, 1996. -B.44-45.
23. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat" 2008 y
24. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
25. Aliqoriev N.S. va b. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent.: 1999.
26. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994
27. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Toshkent.: 2000
28. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002
29. Ubaydullaeva B., O'otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. «Ijtimoiy fikr» Markazi. – Toshkent.: 2001.
30. Umarova R. «Sotsiologiya.» O'quv qo'llanma. - T. TMI, 2010.
31. Sotsiologiya // Uchebnoe posobie. Pod redak. prof. Lavrenenko V.N. –Moskva.: «YuNITI». 2012.
32. Кравченко А.И. Социология. – М., 2000. – 542-б
33. Toshchenko J.T. Sotsiologiya. // Uchebnik. Moskva.: «YuNITI». 2012.
34. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot. 1993.

Internet saytlar:

1. <http://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasining hukumat portali
2. <http://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. <http://www.google.uz> Veb-qidiruv saytiining uz domeni
4. <http://www.ziyonet.uz> ta'lim portali

4. Shaxs sotsiologiyasi

Reja:

1. Sotsiologiyada shaxs tushunchasi
2. Shaxs shakllanish asoslari
3. Shaxs shakllanishi omillari: biologik irsiy, jismoniy muhit, madaniy, guruhiy tajriba, shaxsiy tajriba
4. Shaxslararo o'zaro ta'sir nazariyasi. Nizolar

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Inson, individ, shaxs, Ch.Kulining "Ko'zgudagi "Men" nazariyasi, ijtimoiylashuv, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar, interaktsiya, konformlik, suggestiya, almashuv nvzvriyasi, qadriyat vaziyati, qo'llab-quvvatlash vaziyati, nizolar, realistik va norealistik nizolar, biologik irsiyat.

1. Sotsiologiyada shaxs tushunchasi

Har qanday ijtimoiy tizimning bo'laklari odamlar hisoblanadi. Odamlarning jamiyatga kiritilishi turli birliklar orqali amalga oshiriladi, qaysini har bir aniq shaxs sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlar tizimini, ya'ni madaniyat orqali gavdalanadi. Shunga muvofiq inson ko'p sotsial tizimlarga tortilgan bo'lib, ularning har biri unga tizimni shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib odam faqat sotsial tizimning bo'lagi bo'libgina qolmay, uning o'zi ham murkkab tuzilma bo'lgan tizimni aks ettiradi. «Jamiyatni isloh qilish va yangilash buyicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishga qaratilgan».¹⁸

Sotsiologiya shaxsni barcha hilma-hilligi majmuida emas, ya'ni tabiat mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar yig'indisi, ya'ni jamiyat mahsuli sifatida qarab chiqadi. Shaxs sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi omili bo'lib hisoblanadi.

Shaxsning o'zi nima? Bu savolga javob berish uchun, avvalo, "inson", "individ", "shaxs" tushunchalarini bir-biridan farqlab olish kerak. "Inson" tushunchasi, umumiy, hamma uchun xos bo'lgan sifat va qobiliyatini izohlash uchun qo'llaniladi. Bu tushuncha dunyoda mavjud bo'lgan tarixan o'ziga xos shunday rivojlanayotgan birlikki, insoniyatni anglatib u boshqa hamma moddiy tizimlarda farq o'ziga xos ijtimoiy faoliyat usullari bilan farq qiladi.

Sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi agenti bo'lib shaxs hisoblanadi. Shaxsning kim ekanligini bilish uchun "inson", "individ", "shaxs" tushunchalarining chegaralarini aniqlab olish kerak bo'ladi. "**Inson**" tushunchasi hamma kishilarga xos bo'lgan umumiy sifat va qobiliyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu tushuncha dunyoda inson zoti deb atalmish shunday o'ziga xos tarixiy jamoa mavjudligini anglatadi. Bu insoniyat qolgan hamma moddiy sistemalardan o'ziga xos hayotiy faoliyat usuli bilan farq qiladi. Insoniyat o'ziga xos

¹⁸ I.Karimov.O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.O'zbekiston 1995y 247 b.

moddiy reallik sifatida mavjud bo'ladi. Ammo insoniyat bu kabi yashay olmaydi. Konkret odamlar yashaydi va harakat qioadi. Insoniyatning konkret vakillarining bo'lishi individ tushunchasi orqali ifodalanadi. **Individ** - bu insoniyatning hamma sotsial va psixologik xususiyatlari: aqd, idrok, ehtiyojlar va boshqalarning konkret tashuvchisi, insoniyat urug'ining yagona vakilidir. Bu holatda individ tushunchasi "konkret kishi" ma'nosida ishlatiladi.

Shaxs insonning nisbatan ijtimoiy-tarixiy va ontogenetik rivojlanishining mahsuli, maxsus insoniy tuzilma. Insonning biologik tabiati uning sotsial dunyosining rivojlanish bazasidir. Insonning ongi ham, insonning ehtiyojlari ham ijtimoiy munosabatlar orqali yaratiladi, bu individning tug'ilganidan boshlanib va to o'limigacha davom etadi.

Individning jamiyatga qo'shilishi turli sotsial jamoalar orqali amalga oshiriladi. Har bir alohida kishi sotsial guruhlar, sotsial muassasalar, sotsial institutlar, jamiyatda hukmron norma va qadriyatlar ya'ni madaniyatlar orqali shakllana boshlaydi. Buning natijasida individ ko'p miqdordagi turli darajadagi sotsial tizimlarga qo'shiladi, ularning har biri oila, do'stlar davrasi, ijtimoiy muassasalar, ishchilar guruhi, milliy jamoalar va hokazolar unga ta'sir o'tkazadi. Shunday qilib inson mazkur sistema strukturalarining qismiga, ularning elementlariga aylanadi.

Shaxsning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'рни va mohiyati doimo sotsiologiya fanining muhim va baqs talab sohalaridan biri bo'lib keldi. Insonning mohiyatini dastlabki o'rgangan olimlar Xitoydagi Konfutsiy va uning izdoshari edi. Eramizdan ilgari 298-238 yillarda yashagan olim Sen'-tszi shunday deb yozgan edi: «Tug'ma xususiyatlar - bu samoviy munosabatlar hosili bo'lib, ularga ta'lim yoki ularni odamning o'zi yaratishi vositasida erishib bo'lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. O'ozirgi inson tug'ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga olib keladiki, kishilar o'zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon bermaydilar. SHuning uchun ham tarbiya yo'li bilan inson tabiatini o'zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ta'lim berib, ularni adolatlilikka va mas'uliyatlilikka o'rgatish lozim.»

Abu Nasr Forobiy «Falsafatu Aristutolis» («Arastu falsafasi») asarida qadimgi yunon olimining inson haqidagi fikrlarini quyidagicha sharhlagan edi: «Arastu insonda, qayvonlarda bo'lmagan boshqa imkoniyatlar, ruh va ruhiy kuchlardan paydo bo'lolmaydigan sabab va asoslarni topadi. Inson tabiati va unda mavjud bo'lmish tabiiy kuchlarni tushuntirish borasida ular, faqat ruh faoliyati (harakatlari, ta'sirlari) ga qaraganda yuksakroq faoliyat (harakatlar) uchun moslashganlar, degan fikrga keladi...» Bu o'rinda Arastu, nega bunday bo'lishini o'rganishga majbur bo'ldi va inson nutq egasi ekanligini topdi, nutq esa aql bilan bog'liqdir.... Aqlning holati xuddi ruh va uning tabiiy holati kabi ekanligi, aql qismlarga yoki kuchlarga bo'linishi, inson mohiyat kasb etishiga vosita bo'luvchi faol (ta'sirchan) asos ekanligi xuddi

tabiatda bo'lgani kabi u - aql o'z maqsadi (g'arazi) ning sabab va asosi ekanligi Arastuga ravshan bo'ladi.»

Insonning muhim xususiyatlaridan biri - uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson o'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi sun'iy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o'rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo'lsa, o'zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo'la olmaydi. Insondagi bu tabiiy xususiyatni Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalaydi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi.... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. SHuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi».

Shu bilan birga inson fikrlovchi mavjudotdir. U ko'rgan va eshitganlarini yodda saqlaydi, o'z xayoloti, tasavvurlash qobiliyati vositasida bilimlarni, ma'lumot va axborotlarni tahlil qiladi, umumlashtiradi, ularni transformatsiyalaydi, boshqalarga uzatadi, bilim va tajribalarni takomillashtiradi, o'z maqsadlari, orzulari va istaklarini tasavvurlay oladi. Insondagi bu xususiyatlarni Ibn Sino shunday talqin etadi: «Inson umumiy qarashlarga nuqtai nazar bildirish va alohida narsalar to'g'risida fikrlash qobiliyatlariga egadir: u foydali yoki zararli ishni qilish va qilmaslik, go'zallik va xunuklikni farqlash, yaxshi va yomonni ajratish qobiliyatlariga ega. Ular qiyoslash va tafakkurlash vositasida shakllanadi.... SHunday qilib, inson ruhining birinchi kuchi aqliy mushohadaga taalluqli bo'lib, u aqliy tafakkur deb ataladi. Ikkinchi kuch esa tajribaga taalluqli bo'lib, u tajribaviy fikrlash, deb ataladi. Ular haqiqat yoki yolg'onni, shuningdek, xususiy narsalarga nisbatan yaxshi va yomonni aniqlash uchun xizmat qiladi.

Hozirgi davr sotsiologiyasida «inson» deganda yerda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (Homo sapiens) vakilini ifodolovchi umumiy tushunchadir. Inson, umuman inson zotining yig'iq obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Gegel ta'biri bilan aytganda, «insonning o'zida bevosita mavjudligi qandaydir tabiiydir, bu uning o'z tushunchasiga binoan tashqidir; faqat o'ziga tegishli tana va ruhini takomillashtirish vositasida, mohiyatan o'zini o'zi anglashi sababli ham u o'zini erkin tutadi, u o'ziga o'zi egalik qilishga kirishadi va ham o'ziga, ham boshhalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda o'ziga o'zi egalik qiladi. Bu o'ziga o'zi egalik

qilishga kirishish, shuningdek, bu holatni voqelik deb bilish shuni ko'rsatadiki, inson o'z tushunchasiga binoan (imkoniyat, qobiliyat, moyillik), endi o'zini o'ziniki deb bilishi, o'zini xuddi predmetdek hisoblashi - oddiy o'zini o'zi anglashdan farq qilib, u haqiqatda narsa (buyum) shaklida namoyon bo'la olish qobiliyatiga erishadi»

Individ esa inson zotining alohida olingan nusxasi, uning vakillaridan biridir. Shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi. Individning jamiyatga kirish jarayonlari uning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish natijasida uning jamiyatdagi qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirib borishi uchun zamin yaratadi. Bu jihatdan u ijtimoiy ta'sir ob'yektidir. SHuningdek, individ ijtimoiylashuv oqibatida jamiyatdagi turli munosabatlarda faollashadi va bunda u ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida harakatlanuvchi shaxsga aylanadi.

Hamma psixologik fanlar ijtimoiy sababiylikdan va shaxs faolligi prinsipidan kelib chiqadilar. Mana shu yerda ijtimoiy psixologiya nuqta qo'yadi, keyin esa o'zining sotsial-psixologik muammolarini yechishga kirishadi. Sotsial psixologiya esa umumiy psixologiya tomonidan ishlab chiqilgan shaxs ta'rifidan foydalanib, shaxs qaysi konkret guruhlarda, birinchidan, sotsial ta'sirini (uning qaysi faoliyat tizimi orqali) o'zlashtirishini, ikkinchidan, o'zining sotsial mohiyatini (o'zaro faoliyatning qaysi konkret turi orqali) amalga oshirishini tushuntiradi. Bu yondashuv aynan sotsiologik yondashuvdan farq qiladi. Sotsiologik yondashuv qanday qilib sotsial-tipik xususiyatlari shakllanadi, nima uchun shaxs hayot faoliyatining bir xil sharoitlarida ular katta hajmda ifodalanadi, nima uchun boshqa sharoitlarida qandaydir boshqa sotsial-tipik xususiyatlar insonning mazkur sotsial guruhga, sotsial muhitga tegishliligidan qat'iy nazar paydo bo'lishini ko'rsatib beradi. Shunga muvofiq sotsiologiyada asosiy e'tibor shaxsning sotsial tiplarini (faoliyat tiplarini) sotsial sifatlarini aniqlashga qaratiladi. Aynan sotsiologik o'rganadigan alohida individlar faoliyati va ong strukturasida sotsial tizim, jamoa, guruhlarining umumiy va o'ziga xos sifatleri namoyon bo'ladi.

Bundan kelib chiqib, shaxsni individning boshqa kishilar bilan bevosita va bilvosita o'zaro ta'siri jarayonida jamlanadigan va o'z navbatida uni mehnatning, anglashning va muloqotning sub'yektiga aylantiradigan individning sotsial xususiyati, unda yaxlitlangan sotsial ahamiyatli xususiyatlarning majmuidir deb ta'riflash mumkin.

Shaxsni tushunishdagi bunday yondashuv maqsadga muvofiqdir. Chunki, u insonni o'zida turli sotsial-tipik belgilarni mujassamlashtirgan ma'lum jamiyatning, sotsial jamoaning, guruhlarining vakili sifatida namoyon bo'ladigan sotsiologik xususiyatni ifodalaydi.

Shaxsning sotsiologik konsepsiyasi bir qancha turli nazariyalarni o'z ichiga oladi. Ularning hammasi shaxsni u yoki bu sotsial omillarning ta'siri ostida shakllangan o'ziga xos tuzilma ekanligini tan olishadi. Muammoni bu kabi qo'yish shaxsni faqat sotsiologiya nuqtai

nazaridan tahlil etishga olib boradi. Bu yondashuvning ildizlari sotsial falsafa ildizlariga borib taqaladi.

SHaxsning sotsiologik konsepsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmi -XX asrning boshlarida rivojlana boshladi. Umumiy shaxsning sotsiologik nazariyasiga bo'lgan ehtiyoj doimiy o'zaro munosabatni, boshqacha aytganda, sotsial makrostrukturada sodir bo'layotgan jarayonlarni belgilaydigan doimiy o'lchamni topish kerakligini tushunishdan kelib chiqadi. Individlarning va jamiyat o'zaro ta'siridagi bu jarayonlarni tushuntirayotib, biz har doim bu individning xususiyatlarining qandaydir tashkiliy butunligini topamiz, u jamoalardan kelib chiqadigan ta'sir va stimullarni "boshqacha tushunadi" va muhitga insonning reaksiyasini qat'iy ravishda aniqlaydi.

Ushbu hayotiy faoliyat usuli tufayli inson tarixiy rivojlanishining hamma bosqichlarida dunyoning hamma nuqtalarida o'z-o'ziga o'xshash bo'lib antologiyaga oid holatni saqlab qoladi. Demak, insoniyat o'ziga xos moddiy voqeylik sifatida mavjud bo'ladi. Ammo, insoniyat o'z holicha mustaqil mavjud bo'lmaydi

Aniq insonlar yashaydilar va xarakat qiladilar. Insoniyat alohida vakillarining mavjud bo'lishi "individ" tushunchasi bilan ifodalanadi. Individ - bu insoniyat zotining yakka vakili, insoniyatning hamma sotsial va ruhiy jihatlarini idrokiy, irodasi, ehtiyojlari, manfaatlari va xokazolarning soxibi xisoblanadi. "Individ" tushunchasi bu vaziyatda "aniq inson" sifatida foydalanadi. Masalaning bunday qo'yilishida turli biologik omillar (yosh jihatlarini, jinsiy mijozlarining o'ziga hos tomonlari), shuningdek, inson hayotiy faoliyatining sotsial sharoitlardagi tafovutlar belgilamaydi. Insonni turli darajada yakka tarzda va tarixiy rivojlanishni aniq-tarixiy o'ziga xosligini aks ettirishda "individ" tushunchasi bilan bir qatorda "shaxs" tushunchasi ham qo'llaniladi. "Shaxs" bir qator gumanitar fanlarning falsafa, ruhshunoslik, pedagogika va sotsiologiyani o'rganish ob'yekti xisoblanadi.

Falsafa shaxsni faoliyat sub'yekti, ong va ijodiyot sifatida tutgan o'rni nuqtai-nazaridan qarab chiqadi. Ruhshunoslik - shaxsni ruhiy jarayonlar, xususiyat, qobiliyat, iroda sifatleri va boshqa jihatlardan barqaror yaxlit holda o'rganiladi.

Sotsiologik yondashuv shaxsdagi sotsial-tipik jihatini ajratadi. SHaxs sotsiologik nazariyasining asosiy masalasi shaxsning shakllanish jarayoni va uning ehtiyojlarini qondirish, sotsial birlikda rivojlanishi va amal qilishi, jamiyat bilan shaxs aloqalari, shaxs va guruhlar, shaxsning sotsial fe'l-atvorini tartibga solish qonuniyatlarini o'rganish bilan chambarchas bog'langan.

2. Shaxs shakllanish asoslari

Sotsiologiya shaxsga oid ko'pgina nazariyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular birlaridan qat'iy metodologik ko'rsatmalar orqali farq qiladilar. Insonning qaysi jihati shaxs

tushunchasida nomoyon bo'ladi? Insonni 2-xil ehtiyoj mavjud: tabiiy va ijtimoiy. Tabiiy - bu barcha biologik ehtiyojlar: Ijtimoiy - mehnat faoliyati, ijtimoiy faollik, ma'naviyat va boshqa. Shaxs bu insonning jismoniy tabiati emas, balki uning ijtimoiy sifatidir. Shaxs ehtiyojlari uning manfaatlari orqali nomoyon bo'ladi. Manfaatlari esa uni maqsadli faoliyatga yo'llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulqlarida eng avvalo manfaatlar tarzida nomoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxs faoliyatining maqsadini, mazmunini va mohiyatini ifodalaydi. Manfaatlarning maqsadga aylanishi shaxs faoliyati motivining oliy darajasidir.

Amerika sotsiologlari: T.Znanetskiy va Ch.Tomaslar asos solgan shaxs ijtimoiy hulkini o'z-o'zidan boshqarishining dizpozitsion nazariyasida shaxs hayotidagi dunyoqarashlik va qadriyatli - normativ omillarga ko'proq ahamiyat beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, shaxs ongi uning hayotiy o'rmini belgilaydi. SHaxs dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati, g'oyaviy va ma'naviy normalar uning faoliyatini belgilovchi asosiy omillardir. Ko'rinib turibdiki, shaxs to'g'risidagi bu nazariyada shaxsning sotsiologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlari bir qilib olingan.

Sotsiologiyada shaxs haqida turli nazariyalar mavjud.Ulardan

-Ch.Kulining "Ko'zgudagi "Men" nazariyasi. Ushbu nazariya 3 tamoyilga asoslanadi:

- 1.SHaxs ma'lum hatti-harakatni amalga oshiradi.
- 2.O'sha hatti-harakatga kishilar reaksiya bildiradi.
- 3.Shaxs shu reaksiyaga ma'qul keladigan hatti-harakatlarni amalga oshiradi.

Ch.Kuli "ko'zgu" deganda aynan atrofdagi insonlarni reaksiyasini nazarda tutgan.

Amerika sotsiologi Djordj Midning "boshqalar tomonidan umumlashtirilgan" nazariyasi.Bu nazariyaga muvofiq kishi o'z shaxsini,o'z hatti-harakatini boshqalar nuqtai nazaridan,ya'ni o'zini boshqalarning o'rniga qo'yib baholaydi.

"Boshqalar uchun ahamiyatli"nazariyasining asoschisi amerika sotsiologi Xaller bo'lib,bu nazariyaga ko'ra kishining shaxsi to'g'risida boshqa ahamiyatli,obro'li kishilarning munosabati xulosa chiqarishga imkon beradi.Masalan,ayrim kishilar uchun ota-onasining bergan bahosi,ba'zilar uchun esao'qituvchining,boshqalar uchun esa mansabdor shaxslarning bergan bahosi yoki munosabati uning shaxsi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Shaxs konsepsiyasidan interaksionistik yondoshuv metodologik prinsiplarga asoslanadi. Bunga binoan na shaxs omillari, na tashqi muhit, agar ularni alohida qaraladigan bo'lsa, inson hatti-xarakatini to'la darajada tushuntirib bera oladi. Inson hatti-harakatining asosiy determinantlari (belgilovchilari) sifatida bu omillar o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sir namoyon bo'ladi. O'zaro harakat jarayoni olimlar tomonidan har doim bir xil tushunilmaganligidan, interaksionizm doirasida cheklangan qo'llash nazariyasi deb ataladigan bir nechta turli yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Nemis-amerika psixologi K.Levin (1890-1947) 1936 yilda shaxsning muhit bilan o'zaro harakati prinsipga muvofiq u muhitni fizik (tabiiy) va psixik muhitlarga bo'ladi. Levin fikricha, hatti-harakat na o'tmishga, na kelajakka bog'liq, u hozirgi muhitga bog'liq bo'ladi. Levinning aytishicha, tabiiy va sotsial muhit sub'yekt uchun psixologik fenomenlar ko'rinishida real namoyon bo'ladi. Shuning uchun har xil individlar uchun ob'yektiv muhit uning shaxsiy muhimligidan qat'iy nazar turli tuman bo'ladi. Bu yerda psixologik reallik shaxsning muhit bilan o'zaro harakatida ko'proq ahamiyatga ega.

Amerikalik sotsiolog ye.Merreyning shaxs konsepsiyasida individning muhit bilan o'zaro ta'sir muammosi tahlil qilinadi

Merrey muhitning xossasini "bosim, tazyiq" tushunchasi bilan belgilaydi. Shaxsning muhit bilan o'zaro ta'sirini tadqiq qilishda asosiy birliklar bo'lib, ehtiyojlarning turli birikuvlari va sotsial muhitning ta'siri hisoblanadi.

Interaksionalizm ideyasi shaxsning bixeviorizm va psixoanalitik nazariyalarida har xil namoyon bo'ladi. Bixevioristik maktabda interaksionizm g'oyalari amerikalik psixolog E.Tolmenning shaxs konsepsiyasida bayon qilingan. Bixeviorizmning ortodoksol tizimida "anglash (yoki pognetiv) kartalari" tushunchasi kiritilgan. Uning mohiyati shunga asoslanadiki, har bir shaxs muhitdan kelib chiqadigan stimullarga nafaqat mexanik ravishda javob qaytaradi, hamda ularni "karta maydoni" tajriba asosidagi shakllangan ongdagi stereotiplar bilan solishtiradi. SHunga muvofiq, inson muhit bilan o'zaro ta'sirda faollik va hatti-harakatning shaxsiy elementini yuzaga keltiradi.

Tolmenning fikrlari "haqiqiy" bixeviorizmning kognetiv psixologiya bilan ajralishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

SHaxsning psixoanalitik konsepsiyasi Z.Freyd fikrlarida yaqqolroq ifodalangan. Z.Freyd individ va jamiyat o'zaro ta'siri jarayonini sotsiopsixologik konflikt sifatida, shaxsni esa irratsional, g'ayriixtiyoriy mayllarining ansambli (uyg'un birlik) sifatida qaraydi. Freyd fikricha, sivilizatsiya o'zining taqiqlari va sanksiyalari bilan, bir tomondan, katta manfaat va zaruriyatdir, aks holda insoniyat seksual (jinsiy) va letal (o'limga olib boradigan) instinktlarga bo'ysunib, yashay olmagan bo'lardi. Ammo ikkinchi tomondan, sivilizatsiya inson uchun xavf va g'am tashvishdir, chunki mayllarning yanada ko'proq siqib chiqarilishi nevrizlarning rivojlanishicha, qoniqmaslik, xavotir, begonalashuv, anglanmagan munofiqlik va hokazolarning ko'payishiga olib keladi. Jamiyatga dizintegratsiya xavf solar ekan sotsializatsiya va sotsial nazoratga ehtiyoj bo'ladi.

Umuman shuni aytish mumkinki, shaxs konsepsiyasining zamonaviy interaksizmi shakllanish pallasida turibdi, turli konsepsiya va nazariyalarning ta'sirini boshdan kechirmoqda.

Shaxs termini turli mualliflar tomonidan har xil tahlil etiladi. Shaxsga berilgan hamma ta'riflar 2 ta bir-biriga qarama-qarshi nuqtai nazarlar bilan u yoki bu darajada asoslanadi. Bir nuqtai nazar bo'yicha, har bir shaxs o'zining tug'ma sifatlari va qobiliyatlariga muvofiq shakllanadi va rivojlanadi. Sotsial muhit bu holatda juda ham kam rol o'ynaydi. Boshqa nuqtai nazar vakillari shaxsning ichki xususiyatlari va qobiliyatlarini to'raligicha, inkor etishadi. Ularning fikricha, shaxs bu sotsial tajriba davomida to'raligicha shakllanadigan qandaydir mahsuldir. Ko'rinib turibdiki, shaxsning shakllanish jarayonidagi bu fikrlar unchalik absolyut to'g'ri emas. Fikrimizcha, shaxsni tahlil qilishda, ham tug'ma biologik xususiyatlarni, ham sotsial tajribani hisobga olish kerak. Shu bilan birga amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, shaxs shakllanishida sotsial omillar ko'proq ahamiyatga ega.

V.Yadov fikricha, "Shaxs - bu inson sotsial xususiyatlarining butunligi, ijtimoiy rivojlanish mahsuli va individni aktiv faoliyati va muloqoti vositasida sotsial munosabatlar tizimiga qo'shilishidir. Bu qarashga muvofiq, shaxs biologik organizmdan faqatgina sotsial va madaniy tajriba tufayli rivojlanadi. Bunda shaxs xususiyatlarining shakllanish jarayoniga sezilarli ta'sir etadiki, shaxsdagi tug'ma qobiliyatlar, temperament va mayllar inkor etilmaydi.

3. Shaxs shakllanishi omillari: biologik irsiy, jismoniy muhit, madaniy, guruhiiy tajriba, shaxsiy tajriba.

Shaxs xususiyatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishini tahlil etish uchun shaxsning shakllanishiga ta'sir etadigan omillarni quyidagi tiplarga bo'lamiz.

- 1) biologik irsiyat
- 2) tabiiy muhit
- 3) madaniyat
- 4) guruh tajribasi
- 5) ulkan individual tajriba

Bu omillarning shaxsga ta'sirini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Biologik irsiyat; G'ishtli uyni toshdan qurish mumkin emas, ammo ko'p g'ishtlardan uyni, buning ustiga turli ko'rinishda qurish mumkin, Har qanday kishining biologik irsiyati xom-ashyo materiallarini yetkazib beradi, ular keyinchalik har xil usullar bilan inson zoti, individ, shaxsiga aylanadilar.

Hayvonlarning ko'pgina turlaridan farqli ravishda inson mavjudoti yilning hamma vaqtida jinsiylikni namoyon etadi, bu esa ko'proq yoki ozroq darajada bolalar tug'ilishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bola tug'ilganda yordamga muhtoj bo'ladi va hayotining dastlabki yillarida shunday holda qoladi. Bu kabi biologik faktlar insonlar sotsial hayotiga asos soladi. Bundan tashqari, inson monogam jinsiy hayot instinktiga ega bo'lmaydi va har qanday jamiyatda bu

belgi oila instituti shakllanishiga va bolalar tarbiyasiga ta'sir qilib, har xil namoyon bo'ladi. Biologik irsiyat xususiyatlari havo, suv, ovqat, uyqu, xavfsizlik singari ehtiyojlarni o'z ichiga oladigan insonning tug'ma ehtiyojlari bilan to'ldiriladi. Agar sotsial tajriba asosan inson ega bo'lgan o'xshash umumiy xususiyatlarni tushuntirib bersa, biologik irsiyat ko'pincha shaxsning individualligini, uning boshqa jamiyat a'zolaridan dastlabki farqini tushuntirib beradi. Shu bilan birga, guruhiiy farqlanishni endi biologik irsiyat tushuntirishi mumkin emas.

Shu asosda biologik irsiyat shaxsni to'raligicha yarata olmaydi, chunki na madaniyat, na sotsial tajriba genlar orqali o'tadi. Ammo biologik omilni hisobga olish lozim. Chunki u birinchidan, sotsial jamoalar uchun cheklashlar (yordamga muhtoj go'dak, suv ostida uzoq tura olmaslik, biologik ehtiyojlar majmui va hokazo) yaratadi, ikkinchidan, biologik omil yordamida temperament, xarakter, qobiliyatlarning cheksiz turli ko'rinishlari paydo bo'ladi, ular har qanday kishi shaxsida individuallik, ya'ni takrorlanmas ulkan siymo vujudga keltiradi.

Tabiiy muhit; Ko'pgina olimlar shaxsning rivojlanishida tabiiy muhitga asosiy e'tibor qaratadilar. Mashhur sotsiolog P.Sorokin 1928 yilda chop etilgan asarlarida ko'pgina olimlarning - Konfutsiy, Aristotel', Gippokratdan tortib o'ziga zamondosh bo'lgan geograf Elmiot Xantingtonlarning nazariyalarini boyitdi. Bu olimlarning fikri bo'yicha, shaxslar xulqidagi guruhiiy farqlar asosan iqlimdagi farqlar, jug'rofiy xususiyatlar va tabiiy resurslar bilan belgilanadi. Bu toifa olimlar qatorida faylasuf Plexanov va tarixchi A.N.Gumelyovlarni kiritish mumkin. Bu tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariya etnomarkaziy, milliy ongni oqlash uchun yaxshi asos hisoblanadi. Lekin tabiiy omilning shaxs rivojlanishidagi asosiy ta'sirini oqlab ololmaydi. Haqiqatdan ham bir-biriga o'xshash tabiiy va jug'rofiy sharoitlarda shaxsning turli tiplari shakllanadi va aksincha ko'p hollarda o'xshash guruhiiy xususiyatga ega shaxslar turli tabiiy muhit sharoitlarida rivojlanadi.

Bunga bog'liq ravishda tabiiy muhit sotsial guruhning madaniy xususiyatlariga ta'sir etishi mumkin, lekin uning alohida shaxs shakllanishdagi ta'siri unchalik emas va shaxsga guruh madaniyatining, guruhiiy yoki individual jarayonning ta'siri bilan solishtirib bo'lmaydi.

Madaniyat; Sotsial muhit. Insonni o'rab turgan guruh, insonlar, madaniyat, urfg'odat, din, iqtisodiy holat va b. Nazarda tutiladi. Eng avvalo shuni aytish lozimki, ma'lum madaniy tajriba butun insoniyat uchun umumiy hisoblanadi va u yoki bu jamiyatning rivojlanishining qay darajasida turganligiga bog'liq emas. Masalan, har bir bola yoshi bo'yicha o'zidan katta kishilardan ovqat oladi, til orqali muloqot qilishga o'rganadi, jazo va mukofot qo'llash tufayli tajribaga ega bo'ladi va hamda bir qancha boshqa umumiyroq madaniyat namunalarini o'zlashtiradi. Shu bilan birga har bir jamiyat amalda o'zining hamma a'zolariga ma'lum o'ziga xos tajriba, boshqa jamiyat bera olmaydigan muhim madaniyat namunalarini hadya etadi. Mazkur jamiyatning hamma a'zolari uchun bir xil sotsial tajribadan o'sha jamiyatning ko'p

a'zolari uchun xos bo'lgan shaxs qiyofasi paydo bo'ladi. Masalan, musulmon madaniyati sharoitlarida shakllangan shaxs xristian davlatida tarbiyalangan shaxsga nisbatan boshqa xususiyatlarga ega bo'ladi. Amerikalik tadqiqotchi K.D'yuboyshaxsni mavjud jamiyat uchun umumiy xususiyatga ega modallik deb atadi. ("moda" statistika terminidan olingan uzunlikni bildiradi, u ob'yekt parometrlari qatorida ko'p uchraydi). Modal shaxs deganda D'yuboysh butun jamiyat madaniyatiga xos bir qancha fazilatlarga ega bo'lgan ko'p uchraydigan shaxs tipini tushunadi. Shunday qilib, har bir jamiyatda o'rtacha rasm bo'lib qolgan xususiyatga ega shaxslarni topish mumkin. Modal shaxs o'zida madaniy tajriba davomida jamiyat o'zining a'zolariga singdirgan hamma umummadaniy qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Bu qadriyatlar ko'proq yoki ozroq darajada mazkur jamiyatning har bir shaxsida mavjud bo'ladi.

Guruhiy tajriba.

Insonning biror guruh a'zosi sifatida oladigan tajribasi tushuniladi.

Individual tajriba deyilganda kishining o'z hoxish irodasi, intilishi qiziqishi orqali egallaydigan o'ayotiy tajribasi nazarda tutiladi.

O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo qiladigan, unga munosib shaxs bo'la oladigan kishini tarbiya qilib yetishtirish hozirgi davrning asosiy vazifasi ekanligi shaxs sotsiologiyasida o'rganiladi.

Hozirgi davrda jamiyatimizda shaxsning quyidagi belgilari mavjud:

1. Birinchi guruh shaxs belgisi: jamiyatga, siyosatga munosabati bilan bog'liq, (Vatanga sadoqat, o'lka boyligi xo'jayini ekanligini anglash, optimizm, maqsad sari intilish, intizomlilik, uyushqoqlilik, faol hayotiy pozitsiya va boshqa).

2. Ikkinchi guruh shaxs belgisi: uning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati bilan harakterlanadi (mehnat qilish, so'z bilan ish birligi, bilim olishga, madaniyatga intilish, mehnatda tashabbuskorligi va boshqalar).

3. Uchinchi guruh shaxs belgisi: uning boshqa kishilarga bo'lgan munosabati bilan bog'liq (kishilarni hurmat qilish, qardoshlik, to'g'rilik, axloqiylik).

4.Shaxslararo o'zaro ta'sir nazariyasi. Nizolar.

Odamlarning bir-biri bilan kontaktga kirishishi, ya'ni aloqada bo'lishi, yoki aloqani uzishiga nima ta'sir ko'rsatadi?

Shaxslararo o'zaro ta'sirning bir qancha nazariyalari mavjud:

- almashuv nazariyasi (Dj. Xomans, P.Blau);
- ramziy interaksionizm nazariyasi (Dj. Mid, T. Blumer);
- taassurotlarni boshqarish nazariyasi (E. Gofman);
- psixoanalitik nazariya (Z. Freyd) va boshqalar.

Almashuv nazariyasi ijtimoiy xulq-atvorni bir-biri bilan moddiy va nomoddiy uzluksiz ruhiy bixeviorizmga asoslangan almashuv jarayonida bo'lgan kishilarning o'zaro ta'siri deb biladi. Bixeviorizmga binoan insonning xatti-harakati quyidagi asosiy qonunga bo'ysunadi: shaxsning ijtimoiy faoliyati qanchalik ko'p taqdirlansa, u shu faoliyatni shunchalik ko'p amalga oshirishga harakat qiladi. Agar shaxs boshqa bir shaxs bilan bo'ladigan o'zaro ta'sirdan o'ziga ijobiy natija kutsa, u kontakt (aloqa)ni davom ettiradi, kutilgan natijaga erishmasa aloqani to'xtatadi. Kontakt muayyan sarf-harajatlar bilan kechadi. Agar odam aloqadan xarajatdan ko'ra ko'proq ijobiy natijaga erishsa, munosabatlar barqaror bo'ladi (M. Doych).

Qadriyat vaziyati shuni ko'rsatadiki, shaxs uchun ma'lum bir natijaga erishish qanchalik qimmatli bo'lsa, u natijaga erishishga shunchalik ko'p intiladi.

“To'yish – ochlik” vaziyati insonning o'tmishda qanchalik ko'p taqdirlansa, uning yana taqdirlanishi shunchalik kam qiymatga ega bo'lishini ko'rsatadi.

“Agressiya va qo'llab-quvvatlash” vaziyatiga ko'ra inson o'zi kutgan mukofotni olmasa yoki jazolansa (kutilmaganda), u agressivligini namoyon qiladi, bunday hatti-harakat natijasi shu shaxs uchun qimmatlidir. SHunday qilib, ijtimoiy aloqa quyidagilar asosida o'rnatiladi va qo'llab-quvvatlanadi:

1) agar ijtimoiy aloqa shaxsiy maqsadga muvofiqlikka mos bo'lsa va sarflangan harakat taqdirlanishdan ortiq bo'lmasa;

2) o'zaro bitimga kelish mumkin bo'lsa hamda to'lov mezonini va ijtimoiy o'zaro ta'sir barcha ishtirokchilarining taqdirlanishi birligi ta'minlanganda. Tomonlardan birining manfaatlari tazyiq ostiga olinganda, u bu aloqalarni qaytadan ko'rib chiqishga intiladi, ularni yangidan tartibga solishga harakat qiladi, natijada nizolar uchun asos paydo bo'ladi.

Ushbu vaziyatlar kishilarning o'zaro ta'siri o'zaro foydali va simmetrik bo'lgandagi xatti-harakatini tushuntirish uchun qo'l keladi, lekin bu nazariya orqali hokimiyat, zo'rlik, ijtimoiy tengsizlikni tushuntirish qiyin.

Nosimmetrik munosabatlarni tushuntirish uchun Xomans **eng kam manfaat tamoyilini** ilgari suradi. Unga ko'ra, eng kam manfaatdor bo'lgan shaxs vaziyatning boshqa ishtirokchilariga almashuv (aloqa) shartlarini bajarishga majburlashi mumkin.

Natijada hukmronlik vujudga keladi. Chunki bir kishi aloqada boshqalarni ko'proq taqdirlash imkoniga ega. Xomans bunday munosabatlarni aloqaning nosimmetrik ko'rinishi deydi.

Nizolar – ijtimoiy faoliyatning keng tarqalgan shaklidir. Nizolar asosida odamlarning bir-biri bilan kelisha olmasligi, ziddiyatlar, shuningdek, talab, manfaat, maqsadlari turlicha bo'lgan kurashuvchi tomonlarning mavjudligi yotadi. Bunda bir tomonning maqsadlari boshqalarning

o'z maqsadiga erishishga xalaqit beradi, ya'ni raqobat nizoli vaziyatning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Nizolar quyidagi turlarga bo'linadi:

kognitiv nizo (kishilarning nuqtai nazari kurashi) **shaxslararo, shaxslar va guruhlararo**, so'ngra guruhlararo va **ijtimoiy** nizo (turli ijtimoiy hamjamiyatlar–sinflar, millatlar, davlatlar, ijtimoiy institutlar to'qnashuvi)ga o'sib o'tishi mumkin.

Nizolar realistik va norealistik bo'lishi mumkin. **Realistik** nizolar konkret natijalarga erishishga qaratilgan bo'lib, ular ishtirokchilarning ba'zi bir noto'g'ri talablari yoki muayyan imtig'zlarning nohaq taqsimlanishi va resurslarning cheklanishi (hokimiyat, boylik, hudud) bilan vujudga keladi.

Norealistik nizolar to'planib qolgan salbiy emotsiya, hafagarchilik, dushmanlikning ifodalanishidir, bunda kuchli nizoli o'zaro ta'sir natijaga erishish vositasi emas, balki yolg'iz maqsad bo'lib qoladi.

Nizolar yana quyidagi guruhga ajraladi:

- destruktiv nizo samarali o'zaro ta'sirni izdan chiqarib, ikki tomonga zarar keltiradi;
- konstruktiv nizo ziddiyatlarni aniqlash, ularni xal qilish, ilgari harakat qilish, rivojlanishga turtki bo'ladi.

A.Kozer fikricha, nizo faqat ijobiy, yoki faqat salbiy oqibatga ega bo'lmaydi, balki bir paytning o'zida ham salbiy, ham ijobiy oqibatga ega bo'lishi mumkin. Nizo ijtimoiy o'zaro ta'sir shakli sifatida ijtimoiy strukturani shakllantirish, standartlashtirish va qo'llab-quvvatlash vositasi hisoblanadi.

Arastu, Gobbs, Gegel', Veber, Darendorf kabi mutafakkir va siyosatchilarning ko'plab asarlarida nizolar me'yordan chetga og'ish emas, balki ijtimoiy munosabatlar me'yori, jamiyatning normal holati deb ta'riflanadi.

Nizolar nazariyasi nizoni ijtimoiy rivojlanish manbai, ijtimoiy dunyoni o'zaro kurashayotgan jang maydoni deb qaraydi.

Xokimiyat egalari uni saqlab qolishga, boshqalar esa vaziyatni o'zgartirishga intiladi. Darendorf fikricha rollar tarkibi ayni bir paytning o'zida ham hamkor, ham nizoli manfaatlarni keltirib chiqaradi.

Sotsiolog Djon Reks ijtimoiy tartib taqsimoti ustidan nazorat o'rnatuvchi ayrim guruhlarining shaxsiy hokimiyatini himoya qilishning ongli natijasi, degan xulosaga keladi.

Xar qanday ijtimoiy tizim resurslarni cheklash bilan to'qnashadi va ularni taqsimlash mexanizmiga ega bo'ladi:

- iqtisodiy taqsimot;

- hokimiyat munosabatlari iqtisodiy taqsimot tizimidagi har qanday tartibsizlikning oldini oladi;

- qadriyatlar hokimiyat taqsimotining qonuniyligini himoya qiladi;

- diniy e'tiqod va marosimlar qadriyatlarga qat'iy bo'sunish mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Integratsiya va ijtimoiy tartib taqsimot jarayonining natijasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:, “O'zbekiston”, 2014 yil .
2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust
3. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida“ gi Qonuni 2016 yil 15 sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida“ gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T 2011.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.O'zbekiston 1995y 247 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
8. Aliqoriev N.S. va b.Umumiy sotsiologiya. – Toshkent.: 1999.
9. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994
10. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Toshkent.: 2000
11. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002
12. Ubaydullaeva B., O.Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. «Ijtimoiy fikr» Markazi. – Toshkent.: 2001
13. Umarova R. «Sotsiologiya.» O'quv qo'llanma. - T. TMI, 2010.
14. Sotsiologiya //Uchebnoe posobie. Pod redak. prof. Lavrenenko V.N. –Moskva.: «YuNITI». 2012
15. Frolov S.S. Obshaya sotsiologiya. //Uchebnik.Moskva.: «Prospekt».2012
16. Toshchenko J.T. Sotsiologiya. //Uchebnik.Moskva.: «YuNITI». 2012
17. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot. 1993

Internet saytlar:

1. <http://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasining hukumat portali
2. <http://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. <http://www.google.uz> Veb-qidiruv saytining uz domeni
4. <http://www.ziyonet.uz> ta'lim portali

5. Sohalar sotsiologiyasi. Iqtisodiy sohalar sotsiologiyasi

Reja:

1. Siyosiy sotsiologiya. Hokimiyat, hukmronlik va avtoritet
2. Siyosiy faoliyat va siyosiy hatti harakatlar. Siyosiy hukmronlik.
3. Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi
4. Iqtisodiy munosabatlar sotsiologiyasida yoshlarda bandlik masalalarining sotsial jihatlari
5. Zamonaviy migratsiya jarayonlaring sotsio madaniy xususiyatlari

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Siyosiy sotsiologiya, hokimiyat, hukmronlik, avtoritet, siyosiy faoliyat, siyosiy xatti-harakat, iqtisodiy hayot sotsiologiyasi, migratsiya, iqtisodiy odam konsepsiyasi, O'zbek modeli.

1. Siyosiy sotsiologiya. Hokimiyat, hukmronlik va avtoritet

Siyosiy sotsiologiya – sotsiologik nazariyaning bir bo'lib, hokimiyat uchun kurash va hokimiyatni amalga oshirish kabi hodisalarni o'rganadi. Lipsetning fikricha, siyosiy sotsiologiyaga jamiyat va davlat o'rtasidagi, ijtimoiy tuzum va siyosiy institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan, - deb ta'rif berish mumkin. Siyosiy sotsiologiya siyosiy fanlardan farq qiladi. Ularning farqi o'rganish predmetida ifodalanadi. Siyosatshunoslik jamiyatning siyosiy hayotini, ya'ni davlat hokimiyati, uni egallash va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan siyosiy tizimdagi munosabatlarni o'rganadi.

Siyosiy sotsiologiya jamiyatning davlat, partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilot va individlarga ta'siri, ularning siyosiy xulq-atvorini o'rganadi. «Siyosiy sotsiologiya keng ma'noda, - deb yozadi O.Berg-Shlosser, - barcha ijtimoiy nodir hodisalar bilan shug'ullanadiva bu hodisalar siyosiy jihatdan muhim hisoblanadi. Ob'yektiv sohada bu avvalambor turli shakldagi jamiyat strukturalari va bu strukturalarga ta'sir qiluvchi omillardir. Ob'yektiv sohada u siyosiy muhim bo'layotgan ijtimoiy nazariya va xulq-atvor namunalarini tadqiq qiladi, tor ma'noda, siyosiy sotsiologiya ob'yekti – aniq siyosiy jihatdan muhim guruhva jarayonlarni tadqiq qilishdir». Demak, siyosat haqidagi fan davlat boshqaruvi bilan bog'liq bo'lsa va uning jamiyatga ta'sirini o'rgansa. u vaqtda siyosiy sotsiologiya jamiyatdan kelib chiqadi hamda uning davlatga qanday ta'sir ko'rsatishini, ya'ni hokimiyatni taqsimlashga va uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi rasmiy institutlarga ta'sirini o'rganadi. SHunday qilib, siyosiy sotsiologiyaning predmeti ijtimoiy strukturalar va jarayonlarning siyosiy soha bilan o'zaro ta'sir mexanizmi hisoblanadi.

Siyosiy sotsiologiya o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- □ siyosatning umumiy nazariyasi (siyosiy hokimiyat, uning boshqa ijtimoiy voqeliklardan farqi va aloqasi);
- □ siyosatning ijtimoiy aspektlari (manfaatlar, talablar, shaxslar va guruh, institutlar faoliyati).

Siyosiy hayot sotsiologiyasi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning 3 darajasini o'rganadi:

- □ ijtimoiy-siyosiy tizimlar faoliyat ko'rsatishining umumiy qonunlari;
- □ ayrim olingan mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- □ siyosiy faoliyatning ayrim turlari.

Hokimiyat va hukmronlik tushunchalari siyosatdan boshqa sohalarda ham ishlatiladi. Ular, avvalo siyosiy fenomenlarni tahlil qilishda qo'llaniladi. "Avtoritet" tushunchasi aksariyat siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishda ishlatiladi.

"Hokimiyat", "hukmronlik" va "avtoritet" tushunchalari ko'p o'lchamli va teng bo'lmagan ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismlarini anglatadi. Ular o'zida 3 aspektni ifodalaydi:

Birinchidan, ijtimoiy munosabatlar vaziyat bilan bog'liq bo'ladi. Ayrim olingan vaziyatni belgilash vaziyatning uzluksiz izchilligidan iborat.

Hokimiyat siyosiy sotsiologiyaning asosiy o'rganish predmeti hisoblanadi. Nima uchun bir odam boshqasiga bo'ysunadi. Chunki u yo kuchliroq, yo aqlliyoq, tajribaliroq yoki boshliq bo'lgani uchun buyruq berish imkoniga ega. Demak, bo'ysunish asosida 2 xil tengsizlik yotadi:

- tabiiy tengsizlik (fiziologik, intellektual);
- ijtimoiy (maqomiy, iqtisodiy, ta'lim bo'yicha va h.k.)

Tabiiy tengsizlik asosida vujudga kelgan hokimiyat shaxslararo o'zaro ta'sir xarakteriga ega. Bunda shu vaziyatda konkret odamga bo'ysunamiz. Agar yangi vaziyatda u o'z ustunligini namoyish etolmasa, uning buyruqlariga bo'ysunmaymiz.

Ijtimoiy tengsizlik asosidagi hokimiyat shaxsiy xususiyatga ega emas. Masalan, xizmat paytida rahbar bizga yoqish yoki yoqmasligidan qa'tiy nazar unga bo'ysunamiz. Bunday hokimiyat barqaror xarakterga ega, buning sababi uning institutsionallashtirishidir.

Sotsiologiya fani ushbu tushunchalarning ijtimoiy munosabatlardagi barqarorligini o'rganadi. Shuning uchun ham biz "hokimiyat, hukmronlik va avtoritet" tushunchalarining munosabatlarini o'rganishimiz kerak. Ikkinchidan, ushbu munosabatlar jamlovchi hisoblanadi. "Hokimiyat" munosabatlari boshqa komponentlarni, jumladan, "avtoritet" tushunchasini ham o'z ichiga oladi. Hukmronlik munosabatlari, asosan, reglamentni belgilaydigan, "hukmronlar" bilan juda tor doirada aloqada bo'lishga imkon beradigan ijtimoiy institutlar yordamida amalga oshiriladi. Uchinchidan, ushbu tushunchalardan birining boshqalariga ta'siri kuchliroq bo'lishi mumkin.

Hokimiyat ko'plab ijtimoiy munosabatlar tarkibi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda shaxs boshqalarning qarshiligiga qaramay o'z hukmronligini amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi. Bir odam ikkinchisiga bo'ysunadi, u muayyan me'yor va sanksiyalarga asoslanadi. M.Veber bu

haqda shunday degan: “hokimiyat ijtimoiy munosabatlarda o‘z irodasini qarshiliklarga qaramay amalga oshirish imkoniyatini anglatadi”. (“Xo‘jalik va jamiyat”)

Bu yerda faqat ijtimoiy hokimiyat, ya‘ni kishilar ustidan hukmronlik nazarda tutiladi. Bu yerda tabiat yoki narsalar ustidan hokimiyat haqida gap bormaydi, chunki narsalar ustidan hukmronlik ayni paytda kishilar ustidan hokimiyatning ham o‘rnatilishini bildiradi.

Maks Veber hokimiyat tushunchasining “amorf” xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydi. Gap iqtisodiy hukmronlik haqida ham bo‘lishi mumkin (masalan, bozordagi hokimlik va h.k.).

Hokimlik, shuningdek jismoniy kuch ishlatishdagi ustunlikdan ham kelib chiqishi mumkin (masalan, qurolga ega bo‘lish). Zo‘ravonlik bilan qo‘rqitish zo‘ravonlikka qaraganda katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Hokimlik, shuningdek boshqalarga ham kerak bo‘lgan axborotga ega bo‘lishda ham ko‘rinadi. Muayyan bilim yoki informatsiyaga ega bo‘lish har doim ham hokimiyat manbai bo‘la olmaydi. Informatsiya egalariga uning sheriklari bo‘ysunganda yoki moddiy rag‘batlantirilganda, ularning hokimiyati mustahkamlanadi, u iqtisodiy hukmronlikni amalga oshirishga yordam beradi.

Shu munosabat bilan ommaviy axborot vositalari ustidan hukmronlik o‘rnatish haqida gapirish mumkin. Ushbu guruhning hukmronligi ommalashtirishi kerak bo‘lgan axborot sir tutilgandagina amalga oshiriladi.

Demak, hokimlik turli shakllarda ifodalanishi mumkin. U nisbatan mustahkam, yoki obro‘siz, qisman yoki total, rasmiy yoki norasmiy bo‘ladi. Ayrim hollarda u kuchayib, mustahkamlanadi, hukmronlikda namoyon bo‘ladi. Hukmronlik hokimiyatning o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Ko‘cha harakatini tartibga soluvchi hukmronlik qilmaydi. Korxona rahbari hukmronlik qiladimi, yo‘qmi degan savolga ayrim hollarda javob berish qiyin. Korxona rahbari o‘zi hukmronlik qilishi shart emas, u hukmronlikni amalga oshirishga yordam beradi.

Hukmronlik muayyan barqarorlikka ega. U bo‘ysunish orqali amalga oshiriladi, bunda shaxs o‘z irodasiga qarama-qarshi o‘laroq bo‘ysunadi. Odatda, hukmronlik qiluvchilar bo‘ysunuvchilar tomonidan o‘z ustunliklari ijobiy baholanishini xohlaydilar. Ular shu tariqa avtoritet (obro, nufuz)ga ega bo‘lishga ham intiladilar. O‘zidan kuchli bo‘lganga vaqti-vaqti bilan bo‘ysunish hukmronlikning emas, balki hokimiyatning ko‘rinishidir.

Hukmronlik qiluvchilar o‘z hukmronliklarining qonuniy tan olinishiga intiladilar. Legitimlik (tan olish) va avtoritet bir narsa emas (aytib o‘tish kerakki, legitimlik avtoritet tufayli amalga oshadi). Majburlash vositalaridan foydalanishni qonunlashtirmaydigan avtoritet ham mavjud bo‘lib, u hukmronlikning har qanday munosabatlariga xosdir. Sotsiologiyada legitim

hukmronlik haqida gap boradi, bunda tobe kishilar hukmronlik, bo'ysunishni va hukmron shaxslarning majburlashini jamiyatda mavjud bo'lgan me'yorlarning ifodalanishi deb hisoblaydi.

M. Veber hukmronlik nolegitim ham bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi. Xar qanday hukmronlik o'zining legitimligini tan olishlariga harakat qiladi. Xar qanday hukmronlik siyosiy hukmronlik bo'lavermaydi. Siyosiy hukmronlik yuqori darajada tartibga solinadigan jamiyatning geterogen institutsionallashtirilgan sistemachalari majmuida bo'ysunishning amalga oshirilishidir. U ijtimoiy sohada ko'plab sistemachalar va institutlarning tashkil etilgan tizimi zarurligini taqazo etadi. Ular quyidagi institutlar bo'lishi mumkin:

- 1) kommunikativ institutlar aloqa uchun xizmat qiladi. Xukmron guruhlar har doim bo'ysundirish yo'llari, vositalari, imkoniyatlariga ega. Ular mavjud vaziyat haqida axborot olishga intiladilar va undan bo'ysundirishda foydalanadilar.
- 2) bo'ysunishga majburlash institutlari (masalan, jismoniy kuch ishlata oladigan, shuningdek, siyosiy hokimiyat havfsizligiga tahdid soladigan ta'sirdan muhofaza qiluvchi tashkilotlar).

Avtoritet muayyan shaxs, guruh, institutlarning ustunligini ko'pchilik tomonidan tan olinishi tufayli vujudga keladigan ijtimoiy ta'sirdir. Bunday ustunlikni tan olish o'z-o'zini belgilash huquqidan voz kechishni ham bildiradi. Bunda individning mustaqil qarorlar qabul qila olishdagi saviyasi yoki muayyan masalalar yuzasidan o'z fikriga ega bo'lish, yoki muayyan xatti-harakatni amalga oshira olish xususiyati gumon ostiga olinadi. Avtoritet egasining ustunligini tan olish atrofdagilarning faoliyatini belgilash imkonini beradi. Bunday ta'sir avtoritet egasining qat'iy harakatisiz amalga oshadi.

Avtoritetni shu avtoritet egasi bo'lgan shaxsning xususiyati deb bilish to'g'ri emas, balki uning boshqa shaxslarga bo'lgan munosabatini anglatadi. SHaxs avtoritetni shakllantiruvchi ko'plab xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin (aql, jismoniy kuch, notiqlik va h.k). bunday xususiyatlar avtoritetning namoyon bo'lishiga birgalikda yoki ayrim-ayrimlikda sabab bo'ladi. Boshqa shaxslar xuzurida ustunlik tan olinganda muayyan xulq-atvorning o'rnatilishi avtoritetning namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ongli xatti-harakat yordamida avtoritetga erishish qiyin. Avtoritetni "avtoritar xatti-harakat" bilan adashtirmaslik kerak. Avtoritet yetishmagan joyda avtoritar xatti-harakat o'rin oladi. Avtoritet egasining irodasi, xohish-istagidan qat'iy nazar avtoritet yuzaga keladi.

"Avtoritet" tushunchasi "hokimiyat" tushunchasidan farq qiladi, ijtimoiy voqelikda ular uzviy bog'liq. Agar hokimiyat uchun kishilar qarshiligini yengish xos bo'lsa, avtoritetga hurmat bilan qarashni kutish shart emas. Agar avtoritet yana qarshilikni yengishni talab qilsa, bunda avtoritet bilan hokimiyat bir qatorda turganini ko'ramiz.

Zamonaviy buyruqbozlik (byurokratiya) asosida tashkil etilgan davlat qisqa muddat ichida hukmronlikni amalga oshirishga imkon beradi. Barcha jarayonlarning xujjatlashtirilganligi

hukmron doiralarga ularning irodasi quyida qanday bajarilayotganligini nazorat qilish imkonini beradi. Agar zamonaviy davlat mavjud hukmronlik mexanizmi samarasiz ekanligini ko'rsa, bu hokimiyat vositalari yetarli emasligida emas, balki ular kengayib, foydalanish uchun noqulay holga kelganidan dalolat beradi.

2. Siyosiy faoliyat va siyosiy xatti-harakatlar. Siyosiy hukmronlik.

Siyosat davlatning mohiyatini ifodalaydi, yoki u bilan bog'liq faoliyat degan fikr keng tarqalgan. Siyosiy xatti-harakat davlat organlari faoliyati yoki davlat tashkilotlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatishdir, degan fikrlar ham mavjud. Siyosat haqidagi bunday fikr ancha tor. Chunki, birinchidan, davlat hozirgi ma'noda har doim ham mavjud bo'lgan emas. Davlat tarixan shakllanib keldi va hozirgi ko'rinishga ega bo'ldi. Ikkinchi tomondan, davlatning har qanday xatti-harakati siyosiy bo'la olmaydi. Davlat boshqaruvi siyosat va siyosiy ta'sirga yo'naltirilgan bo'lsa ham u siyosatning o'zi emas. Jamiyatda bo'ladigan har qanday jarayonni siyosat deb bilish to'g'ri bo'lmaydi. Siyosiy shart-sharoit yoki siyosiy qarorlar bilan bog'liq bo'lmagan hayot sohasini topish mumkin emas. Qayd etilayotgan ijtimoiy xatti-harakat tipik siyosiy bo'lsa, sohalarni siyosiy yoki siyosiylashtirilgan, deb qarash kerak. Bunda gap siyosiy relevantlik (siyosiy ahamiyatga molik) haqida ketadi. Masalan, ko'p oilalarning hayoti siyosiy emas, lekin oilalarda bo'ladigan ko'p jarayonlar siyosiy ahamiyatga ega. Siyosiy qarorlardan kelib chiqadigan maktab islohotlari oilaviy bitimga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Siyosiy faoliyat ayrim individ va kishilar guruhining o'z manfaat va ideallariga moslashtirish maqsadida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimiga ongli ravishda ta'sir ko'rsatishidir. U o'zida konkret siyosiy xatti-harakatlar majmuini ifodalaydi. Siyosiy xatti-harakat esa individ yoki kishilar guruhi tomonidan u yoki bu natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan aksiyalar, qadamlardir. Siyosiy faoliyat va siyosiy xatti-harakat motivi (sababi) deganda, kishilarni bu ishga nima undayotganiga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Kishilar ijtimoiy faolligining asosiy sababi ularning hayotiy talab hamda manfaatlaridadir. Xar qanday siyosiy faoliyat va xatti-harakatda ijtimoiy guruh va individlarning aniq va yashirish shakldagi real talab hamda manfaatlari ifodalanadi.

Qanday xatti-harakatni siyosiy xatti-harakat deb hisoblash kerakligini aniqlab olishimiz lozim. Bunda, ijtimoiy sohaning siyosiy faoliyat yuritishga imkon beradigan muayyan o'ziga xosligiga e'tibor beriladi. Lekin qanday sohalar haqida gap ketayotganini qat'iy belgilash mumkin emas. Chunki ijtimoiy hayotning ayrim sohalar vaqt o'tishi bilan siyosiylashadi, ya'ni o'zining avvalgi nosiyosiy xarakterini yo'qotadi, aksincha bo'lishi ham mumkin.

Siyosiy xatti-harakat siyosiy xulq-atvorning maxsus shakli hisoblanadi. Siyosiy xatti-harakat unda ishtirok etayotgan sistemachalarning bir-biriga munosabati dinamik bo'lishini

taqozo etadi. Siyosiy xatti-harakat konservativ bo'lishi yoki biron-bir narsani o'zgartirishga intilishi mumkin. To'la ravishda yo'naltirish, tartibga solish mumkin bo'lmagan makon bor yerda siyosat vujudga keladi. To'la institutsionallashtirilgan byurokratik apparatda siyosiy qarorlarni bajarish siyosiy xatti-harakat emas, lekin u siyosiy ahamiyatga ega.

Siyosiy xatti-harakat o'z mohiyatiga ko'ra, guruhning faoliyati, ya'ni turli darajadagi institutsionallashtirilgan guruhlar va sistemachalar orasidagi xatti-harakatdir. Demak u konkret guruh manfaatlari, qadriyatlari me'yorlari orqali ifodalanmaydi. Siyosiy xatti-harakat ayrim guruh va sistemachalarni faoliyatdagi sub'yekt deb bilmasa ham, ko'plab manfaatlar, qadriyatlar, me'yorlarga tayanishi lozim. Chunki siyosiy xatti-harakat turli maqsad va qadriyatlarga ega ko'plab kishilar mavjud bo'lgan ijtimoiy sohada amalga oshadi, sistemachalarning bir-biriga bo'lgan munosabatiga ta'sir hokimiyatdan tashqarida vujudga kelmaydi.

Siyosiy xatti-harakatda maqsadlar, odatda, bir marotabalik harakat orqali amalga oshmaydi, u uzluksiz xarakterga ega bo'lishi kerak. Maqsadga yaqinlashtiruvchi ayrim qadamlar maqsadga muvofiq tarzda rejalashtirilishi lozim. Ushbu sohada doimo turli maqsadga ega boshqa kishilar va guruhlarining xatti-harakati bilan hisoblashish talab qilinadi.

Siyosiy xatti-harakat amaliy bo'lib, o'z mohiyati bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan narsalarga tayanadi. "Siyosat bu imkoniyatlar san'ati", - degan edi O.Bismark.

Siyosiy xatti-harakat ko'pincha noxush, gumanizm chegarasidan o'tadigan mavhumlik sohasida yuz beradi. Professional siyosatchi benihoya ko'p kishilarni shaxsan bilishi, ularning ismini esda saqlashi lozim. Shunga qaramay, u "anonim"lar, davlatlar, partiyalar, tashkilotlar, harakatlar, qonunlar, ijtimoiy fikr, aloqalar bilan to'qnash keladi. Yuqoridagilar haqidagi tasavvur shaxslar, ayrim kishilar taqdirining o'ziga xosligini doiradan tashqariga chiqishga majbur qiladi. Bu ham individual erkinlik va ko'plab kishilarning shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishga xalaqit beradi.

"Siyosat" tushunchasining "siyosiy xatti-harakat" tushunchasi bilan bog'liqligidan kelib chiqib, «siyosat» so'zining uchta ma'nosini ko'rsatamiz:

- 1) Siyosat siyosiy xatti-harakatni o'z ichiga oluvchi vaziyat hisoblanadi. Bu aloqa, ko'pincha interaksiya xarakteriga ega. U aksariyat hollarda bir-biriga dahldor, lekin bir-biriga o'zaro ta'siri bo'lmagan strategik oriyentatsiya natijasi bo'lib qoladi. Uni "kimdir siyosat bilan shug'ullana boshlayapti", degan ibora bilan ifodalash mumkin.
- 2) Siyosat individ yoki guruhlar siyosiy xatti-harakatining ayrim vaziyatlariga tarqaladi. Bu haqda "kimdir siyosat bilan shug'ullanayapti" deyish mumkin.
- 3) Siyosat muayyan maqsadga yo'naltirilgan, muvofiqlashtirilgan siyosiy xatti-harakatning izchilligidir. Bunday vaziyat "kimdir siyosatni amalga oshiryapti", deb ifodalanadi.

Siyosatning bunday uch ta'rifi siyosiy xatti-harakatga borib taqaladi.

3.Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi

Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi XX asrning 50-yillarida AQSHda fan sifatida shakllandi. g'arb davlatlarida iqtisodiyot fanining ijtimoiylashuvi tendensiyasi kuchayishi natijasida iqtisodiy sotsiologiyaning imkoniyatlari ortib bordi.

Iqtisodiy soha deb, odatda insonlar turmush uchun zarur hisoblangan ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol uchun ma'suliyatli bo'lgan jamiyatning yaxlit sistemachasi tushuniladi.

Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi inson faoliyati tufayli iqtisodiyotda yuz beradigan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning o'zgarishlarini o'rganishdir. Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi munosabatlar sistemasiga taalluqli va bir-birlari bilan o'zaro harakat qiluvchi guruhlarini o'rganadi. Uning ob'yekti bo'lib ijtimoiy jarayonlar sifatida maxsus nuqtai nazardan qaraluvchi iqtisodiyot namoyon bo'ladi.

Xozirgi davrdagi iqtisodiy hayotning ma'lum konsepsiyalarsiz mafkuraviy maqsadlarga asoslanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, birinchi Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishining 5 tamoyilidan biri bo'lgan iqtisodiyotning siyosatdan ustun bo'lish tamoyili iqtisodiy hayotning ma'muriy buyruqbozlik mafkurasidan holi bo'lishini, iqtisodiyotni erkinlashtirishni ko'zda tutadi. Bizda bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari ma'lum konsepsiyalarga, g'oyaviy yo'nalishlarga asoslangan holda mavjud bo'ladi, rivojlanadi. Iqtisodiy hayot inson ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liqdir. Zero O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek: "bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni har yoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslandi." Iqtisodiy nazariyalar va qarashlar hamda tasavvurlarga iqtisodiy munosabatlar ham aynan muvofiq bo'lavermaydi. Iqtisodiy qarashlar va nazariyalar ba'zida ishlab chiqarish munosabatlariga shubha bilan qaraydi. Uni o'zgartirish, takomillashtirish uchun ma'lum tavsiyalar, yo'riqlar majmuini ilgari suradi.

Iqtisodiy hayotni ijtimoiy talqin etishga birinchi bor F.Teylor e'tibor berdi. U ishchilarning mehnatga bo'lgan qiziqishini o'rgandi va 1894 yili mehnatga haq to'lash tizimiga asoslangan nazariyasini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etdi. Bu g'oya asosida "iqtisodiy odam" konsepsiyasi va uning xususiyatlari paydo bo'ldi. Bu g'oyaning asosini quyidagilar tashkil etadi:

1. Eng qisqa vaqtda ishchi qancha ko'p hajmda ish bajarsa, unga shuncha xaq to'lash.
2. Ishning hajmini emas, balki samaradorligini va yaxshiligini rag'batlantirish.
3. Ishchilarga kam ish haqi berish va ko'p berish baravar zararlidir.

Teylor konsepsisi Amerika sanoatida Ford tomonidan ishlab chiqarishga tadbiq etildi, konveyer ishlab chiqarish sharoitida mehnatning samaradorligi rag'batlantirildi.

Xozirgi davrda iqtisodiy sotsiologiyani tahlil qilishda asrimizning 70-yillarida vujudga kelgan iqtisodiy reallikni hisobga olish zarur. Bu o'zgarishlar iqtisodiy sohada keng ko'lamda burilish hosil qilishi bilan belgilanadi. Xozirgi ko'plab sotsiologlar va iqtisodchilar jamiyatning yana bir tasnifini ham bermoqdalar:

- 1) an'anaviy jamiyat;
- 2) industrial jamiyat;
- 3) postindustrial jamiyat.

Agar an'anaviy jamiyatda yerga bo'lgan mulkchilik asosiy o'rinni egallasa, industrial jamiyatda mulkning barcha ko'rinishlariga bo'lgan munosabat shakllanadi. Postindustrial jamiyatda esa intellektual mulk, insonning aql-zakovati, bilimi asosiy o'ringa chiqadi.

Industrial jamiyatni yirik mashina ishlab chiqarishi, qo'l mehnati o'rniga yuksak mehnat unumdorligiga asoslangan ishlab chiqarish izohlaydi. Bir me'yorda ishlaydigan avtomatik ishlab chiqarish vujudga keladi. Ommaviy ishlab chiqarish eng muhim belgilovchi xususiyatga aylanadi. Ishlab chiqarishda yuksak malakali ishchilarning roli ortib boradi, ixtisoslashuv chuo'urlashadi. Natijada mashina yordamida standartlashgan operatsiyalar bajariladi. Xo'jalik sohasida sanoat va moliyaviy kapital ustunlik qiladi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar ommaviy, standartlashgan xarakterga ega bo'ladi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar asosan tovar xarakteriga ega bo'lib, bozor uchun mo'ljallanadi. Товар munosabatlari milliy iqtisodiyotning dunyo iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini taqozo qiladi. Natijada dunyo xo'jalik tizimining shakllanishiga imkon yaratiladi.

Industrial jamiyatni iqtisodiy jamiyat, deb ham atash mumkin. Chunki, real borliq iktisodiyotga qaratilgan bo'ladi, iqtisodiyotga mo'ljallangan ishlar ustun ravishda rivojlanadi.

Milliy davlatlarning shakllanishi demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo etish, milliy manfaatlarni ximoya qilish asosida, erkin xalqaro ijtimoiy, siyosiy iqtisodiy hamkorlik ko'lamlariga chiqish imkoniyatlariga ega bo'ldilar.

XX asr o'rtalaridan qator g'arb mamlakatlari jamiyatning uchinchi bosqichi—postindustrial jamiyatga o'tmoqda. Bugungi sotsiologiyada uning nomi har xil, jumladan «informatsion» jamiyat «postindustrial jamiyat», kabi atamalar bilan ifodalanmoqda. Bular ommaviy axborotlarni vujudga keltiradi, saqlaydi va qayta ishlab chiqaradi. Kommunikatsiya tizimida shunday o'zgarish yuz beradiki, xo'jalik tizimi tubdan o'zgaradi.

Tabiat manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish ayniqsa metallurgiya, qishloq xo'jaligi qisqara boshlaydi. O'z navbatida maishiy xizmat ko'lami kengayadi, aholining deyarli 50% shu sohada band bo'ladi. Shuning uchun ba'zida postindustrial jamiyat — maishiy xizmat qilish

jamiyati deb ham yuritiladi. Ishlab chiqarish (moliyaviy, bank, sug'urta, savdo, ilmiy maslahat, dastur) va noishlab chiqarish sohalarida xizmatlar (fan, ta'lim va b.) o'sib boradi. Bunda urbanizatsiya jarayoni industrial jamiyatga nisbatan teskari ravishda yuz beradi, qishloqqa sanoat kirib boradi.

F.Teylorning mehnatni tashkil qilish usuli boshqa qulay usullar bilan almashadi. Sanoatda yollanma mehnatning hajmi kamayadi, ma'lumotli, bilimdon odamlar ishlab chiqarishda ko'plab ishtirok etadi. Moddiy narsalar omilidan ko'ra intellektual omil birinchi o'ringa chiqadi. Inson yuksak kapital emas, balki o'z mohiyatini, bilimi, iqtidorini, qadriyatlarini namoyon qiluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi. Bilimlarning strukturasi, maqsadlari ham o'zgaradi. Bunday axborotni o'rganish, qayta ishlash, ilmiy bashoratlar berish, dasturlarni ishlab chiqarish borgan sari ortib boradi.

Demak, an'anaviy jamiyatda boylik tashqi manbalar asosida qurilgan bo'lib, tabiat manbalarini egallash va uni o'zlashtirishga qaratilgan.

Industrial jamiyatda ishlab chiqarishning ichki manbalari ishga tushadi. Ishlab chiqarishda bo'lgan imkoniyatlar ro'yobga chiqadi. Tadbirkorlik ishlab chiqarishning to'xtovsiz rivojlanishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadi: an'anaviy jamiyatda iqtisodiy masalalar insonning tabiatga bevosita munosabati orqali hal qilingan bo'lsa, industrial jamiyatda inson tomonidan yaratilgan sun'iy ishlab chiqarish vositalari iqtisodiyoning asosini tashkil etadi. Shuning uchun bunday jamiyat iqtisodiy jamiyat deb ataladi.

Iqtisodiy jamiyatda iqtisodiy munosabatlar jamiyatdagi konkret. guruhning mavqei hal qiluvchi omil sifatida iqtisodiy munosabatlar tizimlari orqali belgilanadi. Iqtisodiy munosabatlar tizimi va bir-birlari bilan o'zaro harakat qiluvchi guruhlarini iqtisodiy sotsiologiya o'rganadi.

4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI . To'rtinchi ustuvor yo'nalish Ijtimoiy sohani rivojlantirishda

Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash; ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, komp'yuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish; bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har

tomonlarni intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish; umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish; bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga jalb qilish, ularni musiqa va san'at olami bilan bog'lash maqsadida yangi bolalar sporti ob'yektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish; kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish; ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish; o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb qilish; yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish; yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2014 yil .
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi”gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.

3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida“ gi Qonuni 2016 yil 15 sentabr
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida“ gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
6. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”// “Xalq so‘zi” 2015 yil 19 yanvar
7. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish davr talabi. // Xalq so‘zi. 14 fevral, 2009.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.- 488 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 48
12. Aliqoriev N.S. va b. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent.: 1999.
13. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994
14. Sotsiologiya. Ma’ruzalar matni. – Toshkent.: 2000
15. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Meros, 2002
16. Ubaydullaeva B., O.Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. «Ijtimoiy fikr» Markazi. – Toshkent.: 2001
17. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001
18. Aliev B., Rafiqov G’, Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.
19. Sotsiologiya //O‘quv qo‘llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
20. Sotsiologiya. Ma’ruzalar kursi. Aliqoriev N.S, Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B., va boshq. – Toshkent, 2001
21. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) T.1999
22. Umarova R. «Sotsiologiya.» O‘quv qo‘llanma. - T. TMI, 2010.
23. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi /K. Abduraxmonovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O‘qituvchi, 2001. – 480 b.
24. Umrzoqov B. Mehnat munosabatlari va mentalitet / Mas’ul muharrir Q. Abdurahmonov. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 96 b.
25. Maksakova L.P. Migratsiya i rinok truda v stranax Sredney Azii. – -Toshkent: Breyd-Stayl. 2002.–S.136
26. Parmanov F.Ya. Migratsiya: vatangado musofir. Monografiya. Sano-ekspert. T.: 2015

Internet saytlar:

- 1.<http://www.gov.uz> O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali
- 2.<http://www.lex.uz> O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

3.<http://www.google.uz> Veb-qidiruv saytining uz domeni

4.<http://www.ziynet.uz> ta'lim portali

6. Ma'naviy hayot sotsiologiyasi

Reja:

1. Madaniyatning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi o'рни va ahamiyati
2. Fan va ta'lim sotsiologiyasi
3. Din sotsiologiyasi

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Madaniyat, ta'lim, fan, din, madaniyat funksiyasi, anomiya, xalq madaniyati, ommaviy madaniyat, sub madaniyat, Sekulyarizatsiya nazariyasi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'lim tizimi, Etnotsentrizm

1. Madaniyatning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi o'рни va ahamiyati

Madaniyat – inson hayotining uni tabiatdan sifat jihatidan ajratish imkonini beradigan hodisalari, xususiyatlari va elementlari. Mazkur farq insonning ongli bunyodkorlik faoliyati bilan bog'liq. "Madaniyat" arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratganlar: birini badaviy yoki sahroiyl turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik – ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik – shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan¹⁹.

Madaniyat boshqa ijtimoiy hodisalar bilan chambarchas bog'liq. Madaniyat tarkibi va uning jamiyat hayotidagi roli zamon va joyga qarab o'zgaradi. Hozirgi ilmiy ma'noda (shu jumladan sotsiologiyada) madaniyat deganda san'at va adabiyotda ishlatiladigan, muayyan guruh uchun umumiy hisoblanadigan, mazkur guruh a'zolarining tajribasi va xulq-atvorini tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan e'tiqodlar, qadriyatlar va ifoda vositalari tizimi tushuniladi.

Insonning mohiyatini aks ettiruvchi omillardan biri, jamiyat, uning sinflari va ijtimoiy guruhlari taraqqiyoti darajasining ko'rsatkichi sanalgan madaniyat individual, gruppaviy va ijtimoiy ong hamda amaliy faoliyatning g'oyalar, qarashlar, qadriyatlar va mo'ljallarni moddiy yoki ma'naviy darajada ro'yobga chiqarishga qaratilgan turli shakllarining birligini o'zida ifodalaydi. Madaniyatda inson bunyodkorlik mehnatining ijtimoiy-shaxsiy sifati o'z aksini topadi. Aynan madaniyat fenomeni moddiy va ma'naviy omillarning rivojlanishi bilan bir qatorda ijtimoiy mavjudot sifatidagi insonning kamol topish jarayonini ham o'zida uyg'un birlashtirish imkonini beradi.

Madaniyatning jamiyat hayotidagi individual-psixologik jihatlari madaniyatshunoslik fani doirasida tadqiq etilishini hisobga olib, bu yerda uning sof sotsiologik muammolariga e'tiborni qaratmoqchimiz. Sotsiologiya madaniyatni o'rganar ekan, u jamiyat hayotida rang-

¹⁹ Qarang: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 372-b.

barang vazifalarni bajarishidan kelib chiqadi. Madaniyat sotsiologiyasi doirasida kishilarning estetik qadriyatlarga oshno bo'lish ehtiyojlarini qondiruvchi omillar tadqiq etiladi, odamlar didini shakllantirish, o'zini qurshagan voqelikni estetik idrok etish jarayonlariga baho beriladi.

Madaniyat tarbiya makoni bo'lib, u o'ziga xos bo'lgan metodlar yordamida nainki estetik, balki siyosiy, huquqiy idealni shakllantirishga ko'maklashadi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash masalalariga o'zining ko'pgina ma'ruzalari va asarlarida to'xtalib o'tadi²⁰.

Mustaqil O'zbekistonda yosh avlodni tarbiyalash ishida ma'naviy va axloqiy asoslarni kuchaytirishning muhimligi va zarurligiga har doim alohida e'tibor qaratiladi. Bu fikr O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida ham alohida ta'kidlanadi. Mazkur asar o'z yurtining boy tarixini, ajdodlar noyob merosini qadrlaydigan, Vatanini ardoqlaydigan yuksak ma'naviyatli yosh avlodni, o'z mamlakatining turli mafkuraviy xurujlarga qaqshatqich zarba berishga qodir bo'lgan qat'iyatli, irodali, fidokor fuqarolarni tarbiyalash ishida o'ziga xos dasturilamalga aylandi.

Ajdodlar ilmiy va ma'naviy merosini hamda umumsivilizatsion ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy obidalarni tiklash, Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy kabi buyuk mutafakkir va allomalar ijodiy merosining hozirgi zamon jamiyati hayotidagi o'rni va ahamiyatini kuchaytirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ekran, kitob, sahna, estrada maydonchasi, muzeylarning zallari orqali inson xalqning ijodiy faoliyatini anglab yetadi, uning madaniyatini o'zlashtiradi. Biroq mazkur materialni taqdim etishda me'yorning buzilishi madaniyat muassasalari ishini izdan chiqaradi, umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi va ularni qadrsizlantiradi.

Ko'pgina madaniyat muassasalarining faoliyati aksariyat odamlar tomonidan dam olish, bo'sh vaqtni o'tkazish sohasi sifatida tushuniladi. Madaniyatga oid tadqiqotlarning rivojlanishi uning mehnatga doir, siyosiy va ijtimoiy ijodiy faoliyat bilan aloqasi to'g'risidagi masala kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'ldi. Sotsiologiyaga oid adabiyotlarda kasbiy, iqtisodiy, siyosiy,

va innovatsiyalarning funksional birligi xosdir. Tibbiyot madaniyatida an'analar va innovatsiyalar birikmasi ularning uzviyligi bilan ajralib turadi. Tibbiyot madaniyati dinamikasi,

²⁰ Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. *Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi*, 2009 yil 8 dekabr // "Xalq so'zi"; Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008; Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asiga: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.

birinchidan, an'anaviy va innovatsion jihatlarining (madaniyat rivojlanishi umumiy qonuniga muvofiq) bir-biriga o'tishi bilan; ikkinchidan, tibbiyot madaniyatining turli jihatlariga madaniyat alohida shakllari (xo'jalik, siyosiy, falsafa, din madaniyati va sh.k.)ning ta'siri bilan belgilanadi.

Tibbiyot madaniyati tibbiyot sohasidan tashqarida ham ahamiyat kasb etadi; u "o'z-o'ziga munosabat madaniyati"ning asosiga, ya'ni kundalik turmush madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi axloqiy, ekologik, huquqiy, tibbiy va boshqa xil madaniyat muammolari faol tadqiq etila boshladi. Moddiy madaniyatning o'rni va ahamiyati qayta anglab yetilishi munosabati bilan texnologik inqilob omili sanalgan texnik madaniyatni o'rganish zaruriyati paydo bo'ldi.

O'zbekistonda tibbiy-ijtimoiy sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda aholi sog'lig'ini saqlash, uning tibbiy madaniyatini yuksaltirish, oilalarda sog'lom bolalar tug'ilishi va tarbiyalanishini ta'minlash, yosh avlodni zararli ta'sirlardan himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tibbiyot madaniyati doirasida hozirgi madaniy bosqichning eng muhim muammolari tadqiq etiladi. Bu yerda muayyan madaniyat asoslari barqarorlik darajasining chegarasi namoyon bo'ladi va sinovdan o'tadi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Tibbiyot madaniyati – umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi. Tibbiyot madaniyatiga rang-barang madaniy qadriyatlar vositasida tibbiyot maqsadlariga erishish imkonini beruvchi an'ana lozim.

Tibbiyot madaniyati – bu inson salomatligini saqlash va uning ijtimoiy-biologik tur sifatida mavjudlik usullarini ta'minlash bilan bog'liq tibbiy me'yorlar, qadriyatlar, g'oyalar, ko'nikmalar, an'analar va odatlar majmui. Individning salomatlik madaniyati yoki tibbiyot madaniyati darajasi uning ijtimoiylashuvi darajasining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Jahon madaniyati tarixida shifokorlik, zaruriy tibbiy yordam ko'rsatish bilimi va ko'nikmasi katta nufuzga ega bo'lgan.

Madaniyat inson hayot faoliyati usuli, borliq shakli sifatida insonparvarlik, erkinlik, oqilonalik va ma'naviyat ideallarini o'zida mujassamlashtiruvchi niyatlar va harakatlar bilan tavsiflanadi. Faqat madaniyat bag'rida inson o'zining gumanistik qadriyatlar bilan uyg'un bo'lgan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, shaxs sifatida kamol topishi mumkin. Tibbiyot va madaniyat komil insonni voyaga yetkazish umumiy vazifasini bajarish orqali barcha qirralari vositasida bir-biri bilan bog'lanadi. Shifokor faoliyati shaxsiy fazilatlarning tibbiyot amaliyoti usullari va vositalari yordamida oliy insoniy ideallarni ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi darajasini nazarda tutadi.

So'nggi yillarda jahon madaniyati va milliy madaniyatlar uyg'unligi muammolari alohida dolzarb ahamiyat kasb etdi. Inson hayotida madaniyatning o'rni va ahamiyati ijtimoiy

psixologiya va sotsiologiya atamalarida eng avvalo etnotsentrizm ifodalanadi. O'zga madaniyatga past nazar bilan qarash yoki undan qo'rqish ksenofobiya deb ataladi. Etnotsentrizm turli madaniyatlarning vakillari o'rtasida ba'zan konfliktlarga sabab bo'luvchi muammolarni yuzaga keltiradi. Etnotsentrizmning shakllari ko'p (irqchilik, fashizm, shovinizm, millatchilik, diniy fanatizm va h.k.).

Etnotsentrizmga qarama-qarshi nuqtai nazar **madaniy relyativizm** deb ataladi. Mazkur nuqtai nazarga ko'ra boshqa madaniyatga munosabat sabr-toqatlilik, hurmat, uning qimmatini va ahamiyatini tan olishni nazarda tutadi. Bu har bir madaniyat o'zining alohida geografik va tarixiy sharoitlarida shakllanganini tushunish bilan belgilanadi.

Madaniy relyativizmdan butun dunyoda keng tarqalgan **tolerantlik** tushunchasi kelib chiqadi. Madaniy relyativizm nuqtai nazarini ilgari suruvchi kishilar etnotsentrizm qarashlarini ilgari suruvchilarga qaraganda ilg'orroq bo'ladilar. O'zbekistonda Konstitutsiyaga muvofiq barcha fuqarolar millatidan qat'i nazar teng huquqlar va imkoniyatlarga egadirlar. Har bir xalq tili, an'analari va odatlarini hurmat qilish, ularning milliy o'ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish davlatimiz milliy siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati Tinchlik va osoyishtalik-eng katta boylimiz deb nomlangan ma'ruzasida "Bugun mamlakatimizda bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari tinchlik va totuvlikda yashab, O'zbekiston deb atalmish yagona uyimiz rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Respublikamizdagi maktablarda 7 ta tilda bilim beriladi. SHuningdek, 10 tilda gazeta va jurnallar chop etiladi. 137 ta milliy madaniy markaz o'z tili, qadriyatlari, urf odatlarini saqlash barobarida, yagona ko'p millatli respublikamiz birdamligini ta'minlab kelmoqda."²¹ deb ta'kidlab o'tgan.

Sotsiologiyada madaniy konfliktlarning uch asosiy turi – anomiya, madaniy kechikish va yot ta'sir farqlanadi.

Anomiya aniq ta'riflangan ijtimoiy me'yorlar yo'qligi tufayli muayyan madaniyat yaxlitligining buzilishini anglatadi. Masalan, XIX asrda yevropa va SHimoliy Amerikada industrializatsiya jarayoni sezilarli darajada jadallashgach, asrlar mobaynida hukm surgan eski madaniyat tanazzulga yuz tutgan, ya'ni mazkur qit'alar aholisi uchun o'z qimmatini yo'qota boshlagan. Bu jinoyatchilikning o'sishida, ajrashishlar sonining ko'payishida, seksual taqiqlarning susayishida, an'anaviy diniy va oilaviy qadriyatlarining qadsizlanishida o'z ifodasini topgan.

²¹ SHavkat Mirziyoyev. Tinchlik va osoyishtalik –eng katta boyligimiz. Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqi. 24 yanvar 2017 yil.

Ikkinchi tur – **madaniy kechikish** jamiyat moddiy hayotidagi o'zgarishlar nomoddiy madaniyat (odatlar, e'tiqodlar, falsafiy tizimlar, qonunlar va boshqaruv shakllari)dagi tegishli o'zgarishlardan ildamroq yuz berganda kuzatiladi. Bu moddiy va nomoddiy madaniyat o'rtasida doimiy nomutanosiblikka olib keladi va natijada ko'p sonli ijtimoiy muammolar paydo bo'ladi.

Uchinchi tur – **yot ta'sir**. Bu yerda qadrdon madaniyatga boshqa madaniyat kuchli ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq holat nazarda tutiladi.

Madaniyat va iqtisodning o'zaro aloqasi masalasiga oydinlik kiritish muhim ahamiyatga egadir. Bu o'zaro aloqani tushunishga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvni E.Dyurkgeym va M.Veber ta'riflagan. Ularning fikricha, jamiyat hayotida aynan madaniyat hal qiluvchi rol' o'ynaydi, zero amalda faqat u jamiyatning yaxlitligi va rivoj topishini ta'minlaydi, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, eng avvalo iqtisodga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi (madaniyat birlamchi, iqtisod ikkilamchidir). Bu nuqtai nazarni M.Veber o'z asarlarida atroflicha asoslab bergan. O'zining "Protestantcha axloq va kapitalizm ruhi" kitobida u 500 yilcha muqaddam xristian dinida yangi oqim – protestantizmning (madaniy hodisa sifatida) paydo bo'lishi kapitalizmning vujudga kelishi va jadal sur'atlarda rivojlanishiga olib kelganini isbotlashga harakat qilgan.

Ikkinchi nuqtai nazar madaniyatning iqtisodga ta'sirini inkor etmaydi, biroq birinchi o'ringa iqtisodni qo'yadi. Marksizm ta'limotiga ko'ra, hamma narsaning zahirida iqtisod yotadi, boshqa sohalar, shu jumladan madaniyat iqtisodning ustqurmasi hisoblanadi, ya'ni unga bog'liq bo'ladi. Bunda asosan quyidagi dalil keltiriladi: odamlar fan, siyosat, falsafa, adabiyot, san'at, din va hokazolar bilan shug'ullanishdan oldin yeb-ichishlari, kiyinishlari, boshpanaga ega bo'lishlari, moddiy ne'matlar yaratishlari lozim.

Madaniyat funksiyalari. Birinchi – **ta'lim-tarbiya funksiyasi**. Uning maqsadini nomining o'zi aytib turibdi: ta'lim va tarbiya yoki, sotsiologlar ta'biri bilan aytganda, shaxsning ijtimoiylashuvi, yoki u o'z xalqi, ijtimoiy guruhi va butun insoniyatning bilimlari, tili, simvollar, qadriyatlar, me'yorlari, odatlari va an'analarini o'zlashtirishi. SHaxs madaniyati darajasi mazkur shaxs madaniy merosni qay darajada o'zlashtirgani, shuningdek uning individual qobiliyatlari bilan belgilanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, o'zbek madaniyati simvollar tiklandi. Bunga o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va keyinchalik ta'lim tizimi mazkur tilga o'tkazilishi misol bo'lishi mumkin. Madaniy merosga, etnik o'ziga xoslikni anglab yetishga qiziqishning kuchayishi Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlarning barchasida tabiiy bir holga aylangan va qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda.

Madaniyatning ikkinchi funksiyasi – **integrativ-dezintegrativ** (birlashtiruvchi-ajratuvchi) funktsiya. Bu madaniyatni o'zlashtirish natijasida bir jamoa individlarida yagonalik, bitta millatga, xalqqa, dinga, guruhga mansublik tuyg'usi paydo bo'lishini anglatadi. SHu tariqa

madaniyat kishilarni jipslashtiradi, jamoaning yaxlitligini ta'minlaydi. Ammo, bir guruh shaxslarni muayyan madaniyat asosida jipslashtirar ekan, u ayni paytda ularni boshqa madaniyat asosida birlashgan o'zga jaomalarga qarama-qarshi qo'yadi, ya'ni turli madaniyat vakillarini ularning turli madaniyatlari bir-biridan ajratadi. Mazkur ajratish madaniy konfliktlar omili bo'lishi mumkin.

Uchinchi funksiya – **tartibga solish**. Inson hayoti va faoliyatini belgilovchi qoidalar mavjud bo'lib, ular individni amrlar va taqiqlar tizimiga rioya etishga majbur qiladi. Mazkur amrlar va taqiqlarni buzgan taqdirda shaxs muayyan jazoga tortiladi, ularga qat'iy rioya etgan holda esa rag'batlantirilishi mumkin.

Madaniyatning asosiy elementlari, uning shakllari va ijtimoiy funksiyalari. Madaniyatning quyidagi asosiy **elementlarini** ajratish mumkin: asosan inson tilida zohir **tushunchalar, munosabatlar, qadriyatlar, qoidalar**. Odamlar ko'p sonli va rang-barang qoidalarni o'ylab topganlar. Turli madaniyatlarda bu qoidalar o'rtasida muayyan farqlarni kuzatish mumkin. Masalan, Rossiya, O'zbekiston va Xitoy qonunchilik tizimlarini olaylik.

Ma'lumki, Rossiyada o'lim jazosiga 1996 yildan boshlab moratoriy joriy etilgan. O'zbekistonda xalqaro huquqning umumiy e'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yashash huquqini e'lon qiluvchi va mustahkamlovchi qoidalaridan kelib chiqib, shuningdek jinoiy jazolarni yanada liberallashtirish borasida muayyan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi 2005 yil 1 avgust Farmoni bilan o'lim jazosi jinoiy jazo turi sifatida 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran butunlay bekor qilindi va umrbod qamoq jazosi yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirildi²². O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "O'zbekistonda o'lim jazosini qo'llashga doir jinoyat qonunchiligi siyosati butun jahonda kechayotgan jarayonlarga to'la mos bo'lib, O'zbekiston Konstitutsiyasi mohiyatidan kelib chiqadigan insonparvarlik tamoyilini o'zida to'la aks ettiradi. Binobarin, insonga, uning Parvardigor ato etgan hayotiga hamisha buyuk ne'mat sifatida munosabatda bo'lib kelgan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari ham shuni taqozo etadi"²³.

Xitoyda esa o'lim jazosi qo'llaniladi: bu yerda sodir etganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan bir necha o'n jinoyatlar mavjud. Korrupsiya, giyohvandlik moddalari bilan g'ayriqonuniy muomalada bo'lish, prostitutsiya, avtomobilni olib qochish kabi jinoyatlar shular jumlasidan.

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida" Farmoni // Xalq so'zi, 2005 yil 2 avgust.

²³ Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: "O'zbekiston", 2002. – 38-b.

Madaniyatning yuqorida zikr etilgan to'rt asosiy elementi bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, bularning barchasi pirovardida har bir madaniyatning betakror noyob manzarasini yaratadi (bu "madaniy o'ziga xoslik" deb ataladi).

Madaniy qadriyatlar bilan **normalar**, ya'ni xulq-atvor, faoliyat hamda kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muayyan andozalari ham chambarchas bog'liq. Normalarga rioya etgani uchun individni hurmat qiladilar, qadrlaydilar, rag'batlantiradilar, normalarni buzganlik uchun esa jazoga tortadilar, hatto jinoiy ta'qib qilishlari ham mumkin. Biroq amalda musbat belgili qoidabuzarliklar ham uchraydi. Masalan, Vatanni himoya qilish bilan bog'liq urushdagi yoki mehnat jarayonidagi qahramonona jasoratlar. Shu tufayli ham salbiy sanksiyalar (jazolash, qoralash) va ijobiy sanksiyalar (rag'batlantirish, taqdirlash, imtiyozlar berish va h.k.) farqlanadi. Ikkala turdagi sanksiyalar ham barcha kishilarga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Madaniyat shakllari va turlari. Amalda **moddiy** va **ma'naviy** madaniyatni ajratish odat tusini olgan. Ammo madaniyat yuz foiz moddiy yoki, aksincha, yuz foiz ma'naviy bo'lishi mumkin emas.

Bundan tashqari, ashyoviy madaniyat va xulq-atvor madaniyati ham farqlanadi. Ashyoviy madaniyat odamlar tomonidan yaratilgan barcha ashyolarni qamrab oladi. Ashyoviy madaniyatdan farqli o'laroq, xulq-atvor madaniyati amalda bo'rtib namoyon bo'lmaydi, biroq u ayrim individ uchun ham, butun jamoat uchun ham ashyoviy madaniyatga qaraganda muhimroqdir. Odamlar o'z xulq-atvor madaniyatini (bilim va ko'nikmalarini) rivojlantirmasalar ashyoviy madaniyatni nainki rivojlantirish, balki yaratishga ham qodir bo'lmas edilar.

Har bir madaniyatda **til** ulkan ahamiyat kasb etadi. Til – o'zi yashayotgan dunyoni bilish vositasidir. Tilni yaxshi bilish individga tabiiy olamda va kishilar dunyosida mo'ljal olishda qulayliklar yaratadi. Tilni yaxshi bilmasa, individ hayotda yutuqlarga kamroq erishadi (yoki umuman erishmasligi ham mumkin).

Madaniyatning ko'p sonli **shakllari** mavjud. Yuksak madaniyat deyarli har doim klassik musiqa, adabiyot, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik va hokazolar bilan bog'liq. Yuksak madaniyatni o'zlashtirgan kishilar barcha zamonlarda nisbatan oz bo'lgan, zero bu ko'p vaqt, kuch-g'ayrat va mablag' talab qiladi. Biroq madaniy elita har doim madaniyatning boshqa barcha shakllari uchun mezonlarni belgilaydi. Agar yuksak madaniyat tanazzulga uchrasa, yo'q bo'lib ketsa, bu butun xalq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir.

Madaniyatning yana bir muhim shakli – bu **xalq madaniyatidir**. Mazkur madaniyat ertaklar, afsonalar, laparlar, xalq og'zaki ijodi, qo'shiqlar va miflarni o'z ichiga oladi. U har bir individ o'z madaniyati qadriyatlarini o'zlashtirishida muhim rol o'ynaydi. Xalq madaniyati qadriyatlari orqali inson o'z vatandoshlari yaratgan yuksak madaniyatni o'zlashtiradi, keyinchalik esa dunyo miqyosidagi yuksak madaniyat bilan oshno bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari paydo bo'lishi bilan **ommaviy madaniyat** vujudga kelgan. Ommaviy madaniyat fenomenlari ijobiy va salbiy ma'naviy zaryadlarga ega bo'lishi mumkin.

Navbatdagi shakl – **submadaniyat**. Submadaniyat – bu muayyan yirik madaniyatning tarkibiy qismi. Masalan, yoshlar madaniyati doirasida talaba yoshlar madaniyati, ya'ni uning submadaniyatlaridan biri mavjud. Mazkur submadaniyat doirasida esa yana bir submadaniyatni, masalan, yirik shaharlar, megapolislardagi talaba yoshlar submadaniyatini ajratish mumkin.

Madaniyat, aksilmadaniyat, madaniyatsizlik. Madaniyat va aksilmadaniyat o'rtasida aniq chegara mavjud. Madaniyat – ayrim individ, binobarin, butun jamoatning rivojlanishi va kamol topishiga ko'maklashuvchi hodisa. Asosiy so'zlar bu yerda – rivojlanish va kamol topish. Individ asta-sekin yoki jadal sur'atlarda tanazzulga yuz tutishiga, uning tubanlashuviga sabab bo'luvchi omilni aksilmadaniyat deb nomlash mumkin. Bu yerda asosiy so'zlar – tanazzulga yuz tutish, tubanlashish. Madaniyatsiz odam o'z sog'lig'i yoki shaxsiyatiga zarar yetkazmaydi, biroq ularni rivojlantirmaydi ham. Lo'nda qilib aytganda, individ muayyan madaniyat vakili sifatida emas, balki hayvon kabi ish ko'radi, ya'ni madaniy shartlarga amalda rioya etmaydi.

So'nggi davrda madaniyatni yaratish texnika vositalari misli ko'rilmagan darajada kengaydi va takomillashdi. Yangi texnika vositalari (fotografiya, ovoz yozish, radio, kino, televideniye)ning taraqqiy etishi shunga olib keldiki, ularning o'zi madaniyat yangi shakllariga aylandi va unda yetakchi o'rinlarni egalladi. Ta'bir joiz bo'lsa, ular klassik madaniyat yaratgan ijtimoiy, ma'naviy va estetik qadriyatlarning go'rkovlariga aylandi.

Madaniyat kapitalistik biznes sohasiga aylandi. Madaniyatga bozor munosabatlari kirib keldi. G'arbda talab va taklif munosabatlari madaniyat mahsullari qimmatining eng oliy mezonlariga aylandi. Bozor bahosi estetik bahoni siqib chiqardi.

Ijodkor shaxs ko'lamu u o'tmishdoshlar bilan taqqoslaganda o'z sohasiga qo'shgan hissa bilan emas, balki uning bozorda erishgan muvaffaqiyati darajasi bilan belgilana boshladi. Estetika, axloq, ma'rifat, insonparvarlik mezonlarini birinchi o'ringa qo'ymaydigan mass-media ekspertlari madaniyat asarlari sifatiga baho beruvchi hakamlarga aylandilar.

Madaniyatda biznesmenlar va shou tashkilotchilari, ya'ni ijod mahsuliga nisbatan ikkilamchi shaxslar: ijrochilar, imitatorlar, interpretatorlar, kompilyatorlar, o'tmish madaniyatining ekspluatatorlari, plagiatorlar va shu kabilar birinchi o'ringa chiqdilar. Bunga kinofil'mlar yaratish va ulardan foydalanish jarayoni, shuningdek mazkur jarayon bilan bog'liq ko'plab kishilar faoliyati misol bo'lishi mumkin. Bu yerda haqiqiy ijodiy yutuqlar emas, balki mavjud me'yorlar, shu jumladan axloq va estetika me'yorlarini buzish muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Tiyaqsiz soxta novatorlik klassik madaniyat talqinidagi novatorlikni chetga chiqarib qo'ydi. Zehniyat talab qilmaydigan tasviriy effektlar (mushtlashuvlar, otishmalar, portlashlar)

g'arb madaniyatining mohiyatiga aylandi. G'arbda san'at yuksak intellektual darajadan primitiv-emotsional darajaga tushdi.

2. Fan va ta'lim sotsiologiyasi

Fan sotsiologiyasi. Bugungi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyo rivojlangan tadqiqot bazasiga, keng ilmiy fondga, asarlari butun dunyoda tan olingan malakali ilmiy kadrlarga ega bo'lgan yirik ilmiy markaz hisoblanadi.

Ilmiy salohiyat o'zagini mintaqadagi yetakchi ilmiy va eksperimental markaz – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil etadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning “O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklari faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish to'g'risidagi farmoni”da mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o'rnini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag'batlantirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida 4793 dan ortiq ilmiy xodim faoliyat olib boradi. Ulardan 73 nafari akademik, 281 tasi fan doktori va 745 tasi fan nomzodi hisoblanadi. Uning tarkibida yadro fizikasi instituti, “Quyosh fizikasi” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, “Biolog” IICHB, Maydanak tog'idagi astronomik observatoriyalar kompleksi kabi noyob ilmiy markazlar tashkil etilgan va samarali ish olib bormoqda. Hozirgi vaqtda respublikamiz olimlari hozirgi zamon fanining ko'pgina yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Respublikada dunyo darajasidagi ilmiy maktablar yaratilgan va matematika, ehtimolliklar nazariyasi, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni matematik modellashtirish, informatika va hisoblash texnikasi kabi sohalarda tadqiqotlar samarali olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, “Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi²⁴.

O'zbekistonda Beruniy, Ulug'bek va G'iyosiddin Jamshid asos solgan o'z astronomiya maktabi shakllangan. O'zbek olimlarining astronomiya, osmon jismlari harakatini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy asarlari qadim zamonlardayoq butun dunyoda e'tirof etilgan. Ular osmon jismlarining eng aniq xaritasini birinchi bo'lib tuzganlar. Respublikada o'lka iqlimini o'rganish

²⁴ Ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi) //”Ma'rifat” gazetasi. 2016 yil 31 dekabr. №104-son

uchun tayanch astronomik tarmoq tashkil etilgan. 1930 yilda qurilgan Mirzo Ulug'bek nomidagi Kitob xalqaro kenglik stansiyasida ishlayotgan o'zbek olimlari AQSH, Italiya va Yaponiya olimlari va mutaxassislari bilan hamkorlikda yer qutblari harakatini o'rganish bo'yicha xalqaro tadqiqotda faol ishtirok etmoqdalar.

Respublika geologlarining yer po'stlog'ini geologo-geofizik va geokimyoviy jihatdan kompleks o'rganish, metallogenetikada ruda hosil bo'lishi, neft' hosil bo'lishi jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari O'zbekistonda ulkan mineral-xomashyo bazasi yaratilishiga olib keldi. Geolog olimlar respublika hududida va Markaziy Osiyo mintaqasida foydali qazilmalarning ko'pgina yirik konlarini topish, o'rganish va o'zlashtirishda bevosita ishtirok etganlar.

Respublikada organik va noorganik kimyo, o'simlik moddalari kimyosi, biologiya va genetika, biotexnologiyalarni yaratish sohalarida ilmiy maktablar vujudga kelgan va rivojlangan. Ular o'ta samarali ekologik sof o'g'itlar, kam zaharli defoliantlarning yangi turlarini, yangi dori preparatlarini, o'simliklarning o'sish stimulyatorlari va ularni muhofaza qilish vositalarini ishlab chiqarish nazariy asoslari va texnologiyasini yaratganlar.

O'zbekistonda yadro fizikasi va elementar zarralar, radiatsion fizika va materialshunoslikka oid fundamental tadqiqotlar ayniqsa keng rivoj topgan. Yangi ilmiy yo'nalish – relyativistik yadro fizikasi vujudga kelgan. U yadro energetikasi va amaliy yadro fizikasi sohalaridagi tadqiqotlarning nazariy asosi sifatida xizmat qiladi. Noan'anaviy energiya turlarini yaratish – quyosh energiyasini kompleks va samarali o'zgartirish va o'zlashtirish borasida faol ish olib borilmoqda. Bu mamlakatni energiya bilan ta'minlash muammolarini yechishda ulkan ahamiyatga ega. Respublika intellektual potensialini rivojlantirishga, xalqaro ilmiy-madaniy aloqalarni kengaytirishga jamiyatshunos olimlar, eng avvalo tarixchilar, arxeologlar, etnograflar, tilshunoslar va adabiyotshunoslar ulkan hissa qo'shdilar. O'zbek xalqining etnogenezi o'rganish va uning ob'yektiv tarixini yaratish, o'zbek xalqining an'analari, turmush tarzi va madaniyatini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar alohida diqqatga sazovor.

O'zbekiston Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (Rio deklaratsiyasi)ga, BMTning iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konvensiyasiga, BMTning biologik rang-baranglik to'g'risidagi Konvensiyasiga, BMTning saholashishga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasiga, Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena Konvensiyasiga, Zararli chiqindilarni transchegaraviy tashish va chiqarib yuborish ustidan nazorat to'g'risidagi Bazel' Konvensiyasiga, Tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatish vositalaridan harbiy yoki boshqa har qanday dushmanlik maqsadlarida foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilgan va ularni ratifikatsiya qilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston atrof muhitni muhofaza qilish sohasida

hamkorlik to'g'risidagi 12 xalqaro bitimni imzolagan. O'zbekiston yer Kengashi bilan hamkorlikda yer Xartiyasi loyihasi ustida ish olib bormoqda. 1999 yilning boshida Xartiya Milliy loyihasi yer Kengashi Kotibiyatiga topshirildi.

O'zbekiston hukumati tashabbusi bilan Orol dengizi muammolari yechish Konsepsiyasi va Orol dengizi havzasida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan aniq harakatlar dasturi ishlab chiqilgan va mazkur hujjatlar 1994 yilda Markaziy Osiy davlat boshliqlari tomonidan qabul qilingan. Ushbu qarorlar BMT 1995 yil sentyabrda Nukusda tashkil etgan Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish bo'yicha xalqaro konferensiya ishiga zamin yaratdi. Konferensiyada qabul qilingan Nukus Deklaratsiyasi Rio asosiy prinsiplariga rioya etish bo'yicha qabul qilingan xalqaro konvensiyalarga sodiqlikni tasdiqlab, Markaziy Osiyo davlatlari darajasida barqaror rivojlanish strategiyasi va uni amalga oshirish asosiy chora-tadbirlarini belgiladi.

Atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar Milliy rejasi, O'zbekiston Respublikasida biologik rang-baranglikni saqlab qolish bo'yicha Milliy strategiya va harakatlar rejasi, Ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish bo'yicha Milliy dastur, Iqlim o'zgarishiga, landshaftlarning sahrolashuviga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi, Atrof muhit gigiyenasi bo'yicha harakatlar Milliy rejasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston hududida G'arbiy Tyan-SHan biologik rang-barangligini saqlab qolish bo'yicha transchegaraviy loyiha ishlab chiqildi. Milliy bog'lar, qo'riqxonalar va zakazniklar tashkil etish va ularni rivojlantirish borasida ish olib borilmoqda.

So'nggi yillarda murakkab sistemalar fizikasi va nochiqiq dinamika kabi tor ilmiy yo'nalishlar fanlararo xususiyat kasb etdi va turli tarmoqlarda keng qo'llanila boshladi. Bu sohadagi tadqiqotlarning natijalaridan bugungi kunda seysmologiya, epidemiologiya, tibbiyot, ekologiya, moliyaviy sohada foydalanilmoqda.

Ijtimoiy tadqiqotlar, shuningdek prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladi. Mazkur institutlarning asosiy vazifalari makroiqtisodiy boshearishning monetar usullari va mexanizmlarini tadqiq qilish; bozor islohotlarini amalga oshirish sharoitlarida respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omillari va tendensiyalarini tahlil qilish; milliy hisoblar tizimidan foydalangan holda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ko'p variantli makroiqtisodiy modellarini ishlab chiqish; respublikaning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnini belgilaydigan o'ziga xos shart-sharoitlar va omillarni hisobga olgan holda iqtisodiyotning maqbul tuzilmasini bosqichma-bosqich shakllantirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish; respublikaning barqaror iqtisodiy o'sishi, jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi omillarini tadqiq qilish; tabiiy va mineral xom ashyo resurslaridan, ishlab chiqarish potensialidan foydalanishni tahlil qilish; respublika mintaqalarini kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishni

metodologik va uslubiy ta'minlash; iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarida iqtisodiy kon'yunktura hamda amaliy faollik monitoringini o'tkazish; demografik jarayonlarni, ijtimoiy rivojlanish va aholi farovonligi darajasini, mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muammolarini tadqiq qilishdan iborat.

Ta'lim sotsiologiyasi – sotsiologiyaning ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida o'rganuvchi, uning jamiyat bilan o'zaro aloqalarini, shuningdek ichki mexanizmlari va qonuniyatlarini tadqiq etuvchi tarmog'i. Ta'lim tizimining jamiyatdagi ilmiy-texnika taraqqiyoti, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy rivojlanishi omili sifatidagi rolini baholash uni tadqiq etishga keng ijtimoiy nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi.

Ta'lim sotsiologiyasi XX asr boshida vujudga kelgan. Uning asoschilari sifatida M.Veber, E.Dyurkgeym, J.Dyui, T.Parsons e'tirof etiladi. Ular ta'lim sotsiologiyasining metodologik asoslarini yaratganlar. Bu yerda ijtimoiy stratifikatsiya, mehnat taqsimoti, shaxsning ijtimoiylashuvi konsepsiyalari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

XX asrning 60–70-yillarida G'arb mamlakatlarida amaldagi ta'lim tizimlari fan-texnika inqilobi talablaridan oqsashi munosabati bilan ta'lim sotsiologiyasiga qiziqish sezilarli darajada kuchayadi. Ayni shu davrda ta'lim sohasidagi inqiroz to'g'risidagi masala kun tartibiga qo'yiladi. Mazkur muammoga e'tibor 80-yillarda kuchayadi va bu eng avvalo uzluksiz ta'limning ijtimoiy muammolari bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda ta'lim sotsiologiyasi muammolari rivojlanayotgan mamlakatlarda ularning iqtisodiy va madaniy qoloqligini yengishda ta'limni roli nuqtai nazaridan ancha faol tadqiq etilmoqda.

Ta'limning ijtimoiy kategoriya sifatidagi talqiniga ko'ra uning holati va faoliyati jamiyatda hukm suruvchi ijtimoiy aloqalar va munosabatlar tizimi bilan belgilanadi.

Ta'lim jamiyat hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'liq. Iqtisodiyot ta'lim sohasining moddiy bazasini, fanlar, ixtisosliklar va kasb-hunarlar spektri nuqtai nazaridan uning mazmunini belgilaydi. Ta'lim tizimiga siyosiy soha ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda demokratik yoki totalitar tuzum hukm surishi, jamiyat ochiq yoki berk ekanligiga qarab, tegishli struktura va mazmunga ega bo'lgan ta'lim tizimi shakllanadi. Ta'lim tizimiga ijtimoiy muhit ham makro va mikro darajalarda ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda gap jamiyat va oilaning diniy va ma'naviy qadriyatlari, an'analar, u yoki bu ijtimoiy qatlam yoki guruhga mansublik va hokazolar haqida boradi. Lo'nda qilib aytganda, jamiyat qanday bo'lsa, ta'lim tizimi ham shunday bo'ladi.

Ayni paytda ta'lim nisbatan mustaqil bo'lgan avtonom tizimdir. U jamiyat faoliyati va uning rivojlanish jarayoniga faol ta'sir ko'rsatishga qodir. Mehnat resurslarining sifati, binobarin jamiyat iqtisodiyotining holati ham ta'lim darajasiga bevosita bog'liqdir. Yaponiyada va "Osiyo yo'lbarlari" degan nom olgan mamlakatlarda aynan ta'lim tizimini takomillashtirish natijasida

iqtisodiy sohada ulkan yuksalishga erishilgani tasodifiy bir hol emas. Hozirgi sharoitda ta'lim va iqtisodiyot o'rtasida bog'lanish tobora kuchayib borayotir.

Ta'lim tizimi fuqaroni shakllantirish orqali jamiyat hayotining siyosiy sohasiga ta'sir ko'rsatadi. U jamiyatning ijtimoiy-kasbiy strukturasi ham rivojlantiradi, ijtimoiy mobillik va ijtimoiy siljishlarning muhim omiliga aylanadi. Ta'lim madaniy-tarbiyaviy funktsiya orqali jamiyatning ma'naviy hayotiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Har qanday jamiyat, agar u o'z kelajagi haqida o'ylasa, ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar jamiyat hayotining turli jabhalarida progressiv siljishlarning o'ziga xos "zanjir reaksiyasi"ga sabab bo'lishini, ta'limdagi salbiy o'zgarishlar esa, aksincha, jamiyat tanazzulga uchrashiga olib kelishini bilishi lozim.

Hozirgi davrda ta'limning roli butun dunyoda ortib borayotir. Bu ob'yektiv sabablar bilan belgilanadi. Jahonda uchinchi ma'rifiy – axborot inqilobi yuz bermoqda va insoniyat axborot jamiyatiga o'tishni amalga oshirmoqda. Endilikda mamlakatning taraqqiy etish mezonlari sifatida ishlab chiqarishning o'sish ko'rsatkichlari emas, balki aholining ma'lumot darajasi, uning sifati va qamrov doirasi amal qiladi.

Bilimlar, so'zning keng ma'nosidagi axborotning qadriyat sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Tabiiyki, mazkur sharoitda uzluksiz ta'lim muammosi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi uni jamiyatning vaqt va makonda chegara bilmaydigan keng kichik tizimi sifatida talqin qiladi. Ta'lim olish jarayoni shahodatnoma yoki diplom olish bilan tugamaydi, balki umr bo'yi davom etadi. Yangi sharoitlar nainki ta'limning jamiyatdagi rolini, balki uning maqsadlari, vazifalari va mazmunini ham o'zgartirmoqda.

J.Dyui ta'lim tizimi, maktab ta'lim berish funksiyasini bajarish bilan bir vaqtda, jamiyatni barkamollashtirish va uyg'unlashtirish manbai sifatida ham amal qilishi lozimligini ta'kidlagan edi. Bugungi kunda buning o'zi kifoya emas. Global muammolar yashab qolish, yer yuzida hayotni saqlash masalasini butun insoniyat oldiga ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Uni yechish Inson – Jamiyat – Tabiat – Kosmosning yagona aloqasini tan olishni taqozo etadi.

Ingliz tadqiqotchisi A.Toynbi fikriga ko'ra, sivilizatsiyalarning o'sishi eng avvalo ijodkor shaxslar yoki uncha katta bo'lmagan lider guruhlar faoliyati hisobiga ta'minlanadi. Shakllanayotgan yangi sivilizatsiya va qoloq konservativ madaniyat o'rtasidagi ziddiyatlarni yechishda ta'lim hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ta'lim o'z strukturasi ega bo'lgan ijtimoiy kichik tizimdir. Uning asosiy elementlari qatoriga ijtimoiy tashkilotlar sifatidagi ta'lim-tarbiya muassasalarini, ijtimoiy birliklar (pedagoglar va o'quvchilar)ni, ijtimoiy-madaniy faoliyat turi sifatidagi o'quv jarayonini kiritish mumkin.

Ta'lim tizimi elementlarini tasniflashning boshqa prinsiplari ham mavjud. U quyidagi bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim tizimini;
- umumiy ta'lim maktabini;
- kasb-hunar-texnika ta'limini;
- o'rta maxsus ta'limni;
- oliy ta'limni;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini;
- qiziqishlarga oid ta'limni.

Ta'limning mazmuni, uning metodlarida ham tub o'zgarishlar yuz berayotir. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan ta'limning ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvi yo'li qonuniydir. Unga mos ravishda ijtimoiy-gumanitar sikl fanlarining roli va mazmuni ham o'zgaradi.

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-etti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta'limning qamrov doirasini kengaytirishdan maqsad bolani maktabga yanada yaxshiroq tayyorlash va ijtimoiy hayotga uni moslashtirishdan iborat.

Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim tizimida asosiy maqsad umumiy qamrovni saqlab qolgan, maktabni barcha o'quvchilar tamomlashlarini ta'minlagan holda o'qitish sifatini va o'quvchilar davomatini oshirishdan iborat. Ta'limning bu turi o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi.

Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun maktabning I-IX sinflari doirasida sifatli umumiy o'rta ta'lim olishni ta'minlovchi davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va joriy etildi, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta'lim dasturlari bilan mantiqiy bog'liqlik hisobga olindi; yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshirildi; hududlarning jug'rofiy va demografik xususiyatlariga, shaxs,

jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta'lim muassasalari tarmoqlari rivojlantirildi; o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuv joriy etildi; ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash amalga oshirildi; o'quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tarmoqlari tashkil etildi.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi. Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalari ishlab chiqildi va joriy etildi; soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislari jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlash tashkil etildi; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqildi; akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqildi va joriy etildi; kasb-hunar kollejlari ta'lim muassasalariga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxati ishlab chiqildi; hududlarning jug'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va ular oqilona joylashtirilishi ta'minlandi, ularga o'quvchilar imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olindi; akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazalari mustahkamlandi.

2007-2009 yillarda 380 ming o'rinli 651 yangi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar qurib bitkazildi, bu maxsus kasb-hunar ta'limi bilan umumiy ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari yuz foiz qamrab olinishini amalda ta'minlash imkonini berdi.

Oliy ta'lim. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega. *Bakalavriat* mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. *Magistratura* aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida

ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir. O'rta muddatli istiqbolda oliy o'quv yurtlarida ta'lim oluvchilar ulushining ko'rsatkichini 25-30% ga ko'paytirish nazarda tutilgan.

Ta'limni mehnat bozori ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirish uchun o'quv dasturi va ta'lim berish usullarini isloh qilish davom ettiriladi. Bu mehnat bozorida malakali kadrlarga bo'lgan talab monitoringini sezilarli darajada takomillashtirishni talab qiladi.

Oliy ta'limning samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilgan:

- o **Oliy o'quv yurtlarining mustaqilligini kengaytirish**, xususan ta'lim amaliyoti; byudjet mablag'lari va boshqa manbalardan jalb qilingan resurslarni boshqarish; xodimlar potensialini rivojlantirish masalalarida.

- o **Oliy o'quv yurtlarida ichki boshqaruvni takomillashtirish**. Maqsad – oliy o'quv yurtlari kollegial boshqaruvini mustahkamlash, xodimlar kasbiy mahoratini oshirish va ularning vakolatlarini taqsimlashga aniqlik kiritish.

- o **Ta'lim berish sifatini baholash tizimini takomillashtirish** (ichki auditlar, davlat attestatsiya va akkreditatsiya tizimini takomillashtirish, shuningdek jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish asosida).

- o **Oliy ta'limni moliyalashtirishning yangi usullariga o'tish**. Xususan, jon boshiga moliyalashtirish usulini qo'llash, bunda oliy o'quv yurtlarining ilmiy-tekshirish faoliyatini tanlov asosida moliyalashtirish ulushini kengaytirish. Vaucherli moliyalashtirish usulini qo'llash imkoniyatlarini o'rganish, bunda davlat imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan talabalar individual grantlar oladilar va o'zlari ta'lim olmoqchi bo'lgan oliy o'quv yurtini mustaqil tanlaydilar.

- o **Nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish**. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish davlat sektorini uyg'un to'ldirishi mumkin va ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratishning zaruriy omili hisoblanadi.

Ta'lim va jamiyat taraqqiyoti. Fan va ta'limning yuksak darajada rivojlanganligi kishilik jamiyati tarixi mobaynida ijtimoiy, texnik va iqtisodiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi muhim omillar hisoblangan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida o'tish davrini boshdan kechirayotgan boshqa mamlakatlar qatori O'zbekiston ham ta'lim sohasida jiddiy muammolarga duch keldi. O'tgan davr mobaynida erishilgan ijobiy natijalarni boy bermaslik va ayni vaqtda o'tmishdan qolgan salbiy merosdan qutulish, o'tish davri bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengish uchun mamlakat tegishli chora-tadbirlarni faol amalga oshirishi lozim edi.

O'tish davrida amalga oshirilgan yirik islohotlar ta'lim sohasini ham chetlab o'tgani yo'q. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini

rivojlantirish davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishga, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashga qaratildi.

O'zbekiston 1996 yilda MDH mamlakatlari orasida birinchi bo'lib ta'lim sohasida tizimli islohotlarni boshladi. Ularga uzluksiz ta'lim yangi konsepsiyasi, ta'limni mehnat bozori ehtiyojlariga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yangi tizimini yaratish orqali mumkin qadar yaqinlashtirish, 12 yillik umumiy bepul o'rta ta'lim tizimini saqlab qolish asos bo'ldi.

O'zbekistonda umumiy boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim muammosi o'zining to'liq yechimini topgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq 2009 yildan so'ng respublikada umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muammosi to'liq yechiladi. 12 yillik ta'limni tamomlagan yoshlar o'quv yurtlarini bitirgach, o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumoti to'g'risidagi diplom bilan bir qatorda u yoki bu kasbni o'zlashtirganlikni tasdiqlovchi attestatlar ham oladilar.

Umumiy ta'limni tashkil etishga nisbatan mazkur yondashuv natijasida balog'at yoshiga yetgan aholining savodxonlik darajasiga ko'ra (99,3%) O'zbekiston Italiya (98,4%), Ispaniya, Janubiy Koreya (98%) va Isroil (97,1%) kabi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan o'zib ketdi. Respublikada so'nggi yillar mobaynida pedagoglar tarkibi va o'quvchilar kontingenti kengayib bormoqda, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi eng avvalo ko'p sonli maktablar, kollejlari, litseylar qurilishi va ular zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanishi hisobiga o'smoqda. Shunga o'xshash o'sish oliy maktabda ham kuzatilmoqda. Masalan, 2000–2006 yillarda bakalavriat va magistratura ixtisosliklari bo'yicha o'qishga qabul qilinganlar soni tegishli ravishda 1,3 va 2 baravar oshgan, ayni paytda oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan ayollar soni 1,6 baravar ko'paygan. 2005–2006 yillarning o'zida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish dasturini amalga oshirishga davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalardan yarim milliard AQSH dollaridan ortiq mablag' ajratilgan²⁵.

O'zbekistonda o'tkazilgan islohotlar natijasida ta'lim olishning o'rtacha muddati 2004 yilda 12 yilni tashkil etdi. Bu, masalan, Ozarbayjon, Armaniston, Turkiya va inson taraqqiyoti indeksi o'rtacha bo'lgan boshqa bir qator mamlakatlardagidan ko'proq.

Ammo insonning kamol topishiga ta'limning ta'sirini miqdor ko'rsatkichlari bilangina o'lchash to'g'ri bo'lmaydi. Sifatli ta'lim kishilik jamiyati taraqqiyotining muhim omili va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. U qashshoqlik, mahrumliklar va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashish ta'sirchan vositasi sifatida maydonga chiqadi. Ta'lim dunyoqarashni

²⁵ Каранг: Национальный доклад о человеческом развитии. Образование в Узбекистане: баланс спроса и предложения. – Т., 2007/2008.

shakllantirish, turmush tarzini tanlash vositasi, inson va jamiyat hayot faoliyatining turli tomonlariga ta'sir ko'rsatish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim va aholi salomatligi. Ta'lim aholining salomatlik darajasi ko'rsatkichi va aholi umrining kutilayotgan uzunlik darajasi bilan uzviy bog'liq. 2006 yilgi O'zbekistonda inson taraqqiyoti to'g'risidagi Ma'ruzada o'qimishli aholi o'z salomatligiga oqilona yondashishi, profilaktika choralarini samaraliroq qo'llashi, sog'lom tarzini tanlashi, kasallikni o'z vaqtida payqashi, o'ziga birinchi yordam ko'rsata olishi, malakali tibbiy yordam so'rab murojaat etishi mumkinligi qayd etiladi.

Yuksak darajada rivojlangan ta'lim va fan epidemiyalar va pandemiyalarga qarshi yanada samaraliroq harakat qilish imkonini beradi. Ma'rifatli davlatlar kuch-g'ayrati bilan insoniyat bugungi kunda OIV/OITS, qush grippi va onkologik kasalliklarga qarshi kurashmoqda.

Ta'lim yuksak darajada rivojlangan davlatlarda sil, o'tkir ichak infeksiyalari, terlama, bezgak, vabo kabi tez tarqaladigan, ijtimoiy xavfli kasalliklar darajasi sezilarli darajada past.

Xotin-qizlar ta'lim darajasining yuqoriligi fertillik darajasini pasaytirishga ko'maklashadi. Tug'ilish sur'ati baland bo'lgan O'zbekistonda bu demografik yukni, ayollar va bolalarning kamqonlik bilan kasallanish darajasini pasaytirishning muhim omili hisoblanadi, bolalar va onalar o'limining kamayishiga olib keladi. Ma'lumot darajasi yuqoriroq bo'lgan ayollarda tug'ilgan bolalar, odatda, optimal vaznga ega bo'ladi, tug'ilganda va o'sish davrida kasalliklarga yo'liqish ehtimolining pastligi bilan tavsiflanadi.

Ta'lim va gender tengligi. O'rtacha daromadli mamlakatlarda erkaklarning savodxonlik darajasi ayollarnikidan uncha baland bo'lmasa, kam daromadli mamlakatlarda u 1,3–1,5 baravar baland. Jahonning eng qashshoq mamlakatlarida erkaklarning savodxonlik darajasi ayollarnikidan ikki baravar yuqori.

Ayni paytda shuni qayd etib o'tish lozimki, 15–24 yashar aholi toifasida gender tafovutlari mavjud bo'lsa-da, ular sezilarli darajada kam, ayrim mamlakatlarda esa nolga teng. Masalan, Hindistonda voyaga yetgan erkaklar va ayollarning savodxonlik darajasida tafovut 25% ni tashkil qilsa, yoshlarda 19% ni tashkil etadi. SHunga o'xshash ko'rsatkichlar Indoneziyada tegishli ravishda 9 va 1 foizni, Marokashda – 25 va 16, Efiopiyada – 15 va 13 foizni tashkil etadi. Yoshlarning savodxonlik darajasida gender tafovutlari Xitoyda deyarli kuzatilmaydi, Quvayt va Gaitida esa ular “aksincha” namoyon bo'ladi – bir-biriga o'xshamaydigan bu mamlakatlarda 15–24 yasharlar toifasida ayollar erkaklarga qaraganda savodliroq.

Aholining savodxonlik darajasida gender tafovutlari masalasi O'zbekiston uchun dolzarb emas, chunki savodsizlik erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham bu yerda bir necha o'n yillar muqaddam tugatilgan.

Ta'lim va demokratik jamiyatni rivojlantirish. Jamiyatda ta'lim darajasi va aholiga berilgan erkinliklar darajasi o'rtasida bevosita aloqa mavjud deb hisoblanadi. Bu fikr ta'lim darajasining oshishi va kengayishi demokratik erkinliklarning kengayishi va aholining ulardan foydalanish ko'nikmalari ortishi bilan bir vaqtda yuz bergan G'arbiy yevropa davlatlarining deyarli barchasi uchun ko'p jihatdan o'rinlidir.

Ayni paytda ko'p sonli misollar ta'lim darajasining oshishi, demokratiya va demokratik institutlarning rivojlanishi sinxron jarayon emasligini namoyish etadi. Vaqt jihatidan aholi qimishlilik darajasining oshishi odatda jamiyat demokratiyalashuvi darajasining oshishidan oldin yuz beradi. Albatta, o'qimishli bo'lmagan jamiyatda liberallashtirish va demokratiyaning rivojlanishi jarayonlarini tasavvur qilish ham qiyin. Biroq ta'lim darajasi yuqori bo'lgan jamiyatda ham demokratiyaning rivojlanishi o'z-o'zidan yuz bermaydi. Ta'lim darajasi jadal sur'atlarda oshib borayotgan jamiyatda, ayniqsa demokratik institutlar va erkinliklar ilgari mavjud bo'lmagan jamiyatda demokratiyaning rivojlanishi ma'lum vaqt va katta kuch-g'ayrat talab qiladi. Bu aholining o'qimishlilik darajasidan ham ko'ra ko'proq uning mentaliteti bilan bog'liq, zero uni o'zgartirish ta'lim darajasini oshirishdan ko'ra ko'proq vaqt talab etadi. Ta'lim darajasini oshirish va ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish jamiyat demokratiyalashuvining muqarrar shartlaridan bittasi, xolos.

O'qimishli kishilar erkinlik va demokratik qadriyatlarni ko'proq darajada qadrlash va ularni afzal ko'rish bilan bir qatorda, ulardan jamiyat zarari emas, balki uning ravnaqi yo'lida foydalana oladilar. Shunday qilib, sotsiologiya ta'limga insonning eng muhim (individual va ijtimoiy) kapitali sifatida yondashar ekan, unga hozirgi zamon sivilizatsiyasining fundamental muammolarini yechishda bosh rollardan birini yuklaydi.

O'zbekistonga oid hisob-kitoblar inson potentsiali indeksining qiymatiga eng kuchli ta'sirni ta'lim indeksi (40,45%), umr uzunligining kutilayotgan darajasi indeksi (34,92%) ko'rsatishini namoyish etadi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2004 yilda ta'lim sohasida respublika dunyo bo'yicha o'rtacha darajadan yuqoriroq mavqega ega bo'lgan va 177 mamlakat o'rtasida 80-o'rinni, umr uzunligining kutilayotgan darajasi ko'rsatkichi bo'yicha esa – 112-o'rinni egallagan.

O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida 11226 o'qituvchi ishlaydi, shulardan 47,1% ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan mutaxassislardir.

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan ilmiy-tekshirish ishlari hajmlarining o'sishi kuzatilmoqda. 600 dan ortiq ilmiy tadqiqotlarning natijalari xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga joriy etilgan. 1998–2002 yillarda ixtirolarga 620 dan ortiq patentlar olingan, 600 dan ziyod monografiyalar chop etilgan, respublikada va chet elda chiqadigan nashrlarda 24639 ilmiy maqola e'lon qilingan.

1998–2002 yillarda aspirantlar va doktorantlar soni:

Doktorantlar	61	70	43	76	49
Aspirantlar	599	654	396	392	365

6.2-jadval

Xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar, rivojlangan mamlakatlarning hukumatlari O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga moliyaviy va texnik madad ko'rsatmoqdalar. Har tomonlama yordam investitsiyalar, loyihalar va grantlar tarzida ko'rsatilmoqda. 2002 yilning o'zida ta'lim sohasiga 5,8 mln. AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. 2007/2008 o'quv yilida Qo'shma SHtatlarda o'zbekistonlik 540 talaba ta'lim olgan. Holbuki, 2002/2003 o'quv yilida mazkur ko'rsatkich 386 kishini tashkil etgan edi. Yaponiya oliy o'quv yurtlarining magistratura bo'limlarida o'zbekistonlik talabalar uchun har yili qabul qiluvchi taraf hisobidan 20 o'rin ajratiladi. Xitoy oliy o'quv yurtlarida ham har yili o'zbekistonlik 20 talaba bepul ta'lim oladi. Rossiya oliy o'quv yurtlarida o'zbekistonlik talabalar, aspirantlar va doktorantlar uchun har yili shu mamlakat hukumati hisobidan 50 o'rin ajratish to'g'risida ahdlashuvga erishilgan.

2002 yilda Toshkent shahrida Xalqaro Vestminster universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiy akademiyasining filiali, Samarqand davlat universitet qoshida Boloniya universiteti (Italiya) bilan hamkorlikda magistratura bo'limi ochildi.

O'zbekiston Respublikasida Vaseda (Yaponiya) va Fontis (Gollandiya) universitetlarining filiallarini, shuningdek O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Alkala universiteti (Ispaniya) ko'magida qo'shma o'zbek-isan fakul'tetini ochish borasida ish olib borilmoqda. Ispaniya tarafi 25 mln. yevro miqdorida imtiyozli kredit taqdim etdi. Jahonning bir qancha yetakchi o'quv markazlari: Kembrij universiteti, Sorbonna universiteti bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti respublikamiz va qo'shni davlatlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, O'rta Osiyoning ko'pgina oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tekshirish muassasalarini shakllantirishga ulkan hissa qo'shgan ziyo maskani hisoblanadi. U hozirgi vaqtda ham mamlakatimizning barcha universitetlari uchun o'quv va ilmiy-uslubiy tayanch bazasi bo'lib xizmat qilayotir. Bu yerda vujudga kelgan va xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan matematika, fizika, biologiya, kimyo, geologiya ilmiy maktablari alohida diqqatga sazovordir. Mazkur ilmiy maktablarning an'analari bugungi kunda izchil rivojlantirilmoqda. So'nggi yillarda universitetda bioinformatika, genetika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, komp'yuter lingvistikasi, ekologiya, sotsiologiya,

siyosatshunoslik kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

3. Din sotsiologiyasi

Din bir qator ijtimoiy fanlarning tadqiqot ob'yekti hisoblanadi, bu fanlarning har biri dinni o'z nuqtai nazaridan, o'z metodlari yordamida tadqiq etadi, ularning har birida dinning u yoki bu jihatlari va elementlari, voqelikning turli tomonlari bilan uning o'zaro aloqalari tadqiqot predmetiga aylanadi.

Masalan, falsafani din ijtimoiy ong shakli sifatida, dunyoga alohida konseptual yondashuv sifatida, uni bilishning alohida usuli sifatida qiziqtiradi. Dinni tadqiq etish jarayonida falsafa fanining diqqat markazidan voqelikni diniy nuqtai nazardan aks ettirish xususiyati, dinik ong mazmuni kabi gnoseologik muammolar o'rin oladi. Falsafa dinning tabiati va kelib chiqishi, uning gnoseologik ildizlari, dinik tasavvurlar va obrazlarning haqqoniylik darajasi to'g'risidagi savollarga javob berishga harakat qiladi.

Tarix va boshqa tarixiy fanlar (arxeologiya, etnografiya va boshq.) doirasida dinning muayyan tarixiy sharoitlarda, kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida, jahonning u yoki bu mamlakati yoki mintaqasida vujudga kelgan va amal qilgan konkret shakllari tadqiq etiladi. Tarix diniy tizimlar, konfessiyalar, diniy tashkilotlar va harakatlarning konkret sivilizatsiyalar, mamlakatlar va xalqlar hayotidagi, umumiy tarixiy jarayondagi rolini o'rganadi.

Madaniyatshunoslik, estetika, san'atshunoslik doirasida din jahon madaniyati va milliy madaniyatning muhim tarkibiy elementi, insoniyat ma'naviy merosining ulkan qatlami sifatida tadqiq etiladi. Din sotsiologiyasiga kelsak, u ilmiy fan sifatida o'zining ilk qadamlarini XIX asr o'rtalarida tashlagan. O.Kont (1798–1857) kishilik jamiyati vujudga kelgan davrda uning ajralmas qismi hisoblangan dinni ilmiy bilimlar jamiyat hayotidan asta-sekin siqib chiqaradi, degan fikrni ilgari surgan.

G.Spenser (1820–1903) dinga xulq-atvor andozalarini qo'llab-quvvatlash orqali jamiyat hayotini tartibga soluvchi omillardan biri sifatida qaraydi, biroq muhimlik belgisiga ko'ra uni bozor iqtisodiyoti va siyosiy faoliyatdan keyingi o'ringa qo'yadi. E.Dyurkgeym (1858–1917) "Diniy hayotning elementar shakllari. Avstraliyadagi totemik tizim" (1912) asarida dinni jamiyatda uning mavjudligi uchun zarur bo'lgan muayyan funksiyani bajaradigan ijtimoiy integratsiya omili sifatida tavsiflaydi.

Sho'ro davrida din jamiyat hayotida chetga chiqarib qo'yilgan edi. Masjidlar, cherkovlar biron-bir mustaqil ijtimoiy faoliyat (hatto xayriya faoliyatini) yuritishi taqiqlangan edi. Uni ilmiy o'rganish bilan akademik fanning ba'zi bir vakillarigina shug'ullanardilar.

Bugungi kunda din jamoatchilik diqqat markazidan o'rin olgan. Islom Karimov fikriga ko'ra, O'zbekistonda yuz berayotgan ma'naviy uyg'onish diniy qadriyatlar va an'analarning tiklanishi bilan ham bog'liqdir. Respublikamizda islom diniga, milliy madaniyatga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Nafsilamrini aytganda, islom dini, an'analari va o'zbek madaniyatini bir-biridan ajratish mumkin emas, zero o'zbek xalqining tarixi, tili va madaniyatiga oid tadqiqotlarning barchasi islom dini bilan bog'liq masalalarni albatta o'z ichiga oladi. Mustaqil O'zbekistonda milliy an'analari va islom dinining o'ri va ahamiyati xususida bahs-munozaralar ommaviy axborot vositalarining sahifalariga ko'chgan.

Sotsiologiya fanining boshqa tarmoqlari kabi, din sotsiologiyasi ham o'z ob'yektini ikki daraja – nazariy va empirik darajalarda tadqiq etadi.

Nazariy darajada din sotsiologiyasining tadqiqot predmeti sifatida ijtimoiy kichik tizim sifatidagi din, uning ijtimoiy tabiati, jamiyatdagi o'ri va roli, ijtimoiy funksiyalari, ichki strukturasi, tarkibiy elementlarining o'zaro aloqasi, din doirasida yuz beruvchi jarayonlar va o'zgarishlar amal qiladi.

Dinning ilohiy vahiy sifatidagi teologik talqini mazkur fenomenni sotsiologiya fani doirasida nazariy darajada o'rganish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Dinni ilmiy o'rganish esa uni insoniyat taraqqiyotining muayyan darajasi mahsuli sifatida tan olishdan, shuningdek din funksiyalarining tahlilidan boshlanadi. Inson uchun dinning roli hayot mazmunini aniqlash va o'zlikni anglash funksiyalarida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy guruhlar uchun dinning ijtimoiy integratsiya va madaniy, asosan – axloqiy qadriyatlarni sakrallashtirish funksiyalari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Din sotsiologik tahlilining empirik darajasida kishilar, yirik va kichik guruhlarining diniy ongi va xulq-atvori, din va cherkov haqida jamoatchilik fikri, diniy institutlar, tashkilotlar va harakatlar, konfessional mo'ljalli siyosiy partiyalar faoliyati, aholi turli guruhlarining dinga bo'lgan munosabati, jamiyat hayotining turli jabhalarida kishilar xulq-atvoriga dinning ta'siri tadqiqot predmetiga aylanadi.

Ushbu darajada operatsionallashtirish mumkin bo'lgan asosiy tushunchalar sifatida dindorlik, uning darajasi, diniy ong xususiyati, darajasi, dinamikasi va holati, diniy xulq-atvor, diniy guruh (dindorlar jamoasi, birlashmasi) amal qiladi.

Dindorlik deganda “g'ayritabiiylikka e'tiqod qiluvchi va unga sig'inuvchi ayrim kishilar, ularning guruhlar va birliklarining muayyan holati” (D.M.Ugrinovich, 1974), ularning dinga e'tiqodi, uning ta'limotlari va amrlarini qabul qilishi tushuniladi. Dindorlik darajasi deganda dindorlik belgisiga ega bo'lgan respondentlarning so'rovdan o'tkazilgan kishilar jami bilan o'zaro nisbatini tushunish odat tusini olgan.

Sekulyarizatsiya nazariyasi va amaliyoti. Sekulyarizatsiya “dunyoviy lashtirish”ni anglatadi: din va cherkov mulki bo’lgan narsalar vaqt o’tishi bilan ularga bog’liq bo’lmagan, dunyoviy tus oladi.

Evropa tarixida sekulyarizatsiya jarayoni bilan dastavval cherkov mulki va diniy hokimiyat qamrab olingan, keyinchalik, Ma’rifat davridan boshlab, u ma’naviy soha, fan va ta’limga ham kirib kelgan. Umuman olganda sekulyarizatsiya deganda jamiyat va shaxs hayot faoliyatining turli jihatlari va darajalarini din ta’siridan chiqarish jarayoni, kishilar hayot faoliyatini tashkillashtirishning dunyoviy shakllari jamiyat hayotining turli jabhalaridan dinni siqib chiqarishi tushuniladi. Bu hol sobiq Ittifoq parchalangunga qadar uning hududida kuzatilar edi.

Din bilan bog’liq hozirgi vaziyat shu bilan tavsiflanadiki, tazyiqlar va ta’qiblardan xalos bo’lgan diniy konfessiyalarning barchasi vijdon erkinligiga amalda rioya qilishga bo’lgan huquqlarni tiklash va ulardan keng foydalanishga kirishdi.

Bugungi kunda din sotsiologiyasida birinchi darajali ahamiyat kasb etgan masalalarni uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga dinga bo’lgan munosabat masalalarini, tarixda va hozirgi dunyoda dinning rolini tushunish, ya’ni dinshunoslik muammolarini, din fenomenini ilmiy tushuntirish masalalarini kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga diniy dunyoqarash, axloq, madaniyat, inson haqidagi falsafiy ta’limot muammolari kiradi. Nihoyat, uchinchi guruhni ko’p sonli axloqiy-huquqiy muammolar tashkil etadi²⁶ va ularning orasida ateistlar va dindorlar muloqoti, madaniy boyliklarni saqlab qolish va ko’paytirish ishida ularning kuch-g’ayratidan foydalanish masalalari markaziy o’rinni egallaydi.

Mustaqillik yillari mobaynida yosh O’zbekiston davlati dinga o’z mamlakati madaniy-ma’naviy qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida yondashib, unga bo’lgan munosabatni tubdan o’zgartirdi. Bugungi kunda ma’naviy qadriyatlarni tiklash va diniy bag’rikenglik respublikamizning davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti farmoniga muvofiq 1999 yilda Toshkent islom universiteti tashkil etildi. Mintaqadagi bu yirik oliy o’quv yurti mustahkam dunyoviy va teologik bilimlarga ega bo’lgan mutaxassislarni tayyorlaydi. Bu yerda ishlayotgan Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi, axborot-resurslar markazi, zamonaviy komp’yuter va lingofon kabinetlari, internet tarmog’i yoshlarning bilimini yanada boyitishga ko’maklashadi. Universitet qoshida “Manbalar mahzani” bo’limi mavjud bo’lib, u asrlar mobaynida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan diniy, ilmiy va

²⁶ Қаранг: Мухамедова З.М. Актуальные проблемы развития биоэтики в исламской религии XXI века. Фалсафа ва ҳуқуқ., №3. – Т., 2006. – 87–89-б.; Mukhamedova Z.M. Issues and contradictions in bioethics of 21st century: Islamic prospects. Abstract book First Sub-Regional Expert Meeting on Ethics Education in Science and Technology Iran, Tehran. 28-29 October 2006; Мухамедова З.М. Проблемы биоэтики в исламе // Вклад Узбекистана в развитие исламской цивилизации. – Т-Самарканд, 2007. – 141–143-б.

ma'naviy qadriyatlarni yig'ish va tartibga solish bilan shug'ullanadi. Bosh maqsad – ularni kelajak avlodlarga kam-ko'stsiz yetkazish. Bu yerda turli tarmoqlarga oid 192 qo'lyozma asar, shuningdek toshbosma usulida chop etilgan 655 va zamonaviy usulda chop etilgan 131 noyob kitob bor. Mahzan muttasil ravishda qadimgi qo'lyozmalar bilan boyitilmoqda. Noyob kitoblarni universitet Misr, Saudiya Arabistoni, Iordaniya va Quvaytdan tuhfa tariqasida olayotir. Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi ajdodlarimizning boy diniy, ilmiy-nazariy merosini tiklash, uni chuqur o'rganish va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Markaz olimlari Qur'on va tafsirlar, hadisshunoslik, islom tarixi va falsafasi, fiqh (islom huquqi) va boshqa fanlarni tadqiq etadilar. Bu yerda ishlab chiqilgan dinshunoslik va islomshunoslik o'quv yo'nalishlaridan universitetlar va o'quv markazlarida tahsil berish konsepsiyasi insonda diniy bag'rikenglik, boshqa din vakillariga sabr-toqatlilik, Vatanga muhabbat, ma'naviy qadriyatlar va buyuk tarixiy merosni ardoqlash kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi. SHunday qilib, din sotsiologiyasi mazmuni, dunyoqarashga oid va mafkuraviy mo'ljallar xususiyatining o'zgarishi shaxs va jamiyatning yangilanishi va ma'naviy poklanishiga imkoniyat yaratadi, uni ma'naviy jihatdan yanada boyitadi. O'zbekistonda 2007 yilning avgustida "Toshkent – islom sivilizatsiyasi markazi" xalqaro konferensiyasining o'tkazilishi buning yorqin misolidir.

Respublikamiz hududida 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari yashashi, shuningdek ular 16 turli diniy konfessiyalarga mansubligi din sohasiga davlat va hukumat e'tiborini yanada kuchaytiradi. Mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bu sohada xalqaro huquqiy normalarning talablariga javob beruvchi mustahkam yuridik poydevor yaratgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari qo'mitasini tuzish to'g'risida" 1992 yil 7 mart Farmoniga muvofiq tegishli davlat organi tashkil etildi. Din ishlari bo'yicha qo'mita O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunining konstitutsion kafolatlari va talablarini amalga oshirish, fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat'i nazar, ularning vijdon erkinligi huquqlarini, qonun oldida barcha dinlarning, diniy maslaklar va e'tiqodlarning tengligini ta'minlash, shuningdek, davlat organlari bilan diniy markazlar va tashkilotlarning aloqalarini mustahkamlash va qalin hamkorliklarini ta'minlash, ularning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarini muvofiqlashtirish uchun tuzilgan davlat organi hisoblanadi. Din ishlari bo'yicha qo'mita respublika tashqarisidagi ziyoratgohlarga safar qilish, shuningdek Haj va Umra ziyoratlariga chiqishni, diniy o'quv muassasalarida ta'lim olishni, fuqarolarni malaka oshirish va tajriba almashish uchun chet elga yuborishni, chet ellik fuqarolarni o'qishga qabul qilishni tashkil etadi, xalqaro anjumanlar o'tkazishni amalga oshiradi. O'zbekistonda musulmonlarning Qurbon hayit va Ramazon hayit, xristianlarning Pasxa va Rojdestvo, iudeylarning Peysax, Purim va Xanuka bayramlari nishonlanadi. Prezident farmonlariga muvofiq Qurbon hayit va Ramazon

hayit diniy bayramlari dam olish kunlari deb e'lon qilingan. Qur'oni karim, Tavrot va Injil o'zbek tiliga o'girilgan va chop etilgan. Dindorlar muqaddas joylarga – musulmonlar Haj va Umra ziyoratlarini bajo etish uchun Saudiya Arabistoniga, xristianlar – Rossiya, Gretsiya va Isroilga, iudeylar – Isroilga safar qiladilar. Mustaqillik yillari mobaynida O'zbekiston Respublikasining 60 mingdan ortiq fuqarosiga Haj ziyorati uchun Saudiya Arabistoniga chiqish, 150 dan ortiq fuqaroga xristianlar va iudeylarning muqaddas joylarini ziyorat qilish uchun Rossiya va Isroilga safar qilish imkoniyati berildi. Ziyoratchilarga davlat har tomonlama yordam ko'rsatadi, chunonchi: maxsus aviareyslar tashkil etish, tibbiy xizmatlar ko'rsatish, chet el valyutasini konvertatsiya qilish, aviachiptalar narxini pasaytirish, viza hujjatlarini jadal sur'atlarda va moneliksiz rasmiylashtirishni amalga oshiradi. Diniy o'quv muassasalari faoliyatiga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi joriy etilgan va o'z Vatanini sevadigan, yangicha dunyoqarashli, yetuk mutaxassislarni voyaga yetkazish yo'lida faol ish olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasi, Qoraqalpog'iston musulmonlar qoziyati, Toshkent islom universiteti, 10 madrasa va 1834 masjid faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasi musulmonlar tashkilotlari boshqaruvi respublika organi bo'lib, u barcha musulmonlarni diniy maqsadlarda birlashtirish, respublikaning barcha fuqarolariga ma'naviy madad ko'rsatish va xayriya ishini bajarish bilan shug'ullanadi. O'zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasi 1943 yilda tashkil etilgan va 1996 yildan boshlab mazkur nom ostida faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasi fuqarolar musulmonlarning diniy rasm-rusumlarini moneliksiz bajarishlari uchun sharoitlar yaratish, musulmonlarning hamjihatligi va birlamligini mustahkamlash, respublikada konfessiyalar o'rtasida o'zaro foydali munosabatlarni o'rnatish borasida faoliyat olib boradi. O'zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasi tomonidan Toshkent Islom instituti va o'rta maxsus diniy o'quv yurtlari – madrasalar tashkil etilgan. O'zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasi o'z nashrlari – bir oyda ikki marta chop etiladigan “Islom nuri” gazetasi va “Hidoyat” oylik jurnaliga ega. Diniy boshqarma qoshida diniy adabiyotlar chop etish bilan shug'ullanadigan “Movarouannahr” nashriyoti faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro andozalarga to'la javob beruvchi qonunlariga asoslangan oqilona siyosat olib borilishi, fuqarolarning diniy e'tiqod huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi natijasida respublika hududida barqarorlik, dinlararo va millatlararo tinchlik va totuvlik saqlanib qolayotir. Masjidlar, cherkovlar va boshqa diniy muassasalar barpo etish hamda ularni ro'yxatga olish mahalliy hokimliklar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va respublika adliya idoralari bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

1998 yilning mayida O'zbekiston Respublikasi parlamenti – Oliy Majlis “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunni yangi tahrirda qabul qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

27. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: „O'zbekiston“, 2014 yil .
28. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risidagi“gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.
29. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust
30. O'zbekiston Respublikasining „Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida“ gi Qonuni 2016 yil 15 sentabr
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida“ gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
32. Shavkat Mirziyoyev. Tinchlik va osoyishtalik –eng katta boyligimiz. Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqi. 24 yanvar 2017 yil.
33. Ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi) //”Ma'rifat” gazetasi. 2016 yil 31 dekabr. №104-son
34. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. *Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi*, 2009 yil 8 dekabr // „Xalq so'zi“
35. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asija: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997
36. Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: „O'zbekiston“, 2002. – 38-b.
37. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz. T.8. - T.: „O'zbekiston“, 2000. 528-b.
38. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2017.- 488 b.
39. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2017. - 104 b.
40. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2017. - 56 b.
41. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.
– Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2017. - 48
42. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994
43. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Toshkent.: 2000
44. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002
45. Ubaydullaeva B., O.Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. «Ijtimoiy fikr» Markazi. – Toshkent.: 2001
46. Holbekov A.J., Ildirov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lug'at-ma'lumotnoma. –Toshkent.: Ibn-Sino nomidagi nashriyot. 1999
47. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O'quv-uslubiy qo'llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001
48. Aliev B., Rafiqov G'., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va
49. boshqalar. Sotsiologiya. (O'quv qo'llanma). –Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.
50. Sotsiologiya //O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B.,
51. Ota-Mirzaev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
52. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. Aliqoriev N.S, Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B., va boshq. – Toshkent, 2001
53. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) T.1999

54. Umarova R. «Sotsiologiya.» O'quv qo'llanma. - T. TMI, 2010.
55. Национальный доклад о человеческом развитии. Образование в Узбекистане: баланс спроса и предложения. – Т., 2007/2008.
56. Мухамедова З.М. Актуальные проблемы развития биоэтики в исламской религии XXI века. Фалсафа ва ҳуқуқ., №3. – Т., 2006. – 87–89-б

7. Deviant va delinkvent xulq-atvor

1. Shaxsning ijtimoiylashuvi tushunchasi
2. Ijtimoiy maqom
3. Shaxs rollari nazariyasi. Shaxs normativ nazariyalari
4. Ijtimoiy nazorat va uni amalga oshirish usullari
5. Og'uvchi (deviant) xulq-atvori va uning turlari
6. Deviatziya nazariyalari
7. Deviant va delinkvent xulq-atvor
8. Og'ish va rang-baranglik

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Ijtimoiylashuv, ommaviy axbarot vositalari, ijtimoiy maqom, qadriyat, ijtimoiy nazorat, madaniy relyativizm, ijtimoiy me'yor, me'yoriy qadriyatlar, konformizm, suggestiya, rang-baranglik, deviatziya, delinkvent xulq-atvor, innovatsiya, ritualizm, retretizm.

1. Shaxsning ijtimoiylashuvi tushunchasi

Shaxsning ijtimoiylashuvi tushunchasi. Shaxs sotsiologiyasi ba'zan sinonimlar sifatida qaraladigan shakllantirish, rivojlantirish, tarbiyalash, ijtimoiylashuv kabi tushunchalar bilan ish ko'radi. Ular teng ma'noda ishlatilmasligi sotsiologik tahlil imkoniyatlarini cheklaydi.

Shaxsni shakllantirish tushunchasi ishlatilganda, shaxsning shakllanishi va kamol topishi jarayoniga izchil ta'sir ko'rsatuvchi ob'yektiv sharoitlar va sub'yektiv omillar birligi nazarda tutiladi. Ijtimoiylashuv esa shaxsning shakllanish, jamiyat talablarini asta-sekin o'zlashtirish, ong va xulq-atvorning ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlarini kasb etish (ular shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soladi) jarayonidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni inson umrining dastlabki yillaridan boshlanadi va u fuqaro sifatida kamol topgan davrda yakunlanadi. To'g'ri, u o'zlashtirgan vakolatlar, huquqlar va burchlar ijtimoiylashuv jarayoni to'liq yakunlanganidan dalolat bermaydi: ba'zi bir jihatlariga ko'ra u umrbod davom etadi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiylashuv inson o'ziga jamiyat amr etgan xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini muttasil anglab yetishi, ijodiy o'zlashtirishi va o'z ongida mustahkamlashi jarayonini anglatadi.

Dastlabki elementar ma'lumotlarni inson ong va xulq-atvor asoslarini yaratuvchi oilada oladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi estafetasini oiladan maktab qabul qilib oladi. Voyaga yetish va o'z fuqarolik burchini ado etishga tayyorlik darajasiga qarab inson o'zlashtirayotgan bilimlar majmui murakkablashib boradi. O'quv yurtini tamomlab mehnat faoliyati bilan shug'ullana boshlagan yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayoni ishlab chiqarishda nainki ijtimoiy munosabatlar, balki mazkur ijtimoiy institutga xos bo'lgan xususiyatlar ta'sirida yuzaga kelgan konkret sharoitlarda davom etadi.

Ommaviy axborot vositalari – matbuot, radio, televideniye shaxs ijtimoiylashuvining qudratli vositasi hisoblanadi. Ular jamoatchilik fikrini shakllantirishni, uni muayyan izga solishni amalga oshiradi. Bunda ham bunyodkorlik, ham vayronkorlik vazifalari teng darajada amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsning ijtimoiylashuvi insoniyat ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishni nazarda tutadi, shu tufayli ham vorisiylik, an'analarni asrash va o'zlashtirish kishilarning kundalik hayoti bilan uzviydir. Ularning vositasida yangi avlodlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy muammolarini yechishga jalb qilinadilar.

Nihoyat, shaxsning ijtimoiylashuvi insonning mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy faoliyati bilan bog'liq. Bilimlarni o'zlashtirishning o'zi kifoya qilmaydi, ularni shaxsning harakatlarida namoyon bo'luvchi e'tiqodlarga aylantirish talab etiladi. Aynan bilimlar, e'tiqodlar va amaliy harakatlar birikmasi u yoki bu shaxs tipiga xos bo'lgan xususiyatlarni hosil qiladi.

Shunday qilib, shaxsning ijtimoiylashuvi inson jamiyat hayotining barcha sohalarida mavjud bo'lgan fuqarolik munosabatlarini o'zlashtirishining alohida shaklini o'zini ifodalaydi.

Hozirgi davr sharoitida ijtimoiylashuv jarayoni odamlarning ma'naviy qiyofasi, e'tiqodlari va harakatlariga yangi talablar qo'yadi. Bu, birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirishga faqat o'ta o'qimishli, yuqori malakali va ularni hayotga tatbiq etishda ongli ravishda ishtirok etayotgan kishilar qodir bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi. Amalga oshirish mo'ljallangan o'zgarishlarning zarurligiga ishonchi komil bo'lgan insongina tarixiy jarayonning faol, ta'sirchan kuchiga aylanishi mumkin.

Ikkinchidan, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonining o'ta murakkabligi uni amalga oshirish vositalarini muttasil ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Ular yangilashga, ijtimoiy va shaxsiy muammolarni yechishda insonning o'rni va javobgarligini konkretlashtiruvchi kundalik izlanishga muhtojdirlar.

Uchinchidan, shaxsning ijtimoiylashuvi barcha ijtimoiy muammolarni yechishning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu o'zaro bog'langan jarayon ijtimoiy taraqqiyotni ko'p karra kuchaytirishi yoki ob'yektiv o'zgarishlar, shuningdek kishilar ongi va xulq-atvoridagi o'zgarishlar hisobga olinmasa, uni susaytirishi mumkinligini hayotning o'zi tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, shaxsning ijtimoiylashuvi kishilar ongi va xulq-atvoridagi salbiy hodisalarni bartaraf etishni nazarda tutadi. SHaxs sotsiologiyasi quyidagi savollarga hanuzgacha javob topgani yo'q: hayotning dastlabki bosqichida teng imkoniyatlarga ega bo'lgan kishilarning bir qismi nima uchun bezorilar, piyonistalar, o'g'rilar bo'lib yetishadilar? nima uchun ularning yana bir qismi byurokratlar, laganbardorlar, mansabparastlar, manfaatparastlar va hokazolarga aylanadi? nima uchun jamiyat xulq-atvorning ijtimoiy xavfli tiplari shakllanadi?

Nihoyat, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni jahon madaniyati va milliy madaniyatlarning o'zaro aloqasi sharoitida yuz beradi. Garchi umuminsoniy motivlar ijtimoiy ong va xulq-atvor strukturasida yetakchilik qilishi tan olingan bo'lsa-da, milliy xususiyatlar ta'siri ba'zan inson qiyofasini ko'p jihatdan belgilovchi hal qiluvchi omilga aylanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida milliylik fenomeni sotsiologiya oldiga uni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishning yangi imkoniyatlarini topish, jamiyat hayotida har bir xalq, har bir millat va elat hamda ularning har bir vakili alohida o'rin egallashini tan olish ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yanada teranroq anglab yetish vazifalarini qo'ydi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi insonning bir yoki bir nechta ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlari emas, balki ularning butun majmui tadqiqot ob'yektiga aylanishini nazarda tutadi. Ular ong va xulq-atvor xususiyatlari: bilimlar, e'tiqodlar, mehnatsevarlik, madaniyatlilik, tarbiyalilik, go'zalik qonunlariga muvofiq yashashga intilish, jismoniy tayyorgarlik va hokazolarni to'liq qamrab oladi.

Ma'naviyat omili shaxsning ijtimoiylashuvida hal qiluvchi rol' o'ynaydi. Bizning nazarimizda, bu sotsiologiya fanining mazkur tarmog'ini madaniyat, ta'lim, fan, adabiyot va san'at muammolariga bog'lab o'rganishni talab qiladi. Bu iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning o'rni va ahamiyatini aslo kamsitmaydi. Biroq insonni faqat madaniyat darajasi, uning boy va teran ma'naviy dunyosi, insoniylik, mehr-muruvvat, boshqa insonlarga hurmatning rivojlanish darajasi yuksaklikka ko'taradi.

2. Ijtimoiy maqom

Ijtimoiy maqom – bu individning jamiyatdagi o'rnini aks ettiruvchi ko'rsatkich. Har bir inson amalda bir nechta maqomga ega bo'ladi (masalan, o'g'il, geolog, darvozabon va h.k.).

Belgilangan (insonga ajdodlaridan meros bo'lib o'tadigan) va erishilgan (o'zlashtirilgan) maqomlar farqlanadi. Belgilangan maqomni inson o'z-o'zidan – etnik mansubligi, tug'ilgan joyi, oilasining mavqeiga ko'ra, shaxsiy kuch-g'ayratidan qat'i nazar oladi (o'g'il, buryat, volgabo'yilik, aristokrat). Erishilgan maqom (yozuvchi, talaba, er, ofitser, laureat, direktor, deputat)ga inson o'z kuch-g'ayrati bilan u yoki bu ijtimoiy guruhlar – oila, brigada, partiya yordamida ega bo'ladi.

Biroq maqomlar teng bo'lmaydi. Insonning jamiyatdagi o'rni va mavqei uning asosiy maqomini belgilaydi. Mazkur maqom zahirida, odatda, lavozim, kasb yotadi. Kasb shaxs maqomining ayniqsa keng qo'llaniladigan, umumiy, integrativ ko'rsatkichi hisoblanadi. Ish turi inson maqomining avtoritet, nufuz, hokimiyat kabi resurslarini belgilaydi.

Ijtimoiy maqom muayyan huquqlar va imkoniyatlarni ta'minlash bilan bir vaqtda, insonga majburiyatlar ham yuklaydi. Maqomlar yordamida kishilar o'rtasidagi munosabatlar tartibga solinadi. Ijtimoiy maqomlar shaxsning tashqi qiyofasi va xulq-atvori – ust-boshi, gapirish uslubi (jargon), o'zini tutishida ham, uning ichki pozitsiyasi – mo'ljallari, qadriyatlar va motivlarida ham aks etadi. Pol'shalik taniqli sotsiolog F.Znanetskiy (1882–1958) fikriga ko'ra, sotsiologiya nuqtai nazaridan individda uning ijtimoiy pozitsiyasi va funksiyasi birinchi o'rinda turadi. Individning organik va psixologik xususiyatlari esa oddiy bir material bo'lib, ta'lim olish va mustaqil o'qib-o'rganish jarayonida undan ijtimoiy shaxs shakllanadi.

3. Shaxs rollari nazariyasi. Shaxs normativ nazariyalari

Rol – shaxsning maqomi bilan belgilanadigan, unga xos bo'lgan xulq-atvor tipi. Mazkur maqom bilan muvofiq keluvchi rollar majmui rollar to'plamini tashkil qiladi. Rol' amalda shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi bilan, mazkur pozitsiyani egallab turgan insonning individual xususiyatlaridan qat'i nazar belgilanadi. Rolni bajarish insonning qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar va atrofdagilarning o'ziga nisbatan mo'ljallari bilan muvofiq kelishga intilishi bilan bog'liqdir.

Rollarni o'zlashtirish ijtimoiylashuv jarayonida yuz beradi. Bunda rollarning soni tinimsiz oshib boradi. Ilk bolalik davrida inson bitta rol' – bola rolini bajaradi. Bu davrda uning ongiga muayyan o'yin qoidalarini singdiradilar. Shundan so'ng bunga bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchisi va birgalikdagi o'yin, bo'sh vaqtni birgalashib o'tkazish, dam olish va hokazolar bo'yicha birlamchi ijtimoiy guruh a'zosi roli qo'shiladi. Keyinchalik bola ulg'ayish jarayonida o'quvchi, yoshlar guruhi a'zosi, ijtimoiy harakatlar (jamoat tashkilotlari) ishtirokchisi, qiziqishlar bo'yicha turli guruhlar a'zosi rolini bajaradi.

Hamonki har bir inson bir nechta rolni bajarar ekan, rollar o'rtasida to'qnashuv yuz berishi ham mumkin: ota-onasi va tengqurlari o'smirdan har xil xulq-atvorni kutadilar, u esa, o'g'ir va o'rtoq rollarini bajarar ekan, ularning umidlarini teng darajada oqlay olmaydi. Bunday konflikt – rollar to'qnashuvi voyaga yetgan insonga bir umr yo'ldosh bo'ladi. Oila boshlig'i roli uning xulq-atvorini fuqaro roli bilan, muayyan ishlab chiqarish tashkilotining xodimi roli bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.

Rollarga oid umidlar va rollar ijrosi o'rtasida to'la muvofiqlik hech qachon mavjud bo'lmaydi. Rolni bajarish sifati ko'p sonli omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillar orasida rolning shaxs ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiqligi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Rollarni ularga oid umidlarga muvofiq bajarmagan shaxs jamiyat bilan to'qnashadi, jamoat va guruh sanksiyalariga duchor bo'ladi.

Rolning xususiyatlarini tadqiq etar ekan, T.Parsons uning quyidagi belgilari va bog'lanishlarini tavsiflagan. Rollarning bir qismi makon va zamonda aniq bo'ladi (o'quvchi, talaba), boshqasi mavhumlik, nomuayyanlik bilan tavsiflanadi (jamoat tashkilotlariga, qiziqishlar bo'yicha guruhlariga a'zolik), ba'zi bir rollar amal qilish vaqtiga ko'ra davomli bo'ladi (xodimning mehnat hayoti davomidagi roli, otalik, onalik va h.k.).

Rollarning bir qismi aniq belgilangan qoidalarga rioya etishni talab qilsa (askar, ishlab chiqarish tashkiloti a'zosi), ayrim rollar uchun bunday talablar ancha erkin belgilanadi (musiqiy klub yoki jamoat birlashmasi a'zosi).

Rolni bajarish uning motivatsion jihati bilan ham bog'liq: ayrim holda rol' shaxsiy naf ko'rishga intilsa (xususiy mulk egasi), ba'zi hollarda ijtimoiy manfaatlarga qarab mo'ljal oladi (siyosiy partiya a'zosi, kooperativ a'zosi va h.k.).

Nihoyat, ba'zi bir rollarni bajarish qat'iy tartibga solingan (soqchi, o't o'chiruvchi, navbatchining roli), boshqa rollar esa boyib borishi yoki ayrim jihatlarini yo'qotishi mumkin bo'lib, bu hol, masalan, mansab pillapoyalaridan ko'tarilish jarayonida kuzatiladi.

Shaxs normativ nazariyalari. SHaxs rollari nazariyasidan farqli o'laroq, mazkur konsepsiyalar majburiyat yuklovchi va yo'l ko'rsatuvchi xususiyatga ega bo'lib, insonga o'zini qurshagan muhitda idrok etish, baholash va o'zini tutishning muayyan shakllarini buyuradi.

Normativistik konsepsiyalar doirasida shaxsning qadriyatlarga munosabati konsepsiyasi ayniqsa faol rivojlangan.

“Qadriyat” – serma'no tushuncha. U oddiy ong sohasida va ilmiy bilim tizimida amal qiladi. SHaxs anglagan va his qilgan narsalar va hodisalarni aktual muhimlik sifatida, ma'no va ideal sifatida aks ettirish orqali qadriyat ongni, xulq-atvorni va ijtimoiy faoliyat maqsadlarini tavsiflaydi. “Qadriyat” tushunchasini fanga nemis faylasufi I.Kant (1724–1804) maqbullik (qadriyatlar va me'yorlar) va mavjudlik (mavjud narsalar va hodisalar) haqidagi tasavvurlarni taqqoslash jarayonida kiritgan.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy qadriyatlar deganda jamiyat, ijtimoiy guruhlar va shaxs ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiqlik nuqtai nazaridan real voqelikning muhim g'oyalari, hodisalari va predmetlari tushuniladi. Har qanday qadriyat o'z-o'zicha maqsad sifatida namoyon bo'ladi, unga erishishga u qadriyat bo'lgani uchun ham intiladilar, zero u idealdir. Hodisalar va voqelik ob'yektlarining qadriyat sifatidagi mazmuni insonni faoliyatga rag'batlantiradi. Muqobillar dunyosida muttasil ravishda bo'lish insonni yo'l tanlashga majbur etadi. Qadriyat tanlash mezoniga aylanadi, unga erishish odamlar xulq-atvorini tartibga solish funksiyasini bajaradi.

Sotsiologiyada qadriyatlar jamiyat hayoti va kishilar xulq-atvorini ijtimoiy-normativ tartibga solish vositalari sifatida qaraladi. Parsons fikriga ko'ra, qadriyatlar – kishilarning nomoddiy tushunchalar haqidagi umumiy tasavvurlari, kichik ijtimoiy guruhlarda va jamiyatda totuvlikni ta'minlovchi oliy prinsiplardir. Qadriyatlar keng ijtimoiy-madaniy zaminga ega, normalar esa, konkret vaziyatlar uchun konkret qoidalardir. Qadriyatlar va qadriyatlarga munosabatlar ikki muhim xususiyat – o'ta barqarorlik va o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi, jamiyat, uning guruhlar va individlar faolligi va ochiqqligi darajasining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Qadriyatlar va qadriyatlarga munosabatlar dinamikasini hisobga olish ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, hayotning inqirozli davrlarida ijtimoiy sub'yektlarning qadriyatlarini hamda o'z taqdirini o'zi belgilash va o'z imkoniyatlarini o'zi ro'yobga chiqarish jarayonlarini tushunish uchun muhimdir

Shaxs sotsiologik nazariyalarining mazkur guruhiga dispozitsion nazariya ham kiradi. U shaxs xulq-atvorining ijtimoiy omillari ijtimoiy-psixologik omillar – shaxs ijtimoiy vaziyatni baholash va adekvat xulq-atvorga ongli ravishda tayyorligi bilan belgilanishidan kelib chiqadi. Sub'yektning muayyan xulq-atvorga, harakat usuliga, qilmishlar ketma-ketligiga tayyorligi (dispozitsiya) shaxsning bundan oldingi ijtimoiy tajribasi bilan belgilanadi.

4. Ijtimoiy nazorat va uni amalga oshirish usullari

Ijtimoiy nazorat, ya'ni jamoat yoki ijtimoiy guruh o'z a'zolari rollarga oid talablarni aniq bajarishlarini ta'minlashda foydalanadigan vositalar to'plami tahlilini kishilarning bir-biri bilan o'zaro aloqalarini aks ettiruvchi ijtimoiy tartibni tadqiq etishdan boshlash, bizningcha, o'rinni bo'ladi.

Yo'l harakati qoidalariga odamlar militsioner bo'lmasa ham rioya etadilar, u faqat ba'zan mazkur qoidalar bajarilishini tartibga soladi; ishchilar ishga belgilangan grafikka muvofiq, nazoratchining doimiy nazoratisiz ham keladilar, nazoratchi faqat ularga grafikni bajarish zarurligini eslatib turadi. Agar bunday shartlarga jamiyat a'zolarining o'zlari rioya qilmasalar, jamiyatda tartib ham bo'lmaydi. Jamiyatdagi tartib kishilarning o'zaro bog'langan rollariga asoslanadi. Bunda har bir shaxs boshqalarga nisbatan muayyan majburiyatlarni oladi va ayni paytda o'z majburiyatlarini bajarishni boshqalardan ham talab qiladi.

O'zaro huquqlar va burchlarning mazkur tizimi to'laqonli amal qilishi uchun nima qilish kerak? Bu savolga javob topishda sotsiologlar "ijtimoiy nazorat" tushunchasini ishlatadilar. Ijtimoiy nazoratning mohiyatini aniqlash uchun uni guruhda va jamiyatda *amalga oshirish usullarini* ko'rib chiqish foydalidir.

Ijtimoiylashuv orqali ijtimoiy nazorat. E.Fromm odamlar o'zlari yashayotgan jamiyat uchun amalda nima qilish kerak bo'lsa, shuni bajarishni istaydigan darajaga erishilgandagina jamiyat samarali faoliyat ko'rsatishi mumkinligini qayd etgan edi.

Har qanday jamiyatda odamlar ijtimoiylashuv yordamida nazorat qilinadilar. Bunda ular o'z rollarini ongsiz tarzda, o'z-o'zidan, odatlar va moyilliklardan kelib chiqib bajaradilar. Bu insonda o'z hayotini tartibga solish va jamiyat qonunlariga bo'ysunish istagi va intilishlarini tarbiyalashni nazarda tutadi. Ijtimoiy rollarni samarali bajarmaslik hollari ko'pincha odamlar rolga oid muayyan talablarni bajarishga qodir emasligi bilan emas, balki ular yo rollar mazmunini qabul qilmasliklari, yo ularni bajarishni istamasliklari bilan belgilanadi.

Shunday qilib, ijtimoiylashuv shaxsning odatlari va mayllarini shakllantirish orqali jamiyatda ijtimoiy nazorat va tartib o'rnatishning asosiy omillaridan biri sifatida maydonga chiqadi. U hayotning muayyan vaziyatida qarorlar qabul qilishda yo'l ko'rsatish orqali qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashadi. Bunda shaxs ijtimoiylashuv jarayonida qabul qilgan va o'zlashtirgan me'yorlarga zid bo'lgan har qanday qaror unga noo'rin, mavhum va xavfli bo'lib tuyuladi. Shaxsning o'z xulq-atvori ustidan ichki nazorati asosan shu yo'l bilan amalga oshiriladi.

Guruh ta'siriga asoslangan ijtimoiy nazorat. Inson jamiyat hayotida ishtirok etar ekan, ichki nazoratga asoslanish bilan kifoyalanishi mumkin emas. Shaxs xulq-atvoriga uni qurshagan ijtimoiy muhit ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ayni hol individ ko'p sonli birlamchi guruhlar (oila, ishlab chiqarish brigadasi, sinf, talabalar guruhi va h.k.) a'zosi hisoblanishi bilan izohlanadi.

Birlamchi guruhlardan har biri uning o'ziga ham, butun jamiyatga ham xos bo'lgan odatlar, xulq-atvor va institutsional normalarning barqaror tizimiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, guruh ijtimoiy nazoratini amalga oshirish imkoniyati har bir individning muayyan birlamchi ijtimoiy guruhdagi ishtiroki bilan belgilanadi. Bunday guruhga qo'shilishning zaruriy sharti sifatida individ mazkur guruhda qabul qilingan, rasmiy yoki norasmiy xulq-atvor kodeksini tashkil qiladigan me'yorlardan kamida beshtasiga roziligi amal qiladi.

Bunday tartibni har qanday tarzda buzish darhol mazkur xulq-atvor muayyan ijtimoiy guruh tomonidan qoralanishiga olib keladi. Buzilayotgan me'yorning muhimlik darajasiga qarab guruh qoralash va sanksiyalarning turli shakllarini (tanbeh berishdan mazkur ijtimoiy guruhdan quvg'in qilishga qadar) qo'llashi mumkin.

Ijtimoiy nazoratning o'z vaqtidalik va samaradorlik darajasi birlamchi jamoalarning barchasida ham bir xil bo'lmaydi. Me'yorni buzuvchi individga guruhning ta'siri ko'p sonli omillarga, eng avvalo mazkur individning maqomiga bog'liq bo'ladi. Guruhda yuksak va past maqomga ega bo'lgan shaxslarga guruh tomonidan ta'sir o'tkazishning turli usullari qo'llanadi. Birlamchi guruhda yuksak maqomli shaxs yoki guruh liderining asosiy vazifalaridan biri eski madaniy andozalarni o'zgartirish va o'zaro aloqalarning yangicha usullarini yaratish hisoblanadi. Buning evaziga lider ishonch kreditini oladi va o'zi guruh me'yorlari chegarasidan u yoki bu darajada chiqishi mumkin. Boz ustiga, o'zining liderlik maqomini yo'qotmaslik uchun u xulq-atvor jihatidan guruh a'zolariga to'la o'xshash bo'lmasligi kerak. Biroq amalda guruh me'yorlaridan chetga chiqishning ham o'z me'yori yoki chegarasi bo'ladi. Bu chegaradan tashqarida lider guruh qolgan a'zolarining gruppaviy ijtimoiy nazorati ta'sirini his eta boshlaydi va uning lider sifatidagi obro'siga putur yetadi.

Majburlash orqali ijtimoiy nazorat. Ko'pgina primitiv yoki an'anaviy jamiyatlar individlar xulq-atvorini axloqiy me'yorlar orqali, binobarin, birlamchi guruhning norasmiy gruppaviy nazorati vositasida samarali tartibga soladi. Bunday jamiyatlarda rasmiy qonunlar yoki jazolar shart emas. Biroq ko'p sonli madaniy komplekslar birikmasidan tashkil topgan yirik, murakkab jamiyatlarda rasmiy nazorat, qonunlar va jazolar tizimi muttasil ravishda rivojlantiriladi va hamma uchun majburiy tus oladi. Individ omma tarkibiga singib ketishi mumkin bo'lsa, norasmiy nazorat o'z samarasini bermay qo'yadi va rasmiy nazoratga ehtiyoj tug'iladi.

Ko'p sonli aholi va murakkab madaniyat mavjud bo'lganda *ikkilamchi* gruppaviy nazorat – qonunlar, kuch ishlatishga asoslangan turli vositalar, rasmiylashtirilgan protseduralar qo'llanila boshlaydi. Ayrim individ bu vositalarga rioya qilishni istamasa, guruh (yoki jamiyat) majburlov choralari qo'llaydi. Hozirgi jamiyatlarda majburlov orqali nazorat qilish tizimi mavjud bo'lib, u me'yorlardan og'ishning turli xil ko'rinishlariga muvofiq qo'llaniladigan amaldagi sanksiyalar to'plamini o'zida ifodalaydi.

O'z-o'zini nazorat qilishga asoslangan ijtimoiy nazorat. O'z-o'zini nazorat qilish deganda ichki nazorat tushuniladi: individ o'z xulq-atvorini umum e'tirof etilgan me'yorlar va qoidalarga muvofiq mustaqil ravishda tartibga soladi.

Ijtimoiylashuv jarayonida me'yorlar shu darajada chuqur o'zlashtiriladiki, odamlar ularni buzar ekanlar, o'zlarini noqulay va aybdor his qiladilar.

Oqilona amrlar sanalgan umum e'tirof etilgan me'yorlar ongga mustahkam o'rtnashadi. O'z-o'zini nazorat qilish tabiiy stixiyani tiyishni anglatadi, u iroda kuchiga asoslanadi. *Ong* – ijtimoiy nazoratning eng arzon va eng samarali shakli. Biroq u eng qimmat va ba'zan besamar

jarayon – ijtimoiylashuv natijasi sifatida yaratiladi. Ijtimoiylashuv jarayonida individ boshqarish ayniqsa mushkul bo'lgan kuch – o'z ong osti sohasi bilan kurashishiga to'g'ri keladi. Impul'siv xulq-atvor, o'z mayllarini jilovlashga qodir emaslik odatda bolalarga xos. Shu tufayli ham impul'siv xulq-atvorni *infantilizm* deb ataydilar. Oqilona me'yorlarga muvofiq xulq-atvor esa, aksincha, yetuklik belgisi hisoblanadi.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, ijtimoiy nazorat taxminan 70% ga aynan o'z-o'zini nazorat qilish hisobiga amalga oshiriladi. Jamiyat a'zolarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyati qancha yaxshi rivojlangan bo'lsa, bu jamiyatda tashqi nazorat shuncha kam talab etiladi. Aks holda ijtimoiy nazorat institutlari, shu jumladan armiya, sudlar, davlat ko'proq ter to'kishiga to'g'ri keladi. Biroq qattiq tashqi nazorat o'zlikni anglash tuyg'usi rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi. Natijada *diktatura* paydo bo'ladi. Ko'pincha u fuqarolarning manfaatlari yo'lida, tartib o'rnatish maqsadida vaqtinchalik o'rnatiladi. Biroq amalda u uzoq saqlanib qoladi va odamlar boshiga ko'p musibatlar soladi. Majburiy nazoratga bo'ysunishga ko'nikkan fuqarolarda ichki nazorat rivojlanmaydi. Natijada ular ijtimoiy mavjudotlar sifatida tanazzulga yuz tutadilar. Xullas, diktatura sharoitida hech kim o'zini oqilona me'yorlarga muvofiq tutishni o'rganmaydi.

SHunday qilib, rivojlangan o'z-o'zini boshqarish qobiliyati demokratiyaga, o'z-o'zini boshqara olmaslik esa diktaturaga yo'l ochadi.

5. Og'uvchi (deviant) xulq-atvori va uning turlari

Barcha a'zolari o'zlarini umumiy normativ talablarga muvofiq tutadigan jamiyat mavjud emas. **“Ijtimoiy og'ish”** atamasi individ yoki guruhning umum e'tirof etilgan me'yorlar bilan muvofiq kelmaydigan xulq-atvorini anglatadi. Natijada shaxs mazkur me'yorlarni buzadi. Ijtimoiy og'ishlar har xil ko'rinish kasb etishi mumkin. Jinoyatchilar, tarkidunyochilar, novator ijodkorlar, qotillar – bularning barchasi o'z xulq-atvorida umum e'tirof etilgan me'yorlardan og'uvchi kishilardir. Ularni ba'zan **deviantlar** deb ham ataydilar.

Kichik va sodda strukturali jamiyatlarda og'uvchi xulq-atvor osongina aniqlanadi va nazorat qilinadi. Yirik va murakkab strukturali jamiyatlarda umum e'tirof etilgan xulq-atvor andozasidan og'ish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muayyan ijtimoiy og'ish mavjudligini aniqlashning mushkulligini quyidagi misol yordamida tavsiflash mumkin: ijtimoiy guruhdagi o'smirlarning ko'pchiligi jinoiy xulq-atvorga moyil bo'lsa, mazkur guruhdagi kattalarning aksariyati esa tez-tez qonunni buzsa, og'uvchi xulq-atvorni biz kimda qayd etishimiz kerak – jinoyatchilardami yoki jinoyatchi bo'lmagan shaxslardami? Mazkur muammoni tahlil qilishda tug'iladigan ko'p sonli qiyinchiliklar unga mufassalroq to'xtalishni talab etadi.

Madaniy va ruhiy og'ishlar. Bir individda ijtimoiy og'ishlar ijtimoiy xulq-atvorda, boshqa individda – shaxsiy strukturada, uchinchi individda esa, ham ijtimoiy sohada, ham shaxsiy strukturada bo'lishi mumkin. Sotsiologlarni eng avvalo madaniy og'ishlar, ya'ni mazkur ijtimoiy birlikning madaniyat me'yorlaridan og'ishlari qiziqtiradi. Psixologlar esa asosiy e'tiborni shaxsiy strukturadagi me'yorlardan ruhiy og'ishlar: psixozlar, nevrozlar, paranoidal holatlarga qaratadilar. Og'ishlarni bu ikki turi birlashsa, madaniy me'yorlardan og'ish ruhiy nosog'lom shaxs tomonidan sodir etiladi.

Odamlar ko'pincha madaniy og'ishlarni ruhiy og'ishlar bilan bog'lashga harakat qiladilar. Masalan, radikal siyosiy xulq-atvor ruhiy holatning buzilishi mahsuli sifatida; prostitutsiya – bolalikdagi emotsional mahrumliklar oqibati sifatida tavsiflanadi. Seksual og'ishlar, alkogolizm, giyohvandlik, qimorbozlik va ijtimoiy xulq-atvordagi boshqa xil

og'ishlarni ham shaxsiy strukturadagi nuqsonlar, boshqacha qilib aytganda, ruhiy og'ishlar bilan bog'laydilar.

Odatda ruhiy nosog'lom shaxslar jamiyatda qabul qilingan barcha qoidalar va me'yorlarni to'liq bajaradilar. Ruhiy sog'lom kishilarga esa, aksincha, ba'zan ancha jiddiy og'ishlar xos bo'ladi. Buning sabablari sotsiologlarni ham, psixologlarni ham qiziqtiradi.

Individual va gruppaviy og'ishlar. Yaxshi oiladan chiqqan bola o'z muhitida qabul qilingan me'yorlarni rad etishi va jinoiy xulq-atvor alomatlarini namoyon qilishi (delinkvent bo'lishi) mumkin. Bu holda biz bir submadaniyat doirasida me'yorlardan individual og'ishga duch kelamiz. Bunday shaxs odatda individual deviant sifatida qaraladi. Ayni paytda har bir jamiyat ko'p sonli og'uvchi submadaniyatlarga ega bo'ladi. Masalan, beqaror oilalardan bo'lgan o'smirlar hayotining asosiy qismini yerto'lalarda o'tkazadilar. "Erto'la hayoti" ularga normal bo'lib tuyuladi. Ular o'z "erto'la" axloq kodeksi, o'z qonunlari va madaniy komplekslariga ega bo'ladilar. Ayni holda yetakchi madaniyat me'yorlaridan individual og'ish emas, balki gruppaviy og'ish kuzatiladi, chunki o'smirlar o'z submadaniyati me'yorlariga muvofiq yashaydilar.

Ayni holda submadaniyat individual deviantlardan o'zlashtirilgan xulq-atvor andozalarini o'z ichiga oladi. Ko'rib chiqilayotgan misolda jamiyatda qabul qilingan turmush tarziga qaytayotgan har bir o'smir mazkur "erto'la" submadaniyati nuqtai nazaridan individual deviant bo'ladi va u mazkur o'smirlarga nisbatan o'z ijtimoiy nazorat choralarini qo'llashi mumkin. Gruppaviy ijtimoiy og'ishga boshqa bir misol byurokratlar guruhi bo'lib, ular qog'ozbozlik ortida real dunyoni ko'rmaydilar, o'zlarining buyruq va farmoyishlar olamida yashaydilar. Bu yerda ham submadaniyat yaratiladi va unga tushib qolgan har bir xodimdan amaldagi byurokratik madaniy me'yorlarga bo'ysunish talab etiladi.

SHunday qilib, og'ishlarning ikki **ideal tipini** farqlash mumkin:

- 1) individual og'ish, bunda ayrim individ o'z submadaniyati me'yorlarini rad tadi;
- 2) gruppaviy og'ish. U deviant guruh a'zosining guruh submadaniyatiga qo'shilishi sifatida qaraladi.

Real hayotda deviant shaxslar mazkur tiplarga ajratilmaydi. Og'ishlarning bu ikki tipi ko'pincha o'zaro kesishadi.

Birlamchi va ikkilamchi og'ish. Birlamchi va ikkilamchi og'ishlar konsepsiyasi ilk bor X.Bekker tomonidan ta'riflangan va atroflicha ishlab chiqilgan. U ashaddiy deviant shaxsiyatining shakllanish jarayonini kuzatishga yordam beradi.

Birlamchi og'ish deganda shaxsning jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlarga umuman olganda mos keladigan og'uvchi xulq-atvori tushuniladi. Ayni holda individning og'ishlari uncha kuchli emas, ijtimoiy jihatdan u deviant sifatida tavsiflanmaydi. Atrofdagilar uchun bu og'ish oddiy sho'xlik yoki nari borsa xato bo'lib tuyuladi. Jamiyatning har bir a'zosi o'z umri mobaynida bunday og'ishlarga ko'p karra yo'l qo'yadi, aksariyat hollarda atrofdagilar bunday kishilarni deviantlar deb hisoblamaydilar. Deviantlar, toki ularning harakatlari ijtimoiy qabul qilingan rol doirasida ekan, birlamchi bo'lib qoladi.

Ikkilamchi og'ish deb guruhda mavjud me'yorlardan og'ishga aytiladi. Bunda shaxs deviant sifatida identifikatsiya qilinadi. Ba'zan hatto bitta og'uvchi harakat (nomusga tegish, besoqolbozlik, giyohvandlik vositalari iste'mol qilish va h.k.) sodir etgan yoki yanglish ayblangan taqdirda ham individga deviant yorlig'i yopishtiriladi. Bu jarayon individ hayotida burilish yasashi mumkin. Eng avvalo u guruh bilan ijtimoiy aloqalarni yo'qotadi yoki undan ajraladi. Mazkur shaxs o'zi yoqtirgan ishdan, kasbdan chetlatilishi, ba'zan "kriminal" shaxs

degan nom olishi, og'uvchi xulq-atvor (masalan, alkogolizm) yoki jinoiy harakatlar (masalan, jinoiy guruh)ga qaram bo'lib qolishi mumkin.

SHunday qilib, ikkilamchi xulq-atvor insonning hayotini ag'dar-to'ntar qilib yuborishi mumkin. Og'uvchi xulq-atvorni takrorlash uchun qulay sharoit yaratiladi. Qilmish takrorlangandan so'ng individga nisbatan yanada qattiqroq ijtimoiy nazorat choralari ko'riladi va u doimiy og'uvchi xulq-atvor bilan tavsiflanadigan holatga o'tishi mumkin.

Madaniy maqbul og'ishlar. Og'uvchi xulq-atvor har doim mazkur jamiyatda qabul qilingan madaniyat nuqtai nazaridan baholanadi. Bunda ayrim og'ishlar qoralanadi, ayrimlari esa ma'qullanadi. Bundan tashqari, buyuk kishilarga munosabat vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Masalan, jamiyatni himoya qilishga ehtiyoj tug'ilganda, buyuk sarkardalar birinchi o'ringa chiqadi, boshqa davrda esa siyosiy arboblari, madaniyat arboblari, olimlar buyuk zotlar sifatida e'tirof etilishlari mumkin. Quyida ijtimoiy maqbul og'ishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan zaruriy fazilatlar va xulq-atvor usullarini ajratishga harakat qilamiz.

Alohida moyilliklar faoliyatning tor jabhalarida noyob fazilatlarni namoyon etish imkonini beradi. Sportchi, aktyor, balerina, san'atkorning cho'qqiga ko'tarilishi uning umumiy intellektidan ko'ra alohida moyilliklariga ko'proq bog'liq bo'ladi. Ayrim intellektual qobiliyatlar ko'pincha alohida moyilliklarni ro'yobga chiqarish uchun talab etiladi, ammo o'z faoliyat maydonidan tashqarida mashhur kishilar odatda qolgan odamlardan aslo farq qilmaydilar. Bu yerda hamma narsani o'z faoliyat sohasida ishni boshqalarga qaraganda yaxshiroq bajarish qobiliyati hal qiladi.

Kuchli motivatsiya individ boshqalar ustidan yuksalishiga ko'maklashuvchi omil hisoblanadi. Uning yuzaga kelishiga ko'pincha guruh ta'siri sabab bo'ladi. Masalan, oilaviy an'ana individ o'z ota-onasining kasb-kori sohasida yuksak natijalarga erishishiga turtki beruvchi omilga aylanishi mumkin.

Shaxsiy fazilatlar insonga hayotda yuksak natijalarga erishishga yordam beradi. Bu fazilatlar muayyan faoliyat turlari bilan uzviy bog'liq. Dovyuraklik va jasurlik askarga shon-shuhrat sari yo'l ochadi, biroq mazkur fazilatlar rassom yoki shoirda bo'lishi shart emas. Kirishimlilik, odamlar bilan til topa olish, shijoatkorlik siyosatchi va tadbirkor uchun zarur, biroq yozuvchi, rassom yoki olimning yutuqlariga ular ta'sir ko'rsatmaydi. Jamoatchilik fikri doirasida faoliyatning turli sohalarida individning yuksalishiga ko'maklashuvchi shaxsiy fazilatlarining ko'p sonli stereotiplari yaratilgan. Favqulodda shaxsiy yutuqlarni belgilovchi omillarning aksariyatini ajratish va o'lchash qiyin, biroq ijtimoiy maqbul og'ishlarga imkoniyat yaratuvchi asosiy omillar ta'sirini hisobga olish zarur.

Madaniy nomaqbul og'ishlar. Bu masalani ko'rib chiqishda eng avvalo madaniy nomaqbul og'ishlarning sotsiologiya kursida o'rganilmaydigan qismini ajratish zarur. Jismoniy yoki ruhiy nuqsonlarga ega shaxslar jamiyatning normal a'zolariga xos bo'lgan rollarga oid yutuqlar yoki normal xulq-atvorga mutlaqo qodir bo'lmasliklari mumkin. "Ruhiy nuqson" og'ir tug'ma kasallik yoki ruhiyatning shikastlanishi natijasida mazkur individning o'qib-o'rganish qobiliyatlari cheklanganligini anglatadi. Bu nuqsonlarni aniqlash sotsiologiyaning vazifasi emas, biroq sotsiologlarni mazkur nuqsonlar xususida jamoatchilik fikri va ularning jamiyatda tarqalganlik darajasi qiziqtiradi. Bu masalani o'rganish bilan bog'liq qiyinchiliklar shundaki, ruhiy nuqson individda hayot faoliyati sohalarining bittasida namoyon bo'lishi, boshqa sohalarida esa u umum e'tirof etilgan xulq-atvor me'yorlariga hamma qatori rioya qilishi mumkin.

6. Deviatziya nazariyasi

Madaniy nomaqbul og'ishlarning cheklangan qismi zahirida ruhiy nuqsonlar yotadi. Bunday og'ishlarning sabablarini aniqlash va o'rganish uch nazariya: **jismoniy tiplar** nazariyalari, **psixanalitik** nazariyalar va **sotsiologik** yoki **madaniy** nazariyalar doirasida amalga oshiriladi.

Deviatsiya nazariyasi

Tushuntirish tipi	Nazariya	Muallif	Asosiy g'oya
Biologik	Jismoniy jihatlar jinoiy moyilliklar bilan bog'liq	Lombrozo	Jismoniy xususiyatlar devitsiya omili hisoblanadi
	Deviantlar orasida ayniqsa ko'p uchraydigan muayyan gavda tuzilishi	Sheldon	
Psixologik	Psixanalitik nazariya	Freyd	SHaxsga xos konfliktlar devitsiyaga sabab bo'ladi
Sotsiologik	Anomiya	Dyurkgeym	Deviatsiya, shu jumladan o'zini o'zi o'ldirishlar aniq ijtimoiy me'yorlar buzilishi yoki yo'qligi tufayli yuz
	Ijtimoiy dezorganizatsiya	Shou va Makkey	Deviatsiyaning ko'pgina turlari madaniy qadriyatlar, me'yorlar va ijtimoiy aloqalar buzilgan, zaiflashgan yoki to'qnashgan hollarda yuzaga keladi
	Anomiya	Merton	Mazkur madaniyatda maqbul bo'lgan maqsadlar va ularga erishishning ijtimoiy yo'llari o'rtasida tafovut aniqlansa, devitsiya kuchayadi
	Kul'turologik nazariyalar	Sellin, Miller, Suterlend, Klauord va Oulin	Deviatsiyaga submadaniyat me'yorlari va hukmron madaniyat o'rtasidagi to'qnashuvlar sabab bo'ladi
	Stigmatizatsiya (yorliq yopishtirish) nazariyasi	Bekker	Deviatsiya – hokimiyatga ega guruhlar kamroq darajada himoyalangan guruhlar xulq-atvoriga yopishtiradigan o'ziga xos xarakter
	Radikal kriminologiya	Turk, Kvinni, Teylor, Uolton va VAng	Deviatsiya kapitalistik jamiyat me'yorlariga qarshi harakat mahsulidir

Jismoniy tiplar nazariyalari shaxs xulq-atvorida me'yordan og'ish hollari uning muayyan jismoniy xususiyatlari bilan belgilanadi, degan g'oyaga asoslanadi. Mazkur

nazariyalarning namoyandalari orasida Ch.Lombrozo, E.Kretshmer, V.Sheldon alohida o'rin egallaydi. Ushbu mualliflarning asarlarida asosan muayyan jismoniy konstitutsiyali odamlar jamiyat tomonidan qoralanadigan ijtimoiy og'ishlarni sodir etishga moyildirlar, degan fikr ilgari suriladi. Zamonaviy nazariyalar orasida V.Sheldon nazariyasi ayniqsa puxta ishlab chiqilgan. U og'uvchi xulq-atvor sifatida tavsiflanadigan qilmishlar sodir etishga o'z ta'sirini ko'rsatadigan insoniy xususiyatlarning uch asosiy tipini ajratgan. Bular: endomorf tip (semizlik); mezomorf tip (sermuskullik), ektomorf tip (oriqlik). V.Sheldon har bir tipga xos bo'lgan xulq-atvorning muayyan turlariga ham tavsif bergan. Masalan, jinoyatchilar va piyonistalar asosan mezomorf tiplarga kiradilar. Biroq amaliyot jismoniy tiplar nazariyalari asossiz ekanligini isbotlagan. Xushsurat odamlar o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan, ko'rinishdan dag'al individ esa pashshaga ham ozor yetkazmaydigan inson bo'lgan hollarga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Psixoanalitik nazariyalar zahirida shaxs ongida yuz berayotgan konfliktlarni o'rganish yotadi. Z.Freyd nazariyasiga ko'ra, har bir shaxsda faol ong qatlami ostida ongsizlik sohasi mavjud. Ongsizlik – insonning chegarasiz tabiiy, ibtidoiy xususiyatlarni jamlagan ruhiy energiyasi, uning madaniyat ta'siridan xoli biologik mohiyati. Inson o'zining tabiiy “qonunsizlik” holatidan o'z o'zligini, shuningdek jamiyat madaniyati bilan belgilanadigan umumiy o'zlikni shakllantirish yo'li bilan himoyalashga qodir. Inson o'zligi va umumiy o'zlik ongsizlik holatidagi kuchlarni muttasil ravishda tiyib turadi, instinktlar va tuban mayllarni jilovlaydi. Ammo o'zlik va ongsizlik o'rtasida to'qnashuv yuz berishi va insonning madaniyatni bilmaydigan ichki omillari sirtga chiqishi, ijtimoiy muhitdagi madaniy me'yorlardan og'uvchi xulq-atvorga sabab bo'lishi mumkin.

Xo'sh, deviantlar nima uchun paydo bo'ladi? Bu savolga ijtimoiy og'ishlarning **sotsiologik** yoki **madaniy** nazariyalari javob topishga harakat qiladi. Ularga muvofiq individlar guruhdagi ijtimoiylashuv jarayoni muayyan me'yorlarga nisbatan samarali bo'lmagan holda deviantlarga aylanadilar. Bu muvaffaqiyatsizlik shaxsning ichki strukturasi ta'sir ko'rsatadi. Agar ijtimoiylashuv jarayoni samarali bo'lsa, individ avval o'zini qurshagan muhitdagi madaniy me'yorlarga moslashadi, so'ngra ularni o'zlashtiradi. Shu tariqa jamiyat yoki guruhning ijtimoiy maqbul me'yorlari va qadriyatlari uning emotsional ehtiyojiga, taqiqlar esa – individ ongingning tarkibiy qismiga aylanadi.

Oila ma'naviy qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mustahkam va sog'lom oilada o'sgan bola odatda komil inson bo'lib yetishadi. Oiladagi beqarorlik bola tarbiyasida nuqsonlar paydo bo'lishiga, og'uvchi xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'ladi. Yoshlar jinoyatchiligiga oid ko'p sonli tadqiqotlar og'uvchi xulq-atvorli yoshlarning 85% beqaror oilalarda tarbiyalanganlarini ko'rsatdi. Amerikalik ijtimoiy psixologlar oilaviy hayotni beqaror sifatida tavsiflash imkonini beruvchi besh asosiy omilni aniqlaganlar: otaning o'ta qattiqqo'lligi; ona mehrini ko'rmaganlik; ota bilan lozim darajada yaqin emaslik; ona bilan lozim darajada yaqin emaslik; oilada inoqlikning yo'qligi. Bu omillarning barchasi oilada bolaning ijtimoiylashuvi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi va pirovardida og'uvchi xulq-atvorli shaxs voyaga yetishiga olib keladi.

Ammo og'uvchi xulq-atvor ko'rinishlari har tomonlama barqaror oilalarda paydo bo'lishi ham mumkin. Gap shundaki, oila shaxsning ijtimoiylashuvida ishtirok etadigan birdan-bir ijtimoiy institut emas. Bolalikdan o'zlashtirilgan me'yorlarni shaxs o'zini qurshagan ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqaga kirishish jarayonida qayta ko'rishi yoki ulardan voz kechishi mumkin.

Tinimsiz o'zgaruvchi murakkab jamiyatda turli submadaniyatlarning me'yorlari va madaniy qadriyatlari ko'pincha bir-biri bilan to'qnashadi. Bir-biriga zid normativ andozalar og'uvchi xulq-atvor fenomeni vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi. Kundalik amaliyotda ko'p sonli konfliktlashuvchi normalar mavjudligi va buning oqibatida xulq-atvor tarzini tanlash imkoniyatining nomuayyanligi E.Dyurkgeym *anomiya* (me'yorlar yo'qligi holati) degan hodisa yuz berishiga olib keladi. T.Parsons fikriga ko'ra, anomiya xulq-atvor uslubining beqarorligi bilan tavsiflanadi. R.Merton anomiya xulq-atvor uslubini tanlash erkinligidan emas, balki individlar o'zlari to'la qabul qilgan me'yorlarga rioya etish imkoniyatiga ega emasligidan kelib chiqishini qayd etadi. Og'ishlar madaniy maqsadlarga va ularga erishish uchun muayyan shaxs foydalanadigan institutsional vositalarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. R.Merton maqsadlar va vositalarga nisbatan shaxslar xulq-atvori tipologiyasini ishlab chiqqan. Bu tipologiyaga ko'ra har qanday shaxsning maqsadlarga va vositalarga bo'lgan munosabatini quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

1) **konformist** jamiyatda ma'qullanadigan madaniy maqsadlarni ham, institutsional vositalarni ham qabul qiladi va jamiyatning *loyal* a'zosi hisoblanadi;

2) **novator** (o'zi qabul qilgan) madaniy maqsadlarga (shu jumladan g'ayriqonuniy va kriminal) noinstitutsional vositalar yordamida erishishga harakat qiladi;

3) **ritualist** institutsional vositalarni qabul qiladi va mutlaqlashtiradi, biroq mazkur vositalar yordamida o'zi erishishga harakat qilishi lozim bo'lgan maqsadlarni e'tibordan soqit etadi yoki unutadi (masalan, byurokrat);

4) **jamiyatdan ajralgan tip** madaniy, an'anaviy maqsadlardan ham, ularga erishish uchun zarur bo'lgan institutsional vositalardan ham uzoqlashadi (masalan, piyonistalar, giyohvandlar va sh.k.);

5) **isyonchi** madaniy maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashda ikkilanadi; u me'yorlar va qadriyatlar yangi tizimini hamda ularga erishish uchun yangi vositalarni yaratish niyatida mavjud maqsadlar va vositalarni rad etadi²⁷.

Axloqiy me'yorlar ko'pgina shaxslar bajarishni istaydigan harakatlarni taqiqlaganda, og'uvchi xulq-atvor boshqa fenomeni – **oqlash me'yorlari** paydo bo'ladi. Mazkur madaniy andozalar yordamida kishilar taqiqlangan muayyan istaklar va harakatlarni mavjud axloqiy me'yorlarni ochiqdan-ochiq buzmasdan amalga oshirishni oqlaydilar.

7. Deviant va delinkvent xulq-atvor

Ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish ijtimoiylashuv jarayonining negizidir. Mazkur normalarga rioya etish jamiyatning madaniy darajasini belgilaydi. **Umum e'tirof etilgan me'yorlardan og'ish sotsiologiyada deviant xulq-atvor deb ataladi.** Keng ma'noda "deviatsiya" a) yozilmagan me'yorlarga va b) yozilgan me'yorlarga mos kelmaydigan har qanday qilmishlar yoki harakatlarni anglatadi. Tor ma'noda "deviatsiya" nomuvofiqlikning birinchi tipigagina tegishlidir, ikkinchi tip esa delinkvent xulq-atvor degan nom olgan.

Ijtimoiy me'yorlar ikki xil bo'ladi:

1) **yozilgan me'yorlar** – konstitutsiyada, jinoyat huquqida va boshqa yuridik qonunlarda rasman qayd etilgan me'yorlar bo'lib, ularga rioya etilishi davlat tomonidan kafolatlanadi;

²⁷ R.K. Merton. Social Theory and Social Structure. – N.Y., 1957, p.140.

2) **yoziilmagan me'yorlar** – xulq-atvor norasmiy me'yorlari va qoidalari bo'lib, ularga rioya etilishi davlat tomonidan kafolatlanmaydi. Ular faqat mavjud an'analar, odatlar, etiket, xulq-atvor andozalari bilan belgilanadi.

Rasmiy me'yorlarni buzish **delinkvent** (jinoiy) xulq-atvor deb, norasmiy me'yorlarni buzish esa – **deviant** (og'uvchi) xulq-atvor deb ataladi. Deviant xulq-atvor **nisbiy**, delinkvent xulq-atvor esa **mutlaq**dir. Bir kishi yoki guruh uchun og'ish hisoblangan xulq-atvor boshqalar uchun odat tusini olgan bo'lishi mumkin. Oliy tabaqa vakillari o'z xulq-atvorini me'yor deb, boshqa tabaqalar, ayniqsa quyi tabaqalar vakillarining xulq-atvorini esa – og'ish deb hisoblaydilar. Deviant xulq-atvor nisbiydir, zero u faqat mazkur guruhning madaniy ma'yorlariga daxldordir. Biroq delinkvent xulq-atvor mamlakat qonunlariga nisbatan mutlaq xususiyat kasb etadi. Quyi tabaqa vakillari ko'cha talonchiligini pul topishning normal turi yoki ijtimoiy adolatni qaror toptirish yo'li deb hisoblashlari mumkin. Ammo bu og'ish emas, balki jinoyatdir, chunki mutlaq me'yor – talonchilikni jinoyat sifatida tavsiflaydigan yuridik qonun mavjud.

Delinkventlik. O'g'rilik, poraxo'rlik, talonchilik yoki odam o'ldirish jinoyatlari davlatning shaxs huquqlarini kafolatlovchi asosiy qonunlarini buzadi va jinoyat qonuniga muvofiq ta'qib qilinadi. Jinoyatchilar sudga tortiladi, ularga jazo choralari: turli muddatlarga ozodlikdan mahrum qilish (jinoyatning og'irlik darajasiga qarab), axloq tuzatish yoki katorga ishlari, muayyan huquqlardan mahrum qilish va hokazolar tayinlanadi. Jinoyatlar qatoriga firibgarlik, o'zganing mulkini talon-toroj qilish, hujjatlarni qalbakilashtirish, pora olish-berish, josuslik, vandalizm, o'g'rilik, o't qo'yish, prostitutsiya, qimor o'ynash va boshqa turdagi g'ayriqonuniy harakatlar kiradi.

Deviantlik. Ko'chada qip-yalang'och yurish, hojatga chiqish, so'kinish, baqirib gaplashish kabi harakatlar jinoyat huquqini buzmasa-da, xulq-atvor me'yorlariga zid hisoblanadi. Bunday harakatlar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish, jarima to'lash nazarda tutiladi, ular atrofdagilar tanbehi yoki salbiy ko'z qarashiga sabab bo'ladi. Deviant xulq-atvor shakllariga jinoyatchilik, alkoholizm, giyohvandlik, prostitutsiya, besoqolbozlik, qimor o'ynash, ruhiy holatning buzilishi, o'zini o'zi o'ldirish kiradi.

SHunday qilib, sotsiologiyada deviant xulq-atvor delinkvent xulq-atvor atamasidan kengroq tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, birinchi tushuncha ikkinchi tushunchani tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladi. Deviantsiya – normalarning har qanday tarzda buzilishi, delinkventlik esa – faqat jinoyat qonuniga muvofiq jazoga tortishga sabab bo'luvchi qilmishlar. Sotsiologiyada bu tushunchalarning keng talqini ham, tor talqini ham teng darajada qo'llaniladi.

Deviant xulq-atvor *madaniy relyativizm*, ya'ni har qanday ijtimoiy me'yorlarning nisbiyligi bilan tavsiflanadi. Ayrim primitiv qabilalarda kannibalizm, gerontotsid (qariyalarni o'ldirish), qon qo'shilishi va infantitsid (bolalarni o'ldirish) ibtidoiy davrda iqtisodiy omillar (oziq-ovqat mahsulotlarining taqchilligi) yoki ijtimoiy tartibot (qarindoshlar o'rtasida nikohga ruxsat berilishi) bilan bog'liq normal hodisa hisoblangan va hozir ham shunday.

Madaniy relyativizm bir jamiyatdagi ikki yoki bir nechta yirik ijtimoiy guruhlarning qiyosiy tavsifi bo'lishi ham mumkin. Bu holda submadaniyat haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Bunday guruhlarga siyosiy partiyalar, hukumat, ijtimoiy sinf yoki qatlam, dindorlar, yoshlar, xotin-qizlar, pensionerlar, milliy ozchiliklar misol bo'lishi mumkin.

Urushda odam o'ldirish ruxsat etiladi va hatto taqdirlanadi, ammo tinch davrda jazolanadi. Parijda prostitutsiya qonunlashtirilgan, boshqa mamlakatlarda esa u nolegal va deviant hisoblanadi. Binobarin, deviantlik mezonlari mazkur madaniyat uchun nisbiydir. Bundan

tashqari, deviantlik mezonlari vaqt o'tishi bilan ayni bir madaniyat doirasida ham o'zgaradi. Sovet Ittifoqida 60–70-yillarda uzun soch qo'yish "burjuycha turmush tarzi"ga taqlid deb hisoblanar va o'qituvchilar uzun soch qo'ygan o'quvchilarga qarshi kurashar edilar. 80-yillar oxirida bu yerda jamiyat o'zgardi va uzun soch qo'yish deviatsiyadan me'yorga aylandi.

SHunday qilib, keng ma'nodagi deviatsiya *nisbiy* bo'lib, u tarixiy davr va jamiyat madaniyati bilan belgilanadi. Nisbiylik sotsiologiyada relyativizm degan nom olgan.

8. Og'ish va rang-baranglik

Deviatsiyalarga qarshi kurash ba'zan tuyg'ular, fikrlar, xatti-harakatlar rang-barangligiga qarshi kurashga aylanadi.

Rang-baranglik, sotsiologik kategoriya sifatida, ijtimoiy harakatlarning shunday bir majmuini nazarda tutadiki, u me'yor va og'ish mezonlariga ko'ra ikki qarama-qarshi guruhga ajratilmaydi, balki bir kontinuum nuqtai nazaridan qaraladi. Boshqacha qilib aytganda, rang-baranglik inson qilmishlariga baho berishda mutlaq axloqiy me'yorlar yoki mafkuraviy talablar emas, balki madaniy relyativizm bosh mezon bo'lib xizmat qiladi.

Aksariyat jamiyatlarda deviant xulq-atvor ustidan nazorat *mutanosib* emas: yomon tomonga og'ishlar qoralanadi, yaxshi tomonga og'ishlar esa – ma'qullanadi. Og'ish ijobiy yoki salbiy hisoblanishiga qarab, deviatsiyalarning barcha shakllarini muayyan *kontinuumda* joylashtirish mumkin. Uning bir qutbidan nomaqbul xulq-atvor bilan tavsiflanuvchi shaxslar guruhi: inqilobchilar, terrorchilar, siyosiy emigrantlar, xoinlar, jinoyatchilar, vandallar, siniklar, daydilar, distrofiklar o'rin oladi. Ikkinchi qutbga esa ijobiy og'ishlar bilan tavsiflanuvchi shaxslar: milliy qahramonlar, taniqli artistlar, sportchilar, olimlar, yozuvchilar, rassomlar, siyosiy liderlar, missionerlar, mehnat zarbdorlari, o'ta sog'lom va go'zal insonlar joylashtiriladi.

Statistik hisob-kitoblarni amalga oshirish normal rivojlanayotgan jamiyatlarda va odatdagi sharoitlarda bu guruhlardan har biri jami aholining 10–15% ni o'z ichiga olishini ko'rsatadi. Aholining 70% ni esa xulq-atvoridagi og'ishlar ahamiyatsiz bo'lgan shaxslar tashkil qiladi. Ko'pchilik o'z hayoti va faoliyatida qonunlarga muvofiq ish ko'rsa-da, ularni mutlaqo qonunga bo'ysunuvchilar, ya'ni *ijtimoiy konformistlar* deb hisoblash mumkin emas.

Ijtimoiy og'ishlar jamiyatda ikki yoqlama rol o'ynaydi. Bir tomondan, ular jamiyat barqarorligiga tahdid soladi, boshqa tomondan esa — mazkur barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy strukturalar faoliyati, agar ular jamiyatda tartib va jamiyat a'zolarining kutilgan xulq-atvorini ta'minlagan bo'lsa, samarali deb hisoblanishi mumkin. O'zini qurshagan odamlardan qanday xulq-atvorni kutish mumkinligini va o'zidan qanday xulq-atvorni kutishayotganlarini jamiyatning har bir a'zosi bilishi kerak. Og'uvchi xulq-atvor bu tartibni buzadi va xulq-atvorni oldindan taxmin qilish imkonini bermaydi. Jamiyatda yoki ijtimoiy guruhda ijtimoiy og'ishlar ko'p bo'lganda odamlar kutilgan xulq-atvor hissini yo'qotadilar, madaniy hayotning izdan chiqishi va ijtimoiy tartibning buzilishi yuz beradi. Axloqiy me'yorlar guruh yoki jamiyat a'zolari xulq-atvorini tartibga solmay qo'yadi, ular asosiy qadriyatlarni rad etishlari mumkin, individlarda xavfsizlik va o'z harakatlariga ishonch hissi yo'qoladi.

Shu tufayli ham jamiyat o'zining aksariyat a'zolari barqaror me'yorlarni qabul qilgan va asosan boshqa individlarning mo'ljallariga muvofiq ish ko'rgan taqdirda samarali faoliyat ko'rsatadi.

Og'uvchi xulq-atvor ko'pincha umum e'tirof etilgan madaniy me'yorlar asosi bo'lib xizmat qiladi. Usiz madaniyatni ijtimoiy ehtiyojlardagi o'zgarishlarga moslashtirish qiyin bo'lar edi. Ammo kriminal xulq-atvor, seksual og'ishlar, alkogolizm yoki giyohvandlik jamiyat uchun

foydali bo'lgan yangi madaniy andozalar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin emas. Ijtimoiy og'ishlarning aksariyati jamiyat rivojida destruktiv rol o'ynaydi. Oz sonli og'ishlarnigina foydali deb hisoblash mumkin. Sotsiologlarning vazifalaridan biri individlar va guruhlarining og'uvchi xulq-atvorida foydali madaniy andozalarni tanib olish va ajratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:, “O'zbekiston”, 2014 yil
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi”gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.
3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust
4. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida“ gi Qonuni 2016 yil 15 sentabr
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida“ gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
6. Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir". T 2015.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T 2011.
8. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.:«Ma'naviyat», 2008. 176-b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.- 488 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.
– Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 48
13. Aliqoriev N.S. va b. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent.: 1999.
14. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994
15. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Toshkent.: 2000
16. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002
17. Ubaydullaeva B., O.Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. «Ijtimoiy fikr» Markazi. – Toshkent.: 2001
18. Holbekov A.J., Idivov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lug'at-ma'lumotnoma. –Toshkent.: Ibn-Sino nomidagi nashriyot. 1999
19. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O'quv-uslubiy qo'llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001
20. Aliev B., Rafiqov G', Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O'quv qo'llanma). –Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.
21. Sotsiologiya //O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B.,
22. Ota-Mirzaev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
23. Umarova R. «Sotsiologiya.» O'quv qo'llanma. - T. TMI, 2010.
24. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O'quv-uslubiy qo'llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001

Internet saytlar:

1. <http://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasining hukumat portali
2. <http://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. <http://www.google.uz> Veb-qidiruv saytining uz domeni
4. <http://www.ziynet.uz> ta'lim portali

8. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi

Reja:

1. Jamoatchilik fikrining ob'yekti
2. Jamoatchilik fikrining ifodalanishi.
3. O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish
4. Jamoatchilik fikrini uyg'otuvchi omillar

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi, ijtimoiy ong shakllari, olomon, jamoatchilik fikri ob'yekti, Ijtimoiy fikr markazi, jamoatchilik fikri funksiyalari.

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi - ijtimoiy guruhlarining mavjud ijtimoiy voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilishi qonuniyatlarini o'rganadi.

“Jamoatchilik fikri” atamasi inglizcha public opinion so'z birikmalaridan olingan bo'lib, u XVII asrda dastlab Angliyada qo'llanilgan, keyinchalik bu atama boshqa mamlakatlarga ham o'tib, XVIII asr oxirida keng tarqalgan.

Jamoatchilik fikri - xalq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir. Gegel fikricha, jamoatchilik fikrida hamisha haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan narsalar chatishib ketse-da, u har bir davrda katta kuchga ega bo'ladi.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari, masalan fan yoki mafkuradan noaniqligi bilan farq qiladi. Chunki fikrning o'zida u yoki bu holatga nisbatan tahminiy, ehtimoliy og'ish bo'lgani uchun ham ko'pincha insonlar ongida vujudga keladigan o'tkinchi, o'zgaruvchan fikr-mulohaza, his-tuyg'ular mavjud bo'ladi. Lekin bu jamoatchilik fikri bilan hisoblashmaslik kerak, degan gap emas.

Jamoatchilik fikrini sotsiologik tadqiq etishning predmeti - bu jamoatchilik fikrining ijtimoiy mohiyati, uning jamiyat hayotining turli tomonlariga ta'siri, shakllanishi, ifodalanishi va amal qilishi mexanizmlari masalasidir.

Jamoatchilik fikrining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning diqqat markazidan o'rin olgan har qanday voqeaga ma'qullash yoki qoralash nuqtai nazaridan yondashiladi, ya'ni voqelikning jamoatchilik fikridagi in'ikosi nisbiy xususiyat kasb etadi. Amaliyot tahlili fikrlarning shakllanishi va ularni ifodalashga muhim gruppaviy manfaatlardan tashqari mazkur manfaatlarning yirik guruhlar ayrim vakillari tomonidan anglab yetilishi, kishilarning xabardorlik darajasi, boshqaruv organlarining jamoatchilik fikrini o'rganish va undan foydalanish borasidagi faoliyati kabi omillar jiddiy ta'sir ko'rsatishini namoyish etadi.

Jamoatchilik fikri ancha tez yuzaga keladi va shu darajada tez o'zgarishi, ayrim qarashlarning o'xshashligi prinsipiga muvofiq tuzilishi mumkin. Jamoatchilik fikrini o'rganish jamiyatning konkret holati haqida tasavvur hosil qilish omilidir. Amaliy harakatlarga qarab mo'ljall olish jamoatchilik fikrining xususiyatlaridan biri hisoblangani bois, uning strukturasi kishilarni muayyan harakatlarga yo'naltiruvchi element mavjud bo'ladi. Bu vaziyatni baholash va tegishli ijtimoiy stereotiplar bilan bog'liq ijtimoiy mo'ljaldir. Jamoatchilik fikri stixiyali tarzda shakllanishi mumkin, biroq u ko'pincha muayyan ijtimoiy kuchlar tomonidan yaratiladi. Muayyan vaziyatda jamoatchilik fikri ta'sirida xavfli hodisa – olomon vujudga kelishi mumkin.

Olomon – o'z tarkibiga kiruvchi individlarning kuchli konformizmi bilan tavsiflanuvchi, emotsional tarzda va nisbatan yakkilik bilan harakat qiluvchi tashkillashtirilmagan stixiyali birlik. U individga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatishga qodir.

Olomonning quyidagi ijtimoiy-psixologik belgilari farqlanadi:

- guruh ta'siriga o'ta beriluvchanlik, ta'sirga qarshilik ko'rsatish individual mexanizmlari ish samaradorligining pasayishi; voqelikka emotsional munosabatning kuchayishi; individda o'z qilmishlari uchun javobgarlik hissining susayishi; umumiy kuch va anonimlik hissining paydo bo'lishi.

Olomonni vujudga keltiruvchi mexanizm sifatida individga psixologik ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan ommaviy muloqot xizmat qilishi mumkin. Psixologik ta'sir ko'rsatish emotsional ruhlantirish, taqlid qilish, ishontirish kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bundan ekspresslarning tashkilotchilari o'z maqsadlariga erishish yo'lida foydalanadilar. Olomonni hosil qilish uchun turli usullar va vositalarni ishga soladilar. Favqulodda hodisalar va tabiiy ofatlar yuz berganda, ommaning birlashishi stixiyali tarzda yuz beradi. Olomon effektini "qor uyumi" effekti, zanjir reaksiyasiga qiyoslash mumkin.

Oddiy, ekspressiv, konvensional va harakatdagi olomonlar farqlanadi, biroq voqealar rivojiga qarab bu turlar bir-biriga o'tishi mumkin. *Oddiy* olomon ko'z o'ngida yuz berayotgan voqea haqida axborot olmoqchi bo'lgan odamlar to'dasini o'zida ifodalaydi. Bunday to'dani odatda o'tkir tuyg'ularni his qilishga o'zida ehtiyoj sezgan kishilar hosil qiladilar. Oddiy olomon odatda xavfli bo'lmaydi, biroq atrofdagilar uchun noqulayliklar yaratadi. *Ekspressiv* olomon – umumiy tuyg'ularni birgalashib ifodalayotgan kishilar guruhi. Masalan, estrada yulduzlarining muxlislari, sport tadbirlarining tomoshabinlari, bayram namoyishlari yoki dafn marosimlarining ishtirokchilari xulq-atvorining o'ta ekspressivligi bilan ajralib turadilar. *Konvensional* olomonni sport bellashuvlariga yig'ilgan muxlislar hosil qiladilar. Bu kishilarning mazkur vaziyatdagi xulq-atvori kundalik hayotda ularga mutlaqo xos emas. Biroq "fanatlar" jamoat xavfsizligiga amalda tahdid soladilar. *Harakatlanayotgan* olomon jon saqlayotgan va agressiv bo'lishi mumkin. *Jon saqlayotgan* olomon real yoki soxta xavf tug'ilishi natijasida qattiq sarosimaga tushib qolgan kishilarni birlashtiradi. *Agressiv* olomon kuchli ruhiy hayajon va o'ta og'ir g'ayriqonuniy harakatlar bilan tavsiflanadi. Bunday guruhlariga ijtimoiy protest ishtirokchilarini, o'zaro urush holatidagi bir-biriga dushman guruhlarini kiritadilar.

Jamoatchilik fikri - kishilar ongi va xatti- harakatining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan bog'liq bo'lgan kundalik va nazariy ong birikmasi hisoblanadi. Jamoatchilik fikri doimo kishilar tomonidan u yoki bu xodisa jarayonini baholashlari bilan bog'liq.

Jamoatchilik fikrining ob'yektini aniqlashda ikki muammo e'tiborga molik:

Jamoatchilik fikrini unda aks ettirilayotgan vokelikning o'ziga xosligi nuqtaiy nazaridan taxlil qilish.

U yoki bu xodisa jamoatchilik fikrining ob'yektiga aylanishining mezonlarini aniqlash.

Jamoatchilik fikrining ob'yekti bo'lib, ham ob'yektiv voqelik, ham sub'yektiv reallik faktlari bo'lishi mumkin. Shu bilan birga jamoatchilik fikri ma'lum darajada chegaralangandir, muayyan bir holatlarga jamoatchilik mulohazalarining ob'yekti bo'la oladi.

Bular:

- a) voqea va hodisalarning haqqoniy mavjudligi;
- b) voqea va hodisalar o'rtasidagi munosabatlar;
- v) voqea va hodisalarning kishilar ongida aks etishi.

Ushbu holatlar jamoatchilik fikri sotsiologiyasida "aniqlik chegarasi" deyiladi. Bu "chegara" tashqarisida bo'lgan narsalar to'g'risida jamoatchilik fikri mulohazaga ega bo'la olmaydi. Duch kelgan har bir narsa, hodisa, voqea, jarayon yoki fakt jamoatchilik fikri ob'yekti bo'lavermaydi.

Jamoatchilik fikrini uyg'otishning birinchi omili ijtimoiy manfaat bo'lib, bevosita manfaat tug'diradigan xodisa va narsalargina mulohazaga sabab bo'ladi.

Jamoatchilik fikri 3 xil ifodalanishi mumkin:

- 1) jamoatchilik fikrining stixiyali ifodalanishi;
- 2) siyosiy institutlar tashabbusiga ko'ra biror bir qonunni muhokama qilish jarayonida jamoatchilik fikrining bildirilishi;
- 3) maxsus sotsiologik tadqiqotlar yordamida jamoatchilik fikrining aniqlanishi.

Jamoatchilik fikriga ta'sir qilish 2 yo'l bilan amalga oshiriladi:

- 1) manipulyatsiya qilish;
- 2) ilmiy shakllantirish.

Jamoatchilik fikri o'z tabiatiga ko'ra dinamik xususiyatga ega ijtimoiy hodisadir. U jamiyatda uzoq yillab statik holatda yashab keluvchi passiv ijtimoiy fikrlardan, eng avvalo maqsadning konkretligi, ijtimoiy fikr real-moddiy kuchga aylanib borganligiga, qatnashchilarning potensial va real soni nisbati, masalani hal etish quvvati-hosilasiga ko'ra farqlanib turadi. Ayni chog'da u jamiyatda muayyan maqsadlarga erishish yo'lida intiluvchi turli xil amorf yig'inlardan ham farq qiladi.

Mustaqil davlatchilik sharoitida jamoatchilik fikrining ijtimoiy ahamiyati yanada muhim kasb eta boshladi. Uning amaliy ahamiyat faoliyat sarhadlari kengayib, jamiyat hayotida ko'rsatadigan ta'sir ko'lamlari keskin orta boshladi.

Mazkur ijtimoiy hodisaning mustaqillik sharoitidagi yangi vazifa va yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning qator asarlarida ilgari surilgan katta nazariy masalalar mazmunidan yanada oydinlashadi. Shu asosda jamoatchilik fikrining bugungi dolzarb yo'nalishlari qatorida quyidagilarni ko'rsatib o'tish joizdir:

— o'zbek xalqining bir yarim asr davomida mahrum etilgan o'z haq-huquqlarini o'zi belgilash orzusini hayotga joriy ettirish bilan bog'liq ijtimoiy harakat yo'nalishi;

— har tomonlama mustahkam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining barpo etilishi, barqaror bozor iqtisodiyoti oshkora tashqi siyosatni amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy - siyosiy harakat yo'nalishi.

Mazkur bosh yo'nalishlar mamlakat ichki va tashqi siyosati bobida quyidagi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi;

— o'zbek xalqining milliy, hududiy, hissiy-emotsional va an'anaviy o'ziga xosliklaridan kelib chiquvchi xalq demokratiyasi tamoyillarining ijtimoiy siyosiy hayot mazmunidan keng o'rin olishi;

— ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlash, kishilar o'rtasida qonun-qoidalar va an'analarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish, qonun oldida katta yoshdagilar, amaldorlar, ishchi va hokazo shaxslarning to'la teng huquqliligini ta'minlash, aholi turli qatlamlari xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash, qonun - qoidalar, an'analarga nisbatan mustahqam ichki intizom fazilatlarini qaror toptirish;

— vatanga muhabbat va chin odamgarchilik tamoyillarini qaror toptirish;

— O'zbekiston hududida tug'ilib o'sgan va bu zaminga mehr qo'ygan har bir fuqaroda milliy o'ziga xosligidan qat'iy nazar yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;

— mamlakatimizda o'zbekistonliklar uchun yagona davlatchilik barpo etilganligini nazarda tutib, O'zbekistondan tashqarida yashovchi har bir o'zbek uchun bu davlat uning uchun ham ona Vatan ekanligini keng targ'ib-tashviq qilish, vatandan o'zga davlatlarda yashovchi har bir o'zbek O'zbekiston obro'sini yuksaltirishga mas'ul ekanligini tushuntirish;

— mamlakatimizda yashovchi boshqa millat vakillariga hurmatda bo'lish, o'zbek tili to'g'risidagi qonunni va o'zbek tilini o'zlashtirishlariga ko'maklashish, milliy va huquqiy cheklanishlaridan yuqori bo'lish;

— umuminsoniy qadriyatlar asosidagi axloqiy-estetik qarashlar ustuvorligini ta'minlash, hech qanday mafkura, siyosiy qarashlar va nuqtai nazarlarning ustun ijtimoiy mavqe egallashiga yo'l qo'ymaslik, zero, hech qanday mafkura so'ngi haqiqatni ifodalashga kafolat bera olmaydi;

— haqiqiy demokratiya ko'zgusi hisoblanuvchi ko'p partiyaviylik tartibotini joriy etishni qo'llab-quvvatlash, ayni chog'da davlat tuzumini, mavjud hokimiyatni zo'rlik va kuch bilan o'zgartirishni mo'ljallovchi, O'zbekiston davlat suvereniteti, mamlakat yaxlitligi va dahlsizligiga rahna soluvchi, milliy, diniy, irqiy yohud hududiy ayirmachilikka undovchi, mamlakat konstitutsiyasiga xilof ish yurituvchi barcha partiyalar, uyushma va ijtimoiy harakatlar faoliyatlarini qat'iy cheklashni g'qlash.

Ijtimoiy-madaniy sohalarida:

— gumanizm g'oyalariga sadoqat, inson shaxsi va turmush tarzi bilan bog'liq masalalarda ijtimoiy himoya vositalarini keng qo'llash, shaxsning haq-huquqlari, insoniy g'ururi, or-nomusini hurmatlash, inson haq-huquqlari to'g'risidagi xalqaro Deklaratsiya talablariga rioya qilish;

— xalq ma'naviyati va an'anaviy axloqiy qarashlarini tiklash, milliy merosni asrash, ehtiyot qilib avlodlarga yetkazish choralari ko'rish, qadimiy tarixiy g'dgorliklarni ta'mirlash, O'zbekistonda asrlar davomida yaratilgan beqiyos san'at asarlarini izlab topish va qaytarish chora-tadbirlarini ko'rish;

— o'zbek tilining O'zbekiston xalqlarini o'zaro hamjihatlikka undovchi va uyushtiruvchilik rolini keng targ'ib etish, davlat tili to'g'risidagi qonun talablarini to'la bajarish, O'zbekiston xalqlari taqdiri, madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga da'vat etish;

— so'z, din va fikr erkinligini ta'minlash, islom va boshqa dinlar insonning ma'naviy shakllanish manbalari ekanligi, diniy e'tiqod davlat tomonidan hurmat qilinishi, mo'min-musulmonlarning muqaddas haj safarlariga keng imkoniyatlar yaratilishi;

— har bir fuqaroga umumiy ta'lim, maxsus bilimlar va oliy ma'lumot olishi uchun teng va baravar shart-sharoitlarning yaratilishi, mafkura va milliy fetishizmdan xoli bo'lgan yangi demokratik maorif konsepsiyasining ishlab chiqilishi;

— ilmiy, ijtimoiy, badiiy va boshqa ijodiyot turlari takomili uchun yetarli shart-sharoitlarning yuzaga keltirilishi, iqtidorli yoshlarga keng yo'l ochilishi, intellektual mulk himoyasi xususida qarorlar qabul qilinishi;

Mazkur masalalar yuzasidan davlat muassasalari, ishlab chiqarish va jamoat tashkilotlarida, obro'-e'tiborli shaxslar ko'magida quyidagi yo'nalishlarda yalpi jamoatchilik fikrini shakllantirish maqsadga muvofiqdir:

— ezgulik yo'lida xizmat qiluvchi shaxslar, mehnat ilg'orlari, piru-badavlat insonlar obro'-e'tiborini oshirishga qaratilgan ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantirish;

— ijtimoiy munosabatlar tizimida totalitar tuzum sharoitida shakllangan ijtimoiy zararli odatlar, xususan, surbetlik, hag'sizlik, jamoat mulkini mensimaslik va toptash, kosmopolitizm, vatanga beqadrlik, milliy ma'naviy qadriyatlarga hurmatsizlik, xususiy mulkka nafrat singari ijtimoiy salbiy yondoshuvlarni jamoatchilik fikri orqali neytrallash;

— O'zbekiston Respublikasining insonparvar ichki va tashqi siyosatini yalpi qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish.

Shunday qilib, jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning muayyan holati sifatida keng xalq ommasining alohida shaxslar, guruhlar va real borliq voqea-hodisalarga nisbatan bildiruvchi nuqtai nazaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

25. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: „O'zbekiston“, 2014 yil
26. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risidagi“gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.
27. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust
28. O'zbekiston Respublikasining „Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida“ gi Qonuni 2016 yil 15 sentabr
29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida“ gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
30. Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir". T 2015.
31. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T 2011.
32. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.:«Ma'naviyat», 2008. 176-b.
33. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2017.- 488 b.
34. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2017. - 104 b.
35. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2017. - 56 b.
36. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.
– Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2017. - 48
37. Aliqoriev N.S. va b.Umumiy sotsiologiya. – Toshkent.: 1999.
38. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994
39. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Toshkent.: 2000
40. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Meros, 2002
41. Ubaydullaeva B., O.Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. «Ijtimoiy fikr» Markazi. – Toshkent.: 2001
42. Holbekov A.J., Idivov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lug'at-ma'lumotnoma. –Toshkent.: Ibn-Sino nomidagi nashriyot. 1999
43. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O'quv-uslubiy qo'llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001
44. Aliev B., Rafiqov G'., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O'quv qo'llanma). –Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.
45. Sotsiologiya //O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
46. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) T.1999
47. Umarova R. «Sotsiologiya.» O'quv qo'llanma. - T. TMI, 2010.
48. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O'quv-uslubiy qo'llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001

Internet saytlar:

- 1.<http://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasining hukumat portali
- 2.<http://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
- 3.<http://www.google.uz> Veb-qidiruv sayting uz domeni
- 4.<http://www.ziynet.uz> ta'lim portali

9. Amaliy sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va umumlashtirish

Reja:

1. Sotsiologik tadqiqot dasturi nazariy asoslari
2. Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish usullari
3. Empirik ma'lumotlarni tahlil etish va qayta ishlash usullari
4. Sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Sotsiologik tadqiqot, sotsiologik dastur, anketa, respondent, korrespondent, axborotni kodlash, interv'y, gipoteza, tanlash, monitoring. Sotsiologik tadqiqotlar bo'lajak izlanishlarning ilmiy asoslangan reja va dasturini tayyorlashdan boshlanadi. Dastur hayot haqiqatidan kelib chiqqan va ilmiy-nazariy jihatdan puxta ishlangan bo'lishi lozim. Zero, tadqiqot natijalari qanday bo'lishi ana shu omillarga bevosita bog'liqdir.

Dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini to'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot ob'yekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarni xarakterlab berish, ish farazi (ilmiy taxmin)ni belgilash, usullarini aniqlash, ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish tarzini chizib olish kabi qismlarni o'zida mujassamlashtiradi. SHunday qilib, dastur, asosan ikki katta bo'lim, ya'ni-nazariy metodologik va amaliy-uslubiy bo'limlardan iboratdir.

Nazariy-metadologik bo'lim mavzu tanlash, tadqiqot ob'yektini xarakterlash, maqsad va vazifalar, faraz hamda predmetni aniqlash kabi qismlarni o'z ichiga olsa, **amaliy-uslubiy** bo'lim ma'lumotlarni to'plash usullarini bayon etish, yig'ilgan materiallarni qayta ishlash, tahlil qilish va tavsiyalar tayyorlash singari amaliy faoliyatlarni mujassamlashtiradi.

Dasturni ishlab chiqish jarayonida ikki asosiy talabga rioya qilish muhimdir. Birinchidan, ishlab chiqilgan nazariy umumlashmalardan real tadqiqot jarayonlariga o'ta bilish va ikkinchidan, olingan natijalar, faktlar, yig'ilgan empirik materiallardan nazariy umumlashmalarga, ilmga qayta bilish, ko'nikmalariga ega bo'lish ana shu talablar mazmunidir.

Dastur mazmunida jamiyatda turli ta'sirlar oqibatida yuzaga chiquvchi ijtimoiy muammoli vaziyatlar aniq ifoda etilmog'i lozim. Ilmiy muammoning qo'yilishi muayyan soha amal qilayotgan bilimlar hamda amaliy andozalar doirasidan qoniqmaslik, bu bilimlar chegarasini kengaytirish demakdir. Sotsiologik tadqiqotlar ikki yo'nalishda: ijtimoiy buyurtma va shaxsan sotsiologning tashabbusi asosida amalga oshirilishi mumkin. Ammo sotsiologning shaxsiy tashabbusi ham real hayot muammolari asosiga qurilishi shartdir.

Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy maqsad muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo'nalishlarda bo'lishini ko'rsatuvchi mo'ljal vazifasini o'taydi. Maqsadning amalga oshirilish jarayonida tadqiqotchi uch an'anaviy vazifani bajarishni o'z oldiga qo'yadi. Avvalo mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha tadqiq etish, ikkinchidan, bu ilmiy-amaliy mavzuning boshqa ilm va hayot jabhalari bilan nechog'lik bog'liqligi, ularga ta'siri masalalarini o'rganish va nihoyat, uchinchidan, ijtimoiy ziddiyatli holatlardan chiqishning mantiqli asoslangan yo'llarini belgilab berishdan iboratdir.

Sotsiologik tadqiqotlar ilmiy atamallari va tushunchalari qatorida **ob'yekt va predmet** tushunchalariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Tadqiqotchi ijtimoiy muammo vaziyatini samarali hal etishi uchun ob'yekt va predmetni to'g'ri belgilashi muhim ahamiyatga ega. Ob'yekt odatda mustaqil tushuncha sifatida tadqiqotchi ilmiy-amaliy faoliyatlarining umumiy sarhadlarini ifodalaydi. Predmet esa tadqiqotchi

tomonidan muayyan shaklga solinadi va maxsus tadqiqot ko'lami sifatida o'rganiladi. Ob'yekt predmetdan ma'no doirasi jihatidan ancha keng, predmet ob'yektning hosilasidir. Zero, birgina ob'yekt zamidida bir necha alohida tadqiqot predmetlarini ajratib olib o'rganish mumkin.

Dasturda kompleks sotsiologik tadqiqot natijalarini qo'lga kiritish, o'rganilayotgan ob'yekt va predmet xususiyatlarini aniqlash maqsadlarida sotsiologik tadqiqotlar instrumentariysiga alohida to'xtalib o'tish lozimdir. Sotsiologik tadqiqotlar instrumentariysi deganda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik va texnik usullar yig'indisini e'tiborga olish kerak. Bu yig'indi yoki umumlashma zamidiga dastlab birlamchi ma'lumotlarni to'plash, ya'ni kuzatish usulini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'rsatma va qoidalarni ishlab chiqish, hujjatlarni tahlil etish, so'rov qog'ozlarini tartibga solish, yozma manbalarni qo'lda yoki mashina yordamida sanash, tahlil etish, umumlashtirishga tayyorlash bosqichi hamda tabiiy tadqiqotni amalga oshirish uchun tadqiqot o'tkazishga mutasaddi rahbarlar, ilmiy-texnik xodimlarni muayyan tayyorgarlikdan o'tkazish bosqichlari kiradi. Bu esa o'z navbatida tadqiqot ishini ilmiy asoslagan tartibda haqqoniy va ishonarli o'tkazish imkonini beradi.

Tadqiqot dasturini tuzganda yagona tushunchalar apparatiga bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot bir emas, bir nechta tadqiqotchi tomonidan amalga oshirilishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, bu tushunchalar apparatidagi atamalar hajmi tadqiqotchilar tomonidan bir xil tushunilishi, har xil izohlar berishga urinish hollariga yo'l qo'yilmasligi lozim. Dasturda tushunchalar mohiyati ilmiy asoslangan tarzda ob'yektiv va to'la ochilishi zarur.

Dasturda **konseptual** hamda **operatsional** modellar ham o'zining batafsil ifodasini topgan bo'lishi lozim. Konseptual model' kategoriyasi mantiqiy asosga(mantiqiy tuzilishga ega) qurilgan, tadqiqot maqsadini yuzaga chiqarishga imkon beruvchi nazariyadir. Operatsional qoidalar dastavval mantiqiy protsedura bo'lib, nazariy ma'nolarning empirik jihatdan tushunilishini qayd etadi va ko'rsatib beradi.

Yuqoridagi tushunchalar mazmunining atroflicha ochib berilishi dastur gepotezasini tuzish uchun keng yo'l ochilishiga imkon yaratadi. Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy faraz ijtimoiy ob'yektning tuzilishi haqidagi nazariy asoslangan ilmiy taxmin bo'lib, mazkur ob'yektning tashkil etuvchi turli xil elementlar va aloqalar xarakteri, ularning faoliyat yuritishi va taraqqiyotini o'zida ifodalaydi. Ilmiy faraz o'rganilayotgan ob'yekt xususida dastlabki tahlil o'tkazilgandan keyingina tuzilishi mumkin.

Ilmiy asoslangan faraz quyidagi talablarga javob berishi lozim: avvalo, ilmiy faraz umumiy soni fikrlarning mohiyat tamoyillariga muvofiq bo'lishi shart. Mustaqillik tufayli umuminsoniy manfaatlarning ustunligi xususidagi falsafiy-metodologik fikr-qarashlar qabul qilingandan so'ng ilmiy faraz uchun falsafiy baza doirasi yanada kengaydi. Ikkinchidan, ilmiy faraz isboti allaqachon ma'lum bo'lgan voqea va hodisalarni asoslashga bag'ishlanmagan bo'lishi lozim. Ammo, ilmiy taxmin birmuncha eskirgan, qayta isbotga muhtoj nazariyalarning hayotiyiligini yana boshdan tekshirib ko'rishga bag'ishlanishi mumkin. Bu umumilmiy qarashlarga xilof bo'lib tushmaydi. Uchinchidan, ilmiy-faraz hammaga ma'lum bo'lgan, isboti aniq ayrim faktlar haqiqatiga zid bo'lmasligi kerak. To'rtinchidan, ilmiy farazni sotsiologik tadqiqotlarning butun jarayoni davomida isbotlash imkonini ta'minlangan bo'lishi lozim.

O'rganilayotgan ob'yekt haqidagi bilimlar holati ilmiy izlanishlarning turli yo'llari va rejalarini yuzaga keltiradi. Ulardan izlanish asosidagi, bayon etish yo'lidagi va eksperimental usuldagi rejalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Izlanish asosidagi tadqiqotlar rejalarini o'rganilayotgan muammo haqidagi tasavvur konkretlashmagan hollarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu rejaning asosiy maqsadi ilmiy muammoni aniq nomlash va uning konkret chegaralarini belgilab olishdir. Tadqiqotning muhim bosqichlari sifatida izlanish olib borish uslubini ishlab chiqish, bu uslubni

qo'llash tartibini aniqlab olish, vazifalarning muhimligiga ko'ra ketma-ket bajarila borishini ta'minlash jarayonlarini ko'rsatib o'tish o'rinlidir.

Shunday qilib, izlanishga qaratilgan tadqiqot rejasi uch bosqichdagi tadqiqot turini (hujjatlarni o'rganish, ekspertlar bilan maslahatlashuv, kuzatish o'tkazishni) o'z ichiga oladi. Bu bosqichlarning birinchisida ilmiy muammo xususidagi ma'lum bo'lgan barcha ilmiy, publitsistik va arxiv hujjatlarini chuqur o'rganib chiqish nazarda tutilsa, ikkinchi bosqichda shu soha bo'yicha taniqli olimlar, tajribali kishilardan iborat ekspertlar guruhi fikrini o'rganish e'tibor markazida bo'ladi. So'nggi bosqichda esa tadqiqotchi muayyan ilmlar, tasavvurlarga ega bo'lgan holda ob'yekt xususida kuzatish ishlarini olib borishni ko'zda tutadi. Izlanish rejasi ilmiy muammoni aniq nomlab olish va asoslaydigan gipotezani ilgari surish bilan yakunlanadi.

Sotsiologiya fanida qiyoslash yoki taqqoslash usuli o'ziga xos ikki shaklda amalga oshiriladi. Bulardan biri muvaqqat tadqiqotlar deb atalib, ijtimoiy voqea va holatlarning muayyan vaqt mobaynida o'zgara borish jarayonlarini tadqiq etishga mo'ljallangandir. Muvaqqat tadqiqotlar ham o'z navbatida bir necha ko'rinishlar kasb etib, ulardan biri «panel» tadqiqotlaridir. Panel (inglizchadan-ustama, ro'yxat) izlanishlar muayyan ijtimoiy holat mazmunining ma'lum vaqt oralig'ida nechog'lik o'zgarganligini, ilgari o'tkazilgan tadqiqot dasturi va uslubi bilan bevosita taqqoslash asosida qaytadan tekshirib ko'rishni anglatadi. Panel tadqiqotlar o'tkazishdan asosiy maqsad ma'lum muddat ichida ijtimoiy hodisalar taraqqiyoti, tanazzuli yoki turg'unlik jarayonlarining o'ziga xosliklarini aniqlashdir. Bunda vaqti-vaqti bilan o'tkazilib turadigan aholi soni o'zgarishlarini hisobga olish ishini ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Bunday tadqiqotlarga misol qilib bitiruvchi talabalar o'rtasida egallangan mutaxassislik va uning istiqbollari xususida tadqiqot o'tkazilishi va ana shu sobiq kursdoshlarning 10 yil o'tgandan keyingi uchrashuvda kasbga bo'lgan munosabatini o'rganib chiqish, o'tgan vaqt ichida yuzaga chiqqan ijtimoiy-ruhiy shart-sharoitlar tahlilini olish ham mumkindir. Sotsiolog ana shu qiyosiy tahlil orqali muayyan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qiyosiy tahlilning ikkinchi ko'rinishi, ya'ni trend tadqiqotlar muayyan ijtimoiy hodisa, jarayonlardagi tabiiy o'zgarishlarni o'rganishga bag'ishlanadi. Bunday tadqiqotlarda ayni bir xil guruh vakillari o'rtasida takror tadqiqot o'tkazish shart etib qo'yilmasdan, o'rganilayotgan qiyosiy guruhlar bir xil ijtimoiy sinf yoki qatlam vakillaridan iborat bo'lsa yetarlidir. Masalan, mustaqillikka erishganga qadar bo'lgan davrlarda faoliyat yuritgan bir guruh maorif xodimlari siyosiy qarashlari xususida tadqiqot o'tkazilgan bo'lib, ma'lum vaqt o'tganidan so'ng ana shu soha vakillari ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'rganib, tahlil etsak, ulardagi o'tgan vaqt ta'siridagi mantiqiy-tadrijiy o'zgarishlar ko'rsatkichlari yuzaga chiqadi va ziyolilar dunyoqarashining o'zgarishlari ijtimoiy voqelikka munosabati xususida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati yuzaga keladi.

Muvaqqat tadqiqotlarning uchinchi o'ziga xos ko'rinishi kogorta (lotinchada- ko'plik, bo'linganlik) usuli deb ataladi. Kogorta deb bir yil va oyda tavallud topgan kishilar guruhi ham tushuniladi. Muayyan kogorta guruhiga kiruvchi kishilar ijtimoiy va ruhiy-ma'naviy xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos umumiylikka ega bo'ladilar. Kogorta usuli shaxs hayot tarzida tabiiy xronologik ko'rsatkichlarning ijtimoiy natijalar bilan muttanosibli, shaxsning ijtimoiylashuv tizimi, shaxsning umumiy rivojida ijtimoiy tarixiy jarayon va omillarning ta'siri masalalarini atroflicha qiyosiy o'rganishda juda asqotadi.

Keng ko'lamdagi tadqiqot jarayoniga kirishishdan avval mazkur tadqiqot amaliyoti va usullarini tajribada sinab ko'rishning ahamiyati kattadir. Shu boisdan ham sotsiologiya fanida "pilotaj"(inglizchada tajriba o'tkazish uchun moslama ma'nosini anglatadi) tadqiqot usuli ham alohida o'rin tutadi. Pilotaj tadqiqot usulini qo'llash-orqali bo'lajak yalpi tadqiqotni o'tkazish uchun ko'rilgan tayyorgarlikning

qay ahvolda ekanligi, tarqatiladigan anketa savollari sifati, kuzatish usuli qaydnomalari, hujjatlar to'plash va ularni tahlil etishga oid ko'pgina masalalar amalda sinab ko'riladi. Ayni vaqtda bunday izlanishlar jarayonida bo'lajak sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan vaqt va joy masalalari ham hal qilinadi.

Yalpi so'rov natijalari turli tadqiqot usullari jarayonida to'plangan ma'lumotlarni mushohada etish va qayta ishlash tadqiqot dasturining keyingi muhim bosqichlaridan sanaladi. Ma'lumotlarni atroflicha tahlil etish hozirgi zamonda sotsiologdan chuqur bilim talab etadi. Ular jumlasiga tahlilning matematik usullarini yaxshi o'zlashtirish, dasturlashning zaruriy usullarini bilish, komp'yuterda ishlash qobiliyatlarini kiritish mumkin.

Sotsiologik tadqiqotlarning yakuniy bosqichida hisobot tayyorlanadi. Hisobot ilmiy izlanishlar jarayonida to'plangan empirik ma'lumotlarni o'zida ifodalab, dasturda belgilangan barcha talablarning qay darajada bajarilganligini bayon etadi. Hisobot alohida to'plangan hujjat sifatida baholanishi va matbuotda e'lon qilinishi mumkin.

Sotsiologik tadqiqot usullari ichida hozirgi kunda eng ko'p tarqalgani **so'rov usulidur**. So'rov usulining qulayligi shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo'llashi mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot o'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin. Bu usul qo'llanilganda katta korxona va muassasalar, sohalar, mintaqalar va hatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot o'tkazish mumkin. So'rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatdan ko'zlagan niyatlari o'tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo'ljallangan rejalari to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyg'ulari, kechinmalari, harakat motivlari to'g'risida ma'lumot to'plash kerak bo'lganda bu usul qo'l keladi. Chunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo'lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bo'lmaydi. Lekin, so'rov usuli faqat afzallik va qulayliklardan iborat ekan, deb xulosa chiqarish noto'g'ridir. Bu usulning ham bir qator kamchiliklar bor. Masalan, bu usul yordamida olingan ma'lumotlarning haqiqatga qanchalik mos kelishini sinchiklab tekshirish zarur. Chunki, bu usul qo'llanilganda ma'lumot manbai faqat respondent bo'ladi. Respondentlar esa o'z xarakteri, dunyoqarashi, xulqi, ma'lumoti bo'yicha turli kishilar bo'lib, ular har doim ham haqiqatni gapiravermaydilar. Respondentning javoblariga qay darajada ishonish mumkinligi masalasi juda murakkabdir. Respondent javoblarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tekshirishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ulardan qanchalik ustalik bilan foydalana olishi sotsiologning mahoratini ko'rsatadi. Bu usullar anketa savollarining qay darajada o'ylab va puxta tuzilgani, ularning paydarpayligi, savollarda respondent ruhiyati hisobga olinganligi bilan bog'liqdir.

Oliy o'quv yurtlaridan birida talabalarning bo'sh vaqtini qanday o'tkazishlarini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazilgan. Anketaga quyidagicha nazorat savoli ham kiritilgan. «Siz Alisher Navoiyning «Yusuf va Zulayho» dostonini o'qiganmisiz?» Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning bir qanchasi bu dostonni o'qigan ekan. Holbuki, Alisher Navoiy bunday doston yozmagan. Har qancha yaxshi tuzilgan savolnoma va yaxshi o'tkazilgan interv'yuda ham respondentlarning hammasi bir xil samimiy javob bermaydi. Bu odamlarning xarakteri, dunyoqarashi, xulqi va boshqa jihatlari bilan ham bog'liqdir. Nazorat savollarini kiritishdan maqsad esa ana shunday nosamimiy javoblarning ulushi qancha ekanini aniqlashdir.

Intervyu usuli anketa bilan ko'p umumiyliklarga ega. Anketada savollar yozma tarzda berilsa, interv'yuda og'zaki savollar beriladi. Interv'yu respondent bilan bevosita muloqotni taqozo qiladi. Interv'yuni o'tkazuvchi - interv'yuer shaxsiyati, o'zini tutishi, ovozi, tashqi ko'rinishi va kiyinishi ham so'rov natijalariga ta'sir qilishi mumkin.

Interv'yu o'z mohiyatiga ko'ra tadqiqotchi bilan respondentning suhbatini bo'lib, u muayyan ma'lumot to'plashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, interv'yuning oddiy suhbatdan farqi yana shundaki, suhbatdoshlar bir-birlarini qiziqtirgan masalalar to'g'risida gap yuritib, interv'yu jarayonida faqat bir tomon-tadqiqotchi savol va respondent javob beradi.

Interv'yu bilan oddiy suhbat o'rtasidagi tafovut yana shunda ko'rinadiki, suhbatdoshlar, odatda, tanish odamlar bo'lib bir-birlariga muayyan psixologik munosabatda, aksariyat hollarda ijobiy munosabatda bo'ladilar. Chunki, odamlar o'zlari yoqtirmagan odam bilan suhbatlashishni ham yoqtirmaydilar. Interv'yu esa, deyarli ikki notanish odamning suhbatidir. SHuning uchun, agar tadqiqotchi o'zining muomalasi, kiyinishi, o'zini tutishi bilan respondentda ijobiy, hech bo'lmaganda neytral munosabat uyg'ota olmasa, respondent savollarga javob berishni xohlamasligi, mobodo iltimos qilib turib olinsa, yuzaki va chala javoblar berishi mumkin.

Kuzatish usuli faqat sotsiologiya yoki ijtimoiy fanlardagina emas, balki fanning barcha sohalarida ham keng qo'llaniladi. Kuzatish turli maqsadlarda, turli shaklda, turli qamrovda, turli vositalar yordamida olib boriladi. Barcha odamlar o'z hayotlarida kuzatish usulidan u yoki bu darajada foydalanadilar. Lekin ular foydalanayotgan usul ilmiy kuzatish usuli emas, oddiy kuzatish usulidir. Odamlarning kuzatish usulidan keng foydalanishi ularning bu usulni yaxshi egallaganliklarini anglatmaydi.

Oddiy turmushdagi kuzatish ham aksariyat holda muayyan maqsadga yo'naltirilgan va muayyan darajada tashkil etilgan bo'ladi. Lekin bu kuzatishlar ilmiy maqsadni ko'zlamagani va ilmiy muammoni hal etishga qaratilmagani uchun ilmiy kuzatish bo'la olmaydi. Ilmiy kuzatishlar muayyan nazariya yoki farazni tasdiqlash, to'ldirishni, yoki bo'lmasa rad etishni maqsad qilgan holda olib boriladi.

Sotsiologik kuzatishlarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:

Chetdan kuzatish.

Ichkaridan kuzatish.

Ob'yekt chetdan kuzatilganda undagi jarayonlarning ishtirokchilari o'zlari kuzatish ob'yekti ekanliklaridan mutlaqo bexabar bo'ladilar. Masalan, xaridorlar xulqini o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchi sotish zalida yoki peshtaxta ortida turib xaridorlarni ko'proq qaysi buyum qiziqtirayotgani, ularning belgilangan narxlarga munosabati va boshqalarni kuzatishi mumkin. Bunda xaridorlar o'zlarining kuzatish ob'yekti bo'lganliklarini bilmaydilar. Agar odamlar sotsiologik kuzatish ob'yekti bo'lganliklarini bilib qolsalar, ularning xulqida ma'lum o'zgarishlar yuz berishi, demak, bu xulq tabiiy bo'lmay qolishi mumkin.

Chetdan turib kuzatayotgan tadqiqotchi o'rganilayotgan ob'yektga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi va uni tabiiy holda o'rganadi. Ichkaridan kuzatilganda tadqiqotchi ikki xil usuldan foydalanishi mumkin: 1.Ochiq kuzatish. 2.Yashirin yoki xufya kuzatish. Ochiq kuzatilganda tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan guruh yoki jamoa a'zolariga maqsadni aytadi. Masalan, mehnat jamoasidagi yangi a'zolarining psixologik adaptatsiya jarayonlarini kuzatishda shu usuldan foydalanish mumkin. Lekin bu turdagi kuzatishlarning imkoniyatlari ancha cheklangan. Chunki maxsus kuzatish ob'yekti bo'lganini bilgan kishilar xulqlarini xohlab yoki xohlamay o'zgartiradilar.

Hujjat o'z semantik ma'nosiga ko'ra isbot etish mazmunini ifodalovchi so'zdir. Hujjat-moddiy material manba hisoblanib, voqea va faktlar xususidagi ma'lumotlarni o'zida ifodalaydi. Hujjatda inson yoki jamoa fikri yozma va boshqa belgilarda namoyon etilgan bo'ladi. Hujjat sifatida turli formulalar, chizgilar, grafiklar, ramziy belgilar bo'lishi ham mumkin. Bunday shartli belgilar muayyan ma'lumotga ega kishilar tomonidan o'qiladi. Hujjatlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagi tasnifni havola etish mumkin:

1.Sotsiologik tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega holat, fakt avvalo inson tomonidan (yoki maxsus moslamalar ko'magida) qayd etiladi, so'ngra hujjat shaklida ifodalanadi. Demak, hujjat inson ongida avval paydo bo'lib so'ng og'zaki, yozma manbalarda ifoda etiladi, qayd qilinadi, saqlanadi va tarqatiladi.

2.Har qanday holatlarda ham muayyan fakt va holatlarning muhim jihatlari xususidagi informatsiyaga ega bo'ladi (tekst, ovoz yozish moslamalari, nurli ifodalarda yoki chizma belgilarda aks ettiriladi).

3.Ayrim hujjatlar mazmuni faqat muayyan maxsus bilimlarga ega bo'lgan kishilargagina tushunarli bo'ladi. Masalan, murakkab texnologiya loyihalari, qurilish smetalarini, elektron-hisoblash mashinalari beradigan ma'lumotlarni maxsus bilimlarsiz anglab olish qiyin. Ammo bunday hujjatlar mazmuni maxsus bilimlarga ega bo'lgan har xil kishilar uchun bir xil ma'no berishi kerak.

4. Hujjat, uning saqlanishi va yagona mazmun berishi xususiyatlari tayin bo'lsa, istalgan manbada bayon etilishi va istalgan usulda ifodalanishi mumkin. Tashkilot, muassasa va mansabdor shaxs tomonidan beriladigan hujjatlar umumiy qabul qilingan muayyan guvohlik mazmunini ifodalovchi rasmiy rekvizitlarga ega bo'ladi (muhr, shtamp, blank, imzo).

Sotsiologik tadqiqotda tanlovni shakllantirishning usuliy jihatlari. Ob'yektning tavsifi, gipotezalar, tadqiqot vazifalarini ham o'z ichiga oladi. SHu nuqtai nazardan, tadqiqotning ob'yektni tavsiflash va bevosita tanlov majmuasining shakllanishi bilan tugaydigan bosqichini bir butun usuliy jarayon deb hisoblash mumkin.

Majmuaviy tanlov uchta asosiy bosqichga bo'linadi:

1.Tadqiqot ob'yektini tasniflash;

2.Tasniflashni amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi (matematik, mantiqiy) vositalar tanlovi;

3.Bevosita majmuaviy tanlovni shakllantirish. Oxirgi bosqich birinchi bosqichning ma'nosiga bog'liq bo'lib, yoki birinchi bilan birlashtirilishi yoki mustaqil bo'lib ajralib chiqishi mumkin.

Ko'pincha sotsiologik tadqiqotlar yoppasiga emas, balki ayrim aholi qatlamlari orasida o'tkaziladi. Tanlov usullaridan foydalangan holda o'rganilayotgan aholi guruhi - ob'yektning ma'lum miqdordagi shaxslari tanlab olinadi. Bu jarayon «tanlov» deb ataladi. Uning to'g'ri bajarilishi sotsiologik axborotning ishonchligi va sifatiga bog'liqdir.

Tanlov usullari quyidagi ikkita asosiy savolga javob beradi: bosh majmuada nechta birliklarni o'rganishi zarur va axborotlarning ilmiyligini ta'minlash uchun ularni qanday qilib tanlab olish kerak. Tanlov jarayoni ijtimoiy ob'yektlarning sifat belgilari (jinsi, yoshi, kasbi va h.k.) va tavsiflari orasidagi o'zaro bog'liqlikka asoslanadi.Tanlovning asosiy usullarini o'rganishdan avval unga taalluqli bo'lgan (tadqiqot ob'yekti, tanlov majmuasi, bosh majmua, tanlov birligi, tahlil birligi) asosiy tushunchalar bilan tanishib chiqish zarur.

Sotsiologik tadqiqotda bosh majmua deb hududiy, vaqtli va ishlab chiqarish bilan chegaralangan ob'yektlar to'plamiga aytiladi. Bosh majmua-tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan barcha kuzatuv birliklari majmuasidir. Berilgan bosh majmuadan qandaydir qoida bo'yicha ajratib olingan ma'lum miqdordagi unsurlar to'plamiga tanlov majmuasi deb aytiladi. Tadqiqot o'tkazish paytida tanlov majmuasining tarkibi, o'rganilayotgan bosh majmuaning tasnif sifati va nazorat alomatlari tarkibini kichraytirilgan holda takrorlash zarur. O'rganilayotgan tanlov majmuasining unsurlari (respondentlari) tahlil birliklarini tashkil qiladi. Bunday birliklar namunasi sifatida shaxslar yoki butun oilalarni keltirish mumkin.Tanlovning har bir bosqichida alohida reja bo'yicha tanlab olinadigan unsurlar(qishloqlar, mahallalar, korxonalar, o'quv muassasalari) tanlov birligi deb aytiladi.

Tanlovni asoslash. Bunda tanlov hajmini belgilaydigan tahlil birliklari miqdorini aniqlab olish kerak. Bularning barchasini hal etishda bosh majmua va tanlov majmuasi asos qilib olinadi.Tanlov

majmuasi bosh majmua kuzatuv birliklaridan tarkib topgan. Kuzatuv birliklari sifatida ayrim shaxslar, oilalar, guruhlar, mintaqalar, saylov okruglari bo'lishi mumkin (Masalan, talaba yoshlar muammolarini o'rganishda kuzatuv birliklari sifatida talabalar va professor-o'qituvchilarni olish mumkin).

Sotsiologlar doimiy duch keladigan muammo-tadqiqot uchun qancha kuzatuv birliklarini olishdir. Agar bosh majmua butunlay o'rganilsa eng ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Lekin bu yo'lni amalga oshirishda juda ko'p muammolar tug'iladi. Eng zarur va muhim tomonni aniqlash uchun ushbu majmuaning barcha tahlil birliklarini olish shart emas, uning bir qismini olsa ham bo'ladi. Biroq qaysi birini olish kerak? Qachonki, tanlagan qismning xulosalarini barcha qilingan ishlarga, barcha tanlov majmualariga tadbiq etish mumkin bo'lsa, ya'ni bu xulosalar bosh majmuani aniq aks ettirgan, u hakda to'g'ri tasavvur hosil qildiradigan bo'lsagina javob to'g'ri bo'ladi. Bunda tanlov va bosh majmualarning asosiy xususiyatlari muttanosib bo'lishi talab qilinadi. Agarda bunday muttanosiblik bo'lmasa, katta farqlar bor bo'lsa, tanlov majmuasi natijalarini barcha majmualarga o'tkazib bo'lmaydi. Agar tanlov majmuasining ko'rsatkichlari bilan bosh majmuaning ko'rsatkichlari o'rtasida farq besh foizdan ko'p bo'lsa, tadqiqot o'tkazish mumkin emas. Har xillik qancha ko'p bo'lsa, kuzatuv birliklarini shuncha ko'p olish kerak. Agar biz ishchilar sinfini umuman o'rganayotgan bo'lsak, uning har bir ijtimoiy va professional guruhlar vakillarini tanlov majmuasida ko'proq jalb etishimiz lozim. Ishchilar sinfini, masalan, stanoksozlik sanoati ishchilarini o'rganish kerak bo'lsa, tanlov sig'imini ozroq olsa ham bo'ladi. Agarda ushbu stanoksozlik sanoatining yuqori malakali ishchilarining o'zigina tanlanadigan bo'lsa, tanlov sig'imi yanada oz bo'lishi mumkin. Demak, ijtimoiy hodisalarni o'rganishda uning bir xilligi yoxud turli xilligi omili muhim rol o'ynaydi. Jumladan, O'zbekiston aholisi orasida so'rov o'tkazilayotganda so'raladigan guruh statistik to'g'ri, kichraytirilgan ifodada iborat bo'lishi kerak. Bu miqdor mamlakat aholisi umumiy miqdorining 1% gacha bo'lishi kerak.

Sotsiologik tadqiqot o'tkazilayotganda asosan tanlovning ikki usuli qo'llaniladi: ehtimoliy (tasodifiy) tanlov va kvotali tanlov.

Ehtimoliy (tasodifiy) tanlov usuli-bu matematik tanlov bo'lib, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarning kutilayotgan hodisalar soniga nisbati deb qaraladi. Bunda hodisalarning umumiy soni yetarlicha katta bo'lishi kerak.

Ehtimoliy-tasodifiy tanlov-amaldagi sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish tajribasida tanlovning, ya'ni ma'lumotlar haqqoniyligini ta'minlashning eng yaxshi modeli hisoblanadi. Ehtimoliy tanlovning bir necha turi mavjud bo'lib, ular qatoriga oddiy-tasodifiy, tizimli, stratifikatsiyalangan, klasterli, ko'p pog'onali tanlov xillari kiradi.

Oddiy-tasodifiy tanlov quyidagi bosqichlardan iborat:

Birinchidan, bosh majmua a'zolarining ro'yxatini olib, ularni raqamlab chiqish kerak. Bu ro'yxat tanlovning asosi deyiladi. Ikkinchidan, tanlovda chamalangan tanlov hajmini, ya'ni so'rovdan o'tadigan odamlar sonini aniqlash kerak. Uchinchidan, tasodifiy sonlar jadvalidan tanlov birliklari tadqiqot uchun qancha kerak bo'lsa, shuncha sonlarni tanlab olish kerak. Agar tanlovda 100 kishi bo'lishi kerak bo'lsa, jadvaldan 100 ta tasodifiy son olinadi. To'rtinchidan, asosiy ro'yxatdan tasodifiy olingan sonlarga mos keladigan respondentlarni tanlab olish kerak.

Bosh majmuaning hajmi katta bo'lganida oddiy tanlov usuli bilan ishlashdagi cheklanishlar ko'zga yaqqol tashlanadi. Keng ko'lamda o'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlarda: saylovchilar ro'yxatlari, uy-xo'jalik kitoblari, tuman elektr boshqarmalarining ro'yxatlari, qishloq kengashlarining uy xo'jaliklarini ro'yxatga oluvchi kitoblari ishlatiladi.

Tizimli tanlov sifati bo'yicha oddiy-tasodifiy tanlovga yaqindir. Tizimli tanlov oddiy tanlov kabi, butun ro'yxatning yoki majmuaning berilgan tartibga keltirilishini talab qiladi. Tizimli tanlovni amalga oshirish yo'li quyidagicha: dastlab tasodifiy yo'l bilan birinchi birlik tanlab olinadi, so'ng har bir K elementi tanlab olinadi. K soni bu holda tanlovning qadami deb aytiladi. Tanlov qadami (k) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K = N/h,$$

bu yerda: N-bosh majmuaning kattaligi; h-tanlov majmuaning kattaligi. Masalan, $K = 2000/200 = 10$.

Bu narsa ro'yxatdan har bir o'ninchi birlik tanlab olinishini bildiradi. Tanlov hisobi ro'yxat boshidan yoki oxiridan boshlanishi mumkin.

O'zbekistondagi qishloq hududlarida yashaydigan aholi uchun, ehtimoliy tasodifiy tanlovlar uy xo'jaliklarini hisobga olish kitoblari bo'yicha, shaharlarda esa elektr tarmoqdan foydalanuvchilar (abonentlar) ro'yxati asosida bajariladi. So'rov o'tkazilishi kerak bo'lgan uy xo'jaligining tanlovini tasodifiy tanlov yo'li bilan yoki tanlov qadami orqali aniqlash mumkin. Bunda uy xo'jaliklarining umumiy ro'yxatidan bir xil oraliqlarni o'tkazib, so'rovga mos uy xo'jaliklari tanlab olinadi. Uy xo'jaligi tanlangandan so'ng kvota kartasi orqali oiladan savollarga javob beruvchi shaxs ajratib olinadi.

Tumanlar, qishloq kengashlari va mahallalar tanlovi - O'zbekiston bo'yicha statistik ma'lumotlarning umumiy to'plamidan, matematik usullarni qo'llagan holda, tasodifiy sonlar jadvali asosida bajariladi.

Bosh majmuaning ro'yxatiga nisbatan, ob'yektlar ro'yxatini qisman olish yengilroq bo'lsa statifikatsiyalangan tanlovdan foydalanish afzalroqdir. Bu holda tanlov hajmi stratalar soniga nisbatan proporsional bo'linadi, undan so'ng har bir strata dan oddiy tasodifiy tanlov ajratib olinadi.

Klasterli (uyali, inli) tanlov. Bu usulda dastlab klasterlar (guruhlar) tanlab olinadi, so'ng shu klasterlar ichida barcha birliklar o'rganiladi. "Klasterlar" (ingliz tilida-uya, in)-bu kuzatuv ostidagi birliklarning tabiiy guruhlanishidir. Masalan, harbiy xizmatchilar bosh majmuasi harbiy qism-bo'linmalarga bo'linishi mumkin, talabalar majmuasi-universitetlar, institutlar va kollejlarda bo'yicha bo'linishi mumkin va h.k.

Bosh majmuani lokal guruhlariga ajratib olish mumkinligi bir qator shartlarga rioya qilgan holda axborot birligiga ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga imkoniyat beradi.

Umummilliy so'rovlar o'tkazilayotganda klaster usulini qo'llash namunasi sifatida qishloq tumanlari, mahallalar, shahar tumanlari, saylov uchastkalariga bo'linishini misol sifatida keltirish mumkin.

Klaster jarayonlari to'g'ri qo'llanishi uchun to'rtta zaruriy shartga amal qilish kerak:

1. Klasterlar aniq belgilanishi lozim. Bosh majmuaning har bir a'zosi bitta klasterga tegishli bo'lishi mumkin.

2. Har bir klasterga kiradigan bosh majmua a'zolarining soni aniq bo'lishi lozim.

3. Klasterlar juda ham katta bo'lmasligi va geografik jipslangan bo'lishi lozim.

4. Klasterli tanlovni shunday bajarish lozimki, u tanlov xatosining o'sishini kamaytirishi kerak.

Ko'p pog'onali tanlov tasodifiy tanlovning bir necha bo'limidan iborat bo'lib, murakkab statistik masala ko'rinishida bo'ladi. Umummilliy tadqiqotlarda tanlov 4 yoki 5 "zinadan"- viloyatdan boshlab toki mahallagacha tushib boradi. Birinchi qismlarida, xuddi klaster tanlovidek "tanlovning dastlabki birliklari", masalan, viloyat, tuman, mahallalar tanlab olinadi. Oxirgi bo'limlarida bosh majmua birlik a'zolarining, respondentlarning, oilalarning tasodifiy tanlovi bajariladi. Shuni aytib

o'tish kerakki, qismlar ko'payishi olingan baholar aniqligining kamayishiga olib keladi. Tanlov tasnifini yaxshilash uchun anketa o'tkazish uchun belgilangan aholi vakillari bilan maxsus ishlash, savollar mohiyatini ochib berishi zarur.

Sotsiologik tadqiqotlarda ehtimoliy tanlov bilan bir qatorda biror maqsadga yo'naltirilgan kvotali tanlov ishlatiladi. Jamoatchilik fikrini o'rganishda keng qo'llaniladigan va eng aniq bo'lgan bu tanlov-kvotali tanlov usuli deb ataladi. Bu usul tadqiqotning maqsadi aniq bo'lganda ishlatiladi. Tanlovning kvota usuli bosh majmuaning qandaydir bir qismini (foiz nisbatida) boshqa to'liq ko'rsatkichlar bilan muvofiqlashtirish mumkinligini e'tiborda tutgan holda olishni mo'ljallaydi. Ko'pincha bunday ko'rsatkichlar sifatida respondent ma'lumoti, yoshi, professional tayyorgarligi va h.k. bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha bosh majmua haqidagi ma'lumotlar, odatda, rasmiy statistikadan olinadi. Bosh majmua haqida qator ma'lumotlarning borligi kvotali tanlov usulini ma'lum idoralar, muassasalar, korxonalarda qo'llash imkonini beradi. Korxonalarda o'tkaziladigan tadqiqotlar uchun kvotali tanlov usulining muhimligi yana shundaki, bu yerda ijtimoiy tajribalar o'tkazilishi mumkin. AQSH va Pol'sha sotsiologlari tajribasining ko'rsatishicha, bosh majmuadagi kuzatuv birligining atigi 10 foizini olish bilan ishonchli kvotali tanlov majmuasini hosil qilish mumkin ekan.

Tadqiqotning reprezentativlik darajasi tanlov usulini qo'llashga bevosita bog'liqdir. Xulosalarning ishonchliligi esa, o'z navbatida reprezentativlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Demak, tanlov sotsiologik tadqiqotda hal qiluvchi rol' o'ynaydi. Tanlov o'tkazilayotgan paytda tanlov hajmini aniqlashga katta ahamiyat berilishi kerak.

Sotsiologik tadqiqot markazlarida aholi o'rtasida ishlashni boshlashdan avval dastlabki (pilotaj) axborotni to'plash bo'yicha tanlangan usul, ya'ni so'rov usuli sinovdan o'gkaziladi. Sinov respondentlarning soni katta bo'lmagan 25-30 kishidan iborat guruhida o'tkaziladi. Buning uchun butunlay qarama-qarshi toifalarga mansub (ma'lumoti, yoshi, jinsi, hayotiy tajribalari) bo'lgan vakillar tanlab olinadi.

Sinovda, tadqiqot mualliflaridan tashqari, bo'lajak interv'yuerlar, matnlarni kodlashtiruvchilar, dasturchilar qatnashishlari zarur. Agar sinovda bir nechta odam qatnashsa, ma'lumotlar yig'ish instrumentariyasining sifatini baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Sinovdan asosiy maqsad rejalangan savollar qanchalik to'g'ri tuzilgan? Respondentlarga ular tushunarlimi? Ko'zlagan axborotni olish mumkinmi?-kabi savollarga javob berishdir. "Pilotaj" tadqiqot bosqichma-bosqich bajariladi. Bir guruh ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng axborot tahlili o'tkazilib, fikr almashinadi va shu jarayon pilotaj tugagunicha takrorlanaveradi. Interv'yuer tadqiqotchi ko'zda tutgan savollarni berib, alohida olingan har bir odam bilan suhbat tashkil etadi, boshqaradi va ko'rsatmaga (instruksiya) muvofiq olingan javoblarni qayd qiladi. Har bir so'rovnoma uchun interv'yuerga mo'ljallangan o'ziga xos ko'rsatma ishlab chiqiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda o'rganilayotgan ob'yekt to'g'risida dastlabki empirik ma'lumotlarni to'plashda tajriba o'tkazish alohida o'rin tutadi. Sotsial eksperiment usulining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: ob'yektiv reallik tizimiga ta'sir ko'rsatish; nisbatan ajratib olingan eksperimental omilni tadqiq qilnayotgan ob'yektga nisbatan rejali asosda qo'llash; uning oqibatlarini rejali nazorat qilib borish; o'zgarish samaradorligini, ijobiy va salbiy jihatlarni o'lchash.

Sotsiologik va sotsial-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eksperiment usulidan foydalanish ikki asosiy omilga: tadqiqot ob'yektining o'ziga xosligiga va tadqiqot qilnayotgan ijtimoiy guruh javob reaksiyasining xarakteriga bog'liqdir. Bu usuldan foydalanishda eng avvalo, tadqiq etilayotgan ob'yektning eksperiment o'tkazish mumkin deb topilsa, uni o'tkazish chegarasi aniq belgilanmog'i lozim. Eksperiment sotsial ob'yekt tizim funksional

munosabatlarini buzmasligi, izdan chiqarmasligi kerak. Sotsial eksperimentlar o'z vazifasi mazmuni, yakuniy natijasi bilan o'zaro farq qilsa-da, barchasiga xos ichki tuzilishga ega. Uning ichki unsurlariga eksperiment o'tkazuvchitadqiqotchi, olimlar guruhi, ilmiy laboratoriya/, yaratiladigan shart-sharoit tizimi- eksperimental omil, eksperimental holat va eksperiment natijalari kiradi. Sotsiologiyada eksperiment asosan 3 turda olib boriladi:

1. Ekspost-fakto eksperiment. Bunda eksperiment o'tmishdan hozirgacha bo'lgan ijtimoiy tadqiqot ob'yekti qilib olinganda o'tkaziladi.

2. Taqqoslash tamoyiliga asoslangan eksperiment. Bu turda hozirgi davr ijtimoiy jarayonlari tadqiqot ob'yekti qilib olingan bo'ladi.

3. Proyektli eksperiment. U hozirdan kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi. Bulardan tashqari, sotsial eksperimentlar: tadqiqot xususiyatiga qarab /fan sohasidagi, ijtimoiy jarayonlarini boshqarishdagi eksperimentlar/; sotsial eksperimentning tarkibining xarakteriga ko'ra; dala va laboratoriya sharoitidagi; mantiqiy tarkibiga ko'ra /parallel va davomiy tarzda/ turlarga bo'linadi.

Sotsial eksperiment o'tkazish muayyan bosqichlardan iboratdir: birinchi bosqich-nazariy bosqich bo'lib, unda o'tkaziladigan eksperiment turi belgilanadi va nazariy jihatdan asoslanadi. Mavjud imkoniyatlar eksperiment omillar va tadqiqot ob'yektining o'ziga xos jihatlari hisobga olinadi; ikkinchi bosqich-eksperiment dasturida ko'rsatilgan asosiy vazifalar va metodikasi ishlab chiqiladi; uchinchi bosqich-eksperiment dasturida ko'rsatilgan asosiy vazifalar aniq vositalar orqali ob'yektga tadbiiq qilinadi; to'rtinchi bosqich-so'nggi bosqich bo'lib, unda eksperimentdan olingan natijalar ilmiy tahlil qilinadi va baholanadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat hayotining umumsotsiologik muammolari ustida olib boriladigan sotsial eksperimentlar kutilgan natijalarni bermaydi. Bunda faqat ijtimoiy munosabatlarning funksional va rivojlanish qonuniyatlariga putur yetkaziladi, xolos.

Jamiyat hayotining maxsus sohalar doirasida, mirkosotsiologik ob'yektlar ustida sotsial eksperimentlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, nisbatan kichik doirada, sotsial ob'yektda o'tkazilgan eksperiment natijalari aniq muddat ichida o'z natijalarini ko'rsatishi mumkin va uning oqibatlarlari /agar salbiy jihatlarga ega bo'lsa/ ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga yoyilib ketmaydi. Bu natijalar eksperiment o'tkazilgan tadqiqot ob'yektigagina tegishli bo'ladi. O'tkazilgan eksperimentning ijobiy natijalarini esa hayotning boshqa sohalariga yoyish, tadbiiq qilish mumkin bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqot natijalarini ilmiy va yuksak saviyada tahlil qilish, ulardan ijtimoiy boshqaruv amaliyotida unumli foydalanish imkonini beradi. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidayoq o'rganilayotgan ob'yektning muhim jihatlari ko'rına boshlaydi. Bu jihatlarni nazarda tutgan holda ilmiy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish, sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish bosqichi-ikki yoqlama jarayon bo'lib, unda olimlar, ilmiy xodimlar ham amaliyotchilar faol ishtirok etadi.

Interv'yuerlarni o'qitish jarayoni interv'yu o'tkazish texnikasini va so'rovnoma tuzish qoidalarini o'rganishdan tashqari, tadqiqot mavzusi va respondentlar muhiti bilan tanishishni ham o'z ichiga oladi. O'qitishning quyidagi tomonlari mavjud: 1). Interv'yu mavzuini o'zlashtirish; 2). Respondentlar yashayotgan muhitning xususiyatlarini bilish. 3). Interv'yu olish texnikasini bilish; 4). Aholi o'rtasida bevosita tadqiqotlarni o'tkazish.

Interv'yuer ko'rsatmada keltirilgan talablardan chetga chiqmasligi lozim. Agarda u o'zboshimchalik qilib o'zicha ko'rsatmada ko'rsatilmagan tartibda so'rovni olib borsa, bunday so'rovnoma "yaroqsiz" deb hisoblanadi va inobatga olinmaydi, bu hol tadqiqotning tozaligiga putur yetkazadi. Agarda so'rovnomaning to'ldirish jarayonida ayrim savollardan boshqa savolga sababsiz sakrab o'tilsa va shu tufayli ayrim savollarga javob berilmasa, bu ham so'rov olib boruvchining qo'pol xatosi deb hisoblanadi.

Sotsiolog uchun asosiy qiyinchiliklar hisob-kitoblarning natijalari olingandan so'ng boshlanadi, ayrim natijalarda ko'rsatkichlar o'zaro mos kelmay qoladi. Bunday xatolarga yo'l qo'yilishining asosiy sabablaridan biri, matematiklar bilan yetarli darajada hamkorlik qilinmaganlikdir. Sotsiolog bilan matematikning hamkorligi dala ishlaridan keyin emas, balki dastlabki pog'onada-gipotezani shakllantirishda, reja va dastur tuzishda, so'rovnomaning savollarni joylashtirish vaqtida birlamchi va ikkilamchi axborotlar ustida hisob-kitob ishlari bajarilishidan oldin o'rnatilishi lozim. Birinchi bosqichda so'rovnomalarning to'ldirilishini tekshirish, ishlovga yaroqsiz so'rovnomalarni hisobdan chiqarish ishlari bajariladi. Ishlov berishga yaroqsiz so'rovnomalar hisobdan chiqarilgach, ikkinchi bosqich-so'rovnomalarni guruhlash va raqamlash ishlari olib boriladi. So'rovnomalarni guruhlash deganda, tadqiqot o'tkazilgan hududlar-viloyatlar, tumanlar bo'yicha so'rovnomalarni tartibga solish, viloyat, tuman va shaharlar kodlarini belgilash tushuniladi. Keyin esa har bir guruh so'rovnomalarining tartib raqamlari belgilanadi. Uchinchi bosqich so'rovnomadagi ochiq savollar javoblarini kodlashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon ancha murakkab va mashaqqatli ishdur.

So'rovnomalar to'g'ri to'ldirilganligiga ishonch hosil bo'lgandan so'ng javoblarni kodlashtirishga o'tiladi. Odatda, so'rovnomada har bir savolga tartib bilan son qo'yilgan javoblar keltirilgan bo'ladi. Ana shu son javobning "kod" vazifasini bajaradi. EHMga javoblar matni emas, balki ularga mos bo'lgan sonlar kiritiladi va ular ustida arifmetik amallar bajariladi, chunki EHM faqat sonlar bilan ishlaydi.

Kodirovka qilish jarayonida ochiq savollarni kodlashtirish ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi. Bunday savollarni kodlashtirish uchun yordamchi to'plam ajratib olinadi. Bu ishlar quyidagicha bajariladi. Avvalambor, ochiq savollar berilgan hamma javoblari maxsus daftarga ko'chiriladi. Ushbu javoblar ma'nosi bo'yicha yaqinlari saralanadi. Ular asosida klassifikator tuzilib hamma javoblarga mos kodlar beriladi.

Yuqorida bajarilgan ishlardan so'ng ma'lumotlarni komp'yuterga kiritish ishlari amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

52. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2014 yil.
53. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.
54. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust
55. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi Qonuni 2016 yil 15 sentabr.
56. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
57. Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir". T 2015.
58. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T 2011.
59. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.:«Ma'naviyat», 2008. 176-b.
60. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

61. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.
62. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
63. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.
– Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 48
64. Aliqoriev N.S. va b. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent.: 1999.
65. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994
66. Sotsiologiya. Ma’ruzalar matni. – Toshkent.: 2000
67. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Meros, 2002
68. Ubaydullaeva B., O.Otamirzaev va boshqalar. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. «Ijtimoiy fikr» Markazi. – Toshkent.: 2001
69. Holbekov A.J., Ildirov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lug‘at-ma’lumotnoma. –Toshkent.: Ibn-Sino nomidagi nashriyot. 1999
70. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001
71. Aliev B., Rafiqov G‘., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.
72. Sotsiologiya //O‘quv qo‘llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B.,
73. Ota-Mirzaev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
74. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) T.1999
75. Umarova R. «Sotsiologiya.» O‘quv qo‘llanma. - T. TMI, 2010.
76. Abdullaev Yu. Jahon oliy maktabi: siyosiy tahlil. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001. – 12 b.
77. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001

Internet saytlar:

1. <http://www.gov.uz> O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali
2. <http://www.lex.uz> O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://www.google.uz> Veb-qidiruv saytining uz domeni
4. <http://www.ziyonet.uz> ta’lim portali

